

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH  
INSTITUTI

*T.Ergashev*

# BOZOR IQTISODIYOTI

*Kasb-hunar kollejlari uchun darslik  
sifatida tavsiya etilgan*

To'ldirilgan 2-nashri

Akademik S. S. G'ulomov tahriri ostida

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT—2005

*Taqrizchilar:* **R.X. Shodiyev** — iqtisod fanlari doktori, professor,  
**M.L. Tursunxo‘jayev** — iqtisod fanlari doktori, professor,  
**I. Sobirov** — iqtisod fanlari nomzodi,  
**S. X. Fayzullayev** — texnika fanlari nomzodi,  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, „Axborotlar tizimi va texnologiyalari“ kafedrasi dotsenti.

*Maxsus muharrir:* **A. N. Samadov** — iqtisod fanlari nomzodi,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining „Marketing“ kafedrasi dotsenti.

Darslikda bozor iqtisodiyotining tizim sifatidagi mohiyati, asosiy tushunchalar, tamoyillar va O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xosliklari, shuningdek, tadbirdorlik va biznes, marketing, menejment, moliya va pul-kredit tizimi, ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlari, uni rivojlantirish omillari kabi mavzular yoritilgan. Unda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonun-qoidalari, xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar keng o‘rin olgan.

Darslik kasb-hunar kollejlarining talabalariga, biznes mакtablarining tinglovchilariga, litsey va gimnaziyalarning o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Undan olyi o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichidagi talabalar, shuningdek, o‘zining iqtisodiy bilimlarini kengaytirishga qiziqqan rahbarlar mutaxassislar va tadbirdorlar ham foydalanishlari mumkin.

Darslikning IV, V, VI, VII va XI boblari iqtisod fanlari nomzodi, dotsent R.Ismatov bilan hamkorlikda yozilgan.

FK **0601010000 – 12** Qat’iy buyurt. — 2005  
353 (04) — 2002

ISBN 5 — 645 — 04308 — 1

© „O‘qituvchi“, 2002  
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2005

## SO‘ZBOSHI

Iqtisodiyot ilmi hamma zamonalarda ham insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu ilm jamiyat hayotining barcha jabhalariga oid muammolarni hal etish kaliti hisoblanadi. U jamiyat a’zolarida iqtisodiy tafakkurni shakllantiradi, iqtisodiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni o’rgatadi, ularda ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirishga ko’maklashadi.

O’tgan asrning oxirgi 10-yilida dunyo siyosiy xaritasida sodir bo’lgan tub o’zgarishlar, xususan, O’zbekistonning o’z mustaqilligiga erishib, bozor iqtisodiyoti tizimiga o’tishi natijasida xalqimizning iqtisodiy bilimlarga bo’lgan qiziqishi keskin darajada ortib ketdi. Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov O’zbekistonning kelajagi buyuk davlat ekanini har taraflama va ilmiy asoslab berdi. Shu bilan birgalikda buyuk kelajakni yaqinlashtirish, avvalambor, iqtisodiyotga, uning o’sish sur’atlariga bog’liq ekanı Yurtboshimizning ko’pdan ko’p chiqishlarida va asarlarida o’z ifodasini topdi.

Shu munosabat bilan jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlarga iqtisodiy ta’lim berish, xususan, bozor iqtisodiyoti asoslarini o’rgatish o’ta dolzarb vazifaga aylandi. Bozor, pul, moliya, kredit, daromad, foya, marketing, menejment kabi iqtisodiy tushunchalar kishi ongiga yoshligidan qanchalik singib borsa, uning iqtisodiy tafakkuri shuncha erta shakllanadi. Shuning uchun iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish umumiy o’rtalim maktablaridan boshlanib, o’rtal maxsus va kasbhunar ta’limi muassasalari (litsey va kollejlar)da, shuningdek, oliy o’quv yurtlarida yuqoriqoq darajada davom ettirilishi kerak. Mana shunday uzlusiz iqtisodiy ta’lim yoshlarimizga davlatning tashqi va ichki siyosatini, mamlakatda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlarni va iqtisodiy taraqqiyotning jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarini xolisona baholash uchun zarur bo’lgan bilimlarni beradi. Qolaversa, ularni jamiyatning iqtisodiy faol va tashabbuskor a’zolariga aylantiradi.

Yoshlar zimmasida iqtisodiy bilimlarni o’rganish, ularni kundalik hayotga tatbiq etish vazifasi yotar ekan, bu vazifani hal etish ko’p jihatdan ularning kerakli o’quv adabiyotlari bilan ta’minlanganiga bog’liqligi o’z-o’zidan ayon.

Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo’lsak, respublikada taniqli iqtisodchi olim-pedagog, professor Toshturg’un Ergashevning ..**Bozor iqtisodiyoti**“ darsligi o’rtal maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun tayyorlangan bo’lib, undan oliy o’quv yurtlari talabalari va

keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin. Darslikda bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, uning nazariyasi va amaliyoti, mazkur tizimni hayotga tatbiq etishda O'zbekistondagi o'ziga xosliklar, yangi sharoitda tadbirkorlik, marketing, menejment asoslari, bozor munosabatlari mexanizmi, iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli kabi muhim masalalar talabalar uchun tushunarli tilda bayon etilgan.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov ma'naviy jihatdan mukammal insonni tarbiyalash, milliy uyg'ɔnish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanini asoslab bergen. Bu vazifaning qo'yilishidan ko'zlangan pirovard maqsad o'zining mustaqil iqtisodiy tafakkuriga va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan insonlarni tarbiyalashdir.

Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda shiddat bilan kechayotgan globallashuv (dunyoviylashuv) jarayonlari, tabiiyki, O'zbekistonni ham o'z domiga tortmoqda. Binobarin, bu jarayonlardan hech kim chetda qolib ketmaydi. Ayniqsa, bugungi yoshlar.

Umid qilamizki, bugun Siz qo'lingizga olgan kitobda keltirilgan bilim va ma'lumotlar Sizni teran iqtisodiy tafakkurga ega bo'lgan, jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalar va muammolarni hal etishda, respublika iqtisodiyotining globallashuv jarayonlarida faol qatnasha oluvchi inson sifatida shakllanishingiz uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston fanlar akademiyasining  
akademigi **S. S. G'ULOMOV**

## MUQADDIMA

Insoniyat tarixining asosida, uning intilishlari va kurashlari zamirida odamlarni harakatga keltiruvchi bir narsa bo'rgi, uni biz ehtiyojlar deb ataymiz. Ana shu ehtiyojlar ayrim shaxslarni ham, butun oilalar-u xonadonlarni, korxonalar-u firmalarni va hatto, mamlakatlar hukumatlarini ham harakatga keltiradi. Tabiatan turli-tuman bo'lgan mazkur ehtiyojlarni qondirish uchun bo'lgan xatti-harakatlar va kurashlar muayyan xo'jalik faoliyati tusini oladi.

Insoniyat ehtiyojlar, bir tomonidan, turli-tuman (moddiy va ma'naviy) bo'lsa, ikkinchi tomonidan, doimo o'sib boradi. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi va muhim tomoni shundaki, ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari hamma vaqt ham cheklangan bo'ladi. Demak, insoniyat cheklangan imkoniyatlar doirasida o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirish muammosiga doim duch keladi. Ana shu muammo iqtisodiyot ilmining obyektini tashkil etadi.

Muammoning qay darajada hal qilinishi ko'p jihatdan mazkur mamlakatdagi iqtisodiy tizim va munosabatlarga bog'liq. Chunki har qanday jamiyatda odamlarning xo'jalik faoliyati muayyan iqtisodiy tizim sharoitida kechadi. Insoniyat o'z taraqqiyotida bir necha iqtisodiy tizimlarni kashf etgan.

Aziz o'quvchi, sizning qo'lingizdagи darslik „Bozor iqtisodiyoti“ deb ataluvchi tizimga bag'ishlanadi.

Siz kelajakda fizik yoki matematik, agronom yoki rassom bo'lishlikka jazm qildingiz, deylik. U holda sizda „*Menga iqtisodiyot ilmini, umuman, bozor iqtisodiyotini o'r ganish nima uchun kerak?*“ degan savol tug'ilishi mumkin. Shuning uchun bu ilmni o'r ganish zarurligini tasdiqlovchi bir necha sabablarni aytib o'tamiz.

*Birinchidan*, iqtisodiyot sohasidagi bilimlar sizga erkin, demokratik jamiyatda kamol topayotgan shaxs sifatida zarur. Kelajagi buyuk davlat quruvchisi, avvalambor, keng va erkin fikrlovchi, har tomonlama o'qimishli, savodli va bilimdon shaxs bo'lishi kerak. Hozirgi kunda Yurtboshimiz I. A. Karimov tomonidan barkamol avlodni yetishtirish va tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan ekan, barkamollikning birinchi va eng muhim belgilari yuqorida aytib o'tilgan xislatlardir.

*Ikkinchidan*, har bir inson o'z hayoti davomida iste'molchi vazifasini o'taydi. U turli-tuman moddiy va ma'naviy ne'matlarni iste'mol qiladi, ya'ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, kitoblar sotib oladi,

turar joy ehtiyojlarini qondiradi, turli tomoshagohlarga boradi, sayohatga chiqadi va hokazo.

Iste'molchi sifatida bu ehtiyojlarni to'laroq qondirishga qaratilgan intilishlar, albatta, imkoniyatlar cheklangan sharoitda sodir bo'ladi. Bunday sharoitda, birinchi navbatda, nima ni sotib olish kerag-u, nimani keyingi navbatda xarid qilish maqsadga muvofiq yoki vaqtincha bo'sh shaxsiy jamg'armani bank depozitiga qo'ygan ma'qulmi yoki aksiya sotib olganmi — bu ishlarni oqilona hal qilish uchun har bir kishi iqtisodiy jihatdan savodxon bo'lishi kerak.

*Uchinchidan*, har bir inson o'z mamlakatining fuqarosi sifatida maydonga chiqadi. Faol fuqaro hech qachon o'z yurtida, mintaqaga yoki mamlakatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatdan chetda tura olmaydi va unga befarq qaray olmaydi. Prezident va parlament saylovlari dagi nomzodlarning iqtisodiy dasturlari va bu saylovlardan kampaniyasi uchun sarflanayotgan sarf-xarajatlarni mushohada qilish va tegishli xulosalar chiqarish uchun ham iqtisodiy bilimlar zarur.

*To'rtinchidan*, har qanday mamlakatning fuqarosi ayni vaqtida, soliq to'lovchi hamdir. Demak, u vaqt-vaqt bilan soliq idoralari va inspektorlari bilan yuzma-yuz bo'lib turadi. Orada paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ixtiqlaflarni madaniy tarzda bartaraf etish uchun esa iqtisodiy bilimlar zarur.

Va nihoyat, *beshinchidan*, siz kelajakda fizikmi yoki agronom bo'lmanq, baribir, taqdir taqozosi bilan biron bir korxona yoki tashkilotga rahbar bo'lish ehtimolingiz yo'q emas. Hech qachon, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy bilimlarsiz samarali rahbarlikni amalga oshirish mumkin emas.

Qolaversa, yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, bozor munosabatlari amal qiluvchi sharoitda inson turli iqtisodiy xavf-xatardan, masalan, pul qadrsizlanishining kuchayib ketishi, aksiyalari sotib olingen korxona (firma)ning bankrotga uchrab qolishi va hokazolardan kafolatlangan emas. Iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan kishi bunday xavf-xatarlardan kamroq ziyon ko'radi, desak xato bo'lmaydi.

Xullas, siz „Bozor iqtisodiyoti“ kursini qancha chuqur va mukammal o'rganish uchun sabr-toqat qilsangiz, undan shuncha ko'proq naf ko'rasiz.

*Ushbu bobni o‘qiganda, quyidagi savollarga javob toping:*

- ♦ *Iqtisodiyot tushunchasining ikki xil ma’nosi nimadan iborat?*
  - ♦ *Inson ehtiyojlari nima, uning qanday xususiyatlari va turlari bor?*
  - ♦ *Mikroiqtisodiyot nima?*
  - ♦ *Makroiqtisodiyot deganda nimani tushunmoq kerak?*
- Bozor iqtisodiyotini boshqa iqtisodiy tizimlardan ajratib turuvchi farqlar nimadan iborat?*

## 1.1. Iqtisodiyot deganda nimani tushunamiz?

Kundalik hayotimizda har qadamda uchrab turadigan atamalaridan biri bu — „*iqtisodiyor*“ tushunchasidir. U nihoyatda keng qamrovli va ko‘p ma’noli tushuncha bo‘lib, qisqa, lo‘nda yoki og‘iz so‘z bilan tushuntirib berish amri mahol vazifa hisoblanadi. Gap shundaki, bu atama bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yoki aniqrog‘i undan kelib chiqqan „*iqtisod*“, „*iqtisod qilish*“ kabi iboralar ham borki, ularning ma’nosi bir-biri bilan juda yaqin.

„*Iqtisod*“, „*iqtisod qilish*“ deyilganda, biz odamlarning turli xil ehtiyojlarini qondiradigan noz-ne’matlar, moddiy boylik va resurslardan tejab-tergab foydalanishni tushunmog‘imiz kerak.

Iqtisodiyot atamasining ma’nosi esa o‘z mohiyatiga ko‘ra ularga nisbatan anchagina keng.

Hozirgi kunda „*iqtisodiyot*“ atamasi ikkita ma’noda ishlatalmoqda, desak xato bo‘lmaydi.

Uning *birinchi ma’nosi* siz bilan bizning, barcha jamiyat a’zolarining kundalik hayotini, turmush sharoitlarini ta’minlovchi xo‘jalikdir. Odamlarning turli-tuman moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish aynan ana shu xo‘jalikka bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanganlik darajasi pirovard natijada odamlarning hayot tarzi va sifatini belgilab beradi. Shuning uchun ham xo‘jalikni, ya’ni iqtisodiyotni rivojlantirish har qanday jamiyat (xalq) oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Xo‘jalik ma’nosidagi iqtisodiyot ko‘p tarmoqli bo‘lib, bu tarmoqlarni ikkita katta sohaga bo‘lish (yoki ajratish) mumkin: *moddiy ishlab chiqarish sohasi* va *ijtimoiy-madaniy soha* (1.1-chizmaga qarang).


„*Iqtisodiyot*“ atamasining *ikkinci ma’nosi* xo‘jalikni, odamlarning xo‘jalik faoliyatini o‘rganuvchi ilm (fan)dir. Kishilik jamiyatining xo‘jalik amaliyoti qancha qadimiy bo‘lsa, bu fan ham shuncha

qadimiydir. U odamlarning xo'jalik hayotiga, avvalo, uy xo'jaligini yuritish san'ati (ilmi) sifatida kirib kelgan bo'lsa, endilikda u keng qamrovli fanga aylandi. *Iqtisodiy nazariya, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, xalqaro iqtisodiy aloqalar, sanoat va boshqa tarmoqlar iqtisodiyoti* kabi o'nlab fanlar mavjudki, ularni lo'nda qilib iqtisodiyot ilmi deb atash mumkin.

Bu ilm hayotda ro'y beruvchi iqtisodiy hodisalar, jarayonlar, qonun va qonuniyatlarni o'rghanadi, odamlarning xo'jalik faoliyatini oqilona tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish muammolari va yo'llari bilan shug'ullanadi.

Nazariy bilimlar qancha puxta va mustahkam bo'lsa, ularning amaliyot uchun tegadigan nafsi ham shuncha yuqori bo'ladi. Bu narsa, ayniqsa, iqtisodiy bilimlarga taalluqlidir, desak mubolag'a bo'lmas. Iqtisodiy bilimlar odamlar uchun hamma zamonda ham muhim ahamiyat kasb etgan, chunki iqtisodiyot bilan har xil darajada bo'lsa-da, hamma shug'ullanadi.

Kishilar faqat bugungi kun bilan emas, balki kelajak uchun ham yashaydilar. Iqtisodiyot ilmi esa shu kun hodisalarini tushuntirish bilan cheklanmaydi. Uning muhim vazifasi kelajakni anglash, bashorat qilish va iqtisodiy taraqqiyotning eng maqbul va oqilona yo'llarini ishlab chiqishdir.



### 1.1- chizma. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi.

Iqtisodiy bilimlar odamlarning iqtisodiy tafakkurini belgilab beradi. Iqtisodiy tafakkur shaxsning iqtisodiy voqelik va jarayonlarga munosabatini ifodalaydigan qarashlar, g'oya va tasavvurlar majmuyidir.

Hozirgi yoshlardan zamonaviy iqtisodiyot fani kategoriyalari bilan fikrlesh va uning yantuqlarini amaliyatda samarali qo'llash talab qilinmoqda. Ular oqilona xo'jalik yuritish va o'z ishini amalga oshirish uchun tadbirkorlik faoliyatining sir-u sinoatlarini o'rGANISHLARI zarur. Davlatning iqtisodiy qudratini kuchaytirishda faol va ijodiy ravishda ishtirot etish ularning vatanparvarlik burchidir.

Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy bilimlarga asoslanadi, bu bilimlar esa o'z navbatida ishonchli bo'lishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yuz berayotgan haqiqiy jarayonlarni aks ettirishi kerak.

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, jamiyat a'zolarining turmush farovonligi va darajasi ko'p jihatdan ularning iqtisodiy tafakkuriga bog'liq deb aytish mumkin. Zero, ularning xo'jalikni oqilona yurita olish qobiliyati va tejamkorlik xislatlari xo'jalik faoliyatining samaradorligini belgilab beradi. Jamiyat a'zolarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirish va oshirish ularning doimo ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish zarurligidan kelib chiqadi. Iqtisodiy bilimlarni ko'proq va chuqurroq o'zlashtirgan, bu bilimlarga tayangan holda fikrlay oluvchi odamning mehnat va tadbirkorlik faoliyati samaradorligi hamisha yuqori bo'ladi. Bunday odamlarning jamiyat, millat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi ham hamisha yuqoridir.

Hayot va iqtisodiyot bir-biri bilan shu darajada chambarchas bog'liqliki, bu bog'liqlikni quyidagi fikrdan ham yaqqol ko'rish mumkin. Har bir insonning moddiy va ma'naviy jihatdan badavlat turmush kechirishiga erishish har qanday jamiyatning ezgu orzu va maqsadidir. Biroq bu orzuning ro'yobga chiqishi uchun, avvalambor, moddiy ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish kerak. Shuning uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni eng oqilona va samarali yo'llarini amalga oshirish iqtisodiyot fanining, iqtisodchilarning, qolaversa, har bir insonning muqaddas vazifasidir.

Lo'nda qilib aytganda, iqtisodiyot ilmini jamiyat a'zolarining yo'llini yorituvchi, ertangi kunni bugundan farovonroq qilishni ta'minlovchi fan sifatida talqin qilish mumkin.

## **1.2. Ishlab chiqarish — iqtisodiyotning asosi**

Ishlab chiqarishning o'zi nima, u qachon va nima sababdan paydo bo'lgan va nihoyat, nima uchun u iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi, degan savolga javob topish uchun, avvalambor, „ehtiyojlar“ degan tushunchani ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.

Inson bu dunyoda yashar ekan, uning turli-tuman ehtiyojlari mavjud. Aynan ana shu ehtiyojlar uni o'qishga, kasb o'rganishga, o'z malakasini oshirishga, mehnat qilishga va hattoki, shaharma-shahar yurishga, turar joyini, ayrim hollarda o'z kasbini ham o'zgartirishga va boshqalarga majbur qiladi.

Kishilarning ehtiyojlari boshqa biologik jonzotlardan farqli o'laroq, faqat oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlar bilan chegaralanib qolmaydi. Ular nihoyatda xilma-xil, doimo o'zgaruvchan va yuksaluvchandir.

Inson ehtiyojlarining cheki va poyoni yo'q, desa bo'ladi. Shuning uchun ham ehtiyojlarining yuksalib borishi degan umumiqtisodiy qonun mayjudligi va uning barcha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida amal qilishi allaqachon isbot qilingan.

Ehtiyojlarining xilma-xilligi va doimo o'zgarib turishi ularning birinchi xususiyati bo'lsa, ikkinchi xususiyati ularning doimo o'sib, ortib borishidir. Ana shu har ikki xususiyati bilan ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi.

Ehtiyojarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin. ularning birinchisi *moddiy ehtiyojlar* bo'lsa, ikkinchisi *ma'naviy ehtiyojlardir*.

Moddiy ehtiyojlarga kishilarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, uy-ro'zg'or anjomlari, transport vositalari, dori-darmon va boshqa narsalarga bo'lgan ehtiyojlar kiradi.

Ma'naviy ehtiyojlar esa bilim olish, malaka oshirish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish, turistik sayohatlarga chiqish, ziyoratgoh joylarni borib ko'rish, dam olish, uzoq umr ko'rish uchun salomatlikka e'tibor qaratish va hokazolardan iboratdir.

Moddiy ehtiyojarni ham, ma'naviy ehtiyojarni ham qondirish uchun kishilar mehnat qiladilar va ana shu mehnat natijasida topilgan daromadlar hisobiga o'zları uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni sotib oladilar. Demak, odamlarda yana bir xil ehtiyoj borki, uni mehnat qilishga bo'lgan ehtiyoj yoki *mehnat ehtiyoji* deb aytilish mumkin.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan kishilarning ehtiyojlarini orasida ularning mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojlar eng muhimidir. Zero, aynan ana shu ehtiyojlar tufayli odamlar mehnat qiladilar, o'z bilim va malakalarini doimo oshira borishdan manfaatdordirlar. Aynan ana shu ehtiyojlar tufayli ular mehnat jamoalariga birlashadilar, ijtimoiy ishlab 'chiqarishning birlamchi bo'g'lnlari (korxona, firma va h.k.) paydo bo'ladi, savdo va tijorat rivojlanadi.

Kishilarning mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojlar tufayli yangi ish o'rirlari tashkil topadi, yangi yerlar o'zlashtiriladi, mehnat faoliyatining yangi turlari paydo bo'ladi.

O'z rizq-u nasibasini mehnatdan topishni bilgan holda amalga oshirilayotgan faoliyat insonlarning nafaqat moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, balki ana shu faoliyat

tufayli ular jamiyatda o‘z obro‘-e’tiborini topadilar, shon-shuhrat orttiradilar.

Biz, ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi, degan fikrni yuqorida bildirgan edik. Bu fikrni tasdiqlash uchun shuni ko‘rsatib o‘tish kifoyaki, odamlar xoh yakka tartibda, xoh jamoaga birlashgan holda mehnat qilmasin, o‘z mehnatlarining unumdorligi va samaradorligini muttasil oshira borishdan manfaatdordirlar. Chunki unumli va samarali mehnatdan ular ko‘proq daromad oladilar va o‘z ehtiyojlarini to‘laroq qondiradilar. Shu sababli, ishlab chiqarish doimo rivojlanib, takomillashib boradi.

Shunday qilib ehtiyojlar jamiyat miqyosida iqitisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi qudratli omildir. Shu bilan birgalikda ehtiyojlarni qondirish iqitisodiyotning bosh vazifasidir. Har qanday ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jamiyat a‘zolarining u yoki bu ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Jamiyatning tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini, odatda, *talab* deb yuritiladi. Ana shu ehtiyoj (yoki talab) o‘z navbatida *taklifi* yuzaga keltiradi. Taklif muayyan ehtiyojlarni qondirish maqsadida bozor uchun ishlab chiqariladigan tovarlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning yig‘indisidan iboratdir.

Talab bilan taklifning uchrashgan joyini **bozor** deb yuritiladi. U yerda ikki xil ishtirokchilar mavjud bo‘lib, ularning birinchisi *tovarlar* va *xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar*, ikkinchisi esa ularni *xarid qiluvchilar* yoki *iste’molchilardir*.

Iste’molchilarning bozordagi harakati biron-bir tovarga talab shaklida namoyon bo‘ladi. Bu talabning asosida iste’molchilarning ehtiyoji yotadi, ya’ni ehtiyojlar u yoki bu tovarga, yoki xizmatga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi.

Qaysi tovarga yoki xizmatga talab bor ekan, bozorda shu tovar (xizmat) paydo bo‘ladi.]

Albatta, tovarlar bozorda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, avvalo, ularni ishlab chiqarish kerak. Bu moddiy ishlab chiqarishning, umuman, tovar ishlab chiqarishning birinchi belgisidir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tovar ishlab chiqarishning zamirida unga bo‘lgan talab yotadi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, hech kimga keragi yo‘q, xaridori bo‘lmagan tovari hech kim ishlab chiqarmaydi.

Moddiy ishlab chiqarishning ikkinchi belgisi yoki xususiyati shundan iboratki, uning tarkibi va taraqqiyot darajasi o‘zgaruvchandir. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ishlab chiqarishning tarkibi bozordagi talabga qarab doimo o‘zgarib, takomillashib boradi va uning taraqqiyot darajasi ortib boradi.]

Insoniyat tarixining ilk davridagi odamlarning ehtiyojları va talablarini ko‘z oldingizga keltirib ko‘ring. Ularga eng avval yemoq uchun oziq-ovqat, keyin kiyim-kechak, turar joy kerak bo‘lgan.

Demak, tovarlar bozorida ham, asosan, ana shu ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlar mavjud bo'lgan.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti natijasi o'laroq yangi-yangi tovarlarga ehtiyoj paydo bo'la boshlab, bozorga aynan ana shu tovarlar chiqa boshlagan. Bu degani ishlab chiqarishning yangi sohalari va tarmoqlarining paydo bo'lishigina emas, balki uning rivojlanishi, taraqqiy etishi demakdir. Shunday qilib, moddiy ishlab chiqarish tovarlarga bo'lgan talabga qarab rivojlanib boradi.

Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi o'z navbatida buni ta'minlovchi ishlab chiqarish sohalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, yer ostidan ko'mir yoki neft qazib olish uchun o'sha foydali qazilmalar joylashgan hududga avtomobil yoki temiryo'llar, umumiyligida ovqatlanish obyektlari, turar joy binolari va hokazolar qurish kerak, ko'mir yoki neftni qazib olishga mo'ljallangan texnologik asbob-uskuna va jihozlar ishlab chiqarishni tashkil qilish va ko'paytirish kerak.

*Endi tabiiy holda bir savol tug'iladi.* Odamlarning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini to'la-to'kis qondirish mumkinmi?

Afsuski, bu savolga ijobiy javob berib bo'lmaydi. *Birinchidan*, hamma turdag'i resurslar: yer, suv, yer osti foydali qazilmalari va mehnat resurslari cheklangan. *Ikkinchidan*, har qanday davlatning moliya resurslari ham cheklangan. Va nihoyat, *uchinchidan*, inson o'zining doimo o'sib boruvchi ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirishi uchun hamma vaqt ham yetarli to'lov qobiliyatiga ega bo'lavermaydi.

Odamlar ehtiyojlarini sifat va miqdor jihatdan o'sib borishi ayni vaqtida ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Chunki tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar resurslarning cheklanganligi sharoitida mehnat qurollaridan unumliroq foydalanishga, sarf-xarajatlarni kamaytira borishga hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirib borishga majbur bo'ladilar.

Biroq shu narsani ham aytib o'tish kerakki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va rivojlantirish zamirida odamlarning nafaqat moddiy ehtiyojlarini qondirish zaruriyati yotadi, balki ularning ma'naviy ehtiyojlar, masalan, bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'lim muassasalari (maktab, litsey, kollej va institutlar)ni tashkil qilish va poligrafiya sanoatini rivojlantirishni taqozo etsa, sog'liqni saqlash va uzoq umr ko'rishga bo'lgan ehtiyojlarini tibbiy muassasalarni tashkil qilish, dori-darmon va tibbiy asbob-uskunalarni ishlab chiqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, odamlarning moddiy, ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini har qanday jamiyatda ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini muttasil rivojlantira borishni taqozo etadi. Bu sohalar majmuyi 1.1-chizmada keltirilgan xo'jalikni, ya'ni milliy iqtisodiyotni tashkil etadi.

Iqtisodiyotning tarkibi va taraqqiyot darajasi har bir mamlakatda o'ziga xos bo'lib, mamlakatlararo keskin farq qiladi.

Turli mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi va taraqqiyot darajasidagi tafovutlarning sabablari, *birinchidan*, ularning turlicha tabiiy-iqlimi sharoitlari bo'lsa, *ikkinchidan*, xalqning intellektual (aqliy) salohiyatidagi farqlardir.

Mazkur tafovutlarning yana bir muhim va hal qiluvchi sababi borki, biz bu haqda keyinroq, ya'ni „Iqtisodiy tizimlar va ularning turlari“ deb nomlangan paragrafda batafsil to'xtalib o'tamiz.

### **1.3. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot**

Har qanday jamiyatdagi kishilarning asosiy maqsadi o'zining turmush sharoitini yaxshilash, erkin va farovon hayot kechirishdan iborat. Ularning ana shu maqsadga erishish yo'lidagi barcha xattiharakatlari insoniyatning cheklangan imkoniyatlari doirasida amalga oshadi. Kishilarning aqliy va jismoniy qobiliyati, u yoki bu vazifalarni bajarishga ajrata oladigan vaqt, mehnat qilish uchun zarur bo'lgan vositalari ham cheklangandir. To'g'ri, ilm-fan taraqqiyoti natijasida mavjud imkoniyatlar mislsiz darajada kengaydi. Bundan yuz yillar oldin kishilar uchun afsona hisoblangan orzular endilikda real haqiqatga aylandi va bundan keyin ham cheklangan imkoniyatlar doirasi kengayib borishi muqarrar. Lekin shunday bo'lsa ham, hozirda va kelgusida kishilarning farovon turmush darajasini belgilovchi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarning cheklanganligi asosiy muammo bo'lib qolaveradi. Chunki resurslar cheklanmaganda edi, ularni taqsimlashga, tejashga, ulardan unumli foydalanishga zaruriyat bo'limas edi.

Jamiyat va undagi har bir shaxsning asosiy vazifasi cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan yo'nalishlarni tanlash va maksimum natijalarga erishishdan iborat. Ana shu maqsadga erishish uchun mehnatga layoqatli kishilar muayyan jamoalar (korxona, kompaniya, firma, shirkat, aksiyadorlik jamiyatlari, kooperativ va h.k.)ga birlashadilar va hamkorlikda faoliyat yuritib, tovarlar ishlab chiqaradilar va xizmatlar ko'rsatadilar. Shunday tarzda iqtisodiyotning quyi bo'g'lnlari paydo bo'ladi va ular xo'jalik yurituvchi subyektlar deb ataladi. Ana shu subyektlar faoliyatini o'rganuvchi fanni mikroiqtisodiyot deb yuritiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar cheklangan imkoniyatlar doirasida o'z faoliyatlarini boshlar ekanlar, quyidagi uchta asosiy vazifani hal qilishlariga to'g'ri keladi:

1. Nimani, ya'ni qanday tovarlar ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish)ni tashkil qilish kerak va qancha miqdorda?

2. Qanday texnologik jihozlar va usullar yordamida faoliyat ko'rsatish ma'qul?

3. Kim uchun, ya'ni qaysi iste'molchilarga zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish kerak va ularning mazkur mahsulotlar sifatiga bo'lgan talabi qanday?

Mana shu savollarga javoblar topish har qanday tadbirkorlikning asosini va mikroiqtisodiyot fanining predmetini tashkil etadi.

Shu bilan birgalikda mikroiqtisodiyot fani keng qamrovli fan bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar, firmalar, shirkatlar va h.k.) darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ishchilar, xizmatchilar va muhandis xodimlar mehnatini tashkil qilish va ular mehnatiga haq to'lashning eng oqilona shakli va tizimlarini joriy qilish, mehnat unumdarligini oshirish, mahsulot va xizmatlar sifatini muttasil yaxshilab borish kabi vazifalarini ham o'rganadi.

Ishlab chiqarish va xo'jalik vazifalarini hal etishning bir necha, hatto o'nlab yo'llari mavjud. Lekin ana shu yo'llar (yoki usullar) dan faqat bittasigina eng maqbul bo'lib, uni iqtisodchilar, odatda, optimal variant deb yuritishadi.

Mikroiqtisodiyot fanining asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyektlar oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning eng maqbul, optimal yechimini topishdir, desa bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar mavjud imkoniyatlar doirasidan chiqishi mumkinmi? Masalan, hozirdidan ko'proq va sifatlroq mahsulot ishlab chiqarish uchun nima qilmoq kerak, degan savolga mikroiqtisodiyot fani quyidagicha javob beradi. Ha, albatta, mumkin. Buning uchun yangi resurslarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish lozim.

Bugungi kunda korxona (firma)da ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmat hajmini ko'paytirgan ma'qulmi yoki oldingi hajmlarni saqlab qolish kerakmi? Bu savolga ham mikroiqtisodiyot fani, aniqrog'i, shu fan bo'yicha mutaxassis-iqtisodchilar javob beradi. Javob konkret mahsulot yoki xizmatga iste'molchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda topiladi.

Biron-bir tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil qilish uchun qanday moddiy-texnikaviy, moliyaviy va mehnat resurslarini qayerdan jalb qilish kerak va buning uchun sarflangan mablag'lar qancha vaqtдан kevin o'zini qoplaydi, degan savol ham konkret tadqiqotlar va hisob-kitoblar orqali o'z javobini topadi. Bu javobni ham mikroiqtisodiyot bo'yicha mutaxassislar topa oladi.

Shunday qilib, mikroiqtisodiyot mamlakat xalq xo'jaligining asosiy bo'g'ini bo'lgan, mamlakat milliy boyligini ko'paytirishga xizmat qiladigan, xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan korxonalar, firmalar, assotsiatsiyalar va shu kabi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiyotini cheklangan

imkoniyatlar doirasida, talab va taklif asosida tashkil etishning asosiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lganligi uchun u jamiyatdagi mavjud iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim rol o'yaydi.

*Makroiqtisodiyot* butun xalq xo'jaligi yoki uning tarmoqlaridagi iqtisodiy qonuniyatlarini, davlat va nodavlat sektorlarining iqtisodiy faoliyatini, mamlakat ahamiyatiga molik bo'lgan milliy daromad, iqtisodiy yuksalish, umumiyl baho tizimi, inflatsiya, ish bilan ta'minlash, umumiyl daromadlar va xarajatlar kabi masalalarini o'rgansa, *mikroiqtisodiyot* alohida olingan korxona (firma) faoliyatini keng miqyosda tahlil etish asosida tegishli xulosalar chiqarib, eng maqbul qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Bunda tahlil uchun ayrim korxonalar (subyektlar) olinib, ulardagi daromadlar va xarajatlar, ishchilarining soni va ularning ish bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ularning bahosi va shu kabi qator boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etilib, tegishli qarorlar qabul qilinadi. Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, makroiqtisodiyot birorta shaharning butun faoliyatini, undagi voqe va hodisalarini yuqorida turib o'rgansa, mikroiqtisodiyot shu shahardagi har bir korxona va tashkilot faoliyatini, ulardagi voqealar va hodisalarini yaqindan turib o'rganadi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlat korxonalarini bilan birga tadbirkorlik tamoyili asosida tashkil etilgan korxona (firma) larning faoliyat yurgizishidir. Mikroiqtisodiyotning asosiy axborot manbayi bo'lib ana shu turli korxona (firma)lar hamda shaxsiy xo'jaliklar faoliyatini to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Mikroiqtisodiyot ular faoliyatini tahlil etishda, xulosalar chiqarishda, zarur bo'lgan qarorlar qabul qilishda turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning eng asosiysi *bilishning dialektik metodi* deb yuritiluvchi usuldir. Uni qisqaroq qilib *dialektika usuli* deb ham yuritiladi. Dialektika usuli barcha hodisa va voqealarni doimiy taraqqiyotda va o'zaro aloqadorlikda deb o'rganish zarurligini bildiradi. Bunda analiz, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalaniлади. Analiz, ya'ni tahlil usulidan foydalanishda hodisalarini mayda bo'laklarga ajratib, ularni tadqiq etilsa, sintez usulida hodisalarning mayda elementlarini birlashtirish asosida yagona xulosaga kelinadi. Induksiya usulida ayrim dalillar asosida umumiyl xulosa qilinsa, deduksiya usulida umumiyl qoidalalar asosida ayrim xulosalar qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritadigan har bir iqtisodchi, har bir tadbirkor kishi bu usullardan foydalananmasligi mumkin emas. Chunki u o'z korxonasidan yoki shaxsiy xo'jaligidan oladigan daromadini oshirish uchun doimo kuzatuv olib borishi, zarur bo'lgan dalillarni to'plashi va ularning tahlili asosida yagona xulosaga kelib, qaror qabul qilishi lozim bo'ladi. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun mazkur qarorni qismlarga bo'lib, tadbirlar belgilashi va ularni bajarish choralarini ishlab chiqishi kerak.

Yuqorida ko'rib o'tilgan usullardan faqatgina korxona (firma) iqtisodechilari, tadbirkorlargina emas, balki davlat ham o'z iqtisodiy siyosatini belgilashda keng foydalananadi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy tahlillar asosida iqtisodiy konsepsiya (yondashuvlar) vujudga keladi. Ular o'z navbatida davlatning iqtisodiy siyosati yo'naliishlarini belgilashda muhim rol o'yaydi.

Kezi kelganda shuni ham aytib o'tish joizki, „makro“ deganda „katta“, „mikro“ deganda esa „kichik“ degan ma'no tushuniladi. Demak, makroiqtisodiyot katta iqtisodiyot, ya'ni mamlakatlar iqtisodiyoti, uning ayrim sektorlari (davlat sektori, xususiy sektor) va tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k.) iqtisodiyoti tushuniladi. Mikroiqtisodiyot deganda esa kichik iqtisodiyot, ya'ni yuqorida aytib o'tilganidek, alohida korxona yoki firma, kompaniya yoki shirkatning iqtisodiy faoliyatini o'r ganuvchi fanni tushunmoq kerak.

Iqtisodiy bilimlar majmuasining ikki yo'nalishi bo'lgan makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot bizga bozor munosabatlariga o'tish natijasida kirib kelgan tushunchalar bo'lsa-da, ularni mutlaqo yangi tushunchalar deb bo'lmaydi. Ilgari bizda xalq xo'jaligi iqtisodiyoti, xalq xo'jaligini rejalashtirish, iqtisodiyotni boshqarish deb ataluvchi fanlarni endilikda zamонавиу tilda qisqa qilib *makroiqtisodiyot* deb atalmoqda. Korxonalar iqtisodiyoti, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish deb atalgan fanlar esa hozirgi zamon talablariga binoan *mikroiqtisodiyot* deb yuritilmoqda.

Shu bilan birgalikda makroiqtisodiyot ham, mikroiqtisodiyot ham bozor iqtisodiyoti tizimiga xos bo'lgan ilmiy qarashlar va yonda-shuvlarga asoslanganini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Avvallari, masalan, ishlab chiqarishning maqsadi — ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdan iborat, degan mavhum (abstrakt) tushuncha hukmronlik qilib, korxonada nimani va qancha miqdorda ishlab chiqarish va mahsulotni qaysi iste'molchiga yuborish yuqoridan, ya'ni markazdan belgilab berilgan bo'lsa, endilikda ahvol mutlaqo boshqacha. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili har qanday tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etishda konkret iste'molchilarning shu tovar yoki xizmatga bo'lgan talabini e'tiborga olishdir. Mikroiqtisodiyotning fan sifatida o'ziga xos xususiyati uning keng qamroviligi va ko'p tarmoqliligidir. Masalan, korxona, firma, shirkat yoki aksiyadorlik jamiyati darajasida ularning moliyaviy muammolari bilan mikromoliya mutaxassislari shug'ullanadi. Korxonada ishlab chiqarilgan tovarning reklamasi va uni sotish bilan bog'liq masalalar marketing sohasining vakolatiga kiradi. Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish menejment deb ataluvchi sohaning masalalaridir. Bular haqida keyingi mavzularda batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

## Iqtisodiy tizimlar va ularning turлari

Odamlarning tovar va xizmatlarga bo'lgan talabi ularning xo'jalik faoliyatları orqali qondiriladi. Mazkur talabni qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar, firmalar, shirkatlar, uy xo'jaligi va boshqalar)ning faoliyati natijasida yaratiladi. Ular mavjud bo'lgan tabiiy va ishlab chiqarish resurslaridan foydalangan holda turli-tuman tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradilar, ayriboshlaydilar va iste'mol qiladilar. Shunday tarzda ular ma'lum iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar. Mazkur munosabatlар muayyan iqtisodiy tizim sharoitida kechadi.


Tarixiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning iqtisodiy tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va qudratini hamda aholining turmush darajasini belgilovchi muhim va hattoki, hal qiluvchi omildir. 1.2- chizmada iqtisodiy tizimlarning turlari keltirilgan.

Insoniyat taraqqiyotining ilk davrida shakllangan va uzoq vaqt hukmronlik qilgan iqtisodiy tizimni odatda *an'anaviy* yoki *natural tizim* deb yuritiladi. Bu tizim sharoitida, asosan, qo'll mehnati hukmron bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni natural holatda o'zaro almashtirish iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil qilar edi.

Uni an'anaviy deb yuritilishining sababi shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotlar (chorvachilik, baliqchilik, dehqonchilik mahsulotlari) va xizmatlar odatdagи an'analar bo'yicha o'zaro almashtiriladi yoki taqsimlanadi. Ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni ajdodlari qay tarzda yuritishgan bo'lsa, xuddi shu tariqa yuritishadi.

An'anaviy iqtisodiy tizimga asoslangan qabilalarda odamlarning ehtiyojlari nihoyatda cheklangan bo'lib, ularning turmush darajasi ham achinarli holatda bo'lgan.

Bu tizim insoniyat tomonidan pul kashf etilishi natijasida oldisotdi munosabatlari iqtisodiy amaliyotga kirib kelgunga qadar hukmronlik qilgan. Endilikda esa bu tizim unsurlari insoniyat tamadduning domiga tortilmay, urug'-aymoqchilik munosabatlarini



### 1.2- chizma. Iqtisodiy tizimlarning turlari.

saqlab qolgan qabilalar (masalan, Afrikaning ayrim mamlakatlari) hayotida uchrab turadi.

Ma'lumki, insoniyat tarixidagi kashfiyotlarning eng buyugi va muhimi *pulning kashf etilishi* bo'ldi. Tovar, foyda, narx-navo, oldisotdi kabi tushunchalarning pul bilan birgalikda odamlar hayotiga kirib kelgani chinakam inqilobiy o'zgarishlarni sodir etdi. Shu bilan birgalikda *bozor iqtisodiyoti* deb atalmish iqtisodiy tizimga asos soldi, mamlakatlар va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta turki bo'ldi.

Biroq, XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, shakllangan, utopik (xom xayol) g'oyadan butun bir ta'limot darajasiga ko'tarila olgan sotsializm va kommunizm g'oyasi ko'pchilik xalqlarni, shu jumladan, O'zbekiston xalqini ham o'z domiga tortdi, to'g'ri yo'ldan adashtirdi. To'g'ri, o'zbek xalqi sotsialistik taraqqiyot yo'liga o'z xohishi bilan kirgani yo'q, uning xohish-irodasi u paytda o'zining qo'lida emas edi. Lekin shu narsa real haqiqat-ki, bu xalq ham sobiq sultanat xalqlari qatorida XX asrning 90-yillariga qadar sotsialistik g'oyaning mevasi bo'l mish yangi bir tipdagи iqtisodiy tizim—ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida kun kechirishga majbur bo'ldi.

Jamiyat iqtisodiy-xo'jalik faoliyatini boshqarishning rejali iqtisodiyot deb ataluvchi bu tizimi sharoitida resurslar, tovarlar, xizmatlar va daromadlarni ayirboshlash, taqsimlash davlatning maxsus organlari vakolatiga kirar edi. Bular Davlat reja qo'mitasi, Moddiy-teknika ta'minoti qo'mitasi, Moliya vazirligi, Davlat narx qo'mitasi kabi o'nlab davlat idoralari edi.

Iqtisodiy munosabatlarni yuqorida turib tartibga solish va boshqarishga tayangan bu tizimning asosini umumxalq mulki deb atalmish davlat mulki tashkil etar edi. Shuning uchun ishlab chiqarishni markazlashgan holda (davlat tomonidan) rejalshtirish va tayyorlangan mahsulotni xuddi shu tarzda taqsimlash tamoyili hukmron edi.

Bu tizimning eng katta illati xususiy mulkchilikni inkor etishdir. Vaholanki, xususiy mulkchilik, ya'ni odamlarning mulkka egalik qila olish huquqi bo'limgan yerda biron-bir jiddiy taraqqiyot haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytib o'tish kifoyaki, o'tgan asrning 90-yillari boshida rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad 20—36 ming AQSH dollarini tashkil etgan holda sobiq sotsialistik mamlakatlarda 170—3400 AQSH dollariga teng bo'ldi. Binobarin, har ikki ijtimoiy-iqtisodiy tizimga asoslangan mamlakatlар xalqlarining turmush darajasi va farovonligida ham keskin tafovut paydo bo'ldi.

Xuddi shu davrga kelib sotsializm va kommunizm g'oyasi o'zini to'la badnom etdi va unga asoslangan o'nlab davlatlar bozor

iqtisodiyoti tizimiga asoslangan rivojlanish yo'lini tanladilar. *Bu insoniyat tarixida katta burilish yasagan voqeа bo'ldi.*

Shu narsani alohida iftixor tuyg'usi bilan aytish mumkin-ki, O'zbekiston sobiq Ittifoq sultanatidan birinchilar qatorida ajralib chiqib, o'zining davlat mustaqilligini e'lon qilar ekan, bozor munosabatlariiga asoslangan tizimni hech ikkilanmay tanladi. Chunki tarixiy haqiqat shundan iboratki, bozor iqtisodiyotiga muqobil bo'lgan boshqa yo'l yo'q. Mulkchilikning xilma-xilligi va iqtisodiy faoliyatda erkinlikka asoslangan bu tizimning bosh afzalligi shundan iboratki, u butun jamiyatning ham, ayrim kishilarning ham boy bo'lishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratib beradi.

To'rtinchi turdag'i iqtisodiy tizim bu—aralash iqtisodiyot tizi-midir. Mazkur tizim bozor va nobozor iqtisodiy munosabatlarining qorishmasidan paydo bo'lgan, desak xato bo'lmaydi.

AQSH va rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, real iqtisodiy tajribada „Sof bozor“, „Sof bozor iqtisodiyoti“ning bo'lishi mumkin emas. Chunki har qanday jamiyatda ham davlat hamma narsani bozor stixiyasiga to'la-to'kis tashlab qo'ya olmaydi. Mamlakat hayotining ko'plab muammolarini davlatning aralashuvlari hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun bozor kuchlari bilan davlat ishtirokining aralashuvlari natijasida aralash iqtisodiyot tizimi paydo bo'ladi.

Va niyoyat, yana bir iqtisodiy tizim mavjudki, uni, odatda, o'tish davri iqtisodiyoti deb ataladi. Biroq bir iqtisodiy tizimdan, masalan, rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish „*o'tish davri*“ga xos bo'lgan tizim bo'lgani uchun uni *o'tish davri iqtisodiyoti* deb atalsa, to'g'riroq va tushunarliroq bo'ladi.

Hozirgi vaqtida, aniqrog'i 90-yillarning boshidan boshlab dunyo xaritasida paydo bo'lgan mustaqil davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini aynan ana shu o'tish davri iqtisodiyotiga kiritish mumkin. Mazkur mamlakatlarda rejali iqtisodiyot, aniqrog'i, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sodir bo'lmoqda. O'tish davri iqtisodiyoti, shuningdek, XVII asr boshlari va XVIII asr oxirida hozirgi rivojlangan mamlakatlar tarixida ham kuzatilgan edi.

O'tish davri iqtisodiyotining xarakterli belgisi shundan iboratki, unda bir vaqtning o'zida ham eski, ham yangi shakllanayotgan tizimlarning iqtisodiy munosabatlari amal qiladi. Biroq vaqt o'tishi bilan yangi tizimga xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlar eskilarini tobora siqib chiqaraveradi.


Ushbu bobni o‘qiganda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

- ◆ *Bozor iqtisodiyotining mohiyati nimadan iborat?*
- ◆ *Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini ko‘rsatib bering.*
- ◆ *Bozor iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotida qanday bosqichlardan o‘tgan?*
- ◆ *Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti qanday tizim hisoblanadi?*
- ◆ *Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari nima?*

## 2.1. Bozor iqtisodiyoti tushunchasi va uning mohiyati

Tovarlar va xizmatlarga talab uzlusiz bo‘lgani tufayli ularni ishlab chiqarish ham uzlusiz ravishda doimo takrorlanib turadi. Takror ishlab chiqarishning umumiy jarayonini iqtisodiy resurslar, tovar va xizmatlar hamda daromadlarning doiraviy aylanishi ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Biroq bu aylanish turli iqtisodiy tizimlarda turlicha kechadi.

Xususiy mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti tizimida bunday doiraviy aylanish korxona va firmalar bilan uy xo‘jaligi o‘rtasida amalga oshadi. Uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha iqtisodiy resurslarni bozorga yetkazib beradi. Korxona va firmalar bu resurslarni sotib olib, turli xil tovar va xizmatlarga aylantiradilar va ularni bozorga yetkazib beradilar (2.1-chizmaga qarang).



**2.1- chizma.** Iqtisodiy resurslar, tovar va xizmatlar hamda daromadlarning xususiy mulkka asoslangan iqtisodiy tizimdagi doiraviy aylanishi.

Ko‘rinib turibdiki, resurslar, tovarlar, xizmatlar va daromadlarning doiraviy aylanishida faqat ikki tomon: bir tomonda *korxona* va *firmalar*, ikkinchi tomonda *uy xo‘jaligi* qatnashadi. Barcha moddiy, mehnat va pul oqimlari harakati davlat tomonidan qat’iy rejalashtirilmaydi, ya’ni korxona va firmalar iqtisodiy resurslarni qancha miqdorda, qaysi baholarda sotib olishni va ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni qanday baholarda sotishni o‘zi erkin belgilaydi. Bu, ya’ni erkinlik, bozor iqtisodiyoti tizimining asosiy va eng muhim belgisidir.

Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi—ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning tasarruf etilish ixtiyoriyligi va mulkdorlarning mustaqillikka egaligidir. Ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchi o‘z tovarini yoki pulini o‘zi bilganicha ishlatadi, o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘ziga ma’qul bo‘lgan ish bilan shug‘ullanadi. Xo‘jalik yurituvchilar faoliyati bir-biridan ajragan bo‘ladi. Chunki ular, birinchidan, mustaqil mulk egalaridir, ikkinchidan, mehnat taqsimoti asosida ixtisoslashib, har xil ish bilan shug‘ullanadilar.

Bozor iqtisodiyoti tizimida xo‘jalik yuritish shakllaridan qaysi birini tanlash, o‘z mol-mulkini qanday ishlatish ham kishilarning o‘z ixtiyoriga bog‘liq. Tadbirkorlik qilish yoki yollanib ishlash, o‘z pulini sanoatga, dehqonchilikka, tijoratga, bank ishiga yoki boshqa yo‘nalishga sarflash odamlarning o‘z ixtiyorida bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotining muhim va asosiy belgisi iqtisodiy xilmassislik, ya’ni mulk shakllari va xo‘jalik yuritish usullarining turli-tuman bo‘lishidir. Turli shakllardagi mulklar erkin, yonma-yon, hech bir chegaralanmagan holda rivojlanadi. Xo‘jalik yuritish usullari ham har xil bo‘ladi. Masalan, yakka tartibda, jamoaga birikkan holda, sherikchilik yoxud hissadorlik asosida, o‘z mablag‘iga yoki qarzga olingan mablag‘ga tayanib xo‘jalik yuritish, yer va boshqa vositalarni ijara olish va ishlatish kabilar.

Bozor iqtisodiyotini tashkil etuvchi tadbirkorlar ko‘pchilikdan iborat bo‘lib, tarqoq holda foyda-zararni o‘z zimmasiga olib ish yuritadilar. Lekin ularning faoliyati qanchalik tarqoq bo‘lmasin, baribir bozor orqali bir-biriga bog‘lanadi.

Bozor iqtisodiyoti erkin bo‘lganligidan har qanday iqtisodiy monopolizmni, ya’ni korxona, tashkilot yoxud davlatning, umuman, iqtisodiyotda yoki uning biror sohasida tanho hukmronlik qilishini inkor etadi. Bu ham bozor iqtisodiyotining belgilaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotining yana bir belgisi narxlarning liberallahushi, ya’ni narx-navoning erkin tashkil topishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi. Narx ayrim ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchi tazyiqi ostida shakllanmaydi. U bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuvi va kelishuviga asosan yuzaga

keladi. Shu tarzda shakllangan narxlar bozor munosabatlarining asosini tashkil qiladi.

*Narx pul bilan o'lchanadi.* Bozor iqtisodiyoti pulsiz bo'lishi mumkin emas. Pul iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasi bo'lib, iqtisodiyotda o'ta muhim rol o'yaydi. Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti va uning iqtisodiy mexanizmida raqobat asosiy o'rinni tutadi. Raqobat iqtisodiy munosabatlari ishtirokchilarining o'zgalarnikidan alohidalashgan manfaatini bildiradi. Lekin bu manfaat yo'lida kurash qoidalariga rioya qilish shari hisoblanadi. Manfaatlarni yuzaga chiqarishning birdan-bir yo'li raqobatbardosh va jamiyat uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishdir. Raqobat moddiy va mehnat resurslarini kam sarflagan holda ularni samarali ishlatib, ko'proq va sifatliroq tovar ishlab chiqarishga undaydi. Shuning uchun ham raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi vositadir. Shu bilan birgalikda, u iqtisodiyotni tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi kuch bo'lib ham hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish usullarining xilma-xilligi, erkin iqtisodiy faoliyat va sog'lom raqobatga asoslangan tizimdir.


Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos ijtimoiy adolat qoidalari bor. Iqtisodiyotdagi resurslar, ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni taqsimlash va shunga mos ravishda daromadga ega bo'lib, yuqori farovonlik darajasiga intilish adolat hisoblanadi. Ammo adolat tamoyili hammani bir xil qilish emas, balki jamiyatni tabaqalashuvini bildiradi. Iqtisodiy subyektlar o'z mehnatiga, uning samaradorligiga, ishbilar-monligiga va mulkiga qarab bir-biridan farqlanadi. Shu sababli ularning daromadi, turmush darajasi va jamiyatdagi mavqeyi bir xil bo'lmaydi. Tabaqalanish boylarga havas qilib, ularday bo'lishga intilishni hosil qiladi. Bozor iqtisodiyoti shunday iqtisodiy munosabatlar-ki, ular ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchni yuzaga keltiradi. Bozor regulatorlari moddiy, mehnat va moliya resurslarini kerakli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish tomon buradi. U behuda mehnat sarfini tan olmaydi, aksincha, unga yo'l qo'yganlarni iqtisodiy jihatdan jazolaydi, ya'ni ular zarar ko'radi.

*Bozor iqtisodiyoti moslashuvchan tizimdir.* U sharoit o'zgarishiga darhol javob beradi, nima yetishmasa, shuni darhol ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Uning muhim tomonlaridan biri novatsiya (yangilik)ga moyilligidir. U fan-texnika, texnologiya yangiliklarini darhol qabul qiladi. Yangi tovarlarni ishlab chiqarishni, yangi texnologiya va boshqarish usullarini joriy etishni ta'minlaydi. Chunki bu raqobatda yutqazmaslik, yaxshi foyda ko'rish boylik va obro'-e'tibor orttirishning sharti bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarning natijasi o'laroq bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar to'kinligini yuzaga keltiradi.

## 2.2. Bozor iqtisodiyotining taraqqiyot bosqichlari va turlari

Bozor iqtisodiyoti XVII asrning boshlaridan hozirgi vaqtga qadar bir qancha taraqqiyot bosqichlaridan o'tdi, desak xato bo'lmaydi. Binobarin, har bir bosqichda o'ziga xos iqtisodiy munosabatlar tizimi va bozor iqtisodiyotining turlari shakllandi (2.2-chizmaga qarang).



### 2.2-chizma. Bozor iqtisodiyotining turlari.

Bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining ilk davriga xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimini ayrim iqtisodchilar, jumladan, taniqli iqtisodchi olim, professor A. O'imasov „*asov yoki yovvoyi bozor iqtisodiyoti*“ deb atashadi.<sup>1</sup> Shu bilan birgalikda bozor iqtisodiyotining bu turini „*mumtoz kapitalizm*“ deb atash ham uchrab turadi.<sup>2</sup>

Bozor iqtisodiyoti tizimi mazkur turining keyingi ta'rifiga ko'proq moyillik bildirgan holda, uning quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatib o'tamiz:

- iqtisodiy resurslarga yakka tartibdagi xususiy mulkchilikning hukmronligi va ularning ozchilik mulkdorlar tasarrufida to'planishi;
- erkin raqobat va sarmoyalarni iqtisodiyotning bir tarmog'idan ikkinchisiga ko'chib yurishi;
- iqtisodiyotning tartibsiz (stixiyali) rivojlanishi;
- bozor ishtirokchilari bo'lgan tadbirdorlarning bir-biridan mutlaqo ajralgan holda ish yuritishi;
- narx-navoning stixiyali shakllanishi;
- davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi;
- stixiyali taraqqiyotning natijasi o'laroq, iqtisodiy tanglik va tanazzullarning kelib chiqishi;

<sup>1</sup> A. O'imasov. Iqtisodiyot asoslari. T., „Mehnat“, 1997, 29-bet.

<sup>2</sup> Т.Юрьева. Социальная рыночная экономика. М., „Русская деловая литература“, 1999, стр. 42.

—aholi o'rtasidagi keskin tabaqalashuv: boylarning o'ta boy bo'lib ketishi va kambag'allarning o'ta qashshoqlashuvi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan belgilarni ichida xususiy mulkchilikning hukmronligi va davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi mumtoz kapitalizmning asosiy belgilardan biri bo'lib qolmay, balki uning samarali amal qilishiga to'sqinlik qiluvchi kamchiliklari hamdir. Aynan ana shu kamchiliklar tufayli u tobora „yovvoyilashib“ boraveradi va pirovard natijada uning o'rnida madaniylashgan bozor iqtisodiyoti tizimi shakllanadi.


Madaniylashgan (tamaddunlashgan deb ham aytish mumkin) bozor iqtisodiyoti bozor munosabatlari va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga asoslangan tizimdir. Uning xarakterli belgisi iqtisodiyotda davlat sektorining ham mavjudligi va jamiyat iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda davlatning faol ishtirok etishidir.

Shu o'rinda jahonda mashhur iqtisodchi olim Adam Smitning 1776-yilda Angliyada chop etilgan „Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to'g'risida tadqiqot“ nomli kitobining markaziy g'oyasiga to'xtalib o'tamiz. Uning fikricha, davlat iqtisodiyotni xoli qo'ysa, ya'ni unga aralashmasa, iqtisodiyot yaxshiroq amal qiladi. Hozir biz talab va taklif deb yuritadigan iqtisodiy kuchlarni Adam Smit „ko'rinnmas qo'l“ deb atadi va uning fikricha, o'sha qo'lning o'zi iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Mazkur ta'limot mumtoz ma'nodagi bozor iqtisodiyoti uchun, uning ilk davri uchun asosli bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan eskira boshladi va zamonaviy taraqqiyot talablariga javob bera olmay qoldi.

Iqtisodiyotdagi beboslik va tartibsizliklarni bartaraf qilish, raqobat kurashining g'ayriinsoniy usullariga barham berish, mustaqil tadbirkorlar o'rtasida madaniylashgan aloqalar o'rnatish, iqtisodiy tangliklar va tanazzullarning oldini olish uchun davlatning aralashuvi zarur bo'lib qoladi. Shunday qilib, XX asrning o'rtalariga kelib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda madaniylashgan bozor iqtisodiyoti shakllana boshladi.

Mazkur iqtisodiy tizim sharoitida resurslar, tovar va daromadlarning uzlusiz harakati bozor orqali davlat aralashuvi bilan amalgaloshiriladi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarining faoliyatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorida o'zining qatnashuvi bilan ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay shart-sharoitlar yaratadi. 2.3-chizmaga diqqat-e'tibor bilan qarasangiz, madaniylashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslar, tovarlar, xizmat va daromadlarni ayrboshlashdan iborat bo'lgan iqtisodiy jarayonlar va ularni tartibga solishdagi davlatning o'rnini yaqqol tasavvur qilasiz.



- |  |                                |
|--|--------------------------------|
| 1. Yer, mehnat, kapital.                             | 9. Iste'mol xarajatlari.       |
| 2. Resurslar.  | 10. Sotishdan tushgan daromad. |
| 3. Tovar va xizmatlar.                               | 11. Resurs xarajatlari.        |
| 4. Tovar va xizmatlar.                               | 12. Soliqlar.                  |
| 5. Resurslar.  | 13. Soliqlar.                  |
| 6. Tovar va xizmatlar.                               | 14. Xarajatlar.                |
| 7. Tovar va xizmatlar.                               | 15. Xarajatlar.                |
| 8. Pullik daromad<br>(ish haqi, renta foizi, foyda). | 16. Xarajatlar.                |

**2.3- chizma.** Resurslar, tovarlar va daromadlarning madaniylashgan bozor iqtisodiyotidagi doiraviy aylanishi.

Madaniylashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat makro-iqtisodiy darajada talab bilan taklif o'rtaсидаги muvozanatni saqlash choralarini ko'radi va mamlakat miqyosidagi umum davlat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal qiladi.

Endi bozor iqtisodiyotining yana bir turi—ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini ko'rib chiqaylik. Xo'sh, u qanday tizim va madaniylashgan bozor iqtisodiyotidan nima bilan farq qiladi?

Dastlab shuni aytib o'tish lozimki, bozor iqtisodiyotining bu har ikki turi o'rtaсида katta bir umumiylilik bor. Bu umumiylilik ularning bozor tizimi bo'la turib, bozor va nobozor munosabatlarning qorishmasidan iborat ekanidir. Shuning uchun ko'pincha bozor iqtisodiyotining bu ikki turi o'rtaсиdagи farqlar ko'zga tashlanavermaydi va amaliyotda ularga bitta tizim sifatida qarash va aralash iqtisodiyot deb atash keng tarqalgan.

„Ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyoti“ tushunchasi ilk bor Germaniyada paydo bo'lган va u yerda uning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Bundan mazkur tushuncha shu mamlakatgagina xos degan ma'no kelib chiqmaydi, albatta. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor

iqtisodiyoti bозор munosabatlарига асосланган барча мamlакатлarda кузатилувчи hodisa bo'lib, унга jamiyat taraqqiyotining tabiiy mahsuli deb qarash mumkin.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ham iqtisodiy, ham ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, *birinchidan*, mamlakat iqtisodiyotining tashkiliy tuzilishini tartibga solib turadi. Buning uchun davlat mulkchilik huquqi, pul va valuta tartibotini, raqobat qoidalari va tashqi iqtisodiy faoliyat tartib-qoidalarni belgilab beradi. *Ikkinchidan*, davlat fuqarolar va aholining alohida qatlamlari ijtimoiy ahvolini belgilovchi mezonlar qabul qiladi. Shu maqsadda mehnat va unga haq to'lash, mulkchilik va turar joy masalalari, ekologiya va hokazolarga oid tartib-qoidalarni ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining milliy xususiyatlardan kelib chiquvchi turli modellari mavjud bo'lib, ularning asosiyları *nemis*, *shved*, *golland* va *yapon* modellaridir. Keyingi yillarda jahon amaliyotiga shiddat bilan kirib kelgan yana bir model borki, uni „*o'zbek modeli*“ deb yuritiladi. Biz bu haqda 3-bobda batatsil to'xtalamiz.

### 2.3. Bozor munosabatlari va iqtisodiy raqobat

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan belgilardan biri bu iqtisodiy raqobatning mayjudligidir. Bozor munosabatlarning ishtirokchilari—tovar ishlab chiqaruvchilar<sup>1</sup> va iste'molchilar o'zlarining iqtisodiy manfaatlariga egadirlar. Bu manfaatlarni yaxshiroq va oqilona qondirish yo'lidagi ularning барча xatti-harakatlari va intilishlari raqobat kurashi tarzida namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqaruvchilar (tadbirkorlar) o'z tovarlarini yuqoriq narxda sotib, ko'proq foyda olish uchun kurashadilar, iste'molchilar kamroq xarajat qilgan holda o'z manfaatlarni ko'proq qondirishga intiladilar.

Bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlikka асосланган tizim bo'lgani uchun eng kuchli raqobat kurashi tovar ishlab chiqaruvchilar o'tasida bo'lishi tabiiy hol. Chunki har bir tadbirkor o'z mablag'ini ko'proq va tezroq foyda olishi mumkin bo'lgan sohaga kiritishga, ishlab chiqargan tovarini bozorda ko'proq va yuqoriq bahoda sotishga harakat qiladi. Natijada ham xomashyo bozorida, ham tayyor mahsulotlar bozorida tovar ishlab chiqaruvchilar o'tasida raqobat kurashi paydo bo'ladi.

<sup>1</sup> Bundan keyin „tovar ishlab chiqaruvchilar“ degan iborani uchratgанингизда shuni nazarda түтингки, унга xizmat ko'rsatuvchilar ham kiradi (qulaylik uchun shunday qilindi).

Raqobat kurashining ikki xil turi—*tarmoqichra* va *tarmoqlararo* raqobat mavjud bo'lib, ularning birinchisi bir xil tovarlar ishlab chiqarish bilan band bo'lgan tadbirdorlar raqobatidir. Tarmoqlararo raqobat esa turli xil tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurashda namoyon bo'ladi.

Endi raqobat kurashining bu ikki turi xususida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Tarmoqichra raqobat o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy taraqqiyotning juda muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bir xil ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatda „*sendan men o'taman*“ tarzida kurash ketadi. Masalan, odamlarning nonga bo'lgan talab-ehtiyojlarini qondiruvchi tadbirdor-novvoy yoki „Doka-non“ firmasi o'z mahsulotlarini ko'proq sotib, ko'proq foyda olish uchun, avvalambor, nonning sifatini yaxshilashga harakat qiladi. Biroq, o'z-o'zidan ma'lumki, nonning sifati yaxshi bo'lishi bilan uning sotuvi ko'payib qolmaydi. Uning narxi ham xaridor uchun ma'qul bo'lishi kerak. Shuning uchun tadbirdor yoki firma yopilayotgan nonning narxini tushirish uchun o'z xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlaydi.

Shunday qilib, tarmoqichra raqobat tadbirdorlardan bir vaqtning o'zida ikkita muhim vazifa bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Ularning birinchisi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'lsa, ikkinchisi ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani joriy qilish, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtira borishdir. Kam hajmda va sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirdorlar tez orada bankrotlikka uchraydi, ya'ni sinadi.

Tarmoqlararo raqobat ham bozor iqtisodiyoti sharoitida shiddatli kechadi. Sarmoya egalari o'z mablag'larini biron-bir soha yoki tarmoqqa yo'naltirishdan oldin u yerdagi foyda me'yori bilan qiziqadi. Tabiiyki, qaysi tarmoqda uning sarmoyasi ko'proq foyda keltirsra, u o'z mablag'ini aynan shu tarmoqqa kiritadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar xo'jalik amaliyotida shunday hollar ham sodir bo'ladi, tadbirdorlar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdan voz kechib, mutlaqo boshqacha tarmoqda ish yurita boshlaydilar. Buning sababi oldin sarmoya kiritilgan tarmoqda foyda me'yorining tushib ketgani va ko'proq foyda olish mumkin bo'lgan boshqacha tarmoqning mavjudligidir. Masalan, muzlatgich ishlab chiqaruvchi firma yuqorida ko'rsatilgan holat tu'sayli konditsioner ishlab chiqarishga, televizor ishlab chiqarayotgan firma kompyuterlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashuvi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ro'y beruvchi raqobat kurashini mukammal, nomukammal va monopolistik raqobatlarga ajratish mumkin.

Mukammal raqobat deganda bir xil tovar va xizmatlar taklif qilinadigan bozordagi raqobat tushuniladi. Masalan, televizorlar bozori, kompyuterlar bozori, un yoki sut mahsulotlari bozori va hokazo.

Raqobatning bu turi quyidagi belgilarga ega:

—bozordagi tadbirkorlarning erkinligi, ya'ni istagan paytda bozorga o'z mahsuloti bilan kira olishi va undan chiqib keta olishi;

—hech kimning bozorda hukmronlik qila olmasligi va boshqalarga tazyiq o'tkazmasligi;

—tovar ishlab chiqaruvchilarining halol va madaniylashgan usullar bilan raqobatlashuvi.

Nomukammal raqobat esa ayrim tovar ishlab chiqaruvchilarining hukmronlik qilishi natijasida boshqalarning iqtisodiy erkinligi cheklangan bozordagi raqobatdir. Bunday sharoitda bozorga hamma ham o'z mahsuloti bilan erkin kira olmaydi. Shuning uchun raqobat kurashi tor doiradagi tadbirkorlar va firmalar o'rtaida sodir bo'ladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasining avtomobil bozoridagi raqobatni olaylik. Bu yerda raqobat kurashi „Mercedes- Bens“, „Folksvagen“, BMV hamda „Opel“ avtогигантлari orasida boradi.

O'z tabiatiga ko'ra nomukammal raqobatga yaqin turgan va hatto, uning bir ko'rinishi bo'lgan raqobat ham borki, uni monopolistik raqobat deyiladi. Raqobat kurashining bu turiga xos bo'lgan xususiyat shundan iboratki, u yoki bu tovarlar (xizmatlar) bozorida bittagina firma tanho hukmronlik qiladi. Masalan, Asaka shahrida joylashgan O'zbekiston-Koreya avtomobil qo'shma korxonasi mamlakatimizdagi yengil avtomobillar bozorida tanho hukmronlik qiladi va hozircha u bilan bellasha oladigan raqobatchi yo'q. Biroq ushbu korxonaning raqobatchisi yo'q ekan, u kim bilan raqobatlashadi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. To'g'ri, mamlakat ichida u bilan raqobatlashadigan avtokorxona yo'q. Ammo, jahondagi 30 ga yaqin mamlakatda yengil avtomobil!ar ishlab chiqaruvchi firmalar mavjud. O'zbekiston avtomobillar bozorida ular ham qatnashishi mumkin. Shuning uchun Asakadagi zavod, birinchidan, mamlakatlararo, ya'ni xalqaro raqobatda qatnashadi va shu tufayli ishlab chiqarayotgan avtomobillarining raqobatbardoshliliginini oshirish uchun kurashadi. Ikkinchidan, u avtomobil tayyorlash uchun zarur bo'lgan butlovchi mahsulotlar bozori hamda mehnat bozoridagi raqobat kurashida qatnashadi.

Raqobat kurashining o'ziga xos bo'lgan usullari va vositalari mavjud.

Raqobat usullarini shartli ravishda madaniylashgan (ya'ni halol) va yovvoyilashgan (g'irrom) usullarga ajratish mumkin.

Halol raqobat kurashi barcha tadbirkorlar tomonidan e'tirof etilgan va tan olingen, umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi usullar

orqali kechadi. Tadbirkorlik faoliyatining asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash, ularning narxini tushirish va reklamani kuchaytirish orqali tobora ko'proq iste'molchilarni o'z tomoniga „og'dirib oiish“ kabi vositalar yotadi.

G'irrom raqobat kurashi, odatda, g'ayriinsoniy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bularga boshqa tadbirkorlarning tovarlarini ochiqdan ochiq yoki yashirin holda yomonlash, ularning texnologik yangiliklari va tovar belgilarini o'g'irlash, qo'poruvchilik, josluslik, reket va hattoki, qotillik kabi vositalar kiradi.

Raqobat kurashining g'irrom usuli va vositalari ko'proq bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk davrida uchraydi. Ammo bu rivojlangan mamlakatlar xo'jalik amaliyotida raqobat kurashi faqat halol usullar bilan olib boriladi, degan ma'noni bildirmaydi. Raqobatning g'irrom usullari, afsuski, hamma vaqt va barcha mamlakatlar xo'jalik hayotida uchrab turadi.

## 2.4. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ham, uning samarali amal qilishining ham yagona va universal tamoyili yo'q, deb aytish mumkin. Har bir mamlakatning, har bir xalqning faqat o'ziga xos bo'lgan tarixiy, ijtimoiy va milliy qadriyatlari va xususiyatlari mavjud. Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish davri ham har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda kechadi va uning amal qilishida muayyan tafovutlar bo'lishi tabiiy. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotini tizim sifatida belgilab beruvchi bir qator tamoyillar mavjud bo'lib, ularning asosiyları xususida to'xtolib o'tamiz.

*Xususiy mulkchilikning ustuvorligi.* Iqtisodiy munosabatlar tizimida mulkchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayriboshlash va iste'mol qilish xarakteri, asosan, mulkchilik munosabatlariga bog'liq. Mulkchilikning subyektlari va obyektlari mavjud bo'lib, uning birinchisiga davlat, jismoniy va yuridik shaxslar kiradi. Ikkinchisiga esa, ya'ni obyektlariga tabiiy resurslar, bino va inshootlar, asbob-uskunalar, qimmatbaho qog'ozlar, pul mablag'lari va aqliy mehnat natijalari kiradi.

Mulkchilik obyektlariga egalik qilish turli iqtisodiy tizimlarda turli bo'ladi. Rejali iqtisodiyot deb nomlanuvchi ma'muriy-buyruqbozlik tizimida mulkchilik obyektlariga, asosan, davlat egalik qiladi va xususiy mulkning ulushi juda ham kam bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa buning aksi, ya'ni mulkchilik obyektlarining aksariyat qismi xususiy mulkdorlar tasarrufida bo'lib, davlat mulki iqtisodiyotning asosini tashkil etmaydi.

Xususiy mulk, asosan, individual (bir shaxsga tegishli) mulk, oila mulki, jamoa mulki, shirkat mulki, qo'shma mulk, hissadorlik mulki, diniy tashkilotlar mulki shakllarida amal qiladi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda iqtisodiyotning ikkita bo'lagi paydo bo'ladi. Ular xususiy mulkchilikning barcha shakllarini birlashtiruvchi nodavlat sektori va davlat tasarrufidagi mulkdan iborat davlat sektoridir. Bozor iqtisodiyoti tizimining samarali amal qilishi ko'p jihatdan ana shu ikkita sektorning nisbatiga bog'liq desa bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradi-ki, xususiy mulkchilik hukmron mavqega ega bo'lgan holda, ya'ni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, asosan, iqtisodiyotning nodavlat sektorida mujassamlashganda, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari yuqori bo'ladi. Shuning uchun xususiy mulkchilikning ustuvorligi bozor iqtisodiyotining eng muhim va asosiy tamoyillaridan hisoblanadi.

*Iqtisodiy faoliyat erkinligi.* Odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati *iqtisodiy faoliyat* deb yuritiladi. Tovar va xizmatlarni yaratish, ayirboshlash va ularni iste'mol etishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin kechadi. Xususiy mulkchilik bu tizimning asosini tashkil etgani tufayli erkin xususiy tadbirkorlik butun jamiyat iqtisodiy faoliyatining asosini tashkil etadi.

Xo'jalik yurituvchi har qanday subyekt (alohida shaxs, oila, odamlar guruhi, yuridik shaxslar va h.k.) iqtisodiy faoliyatning o'ziga ma'qul va manzur bo'lgan hamda davlat qonunchiligi bilan taqiqlanmagan turini tanlaydi.

Inson o'zining jismoniy va aqliy layoqatini o'zi istagan soha (tovarlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq, tijorat, vositachilik va hokazo)ga yo'naltirishi, o'zining pul mablag'laridan o'zi xohlagan maqsadlarda (biron-bir tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, bank depozitlariga qo'yish, aksiyalar sotib olish va hokazo) foydalanish huquqiga ega.

Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyat erkinligining mavjudligi „*kim nimani xohlasa qilaveradi*“ degani emas. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan har qanday davlat ham o'zining shart-sharoitlari va umum davlat manfaatlaridan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga muayyan cheklashlar kiritadi.

*Xo'jalik yurituvchi subyektlarning teng huquqliligi.* Iqtisodiy erkinlik xo'jalik yurituvchi subyektlarning faqatgina iqtisodiy faoliyat erkinligida namoyon bo'lib qolmay, balki davlat tomonidan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarda ham o'z ifodasini topadi. Soliqlar, jarimalar, turli xil imtiyozlar davlat tomonidan belgilanadi. Agar xo'jalik yurituvchi subyektlarning biridan (masalan, xususiy firmadan) yuqori foizlarda

soliq undirilsa-yu, ikkinchisidan (masalan, davlat korxonasidan) kamroq foizlarda undirilsa, bu, albatta, adolatdan bo'lmaydi va ijtimoiy noroziliklarga sabab bo'ladi. Qaysidir mulkchilik shaklidagi subyektlarga soliq yoki bojxona imtiyozlari berilsa-yu, kimlardir bundan mahrum etilsa, bunda ham xuddi shunday adolatsizlik ro'y beradi.

Demak, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning teng huquqliligi bozor iqtisodiyotining muhim tamoyili hisoblanadi.

*O'zini o'zi boshqarish.* Jamiyatdagi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning ikkita turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi yuqoridaan beriladigan buyruq va ko'rsatmalar asosida boshqarish bo'lsa, ikkinchisi bozor munosabatlariiga tayangan holda o'zini o'zi boshqarishdir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotida o'zini o'zi boshqarish muhim tamoyil hisoblanadi. Mazkur tizim sharoitida iqtisodiy taraqqiyotni davlat boshqaruvi va menejerlar tajribasi hamda donoligi ma'lum darajada belgilab beradi. Biroq hal qiluvchi omil bo'lib erkin bozor munosabatlari va erkin baholar xizmat qiladi. Adam Smit tomonidan „*ko'rinnmas qo'l*“ deb atalgan talab va taklif iqtisodiyotni nafaqat tartibga solib turadi, balki boshqaradi ham. Tovar va xizmatlarning taklifi talabga nisbatan ko'payib ketsa, narx-navo tushadi, aks holda ular ko'tariladi. Iqtisodiyotning qaysi tarmog'i yoki sohasi ko'proq daromad keltirsa, sarmoyadorlarning mablag'lari o'sha tomonga oqib kela boshlaydi. Sifatsiz tovarlar va xizmatlar yaratayotgan korxona va firmalar iqtisodiy jihatdan sinib, o'z-o'zidan yopilib ketadi. Yuqori sifatli tovar ishlab chiqaruvchilarining omadi chopaveradi, chunki, bir tomondan, tovarga talab katta bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu tovar yuqori baholarda sotiladi.

Shunday qilib, bozor mexanizmining o'zi iqtisodiy obyektlar va jarayonlarni o'zini o'zi tartibga soluvchi va boshqaruvchi qilib qo'yadi, xo'jalik yuritishning eng oqilona usullarini tanlash, ishlab chiqarishning eng yangi texnologiyalarini joriy etishni tadbirkorlarning tabiiy ehtiyojiga aylantiradi.

*O'z-o'zini moliyalashtirish.* Har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy faoliyat ko'rsatar ekan, uning oldida bitta muhim vazifa turadi. Bu vazifa o'z mustaqilligini to'la-to'kis ta'minlashdir. Buning uchun u o'zining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha moliyaviy sarf-xarajatlarni qoplashi va olgan foydasi hisobidan o'z taraqqiyotini amalga oshirishi kerak. O'zbekona ta'bir bilan aytadigan bo'lsak, bozor iqtisodiyoti sharoitida „*har kim o'z aravasini o'zi tortishi kerak*“. To'g'ri, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mablag'lari yetarli bo'limgan hollarda bankdan kredit (qarz)lar olishi mumkin. Biroq bu ham „*o'z aravasini o'zi tortish*“ bilan teng narsa. Chunki bankdan olingan qarzlarni qaytarish, qaytarganda ham foizlari bilan qaytarish kerak.

O'z-o'zini moliyalashtirish tamoyiliga amal qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan uddaburonlik, tadbirkorlik, hisob-kitob bilan faoliyat yuritish, uzoqni ko'ra bilish va boshqa bir qator fazilatlar talab qilinadi. Iqtisodiy faoliyatning hisob-kitobini joyiga qo'ya olmagan, o'zining tovar va xizmatlariga bo'lgan joriy va istiqboldagi talabni yaxshi o'rganib chiqmagan tadbirkor foyda olish u yoqda tursin, hatto o'z xarajatlarni ham qoplay olmaydi.

*Narx-navo erkinligi.* Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi va tamoyili hisoblangan narx-navo erkinligi shuni bildiradiki, tovar va xizmatlarning bahosi davlat tomonidan emas, balki sotuvchi bilan xaridorning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Mamlakatimizda o'tgan asrning 90-yillariga qadar amal qilgan markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida tovar va xizmatlarning bahosi, qoida tariqasida, davlat tomonidan belgilanib (yoki o'rnatilib) kelinar edi. Baholar uzoq vaqt davomida amal qilar va shuning uchun tovar va xizmatlar yaratishga sarflanayotgan xarajatlarni hamma vaqt ham to'liq aks ettiravermas edi.

Undan tashqari uzoq vaqt amal qiluvchi baholar tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni ham, ularning taklifidagi o'zgarishlarni ham aks ettirish imkoniyatidan mahrum edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoni erkinlashtirish degani, albatta, barcha tovar va xizmatlarning bahosi bozorda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi kelishuv asosida shakllanadi, degan ma'noni bildirmaydi. Umumdavlat manfaatlаридан kelib chiqib, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar (masalan, paxta tolasi, oltin va boshqa qimmatbaho metallar)ning bahosini davlat belgilab beradi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin bozor baholari yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birgalikda, rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotida shartnomaviy deb ataluvchi narxlar ham keng qo'llanadi. Ular uzoq vaqt davomida sheriklik aloqalari asosida ish yurituvchi firma va korxonalarining xo'jalik amaliyotida ko'proq qo'llanadi.

*Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatlashuvi.* Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yuritishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi, tadbirkorlikni harakatga keltiruvchi kuch bu — korxonalar, firmalar va barcha ishbilarmonlar o'rtasidagi raqobatdir. Uni xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat ko'rsatish va yashash uchun kurash usuli deb ham aytish mumkin. Chunki o'z raqibidan ortda qolmaslikka, undan ko'ra yuqoriroq obro'-e'tiborga va mavqega ega bo'lishga intilish pirovard natijada ko'proq foyda olishni, yuksakroq sur'atlar bilan rivojlanishni ta'minlovchi omildir. Tadbirkorlik raqobatida yengilish, albatta, iqtisodiy jihatdan sinishni bildiradi. Shuning uchun ham, tabiiyki, hech kim raqobat kurashida yengilishni, mag'lubiyatga uchrashni istamaydi. Demak, raqobat kurashida barcha tadbirkorlar, firma va korxonalar

qatnashadi. Bozor munosabatlari amal qiluvchi har qanday davlatda raqibi bo'limgan xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi yo'q.

Raqobat kurashi iqtisodiy faoliyatning barcha sohalari: ishlab chiqarish, ayrboshlash va iste'molda mavjud bo'lib, har qanday kurashda bo'lgani kabi bu yerda ham kuchlilar yengib chiqadi va kuchsizlar yengilaveradi. Kurash maydoniga yangi-yangi xo'jalik subyektlari kirib kelaveradi. Raqobatning iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga, jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishga bo'lgan ijobjiy ta'siri mana shunda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, raqobatni bozor iqtisodiyotining tabiatiga mos tushuvchi tamoyil, deb aytish mumkin.

Biroq, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga qarama-qarshi turuvchi, uning tabiatiga zid bo'lgan yakka hukmronlik (monopoliya) omili mavjuddir. Monopoliya — iqtisodiy faoliyatning biron-bir turi bilan shug'ullanish huquqi yoki imkoniyatiga ayrim xo'jalik subyektining egalik qilishi. Monopoliyaning mavjudligi bozor munosabatlarining samarali amal qilishiga putur yetkazadi, raqobatning iqtisodiy taraqqiyotga ijobjiy ta'sirini susaytiradi. Monopoliya o'z tabiatiga ko'ra ishlab chiqarishda turg'unlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, hukmron mavqeyiga tayanib, xarajatlarni kamaytirmagan holda foyda ko'rishi va bozorda o'z hukmronligini o'tkazishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra bozor iqtisodiyoti monopoliya bilan chiqisha olmaydi. Shuning uchun bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Ushbu bobni o‘qiganda, quyidagi savollarga javob topish zarurligini yodingizda tuting:

- ◆ *Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning „o‘zbek modeli“ mohiyati nimadan iborat?*
- ◆ *Mulkchilikning qanday shakllari bozor tizimiga xos?*
- ◆ *Agrar sektor nima va unda iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishdan qanday maqsad ko‘zlangan?*
- ◆ *Bozor iqtisodiyoti tizimida narx-navo qanday belgilanadi?*
- ◆ *Bozor infratuzilmasi deganda nimani tushunasi?*

### **3.1. Bozor munosabatlariga o‘tish va taraqqiyotning „o‘zbek modeli“**

Biz yuqorida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning yagona va universal, ya’ni hamma mamlakatlar uchun yaroqli bo‘lgan yo‘li yo‘q ekanini ta’kidlab o‘tgan edik. Endi ana shu fikrni O‘zbekiston misolida tasdiqlashga harakat qilamiz.

Avvalo, shuni ayтиб o‘tish kerakki, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning parcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan jihatlari mavjud. Bular hozir tizimning mohiyati va asosiy tamoyillaridan kelib chiqadi.

Yususiy mulk shakllarining rivojlanishi uchun davlat tomonidan teng shart-sharoitlar yaratish, xo‘jalik subyektlarining teng nuquqliligini ta’minlash va ularning o‘zaro raqobatlashuv muhitini yaratish, yakka hukmronlik (monopolizm)ga qarshi siyosat o‘tkazilishi va hokazolar — bular hammasi har qanday mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tishidagi umumiylilik hisoblanadi.

Shu bilan birga, rivojlanishning bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanlagan mamlakat o‘zining tarixiy tajribasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, xalqining milliy qadriyatlari va mentalitetidan kelib chiqib, o‘ziga xos va mos bo‘lgan yo‘lini tanlaydi.

Siz, aziz o‘quvchiga ma’lumki, O‘zbekiston XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan va uning mustamlakasiga aylangan edi. 1917-yilda Rossiyada amalga oshgan davlat to‘ntarishi natijasida Sovet Ittifoqi deb ataluvchi katta bir imperiya paydo bo‘ldi va to 1991-yilga qadar mamlakatimiz ham shu davlat

tarkibida edi. Markazlashgan rejali iqtisodiyotga asoslangan sobiq Ittifoq parchalanib, O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, u hech ikkilanmay, bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanladi.

Biroq, bozor iqtisodiyotiga „*hamma dardning davosi*“ sifatida qarash yaramaydi. U keng, tekis va ravon yo'l emas. Unga o'tish hech qachon muayyan talafotlarsiz ro'y bermaydi. Shuning uchun O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov mamlakatimizni bozor iqtisodiyotiga o'tishining asosiy g'oya va tamoyillarini ishlab chiqdi.

Nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan ushbu g'oya va tamoyillar mamlakatimizni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishining yaxlit bir dasturini tashkil etadi. Bu dasturning ibratlil tomoni shundaki, u faqatgina butun mamlakatimizda yashab turgan fuqarolarning taqdirini o'ylab tuzilgan emas, balki kelajak avlodlar taqdiriga ham bevosita aloqador bo'lib, ularga ozod va obod vatan qoldirishni nazarda tutadi. Rejali iqtisodiyot tizimi hukmronligi bilan bog'liq bo'lган illatlarni tezroq bartaraf qilish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, pirovard natijada O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish dasturning bosh maqsadini tashkil etadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos va mos yo'li bugungi kunda jahonga Yurtboshimiz nomi bilan tanildi va bu yo'l adolatli tarzda taraqqiyotning „*o'zbek modeli*“ deb atalmoqda.)

Ushbu yo'lni amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotida tub islohotlar o'tkazishni taqozo etadi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, islohotlar islohotlar uchun emas, balki odamlar uchun, ularning farovonligini oshirish uchun o'tkaziladi. „Yer, yer osti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar, avlod-ajdodlarning mehnati bilan yaratilgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy kuch-qudrat va imkoniyatlar milliy boylik bo'lib, odamlar farovonligining kafolati, ijtimoiy taraqqiyot va ravnaqining asosi bo'lib xizmat qiladi“!

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi besh muhim tamoyilga tayanadi:

'Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan to'la xoli qilish va uni siyosatdan ustun turmog'i. Bu tamoyilga ko'ra, iqtisodiyot va uni barqaror hamda yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish davlat siyosatining mazmunini tashkil etadi.

Ikkinchidan, bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi vazifasini bajaradi. Buning ma'nosi shundan iboratki, davlat bu davrda butun xalq manfaatlaridan kelib chiqib, mamlakat

<sup>1</sup>I. A. Karimov. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, masakra. 1-jild. ♀., „O'zbekiston“, 1996, 37-bet.

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi. Islohotlar jarayonining tashabbuskori rolini bajaradi.

*Uchinchidan*, barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda qonun ustuvorligini ta‘minlash taqozo etiladi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundaki, iqtisodiy o‘zgarishlar va jamiyatning yangilanish jarayoni mamlakatda amal qiluvchi qonunlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

*To‘rtinchidan*, bozor munosabatlariiga o‘tish aholining kam ta‘minlangan qismini moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan qo‘shib olib boriladi. Buning uchun davlat kishilarni islohotlarga ruhan tayyorlash va ularni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli va ta‘sirchan siyosat olib boradi.

*Beshinchidan*, yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish puxta o‘y lab, bosqichma-bosqich, ya’ni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshiriladi. Bundan shu ma’no chiqadiki, bir bosqich tamomlangandan keyingina va zarur shart-sharoitlar yaratilgandan so‘ng keyingi bosqichga o‘tiladi. Iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlарining mexanizmlarini qadam-baqadam shakllantirib boradi.

„Islohotlarning „o‘zbek modeli“ hozirga qadar mavjud bo‘lgan biron modelni takrorlamaydi. O‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra u quyidagi qoidalarga tayanadi:

—ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va huquqiy-demokratik jamiyatni barpo etish;

—xalqning boy tarixiy tajribasi, mentaliteti va an‘analari hamda islohotlarning u yoki bu bosqichdagi o‘zgarishlarga tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

—bozor iqtisodiyoti tizimiga asoslangan rivojlangan davlatlarning boy tajribasidan mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutgan holda foydalanish.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning „o‘zbek modeli“ga binoan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo qilish islohotlarning ustuvor yo‘nalishi deb belgilandi.

 Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki 10 yillik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yangilanish va taraqqiyot dasturida belgilangan ko‘pgina ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lindi. Qisqa vaqt ichida yaratilgan mustahkam huquqiy me‘yorlar negizida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich kirib, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishildi.

 Ikrimizning dalili sifatida bir necha misollar va raqamlarni keltiramiz. 2000-yilda korxona va xo‘jaliklarning 88 foizini xususiy mulk, aksiyadorlik jamiyatları, qo‘shma korxonalar, kooperativlar va shirkat xo‘jaliklari tashkil etdi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 76 foizi, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaruvchilarning 70 foizi, sanoat bo‘yicha 65,4 foizi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning

99 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keldi. 1997-yildan boshlab yalpi ichki mahsulotning 4–5 foizlik yillik o'sishiga erishildi.

Eng muhim mamlakatimizning don va yoqilg'i mustaqilligiga erishildi.

Bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishini ta'minlovchi *bank*, *moliya*, *soliq tizimlari*, *xomashyo birjalari*, *sug'urta*, *auditorlik*, *lizing kompaniyalar* va *bozor infratuzilmasini* tashkil etuvchi boshqa yangi tizimlar vujudga keltirildi.

„Tarixan qisqa vaqt ichida o'tkazilgan agrar islohotlar, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishda erishilgan yutuqlar, sanoatning avtomobilsozlik, mikrobiologiya, selluloza-qog'oz, qand, farma-tsevtika kabi tarmoqlarini yangidan yaratilgani—bular hammasi taraqqiyotning „o'zbek modeli“ mevalaridir.

### 3.2. Mulkchilik shakllaridagi o'zgarishlar

Har qanday iqtisodiy tizimning amal qilishi va iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan mulkchilik shakllari va munosabatlari bog'liq. Iqtisodiy faoliyat erkinligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning turliligi va teng huquqliligi, ular o'rtaqidagi raqobat, tadbirkorlik tashabbuskorligi, o'zini o'zi boshqarish va moliyalashtirish kabi bozor tamoyillarining mavjudligi haqida yuqorida fikr yuritgan edik. Bozor iqtisodiyotining mazkur tamoyillari o'z navbatida ularga mos keluvchi mulkchilik shakllari va munosabatlarni shakllantirishni talab qiladi. Shuning uchun mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar o'tkazish dasturi, birinchi navbatda, mulkchilik munosabatlari tub o'zgarishlar kiritishni nazarda tutgani tabiiy holdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizda rejali iqtisodiyot tizimi davrida hukmron mavqega ega bo'lgan ijtimoiy mulk bir qator kamchiliklari tufayli o'zini to'la-to'kis badnom qilib, iqtisodiy taraqqiyotning to'sig'iga aylangan edi. Buning sababi shundan iborat ediki, ijtimoiy mulk hukmron bo'lgan sharoitda u xususiy mulkchilikning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi, xususiy mulkchilik rivojlanmagan mamlakatda bozor iqtisodiyoti to'g'risida so'z yuritishning o'zi hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Shuning uchun markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, avvalambor, xususiy mulkchilik shakllari va munosabatlari joriy etishni va shu maqsadda davlat mulkini xususiylashtirishni taqozo etadi.

Xususiylashtirish deganda, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, alohida shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlar tasarrufiga o'tkazishni tushunmoq kerak. Bunda sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar, uy-joy fondi va hokazolar xususiylashtirish obyektlari bo'lib xizmat qiladi.

Xususiylashtirish o'tkazilgandan keyin ular ayrim fuqarolar, banklar, aksiyadorlik jamiyatlari va boshqalarning tasarrufidagi mulkka aylanadi.

Jahon amaliyotida xususiylashtirishning ikkita shakli mavjud bo'lib, ularning birinchisi davlat mulkini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlar tasarrufiga bepul o'tkazib berish va ikkinchisi uni sotishdir.

Davlat korxonalarini tanlov yoki kimoshdi savdolari (auksionlar) orqali xususiy shaxslar, xorijiy sarmoyadorlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga va korxonalar aksiyalarini barcha xohlovchilarga sotish xususiylashtirishning eng rivojlangan usullari hisoblanadi.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutar ekan, uning oldida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, aniqrog'i, uni xususiylashtirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylandi. Shuning uchun xususiy mulk shakllari va munosabatlarini qaror toptirish mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida belgilandi.

Mustaqillikning dastlabki 10 yili ichida mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qaratilgan 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirishga davlat boshchilik qildi. Ilgari davlat ixtiyorida bo'lgan 1 mln. dan ortiq kvartiralarning 98 foizi fuqarolarning xususiy mulkiga aylantirildi, o'rta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga va ijara korxonalariga aylantirildi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kimoshdi savdolari va tanlovlardan tashkil etildi.

Agar iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida, asosan, kichik korxonalar, maishiy xizmat muassasalarini xususiylashtirilgan bo'lsa, 1994-yildan boshlab, bu jarayon o'rta va yirik korxonalarini ham qamrab oldi.

Iqtisodiy islohotlarni o'tkazishning dastlabki 10 yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish quyidagi o'ziga xos yo'nalishlari tufayli yuqori natijalar bermoqda.

*Birinchidan*, u har tomonlama puxta va uzoqni ko'zlab, mamlakat va uning alohida hududlari xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus dasturlar asosida amalga oshirildi.

*Ikkinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish chog'ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi. Ular, avvalambor, shundan iboratki, xususiylashtirilayotgan korxona xodimlari aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib olishi nazarda tutildi, yangi mulkdorlarga eskirgan asosiy vositalar bepul topshirildi, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli tarzda xususiylashtirildi. Xususiylashtirilgan korxonalar uchun soliq to'lashda ham ayrim imtiyozlar belgilandi.

*Uchinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish va mulkchilikning xususiy shakllarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi muassasalar tizimi, maxsus organlar tuzildi.

*To 'rtinchidan*, xususiy lashtirish jarayonini bosqichma-bosqich amalgal oshirish tamoyiliga qat'iy rioya qilindi. Uning birinchi bosqichida, asosan, savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalar xususiy lashtirildi. Kichik xususiy lashtirish davri deb atalgan bu bosqich 1994-yilga qadar davom etdi. Shu yilning o'rtalaridan boshlab mamlakatimizda ommaviy xususiy lashtirish davri deb ataluvchi ikkinchi bosqich boshlandi. Sanoat, qurilish, transport, agrar-sanoat majmuasi kabi tarmoqlarda o'rta va yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy mulkning turli shakllari keng rivoj topa boshladi.

*Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida eng ustuvor vazifa nimadan iborat edi?* Bu vazifa, birinchidan, xususiy lashtirish jarayoni bilan umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yirik korxonalar ham qamrab olish bo'lsa, ikkinchidan, bu jarayonga aholini va chet ellik sarmoyadorlarni ham keng jalb qilish edi. Xususiy lashtirish jarayoni ishtirokchilar tarkibining kengayib borishi, o'z navbatida, korxonalar aksiyalarining davlat ixtiyoridagi ulushining kamayib borishiga olib keldi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning mamlakatimizda joriy etilgan mexanizmining yana bir muhim xususiyati shundan iborat ediki, u mulkchilik shakllarini o'zgartirish bilan bir qatorda ishlab chiqarishning boshqaruva tizimini ixchamlashtirish va yakkahokimlikka barham berishni ham nazarda tutar edi.

Xususiy lashtirishning amalgal oshirilishi natijasida mamlakatimizda ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozori barpo etildi. Xususiy lashtirishdan tushgan mablag'lar ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirish, xususiy mulk egalariga kreditlar berish kabi maqsadlarga yo'naltirildi.

Xususiy lashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bozor iqtisodiyotining tayanchi bo'lgan tadbirkorlik harakatiga keng yo'l ochish va mamlakatimizda mulkdorlar sinfini barpo etish edi. Bugunga kelib shu narsaga xolisona guvohlik berish mumkinki, bu maqsadga izchillik va sobitqadamlik bilan erishilmoqda.

*Fikrimizning dalili sifatida keltirilgan quyidagi raqamlarga e'tibor bering.* 2000-yilda mamlakatimiz korxona va xo'jaliklarning 88 foizini nodavlat sektoriga qarashli xususiy korxonalar, aksiyadorlik jamiyatları, qo'shma korxonalar, kooperativlar va shirkat xo'jaliklari tashkil etdi. Shu yilning oxiriga kelib, nodavlat sektorining yalpi ijtimoiy mahsulot-dagi salmog'i 64 foizdan ortib ketdi. Nodavlat sektorining eng yuqori salmog'iga qishloq xo'jaligida erishildi. 2000- yilda barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99,6 foizi aynan shu sektorda yetishtirildi.

Eng muhimi, iqtisodiyotning tayanchi va harakatlantiruvchi kuchini tashkil etgan mulkdorlar sinfi shakllanib, ularning safi yildan yilga ortib bormoqda.

### **3.3. Agrar munosabatlar islohoti**

Ilmiy adabiyotlar va keng doiralarda ko'proq agrar sektor deb ataluvchi qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. 2000- yilda unga mamlakat yalpi ichki mahsulotlarining 30 foizi, respublika aholisining 63 foizi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ish bilan band bo'lganlarning 35 foizga yaqini to'g'ri keldi. Ayni vaqtida sanoat ishlab chiqarishining paxta tozalash, to'qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi kabi bir qator tarmoqlarning iqtisodiy ahvoli va istiqbollari ham hal qiluvchi darajada qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq. Qolaversa, agrar sektor mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning ham muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan agrar munosabatlarni tubdan o'zgartirish, ya'ni isloh qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi deb tan olingen.

Islohotlarning birinchi bosqichida asosiy boyligimiz bo'lган yerga munosabatni o'zgartirish yetakchi yo'nalish hisoblandi. Chunki O'zbekiston xalqining farovonligi, turmush darajasi va kelajagi ko'p jihatdan yerdan foydalanish munosabatlarini ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tizimiga qay darajada mosligiga bog'liq.

Rejali iqtisodiyot tizimi hukmronlik qilgan davrda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini boshqarish tizimi haddan tashqari markazlashib ketgan va xo'jalik yuritish usullari zamon talablariga mutlaqo javob bera olmay qolgan edi. Qishloq xo'jaligida amalda ikkita—davlat va nodavlat sektorlari mavjud bo'lib, ularning birinchisiga sovxozi va ikkinchisiga kolxozlar (jamoa xo'jaligi deb ataluvchi korxonalar) kirar edi. Lekin aslini olganda, nodavlat sektorni boshqarishda ham davlatning ishtiroki talaygina edi, desak xato bo'lmaydi. 1991-yilda barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 37 foizi davlat sektoriga va qolgan qismi nodavlat sektoriga to'g'ri kelar edi.

Eng achinarli ahvol shundan iborat ediki, xalqning asosiy boyligi bo'lган yerning bir qismi davlat mulki va ikkinchi qismi kolxoz-kooperativ mulki hisoblanar va pirovard natijada yerdan bevosita foydalanuvchi dehqonlar uning haqiqiy egasi emas edi. Shu sababli qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini qayta qurish va ularni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish zarur edi.

Buning uchun, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligida tarkib topgan sovxozi va kolxozlarni mulkchilikning boshqa (xususiy) shakllariga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish dasturi amalga oshirildi. Ishlab chiqilgan tamoyillarga binoan islohotlarning dastlabki davrida davlat xo'jaliklarini jamoa (shirkat), kooperativ, aksiyadorlik jamiyatlarini va xususiy mulkchilikning boshqa shakllariga o'tkazish jarayoni amalga

oshirildi. Islohotlarning keyingi bosqichida respublika hukumatining tegishli qarori asosida qishloq xo‘jalik korxonalarini shirkat va fermer xo‘jaliklariga aylantirish ishlari avj oldirildi. 2001-yilning birinchi choragida shirkatlar soni 1800 tadan, fermer xo‘jaliklarining soni 47 mingdan oshdi. Shu vaqtga kelib 1,8 mln. dehqon xo‘jaliklari ro‘yxatdan o‘tkazildi. Dehqon xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlari o‘rtacha bir xo‘jalikka 0,16 ga. ni tashkil etgan bo‘lsa, fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yer o‘rtacha bir xo‘jalikka 20,2 gektarga to‘g‘ri keldi.

Agrar sektorda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik munosabatlaridagi o‘zgarishlar pirovard natijada bu yerda ijobiy siljishlarga olib keldi. Eng muhim, don mahsulotlari yetkazish 2 barobardan oshdi, shu jumladan, bug‘doy 6 barobar ko‘paydi va natijada respublikaning don mustaqilligiga erishildi.

O‘tgan yillar tajribasi O‘zbekiston Respublikasining „Yer kodeksi“ga binoan, uzoq muddatli shaxsiy ijaraga asoslangan fermer xo‘jaliklari qishloqda xo‘jalik yuritishning istiqbolli shakli ekanini tasdiqladi (3.1-jadvaldagi raqamlarga qarang). Shu munosabat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „2004—2006- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Konsepsiysi to‘g‘risida“gi Farmoniga muvofiq 2004—2006-yillar mobaynida 1022 ta zarar bilan ishlovchi, past rentabelli shirkat xo‘jaliklarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish ko‘zda tutilgan.

### 3. I-jadval

#### **O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarini rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (% hisobida)**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	1992	1994	1996	1998	2000	2002
Fermer xo‘jaliklari soni	ga	5942	14236	18848	23048	43759	72406
Yer maydoni	Ming ga	45,1	193,1	351,6	446,6	889,7	1591,7
Band bo‘lgan ishchilar soni	Ming kishi	20,9	62,9	104,2	137,9	295,0	487,9
Mahsulot							
G‘alla	Ming t.	5,1	29,1	141,8	291,6	520,8	1375,6
Sholi	Ming t.	1,7	7,6	16,6	16,9	22,9	39,3
Paxta	Ming t.	0,7	28,4	158,1	269,9	493,0	981,2
Kartoshka	Ming t.	0,5	6,8	6,9	19,7	30,8	29,9
Sabzavot	Ming t.	6,5	34,9	52,8	77,4	129,4	218,6
Poliz mahsulotlari	Ming t.	4,4	24,2	27,5	29,3	33,6	78,9
Go‘sht	Ming t.	4,2	13,4	18,1	10,6	11,1	16,9
Sut	Ming t.	23,6	52,6	56,1	50,7	54,1	81,9
Tuxum	Ming dona	1,2	3,3	4,8	7,5	12,0	46,1

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi yildan yilga ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yerni chinakam egasiga topshirish orqali uning yerga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish va pirovard natijada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir. Bu degani kamroq sarf-xarajatlar hisobiga ko'proq mahsulotlar yetkazishdir. Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, *dehqon to'q bo'lsa, mamlakat boy bo'ladi*. Axir, rivojlangan mamlakatlarda ishga yaroqli aholining 4—5 foizigina qishloq xo'jaligida mehnat qilsa, bizda hanuzgacha bu ko'rsatkich 40 foizdan yuqorini tashkil qiladi.

Bundan chiqadigan xulosa shundan iboratki, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirish yaqin kelajakda davlat iqtisodiy siyosatining muhim va ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Biz bu yerda „yaqin kelajak“ iborasini ishlatdik. Shuning uchun o'quvchida „Bu ishlarni kelajakka qoldirmay, tezroq hal qilish mumkin emasmi?“ degan savol tug'ilishi tabiiy. Masalaning mohiyati shundaki, iqtisodiyot uchun ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan qishloq xo'jaligida davlatning tutgan o'rni ham katta. Jumladan, davlat qishloq xo'jalik mahsulotlariga buyurtmalar beradi, shu bilan bir qatorda uni moddiy-texnik resurslar, ya'ni o'g'itlar, kimyoziy moddalar, urug', mashina va uskunalar bilan ta'minlash va suv xo'jaligini moliyalashtirishda yordam beradi. Agrar sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat unga kreditlar berish va soliq undirishda turli imtiyozlar yaratadi.

Ko'rinish turibdiki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi davlatning aralashuvi va yordamisiz bozor munosabatlariiga mos tarzda rivojiana olmaydi. Demak, bozor munosabatlarini to'la-to'kis joriy etish, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlarini ixtiyoriy ravishda erkin sotishi va olingan foydani mustaqil tasarruf etishlariga erishish qishloq xo'jaligida birdaniga va tezda hal qilinishi murakkab bo'lgan vazifadir. Shuning uchun ham biz yuqorida „yaqin kelajak“ iborasini ishlatdik.

Agrar munosabatlarni yangilash va ularni bozor munosabatlariiga moslashtirish pirovard natijada mahsulot ishlab chiqaruvchilarining o'z mulkiga xo'jayinlik hissini mustahkamlashi lozim. Buning uchun xo'jalik yuritishga oid qonunlarning so'zsiz bajarilishiga erishish, ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish, islohotlar yo'lidagi ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etish va xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda boshqaruvning barcha bo'g'inlaridagi rahbar xodimlarning iqtisodiy savodxonligini oshirish talab qilinadi.

### **3.4. Harxlarni erkinlashtirish va bozor infratuzilmasini yaratish**

Yodingizda bo'lsa, bozor iqtisodiyotining tamoyillarini ko'rib chiqqanimizda, narx-navo erkinligi uning eng muhim belgisi va tamoyili ekanini ko'rsatib o'tgan edik. Darhaqiqat, narx-navo erkinligisiz bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan har qanday davlat oldida talab va taklif asosida vujudga keluvchi erkin bozor narxlarini amal qilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish vazifasi paydo bo'ladi.

Bu vazifani hal etish yo'llari turlichcha bo'lib, har bir mamlakat uni o'zining real sharoitlari, xalqning mentalitetlari va qadriyatlari, iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi va h.k.lardan kelib chiqib hal qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, narx-navo erkinligiga erishishning, asosan, ikki usuli mavjud bo'lib, uning birinchisida baholar birdaniga qo'yib yuboriladi, ya'ni ularni hech kim, hech qanday davlat organi yuqorida belgilamaydi. Ikkinci usulida esa narx-navo erkinligiga bosqichma-bosqich erishiladi, ya'ni islohotlarning ilk bosqichida narx-navolarning bir qismini davlat belgilaydi, qolgan qismi talab va taklif asosida shakllanadi.

Narxlarni birdaniga erkinlashtirish nafaqat xalqnini, balki davlatning o'zini ham esankiratib qo'yishini endilikda jahon tajribasi to'la tasdiqladi, desak xato bo'lmaydi. Tovarlar va xizmatlarning hamma turlari narxini birdaniga erkin qo'yib yuborish natijasida iste'mol narxları, masalan, Polshada 9 baravar va Rossiyada 26 baravar oshdi.

Narxlarning bunday erkinlashuvidan xalqning qanday aziyat chekkanini va davlatning qanday ahvolga tushib qolganini o'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tar ekan, narx-navoni erkinlashtirishning o'ziga xos bo'lgan va o'zbekona deb aytilishi mumkin bo'lgan ikkinchi usulini tanladi. Balkim „tanladi“ degan so'z bu yerda mutlaqo to'g'ri ishlatilmagandir. Chunki mamlakatimizda respublika Prezidenti I.A. Karimovning rahbarligi va tashabbusi bilan narxlarni erkinlashtirishning o'ziga xos yondashuvlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Mazkur yondashuvlar narxlarni erkinlashtirishning „esankiratuvchi“ usulini qat'ian rad etgan holda, ularni asta-sekin erkinlashtirishni nazarda tutadi va bu bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarni bozor sharoitiga moslashtirib boradi.

1992-yilning yanvaridan boshlab aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli choralarini avvaldan belgilab olgan holda narxlarni erkinlashtirish boshlandi. Chegaralangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari narxlarining chegarasi davlat tomonidan belgilab qo'yildi. 1993-yildan boshlab mazkur tovarlar va xizmatlarning ro'yxati anchagini qisqartirildi va ulgurji baholarni davlat tomonidan tartibga solish batamom to'xtatildi.

1994-yilga kelib, deyarli hamma turdag'i xomashyo va tovarlarga erkin baho o'rnatishga o'tildi va iste'mol narxlari ustidan davlat nazorati to'xtatildi. Shu narsani aytib o'tish joizki, narx-navoni erkinlashtirish jarayoni ijtimoiy larzalarsiz sodir bo'ldi. Buning uchun arzonlash-tirilgan davlat narxlari qo'llandi, aholining pul daromadlari oshirildi, eng kam ish haqi, nafaqalar va stipendiyalarning miqdori muntazam ravishda oshirib borildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga mahalla qo'mitalari orqali moddiy yordam ko'rsatish tizimi va imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

Davlat mulkini xususiylashtirish va narx-navo erkinligiga yo'l ochib berish iqtisodiyotda raqobat muhiti yaratishni taqozo etadi. Zero, bozor munosabatlarining to'laqonli amal qilishi uchun, avvalambor, tovar va xizmatlarning narxini belgilashdagi yakkahokimlik (monopoliya)ga qarshi kurash choralarini amalga oshirish va bozor infratuzilmasini yaratish vazifalarini hal etish zarur edi.

Shu munosabat bilan respublika Moliya vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi kurash siyosatini olib borish vakolatiga ega bo'lgan boshqarma tuzildi. Uning asosiy vazifasi etib yakkahokimlik mavqeiyiga ega bo'lgan korxonalarining mahsuloti bo'yicha narxlarni tartibga solib turish belgilandi. Shu bilan birgalikda, bozor munosabatlarining samarali amal qilishini ta'minlovchi tegishli infratuzilma bo'linmalari va sohalarini yaratishga kirishildi. Chunki respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, „*Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhitsiz – tovar, pul bozorida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan bozor infrastrukturasisiz tasavvur etib bo'lmaydi*“.<sup>1</sup>

Bozor infratuzilmasi deganda, bozor munosabatlarini samarali amal qilishini ta'minlovchi savdo-vositachilik bo'linmalari, moliya-bank tizimi, sug'urta, auditorlik va konsalting firmalari, transport, aloqa, axborot tarmoqlari kabi tuzilmalarni tushunmoq kerak.

---

<sup>1</sup>I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirish yo'lida. T., „O'zbekiston“, 1995, 96-bet.

Bozor infratuzilmasini shakllantirish uchun, avvalambor, korxonalarini fondlashtirilgan resurslar bilan ta'minlash tartibi mahsulotlarni erkin (kelishilgan) narxlar asosida xarid qilish bilan asta-sekin almashtirildi. Bunday sharoitda korxona va firmalarning o'zaro shartnomaviy aloqalarini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur aloqalarni o'rnatish maqsadida Respublika tovar-xomashyo birjasi tashkil etildi. Bu hol o'z navbatida brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uyulari hamda vositachilik firmalarining paydo bo'lishiga olib keldi.

1994-yildan boshlab mamlakatimizda kredit resurslari bozori shakllanib, bozor munosabatlarining faollahuviga ko'maklasha boshladi. Kreditlarning tanlov asosida taqsimlanishi natijasi o'laroq, moliya bozori shakllandı.

Moliya bozorining paydo bo'lishi va rivojlanishi o'z navbatida bozor munosabatlariga mos bo'lgan bank-kredit tizimini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda rejali iqtisodiyot hukmronligi davrida shakllangan bank tizimi qayta ko'rib chiqildi va mutlaqo yangi bir tizim shakllantirildi. Bank va bank muassasalari majmuasidan iborat bo'lgan mazkur tizimning jahon mamlakatlari xo'jalik amaliyotida ikki turi mavjud bo'lib, ular bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli tizimlardir.

O'zbekistonda ana shu tizimlarning ikkinchisi, ya'ni ikki bo'g'inli bank tizimi yaratildi. Bunday tizim sharoitida Markaziy bank mamlakatda pul muomalasini tashkil qiluvchi va uning ustidan nazorat olib boruvchi asosiy bo'g'in vazifasini bajaradi. Mustaqil, biroq Markaziy bank nazorati ostida faoliyat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan („Paxtabank“, „G'allabank“, „Uy-joy jamg'arma banki“ va hokazo) va tijorat banklari ushbu tizimning ikkinchi bo'g'ini hisoblanadi.

O'tgan yillar tajribasi mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar munosabati bilan yaratilgan bank tizimining oqilona va samarali ekanini to'la tasdiqladi. Ixtisoslashgan va tijorat banklari mamlakatimizda bozorning faol ishtiroychilarini sifatida pul orqali bozor ishtiroychilarining faoliyatiga daxldor vazifalarni hal qilishda qatnashmoqdalar va bozor munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqdalar.

Moliya bozorining to'laqonli amal qilishi uchun sug'urta tizimini qayta qurish va uni bozor munosabatlariga moslashtirish talab qilinar edi. Shuning uchun respublikaning davlat sug'urtasi qaytadan tashkil etildi va uning yangi sharoitdagi vazifalari belgilab berildi. Vaqt o'tishi bilan sug'urta tizimi ham takomillasha bordi va endilikda mamlakatimizda davlatga qarashli bo'Imagan 40 dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishsizlik muammosi birmuncha keskinlashdi. Buning sababi ommaviy xususiy lashtirishni amalga oshirish munosabati bilan nafaqat malakasiz kishilarni, balki muayyan mutaxassislikka ega bo'lgan xodimlarni ham vaqtincha ishsizlar toifasiga o'tib qolishidir. Mazkur holat mamlakatimizda ishsizlik muammosini yengillashtirishga ko'maklashuvchi mehnat birjalarini paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi kunda yirik shaharlarda o'nlab va har bir tumanda bittadan mehnat birjalari faoliyat ko'rsatib, ular ishsizlarni ishga joylashtirish va ularning sonini ko'payishiga yo'l qo'ymaslik choralarini amalga oshirmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozor infratuzilmasini yaratish, bu — bir kunlik yoki bir yillik vazifa emas. O'tgan davr ichida mamlakatimizda bu tuzilma, asosan, shakllanib bo'lgani bilan uni islohotlarning yangi bosqichlarida muntazam tarzda rivojlantirib va takomillashtirib borish talab qilinadi.

---

Ushbu bobni o‘qiganda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

- ◆ *Marketing tadqiqotlari nima?*
- ◆ *Nima sababdan marketing bozor iqtisodiyotining muhim unsuri hisoblanadi?*
- ◆ *Marketingning strategik rejalashtirish bilan bog‘liqligi nimadan iborat?*
- ◆ *Xalqaro marketingning mohiyati va zaruriyati nimadan iborat?*

## 4.1 Marketing deganda nimani tushunamiz?

Bozor sharoitlari va uning o‘ziga xos xususiyatlarini, undagi raqiblar salohiyati-yu raqobat usullarini, muayyan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va u yerda mavjud bo‘lgan taklifni puxta va atroflicha o‘rganish tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar uchun yutuq va barqarorlik garovidir. Ana shu aytib o‘tilgan ishlarni amalga oshirish hozirgi zamon tilida *marketing* deb yuritiladi.

Bozor mexanizmining asosiy elementlari (tovarlar taklifi, xaridorlar talabi, narx-navo) bir-biri bilan shu qadar uzviy bog‘liqliki, ularni o‘rganmay turib, bozordagi jarayonlarni to‘g‘ri tushunib yetish anchagina mushkul ishdir. Shuning uchun xo‘jalik amaliyotining chalkashliklari, uning sir-u asrорlarini bilmоq uchun har qanday tadbirkor, birinchidan, maxsus bilimlarga ega bo‘lmоg‘i va ikkinchidan, marketing tadqiqotlarini muntazam o‘tkazib turmog‘i lozim.

Marketing faoliyati tijorat ishlarida xavf-xatarni kamaytirish, mavjud sharoit-u vaziyatlarning eng maqbulini tanlab olish, ishlab chiqarish sotuvning yuqori foyda berib turishini ta’minlash va xaridorlar uchun to‘g‘ri keladigan baholarni belgilashga yordam beradi. Marketingning asosiy tamoyillari bozorni bilish, bozorga moslashish va bozorga ta’sir o‘tkazishdan iboratdir.

Bozorni bilish deganda, iste’molchilarni har tomonlama o‘rganish, ularning did va istaklarini bilish ko‘zda tutiladi. Demak, bozorga moslashish muayyan talabni qondiradigan mahsulotlarnigina ishlab chiqarmoqni bildiradi. Nima ishlab chiqarilgan bo‘lsa, shuni sotmaslik, balki bozortalab mollarnigina ishlab chiqarmoq zarur. Bozorga ta’sir o‘tkazish talabni shakllantirish demakdir, ya’ni tovari yaratish bilan iste’molchini ham „*yaratmoq*“ lozim.

Marketingning umumiy tamoyillari va vazifalariga qarab, faoliyatning aniq yo'nalishlari va mazmuni belgilanadi. Ularning orasida eng muhimlari: bozorni atroflicha o'rghanish, mahsulot turlarini rejalashtirish, mahsulot sifatini qiyomiga yetkazish, tovar reklamasini tashkil qilish, uning eng maqbul bahosini belgilash hamda savdosini tashkil etishdir.

Marketing bozor iqtisodiyotining muhim elementi bo'lib, mammalakatimizda xo'jalik subyektlari va tadbirdorlar uni o'zlashtirish va tashkil qilish sohasida muayyan natijalarga erishdilar. Korxona va firmalarda marketing xizmati bo'limi tashkil etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan marketing xizmatining samaradorligiga bog'liqdir.

Biroq shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, marketing xizmatini tashkil qilish muayyan sarf-xarajatlar qilish va sabr-toqat ko'rsatishni talab etadi, buning ustiga darrov samara ham bera olmaydi. Bu ish, bir tomonidan, iste'molchilarni yetarlicha yuqori bo'lgan talablariga va xarid qobiliyatlariga, ikkinchi tomondan, tovarlar va xizmatlarni tanlash erkinligiga mos keladigan bo'lishi kerak.

Marketingni joriy etish tashkiliy shart-sharoitlar yaratishni talab etadi. Korxonalar ishini rejalashtirish va uni boshqarish, ichki va tashqi savdo aloqalari tizimini yaratish, shuningdek, tovarlar bilan yuqori darajada ta'minlangan bozor kanallari bo'yicha tayyorlangan mahsulotlarni sotish shular jumlasidandir.

Iqtisodiyotimizning hozirgi ahvoli, aksariyat hollarda talablarni qondira olmay kelayotgani, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi nomutanosibliklar mavjudligi sharoitida marketingdan foydalanishga ehtiyoj va imkoniyat yo'qdek ko'rindi. Biroq aynan marketing shu qiyinchiliklarni yengib o'tishga, talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblik o'rnatishga yordam berishini yoddan chiqarmaslik kerak.

**Marketing** — korxonalar uchun mahsulot sifatiga, uning raqobatbardoshligiga qo'yiladigan o'ziga xos talablarni o'rghanish orqali tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish, aniq talab darajasini hisobga olgan holda tovarlarni bozor kanallari orqali mohirlik bilan o'tkazish imkoniyatidir.

Talab bilan taklif o'rtasida bir qadar nomutanosiblik mavjud bo'lgan sharoitda tovarlarni egasiga borib yetadigan qilib ishlab chiqarish va oxirgi iste'molchiga kam-ko'stsiz yetkazib berish juda ham muhimdir. Marketing ana shunga imkon ochadi. Marketing yordamida ko'pgina muammolarni hal qilish mumkin: talabga ta'sir o'tkazish, uning tarkibini o'zgartirish, ishlab chiqarishni bozor talablariga moslashtirish va h.k.

Shunday qilib, marketing xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan tizimida korxona va firmalar uchun strategik

ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni hal etishga ko'maklashadi. Quyida talabning turli holatlari va marketing xizmatining ularga mos keladigan vazifalarini keltiramiz.

1. *Manfiy talab*. Agar xaridorning ko'pchilik qismi tovarni qabul qilmasa va undan qochadigan bo'lsa, bunday bozor manfiy talab holatida bo'ladi. Bunday sharoitda marketing xizmatining vazifasi bozor nima sababdan tovari yoqtirmayotganini tahlil qilish va tovari qayta ishslash, baholarni pasaytirish yo'li bilan uni sotishni birmuncha jonlantirishdan iboratdir.

2. *Talabning yo'qligi*. Iste'molchilar tovarga qiziqmasligi yoki unga befarq qarashlari mumkin. Bunday hollarda marketingning vazifasi tovarga xos bo'lgan xususiyatlarni insonning tabiiy ehtiyojlari va istaklari bilan bog'lash yo'llarini topishdir.

3. *Yashirin talab*. Ko'pgina iste'molchilarda bozorda mavjud bo'lgan tovarlar yoki xizmatlar yordamida qondirib bo'lmaydigan ehtiyojlar bo'lishi mumkin. Marketingning vazifasi ana shu tovarlar va xizmatlar bozorining hajmiga baho berish va talabni qondira oladigan xaridorgir tovarlar hamda xizmatlar yaratishni yo'lga qo'yishdir.

4. *Kamayib boradigan talab*. Har qanday korxona (firma) ham o'zining u yoki bu tovariga bo'lgan talab kamayib qoladigan holatga ertami-kechmi duch keladi.

Bunday sharoitlarda marketing xizmati nima sababdan talab kamayib borayotganini tahlil qilib chiqishi va yangi bozorlarni qidirib topishi, tovar xarakteristikalarini o'zgartirish yoki birmuncha samarali aloqalarni o'rnatish yo'li bilan tovarlarni o'tkazishni yana jonlantirish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashi kerak bo'ladi.

5. *Nomuntazam talab*. Ko'pgina tovarlar (xizmatlar)ga talab mavsum sayin, kun sayin va hatto soat sayin o'zgarib turadi. Masalan, aviachiptalarga bo'lgan talab yozgi mavsumda ortib ketadi, jamaot transportining ko'pchilik qismi kunduzgi osoyishtalik paytida bo'sh turadi va odamlar qatnab turadigan saatlarda ularni tashib uddalay olmaydi. Bunday sharoitda marketingning vazifasi baholarni o'zgartirish, transport qatnovi jadvalini takomillashtirish va hokazoga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdir.

6. *To'la qimmatli talab*. Tadbirkorlar o'zlarining tovarlari (xizmatlari) aylanmalaridan qoniqadigan bo'lsalar, ana shu to'la qimmatli yoki to'laqonli talab deyiladi. Marketingning vazifasi talabni mavjud darajasini saqlab qolish maqsadida ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati to'g'risida tinmay qayg'urib borishdir.

Marketing strategiyasining zarur elementi bozor qatnashchilari faoliyatini hisobga olgan holda bozorga chiqadigan mahsulotlarning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini belgilab olishdir.

Korxonaning umumiy strategik maqsadi belgilab olingandan so'ng uni amalga oshirishga doir zarur choralar bat afsil ishlab chiqiladi. *Bular.*

—bozorga qanday tovari qanday assortimentda va qanday baholar bilan kiritish;

—tovarni rejalashtirilgan miqdorda sotish uchun qanday shart-sharoitlar kerakligini aniqlash;

—tovarlarni yetkazib berish qanday kanallar orqali va qanday hajmlarda amalga oshirilishini belgilash;

—talabga ta'sir ko'rsatish va sotuvni rag'batlantirish uchun qanday vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlash;

—sotuvdan keyin ko'rsatiladigan xizmat qanday bo'lishi va uni kim amalga oshirishini belgilab olish.

Marketing faoliyatining taktikasini belgilab beruvchi mana shu masalalarni biron bo'g'inida uzilish bo'lib qolishi mo'ljalidagi barcha ishlarning barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Marketing faoliyatining tayyor yo'l-yo'rig'i yo'q. Talabga ta'sir ko'rsatishning usul-amallari har bir korxona va bozorga kiritiladigan har bir tovar uchun yangidan ishlab chiqiladi. Chet mamlakatlarda buning uchun maxsus firmalar va institutlar tashkil etilgan. Yirik korxonalardan birontasi marketing bilan shug'ullanadigan maxsus bo'limsiz (yoki xizmatsiz) „tirkchilik“ qila olmaydi.

Marketing faoliyatida reklama muhim vosita hisoblanadi. Reklamaning vazifasi—mavjud bozor segmentini mustahkamlab, yangi-yangi xaridorlarni topib borish, yangi bozorlarni shakllantirish orqali iste'molchilar doirasini kengaytirishdir. Biroq, xaridorning psixologiyasi uchun firmanın iste'mol bozoridagi obro'-e'tibori va tovar markasining muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

Sotuvni rag'batlantirish marketing vazifalaridan biri bo'lib, bozorga kiritiladigan tovar realizatsiyasini rejalashtirilgan miqdorga yetkazishga imkon beradi. Demak, u qilingan sarf-xarajatlarning o'mini to'ldirib, foya olishga imkon beradi. Sotuvni rag'batlantirish uchun yarmarka va ko'rgazmalar singari faol shakklardan, maxsus savdo agentlarining xizmatlaridan, shuningdek, imtiyozli baholar qo'yish usullaridan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, marketing bizning xo'jalik hayotimizga bozor iqtisodiyoti bilan birlgilikda kirib kelgan tushuncha bo'lib, uni yaxshilab o'zlashtirish, joriy qilish har qanday korxona yoki firma ish faoliyatining yuqori samaradorligiga xizmat qiladi. Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, marketingni tashkil qilishning yagona va tayyor sxemasi yo'q. Har bir korxona yoki firma o'z xo'jalik faoliyatining xarakterini, tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqib

va savdoni yagona texnologik jarayonga birlashtirib, o'zining marketing dasturini ishlab chiqadi.

**Xo'sh, nima uchun marketing xizmatini o'z vaqtida va oqilona tashkil qilish korxona(firma) faoliyatini yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan amalga oshirish imkonini beradi?** Umumlashgan holda bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

*Birinchidan*, marketing xizmati tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni bozor talablariga moslashtiradi.

*Ikkinchidan*, tayyorlangan mahsulotlarni o'z vaqtida va to'la-to'kis sotilishiga ko'maklashadi.

*Uchinchidan*, bozordagi talabning o'zgarishini oldindan bashorat qilgan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tarkibi va sifatiga tegishli tuzatishlar kiritib, behuda sarf-xarajatlar qilinishi va keraksiz tovarlar ishlab chiqarilishining oldini oladi.

*To'rtinchidan*, bozor jug'rofiyasi va narx-navosini o'rganish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotni qaysi hudud, mintqa va mamlakatlarda qanday baholar bilan sotish bo'yicha takliflar kiritadi.

Va nihoyat, marketing xizmatining muhim vazifasi — ishlab chiqarilayotgan tovarlar reklamasini amalga oshirish bo'lib, bozorlar tovarlar bilan tobora ko'proq to'yinib borayotgan hozirgi davrda ta'sirchan reklamaning korxona(firma) faoliyati uchun ahamiyati juda kattadir.

Xorijiy firmalar, xususan, rivojlangan mamlakatlarda tovar va xizmatlar reklamasiga juda katta ahamiyat berishadi va buning uchun o'z mablag'larini ayamasliklari bejiz emas.

Bozor munosabatlarga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham tovar ishlab chiqaruvchilar buni tobora yaxshiroq anglab yetmoqdalar va reklama ishiga o'z e'tiborlarini kuchaytirmoqdalar.

## **4.2. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda marketingning roli**

Mamlakatimizda XX asrning 90-yillariga qadar hukm surgan va ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimi davridagi eng katta illatlardan biri bu—talab bilan taklif o'rtasidagi nomutanosibliklar bo'lib, uning asosiy sababi ishlab chiqarishning bozor talablariga moslashmagani edi. Moddiy ta'minotdagi yetishmovchiliklar, fan-tekhnika taraqqiyotining pastligi, reklamaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, iqtisodiyotni rejalahtirish tizimining takomillashmaganligi, bozorda ro'y berayotgan jarayonlar to'g'risidagi axborotlarning yetarli bo'Imaganligi va boshqa sabablar natijasi o'laroq, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligi achinarli ahvolda edi.

Endilikda, bozor iqtisodiyotiga amal qilinayotgan sharoitda, respublikamiz iqtisodiyotida vaziyat tubdan o'zgardi. Bozor munosabatlari talab va taklifga samarali ta'sir o'tkazish, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, bu sohada turli mamlakatlarda to'plangan ijobjiy tajribani o'rganish va marketing tamoyillarini to'la-to'kis o'zlashtirishni talab qilmoqda.

Jahon tajribasi shu narsadan dalolat beradiki, bozorga marketing yo'li bilan yondashish va ishlab chiqarishni shu yondashuv assosida tashkil qilish har qanday firma yoki kompaniya muvaffaqiyatining garovi bo'lib xizmat qiladi. Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti tabaqlashib, ehtiyojlar o'sib borgani, fantexnika taraqqiyoti kuchayib, xizmat ko'rsatiladigan sohalar kengaygani va raqobat keskinlashgani sayin marketing strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish va amalga oshirishga bo'lган ehtiyoj ortib boradi. Chunki marketing bozorni har tomonlama tahlil qilish, barcha ijtimoiy va iqtisodiy jihatlardan, jumladan, baholar siyosati jihatidan uni tartibga solish, talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tovar ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish, barcha turdag'i xizmatlarni rivojlantirish omilidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalardagi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy va eng muhim ko'rsatkichi foyda hisoblanadi. Daromadlar korxona faoliyatiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini yo'qotib boradi. Rejalahtirish bevosita mehnat jamoalari qo'liga o'tib, rejalar aholining tovar va xizmatlarga, ishlab chiqarishning esa mashinalar, afsob-uskunalar va boshqa ishlab chiqarish vositalariga bo'lган ehtiyojlarini hisobga olish uchun bir mo'ljal bo'lib qoladi. Shu sababli korxonalarda marketing faoliyati dasturlarini shakllantirishning asosiy qoidalaridan biri ishlab chiqariladigan va bozorda sotiladigan mahsulotning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini birga qo'shib olib borishdan iborat bo'lmos'hish kerak.

*Xaridor muayyan mahsulotning qanday ko'rinishda bo'lishini istaydi, bu mahsulotga qayerda va qancha talab paydo bo'ladi?* Bu savollar puxta o'rganilib, har bir muhandisga, konstruktorga va ishlab chiqaruvchiga yetkazilishi lozim. Marketing mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarishni rejalahtirish, iqtisodiy tahlil, taqsimot, sotish va sotilgan mahsulotga xizmat ko'rsatish kabi masalalarga ta'sir ko'rsatishi lozim.

Korxonalar uchun marketing mahsulot sifatiga, uning raqobatbardosh bo'lishiga qo'yiladigan o'ziga xos talab, turli tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga undaydigan rag'bat, aniq talab darajasini hisobga olish va tovarlarni bozor kanallari orqali mohirlik bilan o'tkazish imkoniyatidir.

Talab va taklif bir qadar nomutanosib bo'lib turgan hozirgi sharoitlarda tovarlarni egasiga yetib boradigan qilib, tejamkorlik bilan ishlab chiqarish va oxirgi iste'molchiga yetkazib berish juda muhimdir.

Marketing ana shunga imkoniyat ochadi. Marketing talabga ta'sir o'tkazish, uning tuzilishini o'zgartirish, ishlab chiqarishni bozor sharoitlariga qarab kengaytirish kabi muammolarni hal qilish omilidir.

Bugungi kunda talab va taklifni muvozanatlashtirishga imkon beradigan iqtisodiy omillarni topish zarur. Mulkchilikning turli shaklidagi korxonalar ham, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan kishilar ham ana shundan manfaatdor.

Marketing bozorni aniq (tayin) tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganishi va shu asosda uzoq muddatli va yillik dasturlarni ishlab chiqishi hamda ularni amalga oshirishi zarur. Shu munosabat bilan bozor obyektlari va subyektlari degan tushunchalarni farqlamoq zarur.

Bozor obyektlari deganda, unga kiritiladigan tovarlar va xizmatlar tushuniladi. Bozor subyektlari esa ularni ayirboshlash ishlarida qatnashadigan tovar yetkazib beruvchilar va iste'molchilardir.

Bozor subyektlariga ishlab chiqarish korxonalar, muassasalar (o'quv yurtlari, kasalxonalar va boshqalar) va uy xo'jaliklari (oilalar va shaxsiy iste'molchilar) kiradi.

Shaxsiy iste'molchilar bozorning eng muhim subyektlari hisoblanadi. Shular jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib oladigan oxirgi xaridorlardir.

Korxonalar ham sotuvchilar bo'lib, ham bozorga chiqariladigan tovarlarni yaratish uchun kerakli xomashyolar, ishlab chiqarish vositalari va xizmatlarni sotib oluvchi xaridorlar bo'lib maydonga chiqadi.

Bozorning faoliyat ko'rsatib borishi uchun milliy iqtisodiyotning turli sohalari va idoralariga qarashli korxonalar o'rtaida gorizontal aloqalar yuzaga kelishi muhim shart hisoblanadi. Bu aloqalarni boshqarish organlari (vazirliklar, idoralar)ga ega bo'lgan asosiy xo'jalik bo'g'inining vertikal aloqalari to'ldirib boradi. Gorizontal va vertikal aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdirdagina bozor samarali faoliyat ko'rsatadi. Bu aloqalarda qing'irliklar bo'lsa, bozor muvozanati buziladi. Marketing yo'li bilan yondashuv bozorda qaror topgan aloqalarning maqbulligini aniqlashga imkon beradi.

Reja asosiy o'ringa qo'yilgan davrlarda ishlab chiqarish jarayonini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash va ma'muriy yo'l bilan har xil shaklda nazorat olib borish hal qiluvchi, bosh yo'nalish hisoblanar edi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning strategiyasi ham, taktikasi ham o'zgaradi. Asosiy e'tibor ishlab chiqariladigan mahsulot assortimentini yaxshilash, tovar taklifi tuzilishini takomillashtirish, uni talabga ko'proq mos tushadigan holga keltirishga qaratiladi.

*Marketingning ishlab chiqarishni rivojlantirishga ijobiy ta'sirini kuchaytirish quyidagilarni taqozo etadi:*

—bozor vaziyatini chuqr tahlil qilish va uni qay tariqa rivojlanib borishini oldindan bilishni;

—gorizontal aloqalarni yo'lga qo'yishda ma'lum darajada erkin bo'lishni;

—tijorat ishlaridagi raqobatga aloqador xavf-xatarni hisobga olib, o'z mavqeyiga ega bo'lishni;

—konyunkturaga ta'sir o'tkazadigan texnologik va tashkiliy siyosat olib borishni;

—bozordagi raqiblar to'g'risida zarur axborotni yig'ib, ishlab chiqish va tahlil qilishni;

—ish yuzasidan muzokaralar olib borish va yechimlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yuqori malakali marketolog mutaxassislar va rahbarlar tayyorlashni.

Korxonalarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mustaqilligi ulardan ishlab chiqarish natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni ko'zda tutadi. Ba'zi korxonalar javobgarlikni o'z zimmalariga olishdan qo'rqib, xo'jalik yuritishda erkin bo'lishni xohlamaydilar. Bu ularning moliyaviy ahvoli va bozordagi mavqeyiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Marketing nuqtayi nazaridan fikr qilish, ya'ni unga tayangan holda ish yuritish ko'ngilga tushadigan qo'rquvni bartaraf etadi.

Iste'molchi talabini korxona qay darajada qondira olayotgani haqida, albatta, faqat iste'molchi aniq bir fikr ayta oladi. Buni ular o'sha korxona mahsulotini sotib olishi (yoki tanlashi) orqali namoyish etadi. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilardan marketing xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish orqali o'z iste'molchilari bilan uzoq muddatli aloqalarni amalga oshirish talab qilinadi.

Yana shuni aytib o'tish joizki, bozorga taklif etilayotgan tovarlar assortimenti o'rtacha iste'molchiga mo'ljallanadigan bo'lsa, bundan, avvalambor, tovar ishlab chiqaruvchi ziyon ko'radi, chunki iste'molchining o'rtachasi bo'lmaydi. Shuning uchun marketing xizmati iste'molchining hamisha yuqori did va yuksak talabini nazarda tutgan holda ish yuritishi lozim.

Marketing iste'molchilardan ishlab chiqarish va savdo korxonalariga uzlusiz axborot kelib turishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida tovar assortimentini ko'paytirish, uni sotish sharoitlariga zarur o'zgarishlar kiritish, xaridorga ta'sir o'tkazish va hokazolar orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona (firma)lar o‘z faoliyatini samarali olib borishga harakat qilib, tobora uzoqroq muddat uchun oldindan strategik rejalashtirish usulidan foydalanadi. Bozordagi o‘zgarishlar va fan-texnika taraqqiyoti yo‘nalishlarini tahlil qilish asosida korxona (firma)ning strategiyasini ishlab chiqish uchun negiz bo‘ladigan umumiy maqsadlar belgilanadi. Korxona (firma)ning strategiyasi faoliyatning bosh dasturini, marketing, moliya, tashkiliy faoliyat, kadrlar siyosati va boshqa sohalardagi rejalar hamda resurslar taqsimotini aks ettiradi.

Strategik rejalashtirish korxona (firma) faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish sohasidagi barcha harakatlarning maqsadga muvofiq yo‘nalishini aks ettiradi. So‘ngra har bir yo‘nalish bo‘yicha bat afsil rejalar tuziladi. Ular orasida tovar nusxasini yaratishdan boshlab, to pirovard sotishga qadar tovar harakati jarayonlarini qamraydigan marketingni rejalashtirish alohida o‘rin egallaydi. *Mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha marketing rejasi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:*

- asosiy ma’lumotlar;
- joriy marketingga oid vaziyat bayoni;
- xavf-xatar va imkoniyatlar tavsifi;
- marketing strategiyasi;
- harakatlar dasturi;
- budget va nazorat.

Mazkur bo‘limlarning ayrimlari ustida to‘xtab o‘tamiz. Asosiy ma’lumotlarga tovar xarakteristikasi, unga bo‘lgan talabning hozirgi holati va kelajakda o‘sishi, uning raqobatbardoshligi kiradi.

Joriy marketingga oid vaziyat harakatdagi bozor, uning hajmi, iste’molchilar tarkibi, raqiblar, o‘ziga xos boshqa omillarning holati, shuningdek firmaning shu bozordagi mavqeyini aniqlab beradi.

Xavf-xatar va imkoniyatlar bo‘limida tovarlarning bozorda sotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitlar ko‘rib chiqiladi. Bularga fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlari, jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar, bozordagi muhitning o‘zgarishlari va umuman, firmaning ishlab chiqarishiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa omillar va hodisalar kiradi.

Keyingi bo‘lim—*marketing strategiyasi* bo‘lib, unda korxona (firma) imkoniyatlarini bozordagi holatga muvofiqlashtirish va qo‘yilgan maqsadlarga erishishning kompleks vositalari belgilanadi. Ushbu strategiyani ishlab chiqish jarayonida maqsadga muvofiq bozorni tanlash, bozorda o‘z segmentiga ega bo‘lish, bozorga chiqish usullari va marketing vositalarini tanlash, bozorga chiqish vaqtini belgilash,

boshqarishning korxona (firma) strategik maqsadlariga mos keladigan tashkiliy tarkibini tanlash kabi ishlar amalga oshiriladi.

O'zaro bir-birini to'ldiradigan ikkita marketing strategiyasi mayjud bo'lib, ularning bittasi mahsulotga nisbatan strategiya va ikkinchisi bozorga nisbatan strategiyadir.

Mahsulotga nisbatan strategiya mahsulotni bozorda sotish usullarini aniqlaydi, bozor ehtiyojlarini tadqiq etish va hisobga olishni buyumning sisat va qiymat tavsisifini rejalahtirish negiziga qo'yadigan tamoyilga tayanadi. Ushbu strategiya bozor rivoji va korxona (firma) ishlab chiqarishining o'ziga xos sharoitlariga qarab uch variantga bo'linadi: past xarajatlar strategiyasi, tabaqalashtirish strategiyasi, tor ixtisoslashuv strategiyasi.

Raqiblar orasida yetakchi mavqeni egallaydigan korxona (firma)lar, odatda, tabaqalangan strategiyadan keng foydalanadi. Mahsulotni tabaqalashtirishning asosiy usullaridan biri yuksak sifat va raqib mahsulotiga qaraganda alohida iste'mol xossalarni ta'minlashdir. Sanoat mahsuloti uchun unumidorlik, xomashyo, yordamchi materiallar va energiya sarfi, xizmat ko'rsatish sohalari uchun mehnat sarflari asosiy omillar hisoblanadi. Keng iste'mol mollari uchun texnologiyaning standartlarga muvofiqligi, qulayligi, estetik ko'rinishi va boshqa sifat mezonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabaqalashtirish strategiyasining muhim tomoni mahsulotning barcha parametrlariga ko'ra o'ziga xos tarzda ajralib turishini, bozorda firma markasining ko'zga tashlanishini ta'minlashdan iboratdir. Bunga misol qilib „Mersedes“, „Ford“, „Toyota“ mashinalari, IBM kompyuterlari, „Adidas“ sport tovarlari, „Soni“ audio va video texnikasi va boshqalarini keltirish mumkin.

Past xarajatlar strategiyasi raqobatda afzalliklarga erishishni mahsulotni arzonroq ishlab chiqarish va sotishni ta'minlash bilan bog'laydi. Past xarajatlar strategiyasini amalga oshirishning bir qancha usullari bor. Birinchi usulda firma bozorda o'z sifatiga ko'ra raqiblarining mahsulotlaridan farq qilmaydigan mahsulotni arzon narxda taklif etadi. Ikkinchi usul—ishlab chiqarish uchun arzon tushadigan mahsulot andozasini yaratishdan iborat. Uchinchisi—arzon xomashyo manbalari va arzon ishchi kuchidan tanho foydalanishga asoslanadi.

Past xarajatlar strategiyasini tanlashda xarajatlar bobida firma o'z ustunligining uzoq muddatli ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shu sababli mazkur strategiyani amalga oshirishning asosiy sharti firmaning bozorda yetakchi mavqeyini ta'minlashga qodir bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulot sotishni uzluksiz takomillashtirishdir.

Firma raqiblari oldida muvaffaqiyat qozonishning asosiy omillaridan birontasiga ham ega bo'limgan taqdirda yoki bir-ikki omil bo'yicha ustun kelsa ham, ammo boshqa omillar bo'yicha orqada qolgan sharoitda tor ixtisoslashuv strategiyasini tanlashga majbur bo'ladi.

Umuman olganda, mahsulot bo'yicha marketing strategiyasidagi bu uch variant turli kombinatsiyalarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, agar firma ikkala sohada ham raqiblar oldida ustunlikka ega bo'lsa, tabaqlashtirish strategiyasi past xarajatlar strategiyasi bilan qo'shib olib borilishi mumkin.

Marketing tizimi, uning tamoyillari va vazifalari ichki bozorda ham, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham deyarli bir xilda amal qiladi. Ammo chet mamlakatlar bozorlarining faoliyati va bu bozorlarda ishslash sharoitlarida muayyan o'ziga xosliklar ham mavjud. Xalqaro marketing ichki bozordagi marketingga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlagan holda, jahon iqtisodiyotida va umuman jahon bozorida „noaniqlik omillari“ ning uchrab turishini ham aytib o'tish kerak. Birinchidan, xalqaro marketingning o'ziga xos xususiyatlari xalqaro tijorat tashkilotlarining turiga qarab namoyon bo'ladi. Bu tashkilotlar xalqaro iqtisodiy aloqalarni bevosita amalga oshirish bilan shug'ullanishi mumkin yoki tovarlarni sotuvdan iste'molchi (xaridor)ga yetib kelishi bilan bog'liq biron-bir operatsiyani bajarishi mumkin.

*Asosiy tijorat operatsiyalari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:*

- buyum shaklidagi tovarlarni ayirboshlash bo'yicha;
- ilmiy-texnikaviy bilimlarni (patent va litsenziyalar, nou-xau savdosi shaklida) ayirboshlash;
- texnikaviy xizmat ko'rsatishni ayirboshlash;
- ijara bo'yicha;
- xalqaro turizm bo'yicha va hokazo.

Xalqaro tovar aylanmasini ta'minlovchi operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- yuk tashish bo'yicha transport-ekspeditorlik operatsiyalari;
- yuklarni sug'urtalash;
- yuk saqlash;
- xalqaro hisob-kitoblar va hokazo.

Xalqaro marketingning ikkinchi o'ziga xosligi ishbilarmonlik faoliyati maqsadlarini aniq belgilash va taraqqiyot strategiyasini tanlashda hamda maqsadlarga erishish usullarida namoyon bo'ladi.

Xalqaro marketing strategiyasining bir-biridan keskin farq qiluvchi ikkita ko'rinishi mavjud. Bular tabaqlanmagan va tabaqlangan strategiyadir.

Tabaqlanmagan marketing strategiyasi dasturi bo'yicha firma bir xil tovarni ham ichki bozorga, ham tashqi bozorga chiqaradi. Bunda firma bozori chaqqon bo'lgan o'z tovarlarini chet ellarda savdo markasi, dizayni, tarkibi yoki ularni o'rash-joylashga o'zgartishlar kiritmasdan ham sotilishiga ishonadi. Bunday yondashuvda firma o'z mahsulotini chetga chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlardan xoli bo'ladi. Masalan, AQSHning jahonga mashhur „Koka-kola“ kompaniyasi o'z mahsulotlarini ommaviyligi tufayli shunday strategiyadan foydalanadi.

Tabaqlangan marketing strategiyasi turli bozorlardagi talab va did, huquqiy normalar, til talablari, madaniy tafovutlar va boshqalarni hisobga olgan holda tovarlarga muayyan o'zgartirishlar kiritishga asoslanadi.

Firma narx belgilashda mahalliy, iqtisodiy, masalan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot (YMM) miqdori kabi ko'rsatkichlarni hisobga oladi. Xuddi shu sababli ko'pgina firmalar sust rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatda tovarlarning soddalashtirilgan ko'rinishlarini yoki arzon mahalliy ishchisi kuchidan foydalanib, o'z mahsulotlarini past narxlarda sotadi. Ayni paytda rivojlangan davlatlarda narxlar yuqoriq belgilanadi, chunki narxlar qo'shimcha xalqaro marketing bilan bog'liq bo'lgan va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro marketingning eng muhim tarkibiy qismi bu— mahalliy talablar va milliy an'analarni ziyraklik bilan payqaydigan reklamadir. Masalan, shinalar reklamasi — Buyuk Britaniyada xavfsizlikka, AQSHda foydalanish tafsilotlariga, Germaniyada ixchamlikka birinchi navbatda e'tibor beriladi.

Tabaqlangan strategiya xalqaro marketingda keng qo'llaniladi. Shu bilan birligida keyingi vaqtarda firmalar xalqaro marketing strategiyasini ishlab chiqish va rejalashtirishda ko'proq aralash yondashuvlardan foydalanmoqda. Bu yondashuv doirasida ikki strategiya muvofiqlashadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, firma markasini barqaror qilish va ayni paytda mahalliy talablarni qondirishga imkon beradi.

Tovarlarni sotish muammosi keskinlashgan hozirgi sharoitlarda xalqaro bozorlarda lizing—ishlab chiqarish vositalari ijerasi faol marketingning keng tarqalgan vositasiga aylanmoqda. Lizing, bir tomonidan, sanoat kompaniyalarini qo'shimcha savdo yo'li bilan ta'minlaydi, natijada iste'molchilar doirasida kengayadi, ikkinchi tomonidan, ishlab chiqarish dasturlarining puxtaligi, ularni bajarish uchun zarur resurslarni safarbar etish imkoniyati ancha ortadi. Hozirgi

kunda xalqaro moliya lizingi katta istiqbolga ega. U xalqaro ilmiy-texnika hamkorligini kengaytirish, hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari natijalarini joriy etishni tezlashtirishi va hamkorlikdagi tadbirkorlikning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida aniq bir mamlakat bozoridagi turli tovarlar marketingini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday marketingni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad muayyan mamlakat bozorining hajmi, aholisi, aholi va oilalar tarkibi, daromadlari va ularning taqsimoti, raqobatda kutiladigan o‘zgarishlar va boshqalar haqida ma’lumotlar olishdan iborat.

Tashqi bozorda samarali faoliyat olib borish uchun marketing usullaridan ijodiy va o‘mini bilib foydalanish zarur. Bu o‘rinda standart yondashuvlarga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

---

*Shu narsani yodingizda tutingki, ushbu bob mavzusini o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad — quyidagi savollarga javob topishdir:*

- ◆ *Tadbirkorlik nima uchun bozor iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi?*
- ◆ *Tadbirkorlik faoliyatining qanday turlari mavjud?*
- ◆ *Kichik va o‘rta biznes nima?*
- ◆ *Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun mamlakatimizda qanday huquqiy asoslar yaratilgan?*
- ◆ *Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rnini ta’riflab bering.*

### **5.1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati**

Tadbirkorlik o‘z mablag‘lari yoki qarzga olingan mablag‘larni biron-bir ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasiga safarbar etib, foyda olishga qaratilgan faoliyatdir. Demak, tadbirkor—biron-bir ish bilan shug‘ullanuvchi inson. Shuning uchun ularni biznesmenlar (inglizcha „business“—ish, mashg‘ulot, „man“—odam) yoki ishbilarmonlar deb ham yuritiladi. Ayrim turkiyzabon mamlakatlarda, xususan, Turkiyada ularni ish odamlari deb atashadi. Tadbirkorlar, avvalambor, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, foyda olishga intiladilar. Aksariyat hollarda ular xatarli ishga qo‘l urishga tayyor bo‘lgan, tashabbuskor, ishning sir-u asrorlarini biladigan, serg‘ayrat, tinib-tinchimas, iqtisodiy jihatdan savodxon va huquqiy madaniyatni egallagan insonlardir.

Tadbirkorlik bilan biznes nafaqat bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxsning hayoti, moddiy farovonligi va ma’naviy kamoloti uchun, balki mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti va kelajagi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, iqtisodiyotning asosi hamisha moddiy ishlab chiqarish, ya’ni moddiy boyliklar yaratishdan iborat bo‘lib qoladi. Tadbirkorlik esa odattdan tashqari, alohida, o‘ziga xos yondashuv bilan amalga oshiriladigan faoliyat turi bo‘lib, iqtisodiyotda yangi, qo‘s himcha ish o‘rinlari yaratadi, yangi mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaradi, mahsulot bozorida raqobatni kuchaytiradi, bu bilan narx-navoning pasayishiga, savdo-sotiq madaniyatining ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Yetti iqlimga dong‘i ketgan tadbirkor ajdodlarimiz o‘z faoliyatlarini aksariyat hollarda „Buyuk ipak yo‘li“da joylashgan bozorlar va karvonsaroylarda olib borganlar. Lekin u zamonlarda tadbirkorlik

o‘z tabiatи va ko‘lami jihatidangina emas, balki tashkil etilishining usul-amallari, vositalari jihatidan ham boshqacha bo‘lgan. Tadbirkorlar ko‘ngli keng, oldi-sotdi ishlari va boshqa muomalalarda juda halol, qolaversa, o‘z ustilariga olgan majburiyatlarini qoyilmaqom qilib bajaradigan kishilar bo‘lgan.

O‘sha zamonalardagi tadbirkorlarning yana bir xususiyati shunda ediki, ular o‘z boshliqlarining mol-dunyosi, sarmoyasini ko‘paytirishga intilish bilan birga o‘zga o‘lkalarni ko‘rib bilishga, u yerlardagi odamlar bilan oldi-berdi aloqalarini o‘rnatishga ham ko‘p harakat qilishar edi. Shunga ko‘ra, o‘z mol-dunyosini ko‘paytirishni o‘ylash bilan cheklanib qolmasdan, madaniy va ma‘rifiy ishlarga va umuman, atrofdagi dunyoga qiziqib qaraydigan tashabbuskor tadbirkorlar orasidan mashhur kishilar yetishib chiqib, ko‘pincha davlat rahbarlari va hokimlarning maslahatchilari bo‘lib qolganliklari ham tarixdan ma’lum.

Biroq bir asrdan ko‘proq davom etgan mustamlakachilik davrida xalqimiz boshiga tushgan kulfatlarning eng achinarlisi qullik psixologiyasi va kayfiyatining shakllanishi, odamlarning xususiy mulkka bo‘lgan munosabatining o‘zgarishi va har qanday, ayniqsa, iqtisodiy tashabbuskorlikning bo‘g‘ilishi bo‘ldi. Hattoki, ruslarning „*har qanday tashabbus jazolanadi*“ degan maqoli hayotiy haqiqat darajasiga ko‘tarildi.

Endilikda zamon o‘zgardi, zamon bilan birga jamiyat ham o‘zgarib bormoqda. Respublika Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligida mamlakatimizda xususiy mulkning rivojlanishi va buning asosida odamlarning tadbirkorlik faoliyatini keng qo‘llab-quvvatlash va kengaytirishga qaratilgan bir qator farmon va hukumat qarorlari qabul qilindi. Xususiy tadbirkorlikni himoya qilish va ularga yordam berish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratildi va institutsional tuzilmalar tashkil etildi. Bular jumlasiga Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Biznes-fond, „Madad“ sug‘urta agentligi va bir qator konsalting, lizing va injiniring kompaniyalari va firmalari kiradi. Xususiy tadbirkorlik va biznesni rivojlantirishga biznes-inkubatorlar tarmog‘i ham muhim hissa qo‘sib kelmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda tadbirkorlar yangi ijtimoiy qatlam va sinf sifatida shakllanmoqda. Tadbirkorlar erkin bozor iqtisodiyotiga tayangan demokratik jamiyatda o‘z biznesiga, mulkiga ega bo‘lib bormoqdalar.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: *nima uchun hozirgi sharoitda respublikamizda kichik va o‘rtा biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti?* Buning sababi shundaki, kichik va o‘rtा biznes kam investitsiya (ya’ni mablag‘) talab qilib, tez ijobiy natija berishi bilan ajralib turadi. Bunda qo‘srimcha ish joylari

yaratiladi, bozorbop mahsulotlar ishlab chiqariladi hamda davlat budgetiga ko'proq soliqlar tushishi ta'minlanadi.

**Har qanday odam ham tadbirkor bo'lishi mumkinmi?** degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: o'z ishiga fidoyilik, mehnatsevarlik, chuqr fikrlash va dunyoqarashning kengligi, doimo o'zgarib turadigan sharoitda ishlash uchun moslashuvchanlik, uddaburonlik, bilimdonlik, halollik, bozor talabini yaxshi o'zlashtirib olish kabi fazilatlarga ega bo'lgan kishidan omadli va yaxshi tadbirkor chiqadi.

Tadbirkorlik va biznes, avvalo, mamlakatning o'zidagi ishlab chiqarishga, undagi xomashyo, moddiy va boshqa resurslarga tayanmog'i lozim. Har holda bu qoida hozirgi davrga qadar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim tamoyili edi. Biroq iqtisodiyot sohasida sodir bo'layotgan hozirgi globallashuv jarayonlari sharoitida mazkur tamoyil o'z ahamiyatini tobora yo'qotib bormoqda, desak xato bo'lmas. Zero, rivojlangan mamlakatlardan tajribasi shu narsadan dalolat bermoqdaki, o'z xomashyo bazasiga yoki boshqa moddiy resurslarga ega bo'lмаган mamlakatlardan ham tadbirkorlik tufayli yaxshigina yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. Masalan, Yaponiya, Tayvan va boshqa mamlakatlardan bunga yorqin misol bo'la oladi. Yaponiya aholining turmush darajasi jihatidan jahonda 4—5-o'rnlarga chiqib oldi. O'zida temir rudasi zaxiralari mutlaqo bo'lмаган Janubiy Koreya Respublikasi o'nlab mamlakatlardan uni dengiz yo'llari orqali import qilib va qayta ishlab, po'lat ishlab chiqarish bo'yicha jahonda yetakchi o'rnlardan birini egallashga erishgani, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiy lashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik va qo'shma korxonalar tashkil qilish, fermer xo'jaliklarini taraqqiy ettirish, yirik va o'rta korxonalarini ochiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan hamma mamlakatlarda tadbirkorlikni rivojlantirishning zarur sharti xususiy mulkchilikdir. Biroq shuni aytib o'tish joizki, tadbirkor bilan biznesmen hamisha xususiy mulk egasi bo'lavermaydi. Tadbirkorlar bilan biznesmenlar orasida mulk egalari bilan bir qatorda menejerlar (ishlab chiqarish tashkilotchilar) va ishga astoydil berilgan boshqa kishilar ham bor. Yirik mulk va kapital egalari bo'lgan tadbirkorlar bilan zamonaliv bilimlarga ega bo'lgan menejerlar (boshqaruvchilar)ning ishbilarmonlik faoliyatları birga qo'shilib, uyg'unlashgan sharoitda, ayniqsa, yuqori iqtisodiy samaraga erishish mumkin.

Totalitar tartibot sharoitlarida mamlakatimizda hukm surgan davlat mulkchiligining mutlaq hokimligi ishbilarmon, epchil va uddaburon odamlarning tadbirkorlik faoliyati uchun asosiy to'siq edi.

Hozirgi sharoitda tadbirkorlikning asosi bo‘lmish xususiy mulkchilikni rivojlantirish davr talabiga aylangan. Zero, faqat shu yo‘l bilan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish, bozor muhitini shakllantirish mumkin.

Tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish uchun boshqa shart-sharoitlar ham bo‘lishi kerak. Chunonchi, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning barqarorligi, tadbirkorlik va biznes xususida ijobjiy ijtimoiy fikr yuzaga kelgan bo‘lishi, imtiyozli soliq tartibi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan rivojlangan infratuzilma, aqliy mulkni himoya qiluvchi tizim va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

Tadbirkorlar uchun qulay kredit tizimini yaratish, ularga zarur ishlab chiqarish vositalari, xomashyo, butlovchi buyumlarni sotib olish imkonini berish va boshqalar mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi.

Haqiqiy biznesning asosi tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkor bo‘lish degan so‘zning tagida biror ishni boshlash, bajarish, uddalash, ya’ni tayin ish bilan shug‘ullanish degan ma’no yotadi. Ishni kichkinadan boshlab, keyinchalik biznes sohasiga kirish, yirik tadbirkor bo‘lib olish mumkin.

Biroq biznesga „sirli tayoqcha“ yoki „ochil dasturxon“ sifatida qarash yaramaydi. Biznes o‘z-o‘zidan muvaffaqiyatga olib bora-vermaydi. Uning zaminida hamisha mehnat, uddaburonlik, mohirlik, bilimdonlik va tashabbus yotadi. Shu bilan birga, haqiqiy biznesmen zamонавиy menejment asoslarini ham yaxshi bilishi, hisobotlar tizimini, baho siyosatini tushunadigan, keljakni ko‘ra oladigan bo‘lishi kerak. Biznes hozirgi kunda xalqaro tus olib borayotganligi uchun yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari biznesmen uchun chet tillarini bilish ham foydadan xoli emas.

Biznes bir kunlik, bir oylik, hatto bir yillik ish emas. Haqiqiy tadbirkorlar biznesga o‘zining butun hayotini bag‘ishlaydi. Biznes—jozibador, kishini qiziqtiradigan soha. Lekin uning yo‘li hamisha gulzorlar ichra o‘tavermaydi. Biznesda muvaffaqiyatlarga erishish bilan birga ma’lum qiyinchiliklarga ham duch kelinadi. Shunga ko‘ra, ko‘p hollarda tavakkal qilish talab qilinadi. Lekin shunga qaramay, butun jahonda necha yuz minglab kishilar har yili yangi biznesga kirishib. o‘z „ishlarini“ boshlaydilar va o‘z mamlakatlarining milliy iqtisodiyo-tini rivojlantirishga hissa qo‘sadilar.

Biznesga kirishib, o‘z oilasining farovonligini ta’minlash va mamlakat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘sishish niyatida bo‘lgan kishilar quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim:

—o‘z sohasi bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik;

—mamlakatda amal qilayotgan qonunlarni bilish va ularga itoat etish;

—yuksak madaniyat, halollik, rostgo'ylik, va'daga vafo qilmoq fazilatlariga ega bo'lishlik;

—istiqlolni, ya'ni ertangi kuoni ko'ra bilishlik va yangilikka intilish;

—tavakkal qilishdan qo'rmaslik va sabr-toqatl bo'lishlik.

Tadbirkorlikning axloqiy qoidalaridan eng muhimmi halollik va haromdan hazar qilishdir. Bu, islom ta'limoti bo'yicha, tadbirkorlik va tijorat bilan shug'ullanuvchilar uchun qo'llanishi shart bo'lган qoidadir. Qur'oni Karimda „*halol va pokiza nafaqa yenglar va solih ishlar bajaringlar*“ deb buyurilgan. Bu ta'limotga ko'ra, mehnatsiz qo'lga kiritilgan luqma haromdir. Tadbirkorlar ham rizq-u nasibalarini halol mehnat bilan topishlari shart.

Har bir inson bu go'zal dunyoga kelib, umrguzaronlik qila boshlabdimi, demak, o'z hayotini o'zi tashkil qilishi, o'z baxtini o'zi yaratishi lozim. Mana shunday hayotiy falsafadan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bozor munosabatlari sharoitida xususiy tadbirkorlik xuddi ana shu baxtni yaratish omili bo'lib xizmat qiladi.

Kezi kelganda xalqimiz orasida yuruvchi bir fikr to'g'risida to'xtalib o'tishni o'rinni, deb bilamiz. U ham bo'lsa „*tadbirkor yoki biznesmen bo'lish uchun yo ota-onadan meros qolgan mo'maygina mablag'ing bo'lishi kerak, yo ana shu mablag'ni vaqtincha bo'lsa-da, berib turadigan yaqin odaming bo'lishi kerak*“, degan fikrdir.

To'g'ri, xususiy tadbirkorlik faoliyatini mablag'siz amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun meros qolgan mablag' ham kor keladi, beminnat vaqtincha foydalanish uchun berilgan mablag' ham „xalaqit bermavdi“. Lekin unisi ham, bunisi ham bo'lmasa-chi? Unda nima qilish kerak? „*Olma pish, og'zingga tush*“ qabilida ish tutib, g'oyibdan keladigan baxtni kutib o'tiraverish kerakmi? Yo'q. Aslo bunday emas. Xalqimizda „*Sendan harakat—menden barakat*“, degan naql bor. Uning zamirida harakat qilgan odamga parvardigor, albatta, o'z barakatini beradi, degan haqiqat mujassam. Muqaddas hadislarda ham „*Allah o'z bandalari ichida g'ayratligini yoqtiradi*“, deyiladi.

Aziz o'quvchi, g'ayrat qilgan, tinib-tinchimas, shijoatli va tashabbuskor insonlarning pir-u badavlat, katta obro' va e'tiborli kishilarga aylanganiga o'zingizda ham misollar kam bo'lmasa kerak.

Rivojlangan mamlakatlarning mashhur tadbirkorlari ichida o'z biznesini ko'chadagi yo'lovchi avtomashinalarni yuvish yo'li bilan, gazeta va jurnallar sotuvchi kioskalardan ularni sotib olib, odamlar gayjum bo'lgan joylarda ustiga o'zining xizmat haqini qo'shib otish yo'li bilan boyiganlar kam emas.

Mamlakatimizda ham nisbatan qisqa vaqt ichida o'zining tadbirkorlik faoliyatini kichik bir ustaxona, oshxona, muzqaymoq sexini

tashkil qilishdan, 1—2 hektar tashlandiq yerni o'zlashtirib, dehqonchilik yoki chovachilikdan boshlagan va hozirgi kunda sermu-ruvvat, dongor tadbirkorga aylangan kishilar soni tobora ko'payib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning ilk davridan boshlab tadbirkorlikni rivojlantirishga nihoyatda katta e'tibor berayotgani bugungi kunda hammaga ma'lum. Buning sabablari Prezidentning quyidagi so'zlarida o'zining mujassamlashgan ifodasini topgan deyish mumkin: „*O'lkamizning o'ziga xosligi, ishchi kuchining haddan tashqari ko'pligi, rivojlangan qishloq xo'jalik va xomashyo bazasi, hatto, aytish mumkinki, aholining an'analari, ruhiyati kichik va oilaviy biznesni, xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishi obyektiv zarurat qilib qo'ymoqda*“.<sup>1</sup>

Shu narsani hech qachon unutmaslik kerakki, mamlakatning obod va xalqning to'q bo'lishi, qolaversa, davlatimizning buyuk kelajagini yaqinlashtirish ko'p jihatdan fuqarolarning tadbirkorligi va uddaburonligiga bog'liq.

## 5.2. Tadbirkorlik tamoyillari va turlari

Tadbirkorlik faoliyati muayyan tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilmog'i lozim, chunki u bir qarashda tuyulgandek oson kechadigan va darhol o'z samarasini beradigan faoliyat emas. O'z ishini boshlayotgan har qanday tadbirkordan muayyan bilim va fazilatlarga, shart-sharoitlarga ega bo'lish talab qilinadi. Bu haqda biz yuqorida ham bir oz fikr yuritgan edik. Endi tadbirkorlik tamoyillari haqida bat afsilroq to'xtalib o'tamiz. Ularni mujassamlashgan holda quyidagilarga ajratish mumkin.

*Mulk sohibi bo'lish.* Bu tamoyil shu ma'noni bildiradiki, tadbirkor o'z faoliyatini boshlash va amalga oshirish uchun muayyan miqdordagi o'zining yoki qarzga olingan moliyaviy-moddiy mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

*O'z xarajatlarini qoplash va foyda bilan ish yuritish.* Har qanday tadbirkor xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida qilgan xarajatlarini olingan daromad hisobidan qoplashi va ma'lum miqdorda foyda olishi kerak. Aks holda, u bankrotga uchraydi (sinadi). Shuning uchun u olinayotgan foyda miqdorini muttasil oshira borishga intiladi.

*Tadbirkorlik erkinligi.* Ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning qaysi sohasini tanlash, qancha ishlab chiqarish, qanday jihozlar

<sup>1</sup>I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., „O'zbekiston“, 1997, 197-bet.

yordamida, qancha yollanma ishchi jalb qilish, tovar (yoki xizmat)ni kimgarga va qanaqa baholarda sotish kabi masalalarni tadbirkor o'zi hal qilishi kerak. Xususiy tadbirkor haqiqatda va amalda erkin bo'lishini ta'minlash uchun davlat tegishli huquqiy zamin yaratadi, ya'ni qonunlar qabul qiladi.

*Iqtisodiy mas'uliyat.* Tadbirkor o'z faoliyatining natijalari va samaradorligi uchun mas'uliyatni to'la-to'kis o'z zimmasiga oladi, chunki olingan foyda ham, ko'rilgan zarar ham uniki hisoblanadi.

*Iqtisodiy tavakkalchilik.* Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishi uchun bu juda ham muhim tamoyil hisoblanadi. Tavakkal qilishga qodir odamgina turli xavf-xatardan kafolatlanmagan bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

*Qonun-qoidalarga roya qilish.* Mamlakatda qabul qilingan qonun-qoidalarga tayanib ish yuritish har qanday jamiyatda bo'lganidek, bizning mamlakatimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu narsa, ayniqsa, tadbirkor uchun juda muhim, chunki u o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida nafaqat bir qator qonunlar, balki ko'pgina me'yoriy hujjatlar talablarini ham bajarishi kerak bo'ladi.

*Iqtisodiy raqobat kurashida qatnashish.* Tadbirkor shaxs o'z faoliyatining ilk davridan boshlab iqtisodiy raqobat kurashiga kiradi. Bu kurash xomashyo va ishchi kuchi bozorida, tayyor mahsulot bozorida iste'molchilar (xaridorlar) va sotuvchilar orasida sodir bo'lувчи raqobatdan iboratdir. Raqobat kurashining mohir ishtirokchisi bo'lgan tadbirkorgina o'z faoliyatining natijalaridan mammun bo'la olishi mumkin.

*Halollik bilan ish yuritish.* Birovning haqidan hazar qilish, g'irtomlik va qalloblik bilan ish yuritmaslik, va'dani ustidan chiqish, sheriklar bilan tuzilgan shartnomalarini to'la-to'kis va o'z vaqtida bajarish kabi fazilatlarga ega bo'lgan shaxsdan haqiqiy tadbirkor chiqadi. Qalloblik yo'li bilan amalga oshiriluvchi faoliyat nihoyatda qaltis va umri qisqa ekanini har bir tadbirkor qoida sifatida bilmog'i kerak.

Tadbirkorlik faoliyati mulkiy munosabatlarni taqozo etadi va ular doirasida amalga oshiriladi. *Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan va tobora rivojlanib borayotgan tadbirkorlik mulkchilikning quyidagi shakllariga asoslanadi:*

—tadbirkorning o'z mol-mulki asosida;

—boshqa jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini jalb qilish asosida;

—davlat va jamoat tashkilotlari mol-mulkini ijara qilish asosida;

—va nihoyat, yuqorida qayd etilgan usullarni qo'shib olib borish asosida.

O'zbekiston Respublikasining „Tadbirkorlik to'g'risida“gi Qonuniga binoan tadbirkorlik faoliyatining quyidagi turlari mavjud:

- yakka tartibdagı mehnat faoliyatı;
- xususiy tadbirkorlik faoliyatı (yollanma ishchi kuchi yordamida olib boriladi);
  - shirkat tadbirkorligi (fuqarolar guruhi tomonidan olib boriladi);
  - aralash tadbirkorlik (yuridik shaxs va fuqarolar tomonidan mol-mulkni o‘rtaga tashlash yo‘li bilan ish olib boriladi).

Yuqorida sanab o‘tilgan shakllarning birinchisidan tashqari barchasida ish boshlash uchun korxonalar tuzish kerak.

O‘zbekiston Respublikasining „Korxonalar to‘g‘risida“gi Qonuniga binoan ularning turlari quyidagilardan iborat:

- respublika, xorijiy mamlakatlar fuqarolarining mol-mulkiga asoslangan korxonalar;
- jamoalar, oilalar, mahallalar va kooperativlarning shirkat mulkiga asoslangan korxonalar;
- davlat mulkiga mansub korxonalar;
- qatnashchilarning to‘la yoki qisman payiga asoslangan korxonalar;
- qo‘shma mulkka asoslangan korxonalar.

Aksariyat hollarda korxonalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, ular o‘z nomi, muhri va bankda hisob raqamiga ega bo‘ladilar.

Mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar tufayli tadbirkorlik faoliyatining barcha turlari (shakllari) ham yildan yilga tobora rivoj topmoqda. Ayniqsa, kichik va xususiy biznesning rivojlanish sur’atlari yuqori ekanini ta‘kidlab o‘tish lozim. Amaldagi qonunlarga muvofiq, O‘zbekistonda keng rivoj topayotgan kichik va xususiy biznes sohiblari sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. *Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatı bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar.* Ular yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmaganligi uchun ishchilar yollash huquqiga ham ega emaslar. Bunday faoliyat bilan har bir fuqaro shug‘ullanishi mumkin. Buning uchun xususiy tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tish va bu haqda tegishli guvohnoma olish talab qilinadi.

2. *Mikrofirma sohiblari.* Bunday firmalar ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida tashkil qilinishi mumkin. Ular qayerda joylashuvidan qat’iy nazar (qishloqdamgi yoki shahardamgi) yollanib ishlovchilar soni 20 kishidan oshmasligi kerak.

3. *Kichik korxona egalari.* O‘z faoliyatlarini amalga oshirish uchun sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishigacha, ilm-fan, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida 25 kishigacha yollanma ishchilarni jalb qilishlari mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilgan tadbirkorlikning shakllari yoki korxona turlari, odatda, kichik va o‘rtaligida korxonalarga xosdir. Yirik korxonalar aksariyat hollarda aksiyadorlik jamiyatları ko‘rinishida bo‘ladi. Bunday

jamiyatlar yuridik va jismoniy shaxslarning sarmoyalalarini birlashtirib, ular asosida aksiyalar chiqarish va sotish orqali tuziladigan korxonalardir.

Aksiyadorlik jamiyatlarining muhim xususiyatlari shundan iboratki, aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining qarzları bo'yicha qarz beruvchilar oldida o'z mol-mulkular bilan javob bermaydilar. Aksiyadorlik jamiyatining mol-mulki aksiyadorning mol-mulkidan to'la ajratilgan bo'ladi. Aksiyadorlik jamiyati bankrot bo'ladigan bo'lsa, aksiyador faqat qo'lidagi aksiyalarning qadrsizlanishi orqali zarar ko'rishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati sarmoyalarni birlashtirishning eng ko'p tarqalgan baquvvat va barqaror shakllaridan biridir. Aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga oid ma'lumotlar matbuotda e'lon qilinadi va aksiya sotib olmoqchi bo'lganlar yoki shu korxona (firma) bilan aloqa o'rnatmoqchi bo'lganlar uning faoliyati bilan tanishish imkoniyatiga egadirlar.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar mas'uliyati cheklanmagan aksiyadorlik jamiyatlariga taalluqlidir.

Shu bilan birga, tadbirkorlikning yana bir keng tarqalgan shakli mavjudki, uni mas'uliyati cheklangan aksiyadorlik jamiyatlar deb yuritiladi. Bunday jamiyatlarning nizom jamg'armasi paychilar (sheriklar)ning qo'shgan hissasi hisobidan shakllanadi va ularning nomiga doimo LTD, ya ni „limited“ (ya ni cheklangan) so'zi qo'shiladi. Bunday jamiyatlar o'z hisobotlarini matbuotda e'lon qilishlari shart emas. Asosiy masalalar jamiyat a'zolarining umumiy yig'ilishida muhokama qilinadi, olinadigan foyda qo'shgan ulushga bog'liq bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga xos bo'lgan belgilar:

—bunday jamiyatlar doimo yopiq turda bo'lishi;

—ta'sischilarning faqat mulkdor bo'lib qolmay, balki jamiyatning rivojlanishiga ko'maklashishi;

—jamiyatdan chiquvchilarga ularning ulushini qaytarib berilishi.

2004-yilning iyul oyi holati bo'yicha mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik va biznes subyektlarning soni 235,4 mingni tashkil etdi. Agar bu subyektlarini 100 foiz deb olsak, ulardan 10,4 foizi yirik korxonalar 18 foizi kichik korxonalar va 71,6 foizini mikrofirmalar tashkil etadi.



### 5.3. Tadbirkorlik va biznes faoliyatining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga binoan, bozor munosabatlariaga asoslangan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil mulk shakllari tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqiy ustunligini e'tiborga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va

mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Tadbirkorlik va biznes faoliyatini keng rivojlantirish va umuman, bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini barpo etish maqsadida bir qator qonunlar qabul qilinganki, ulardan dastlabkisi O'zbekiston Respublikasining „Tadbirkorlik to'g'risida“gi Qonunidir. 1991-yil 15 fevralda qabul qilingan ushbu qonunda tadbirkorlikni tashkil etish, uning amal qilishi va rivojlanishining huquqiy asoslari, tadbirkorlik to'g'risidagi umumiy hamda asosiy qoidalar bayon etilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, ushbu qonun tadbirkorlik bilan bog'liq barcha munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid qoidalarni batafsil qamrab olmaydi. Uni amalgalashish uchun zarur bo'lgan asosiy masala fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyatini butun choralar bilan ishga solish, ularning ishbilarmonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy kafolatlarini belgilash va ta'minlash asosida bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini jadallashtirishdan iboratdir. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 26-fevralda qabul qilingan „Respublikada tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Qarori O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning boshlang'ich huquqiy asoslaridan biri bo'ldi, deyish mumkin.

Respublika Prezidenti I.A. Karimovning 1994-yil 21-yanvardagi „Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Farmoni bilan xususiy mulkchilik asosidagi tadbirkorlikning yuzaga kelishi iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichidagi eng asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etildi va bu vazifani hal etish uchun kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi. Shuni alohida qayd etish lozimki, tadbirkorlik va biznes faoliyatini tartibga solish va bu boroda qonunbuzarliklarni oldini olish har qanday davlatning, aniqrog'i tegishli davlat organlarining muhim vazifasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Fuqarolik kodekslari hamda boshqa qonun hujjalarda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun quyidagilar taqiqlanadi:*

- soxta tadbirkorlik bilan shug'ullanish;
- bankrotlikni soxtalashtirish va yashirish;
- soliq va boshqa to'lovlar to'lashdan bosh tortish;
- xaridorlarni aldash;
- soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibini buzish;

Bozor munosabatlariga o'tish davrining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu davrda, birinchidan, soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, yengil-elpi yo'llar bilan pul topishga intilish hollari tez-tez sodir bo'lsa, ikkinchidan, ayrim davlat xizmatchilarini tomonidan tadbirkor huquqlarini kamsitish va poymol qilish hollari ham uchrab turadi. Shuning uchun 1995-yil 21-dekabrda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining „*Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlanтирishni rag'batlantirish to'g'risida*“gi Qonunida xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlat ro'yxatidan o'tganidan boshlab tadbirkorlarning huquq va kafolatlarini himoyalash, ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashga ko'maklashish hamda xalqaro bitimlar tuzishda ularga zarur yordam ko'rsatish choralarini belgilab qo'yilgan.

Tadbirkorlikni rivojlanтирish uchun sog'lom iqtisodiy muhit yaratish, xo'jalik faoliyati yuritayotgan kichik va xususiy korxonalarining ichki ishlariiga aralashmaslikni ta'minlash, shuningdek, kichik va xususiy tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlanтирishga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam shu qonunda o'z ifodasini topgan.

*Davlat siyosatida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash quyidagi asosiy masalalarni yechish yo'li bilan amalgalashiriladi:*

—kichik biznes subyektlarini bozorga to'sqiniksiz kirishiga sharoit yaratish;

—iqtisodiyotda xususiy sektorning rivojlanishiga sharoit yaratish;

—tadbirkorlarni davlatning muhim ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarini yechishga jalb qilish.

Xususan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarning huquq va kafolatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonunlar, Prezident Farmonlari va hukumat qarorlarining qabul qilinishi natijasi o'laroq, bu sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, hozircha tadbirkorlik taraqqiyotiga to'g'anoq bo'layotgan muammolar to'la-to'kis hal etildi, deb bo'lmaydi. Masalan, boshqaruv idoralarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda tashabbuskorlik mutasaddilarda mas'uliyat hissi yetishmayotgani, shartnomaviy munosabatlarning huquqiyligining ta'minlanmagani va boshqalar shu muammolar jumlasiga kiradi.

1998-yil 9-aprelda Prezident I. A. Karimovning „*Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlanтирishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*“gi Farmoni qabul qilindi. Unda kichik va o'rta biznes subyektlari tarmoqlar bo'yicha odam soniga ko'ra tabaqaqalashirildi. Ushbu farmonga binoan kichik va o'rta biznes subyektlari o'z ishlab chiqarishlarini tashkil qilish uchun xorijiy texnologiyalarni olib kirishda bojxona to'lovlardan ozod bo'ldilar. Yana shu yilning 28-avgustida

O'zbekiston Respublikasining „Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida“gi Qonuni qabul qilinishi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish imkonini berdi. Qonunda tadbirkorlik faoliyati bo'yicha tuziladigan shartnomalar manfaatdorlik va mulkiy javobgarlik kabi tamoyillar asosida tuzilishi huquqiy kafolatlanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tadbirkorlik va biznes faoliyatini huquqiy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos tizimi shakllandi. Masalan, tijorat banklarining faoliyati, „Biznesfond“ning ko'magi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasining faoliyati, „Madad“ sug'urta agentligining biznes subyektlariga ko'rsatayotgan xizmatlari bozor infratizimining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda. Biroq ushbu tashkilotlar bilan tadbirkorlar va biznes subyektlarining o'zaro aloqalaridagi iqtisodiy munosabatlarni to'la qoniqarli, deb ayta olmaymiz. Bu, albatta, biz yuqorida aytib o'tgan o'tish davrining o'ziga xos kamchiliklari qatoriga kiradi.

1999-yil 14-aprelda qabul qilingan „Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatlarining kafolatlari to'g'risida“gi Qonunda tadbirkorlik tushunchalaridan boshlab, turli xil faoliyatlarni qonuniy amalga oshirish uchun huquqiy imkoniyatlar kengaytirildi. Biznes subyektlarini rag'batlantirish va iqtisodiy faoliyat huquqlarini kafolatlash ushbu Qonunning asosiy maqsadi qilib belgilangan, deyish mumkin.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining 1999 va 2000-yillardagi yakunlarini xulosa va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning iqtisodiyotda katta samara berish imkoniyatlaridan hali to'la foydalana olinayotgani yo'q. Shu munosabat bilan Yurtboshimiz I.A.Karimov 2000- yil 1- fevralda Prezident huzuridagi Idoralararo muvosiflashtirish Kengashida „*Islohotlar va investitsiya*“ to'g'risida so'zlagan nutqida O'zbekistonda kichik, o'rta va xususiy biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini alohida ta'kidlab, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni erkinlashtirish davrida kichik va o'rta biznes faoliyatini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish lozimligini ta'kidlab o'tdilar.

2000-yil 22-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „*Bank tizimini takomillashtirish va kichik iqtisodiy subyektlar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*“gi Qarori e'lon qilindi. Qarorda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik iqtisodiy subyektlarning barcha turlari va yo'nalishlariga keng moddiy va huquqiy sharoitlar yaratib berish hamda davlat tomonidan ulami ma'naviy-ma'rifiy qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan.

2000-yil 25-mayda tadbirkorlarning faoliyat doirasiga aloqador bo'lgan yana bir qonun, ya'ni „Tadbirkorlik faoliyati erkinligining

kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonun kuchga kirdi. Qonunda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirot etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratish, ularning ishchanlik faolligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmi tobora takomillashib boryapti. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘zining tabiiy resurslari, iqlim sharoitlari, yer osti va yer usti boyliklari bo‘yicha katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan respublikamizda tadbirkorlikni keng rivojlantirish orqali ushbu salohiyatdan oqilona va samarali foydalanishdan iboratdir.

## **5.4. O‘zbekistonda kichik va xususiy biznesning rivojlanishi**

O‘zbekistonda tarixan juda qisqa davr mobaynida erishilgan yutuqlar amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning puxta va izchilligidan dalolat bermoqda. Ular mamlakat iqtisodiy hayotining muhim masalalarini hal etilishida, ijtimoiy taraqqiyotning hayotbaxsh kuchlarini ishga solinishida o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Ushbu islohotlar iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lsada, ularni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlar ichida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Darhaqiqat, keyingi yillarda barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatida kichik va xususiy biznesga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi ko‘zga tashlanmoqda. Tadbirkorlikning bu sohasi o‘zining qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan, xususan, sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirishi, yirik korxonalar faoliyatiga harakatchanlik baxsh etishi, bozordagi talab va taklifga samarali ta’sir ko‘rsatishi, aholi va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishi bilan o‘zining katta salohiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik va xususiy biznes iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlarini, yalpi milliy mahsulotning tarkibi va sifatini aniqlab beruvchi yetakchi sektori sifatida shakllangan va tobora rivojlanmoqda. Ana shunday mamlakatlarda iqtisodiyotning ushbu sektori hissasiga yalpi milliy mahsulotning 70 foizi to‘g‘ri keladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik va xususiy biznes sektori bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, tarmoqlararo va hududlararo monopoliyaga barham berish, raqobatni kuchaytirish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, mamlakatlar eksport salohiyatini kengaytirish, qishloq va kichik shaharlarni rivojlantirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning qudratli omilidir.

Bizda ham chet davlatlardagi kabi yangi ish o'rinalarini tashkil etish va ishsizlikning ko'payishini oldini olish, oilalar budgetini mustahkamlash, mahalliy budgetga tushumlarni ko'paytirish va umuman, iqtisodiyot taraqqiyoti sur'atlarini oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmogda va buning uchun yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, zarur huquqiy zamin yaratildi.

Biroq shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, kichik va o'rtaligining subyektlarining rivojlanishi yuqori davlat idoralari tomonidan rag'batlantirilib, tartibga solib turilsa-da, mahalliy-hududiy boshqaruv idoralari tomonidan ular uchun muayyan shart-sharoitlar yaratilmasa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin kechadi. Chunki o'z iqtisodiy tabiatiga ko'ra, kichik va xususiy biznes, asosan, mahalliy iqtisodiyotning uzviy qismi bo'lib, ana shu hududdagi mavjud shart-sharoitlar zamirida faoliyat ko'rsatishga moslashgan bo'ladi. Uning mahalliy-hududiy iqtisodiyotga bog'liqligi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

—*birinchidan*, kichik va xususiy biznes korxonalari, asosan, muayyan hududlardagi mavjud ehtiyojlar e'tiborga olingan holda, turli xil talablarni qondirish uchun tashkil etiladi, iste'molchilar ham o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birinchi galda eng yaqin ishlab chiqaruvchilar bilan munosabat o'rnatishga intiladilar;

—*ikkinchidan*, bu kabi korxonalarning tashkil etilishida mahalliy xomashyo va tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hisobga olinadi;

— *uchinchidan*, kichik korxonalar mahalliy sharoitlarga moslashuvchanligi, ya'ni, birinchi navbatda o'z xaridorlari ehtiyojlarini e'tiborga olishi va avvalo, mahalliy bozorga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda mehnatga qobiliyatli aholining 70 foizidan ko'proq qismi qishloq joylarda yashashini e'tiborga olsak, shu joylarda xususiy tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes sohalarining rivojlantirilishi, ayniqsa, katta samaradorlik berishi tabiiy bir holdir. Kichik va xususiy biznes qishloq joylarida quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi mumkin:

—qishloqda yetishtirilayotgan mahsulotlar sifatini uzoq vaqt buzilishdan saqlab turadigan sovtgich omborxonalar, meva va sabzavotlarni qayta ishlovchi kichik sexlar tashkil etish;

—ulardan turli xil sharbatlar ishlab chiqarish;

—sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash;

—oziq-ovqat, qandolatchilik va makaron mahsulotlari tayyorlash;

—trikotaj-tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish;

—aholi ehtiyojlari uchun kir yuvish vositalari tayyorlashni yo'liga qo'yish;

- milliy-badiiy, uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlash;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- kichik qurilish va ta‘mirlash ishlarini tashkil etish;
- kichik tibbiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish va hokazo. --

O‘tgan yillarda to‘plangan tajriba shundan dalolat bermoqda-ki, kichik va xususiy biznesning yanada rivojlanishi va mamlakat iqtisodiyotida o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun, avvalambor, davlat idoralari, mutasaddi rahbar tashkilotlar, qolaversa, barcha jamiyat a‘zolarining unga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirish talab qilinadi. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan kichik va xususiy biznes subyektlarining 80—85 foizigina faoliyat ko‘rsatayotgani, qolganlari esa turli sabablarga ko‘ra faoliyat ko‘rsata olmayotgani yoki o‘z faoliyatini to‘xtatib qo‘yayotgani yuqoridaagi fikrimizning dalili hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektori rivojlanishida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoxda. Hozirgi kunda nodavlat korxonalarining jami xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonidagi ulushi deyarli 91 foizni tashkil etmoqda.

Respublikamizda kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi joriy qilindi. yangi kichik korxonalar va mikrofirmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashtirildi. Bu o‘z navbatida tadbirkorlar sonini, ularning respublika yalpi ichki mahsulotidagi va iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonidagi ulushining o‘sishiga ijobji ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda kichik va xususiy tadbirkorlikning O‘zbekiston YIMdagi ulushi 35,5 foizni tashkil etmoqda. Kichik biznesda band bo‘lganlarning soni yakka tartibdagи tadbirkorlarni ham hisobga olganda, 5,5 mln. kishini tashkil etmoqda (5.1-jadval).

### 5. 1-jadval

#### **O‘zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2000	2001	2002	2003
Kichik va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi	%	31	33.8	34.6	35.5
Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar soni	ming	149,3	177,7	236,4	242
Kichik va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni	ming kishi	4462,7	4842,5	5086,4	5500

Shunday qilib, respublikamizda tadbirkolikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar bugungi kunda o'zining ijobjiy natijalarini bermoqda. Endilikda asosiy masala, ushbu yo'nalishdagi vazifalarni hal qilish uchun barcha imkoniyatlardan samarali foydalinishdan iboratdir. Bu sohada ishga solinishi kerak bo'lган salohiyat va rezervlar esa nihoyatda katta va ko'p. Ularning eng muhimi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishdir. Shu bilan birgalikda, fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va ularni ham tashkiliy, ham iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili bo'lib qoladi.

Tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli bo'lган kichik va o'rtalig' biznes korxonalarini yirik korxonalarining imkonini bo'lмаган iqtisodiy jarayonlar oralig'iga nihoyatda tez kirib bora oladi. Chunki ular yuqori malakali boshqaruvni talab etmaydi, talabga moslashishda epchillik xususiyatiga ega bo'lib, raqobatga va aniq iste'molchilar so'roviga tezda javob bera oladi. Keyingi yillarda kichik va o'rtalig' biznes korxonalariga bo'lган e'tiborning asosiy sabablari ham shundadir. Ularning tovar (ish va xizmat) larga bo'lган talabni tez o'r ganish va qondirish xususiyatiga egaligi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki kunlaridan oq ko'rina boshlagan.

Shu boisdan ham respublikamizda kichik va o'rtalig' biznesni rivojlantirish yaqin kelajakda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

---

Mazkur bobni o'qishdan ko'zlangan maqsad quyidagi savollarga javob topish ekanini unutmang:

- ◆ *Ishlab chiqarish xarajatlari nima va ularning tarkibi qanday shakllanadi?*
- ◆ *Bevosita xarajatlar bilan bilvosita xarajatlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?*
- ◆ *Korxona daromadlari nima va uning foydasi qanday aniqlanadi?*
- ◆ *Mehnat unumдорligi bilan daromadlar o'rtaсиda qanday bog'liqlik mavjud?*

### 6.1. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati va turlari

Har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, xususan, tovar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish muayyan iqtisodiy resurslar (asbob-uskuna, xomashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, ishchi kuchi va hokazo) sotib olishni taqozo etadi. Agar firma yangi tashkil ettilayotgan bo'lsa, u yer ham sotib oladi yoki uni ijara oladi. Bunga ham firma muayyan sarf-xarajatlar qiladi. Agar firma o'zining pul mablag'lari kam bo'lgani uchun bankdan ssuda (qarz) olgan bo'lsa, uning uchun foizlar to'laydi. Bundan tashqari, u o'z faoliyatini tashkil qilish uchun elektr energiyasi sotib oladi, transport, aloqa xizmatlari uchun pul to'laydi. Sug'urta uchun to'lovlar, reklama xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari, turli xil soliqlar va hokazolar uchun ham firma muayyan sarf-xarajatlar qiladi.

Ko'rinib turibdiki, xo'jalikni yuritish va buning natijasida muayyan foya olish o'z-o'zidan bo'lmaydi, balki talaygina sarf-xarajatlar evaziga amalga oshadi. Ana shunday sarf-xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan xarajatlarni *ishlab chiqarish xarajatlari* deb yuritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi har qanday subyektning asosiy maqsadi foya olishdir. Biroq bu maqsadga erishish, birinchidan, iqtisodiy resurslar sotib olishga sarflangan xarajatlar bilan belgilansa, ikkinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan talab bilan chegaralanadi. Binobarin, ishlab chiqarish xarajatlari foya miqdorini belgilab beruvchi omil bo'lib qolmay, taklif hajmiga ham bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun bu xarajatlarni rejalashtirish,

hisobga olish va doimo tahlil qilib borish firma (korxona)ni oqilona boshqarish va uning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday ishlab chiqarish firma (korxona)si oldida turadigan muhim vazifa bu—umuman ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish emas, balki mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishdan iboratdir.

Firmaning bir oyda (yoki yilda) oladigan foydasini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$F = D - X,$$

bu yerda:  $D$ —daromadlar;  $X$ —xarajatlar.

Agar firma ma'lum vaqt ichida 10 mln. so'mlik sarf-xarajatlar qilgan holda ishlab chiqqargan mahsulotini 12 mln. so'mga sotgan, ya'ni shuncha daromad olgan bo'lsa, uning olgan foydasi 2 mln. so'mni tashkil etadi. Muayyan tadbirlarni amalga oshirib, mahsulot birligiga sarflanayotgan xarajatlarni 1 mln. so'mga kamaytirsa, uning oladigan foydasi endi 2 mln. (ya'ni 12—10) emas, balki 3 mln. (ya'ni 12—9) so'mni tashkil etadi. Endi shu misolimizni boshqacharoq tarzda ko'ramiz. Firma o'sha tadbirlar natijasi o'laroq, 10 mln. so'mlik sarf-xarajatlar qilib, 12 mln. so'mlik emas, balki 13 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqardi va sotdi deylik. Bu holda uning foydasi 3 mln. so'mni tashkil etadi.

Ko'rinish turibdiki, *mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish ikki yo'l bilan hal etilishi mumkin*:

—muayyan miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirish;

—muayyan miqdordagi sarf-xarajatlar bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'ladigan xarajatlarni bevosita va bilvosita turlarga ajratish mumkin.

Bevosita xarajatlar muayyan mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar bo'lib, ular shu mahsulot tannarxiga to'g'ridan to'g'ri kiritiladi. Xomashyo va asosiy materiallar, yoqilg'i, elektr energiyasi, boshqa korxonalardan sotib olinadigan yarimfabrikatlar, ishchilarning ish haqi va shunga o'xshash xarajatlar bevosita xarajatlarni tashkil etadi.

Bilvosita xarajatlar deb ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish, dastgohlarni saqlash va ekspluatatsiya qilish, sex, umumkorxona va ishlab chiqarishdan tashqaridagi xarajatlarga aytildi.

*Ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlariga quyida-gilar kiradi:*

—yangi ishga tushirilgan korxonalarini o'zlashtirish va foydasini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar;

—yangi turdag'i mahsulot, ilg'or texnologik jarayonlarni tayyorlash va o'zlashtirish uchun sarflangan xarajatlar;

—yangi, unumli texnikani yaratganligi uchun mukofot fondi ajratmalari va boshqalar.

Dastgohlarni saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlariga dastgohlarni joriy sozlash, sex transporti, ish joylarining amortizatsiyasi, sex asbob-uskunalarini tiklash va moslash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi.

Sex xarajatlari deyilganda, sexni boshqaruvchi xodimlarning ish haqi fondi va ijtimoiy muhofaza uchun ajratmalar, uni isitish, yoritish, suv va kanalizatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va hokazolar bilan bog'liq xarajatlar tushuniladi.

*Umumkorxona xarajatlari korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisidan iborat bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:*

—boshqarish xarajatlari;

—umumxo'jalik xarajatlari;

—to'lov va ajratmalar.

*Boshqarish xarajatlari quyidagilardan iboratdir:*

—zavod boshqarmasi, bo'limlar xodimlarining tasdiqlangan shtat ro'yxatiga muvosiq mansab maoshlarining yig'indisi;

—xodimlarning xizmat safari xarajatlari;

—soqchi xodimlarning ish haqi, ularga beriladigan maxsus kiyimlar, o't o'chiruvchi mashinalarga sarf qilinadigan yoqilg'i qiymati, mashinalarni sozlash uchun zarur materiallar va boshqa xarajatlar;

—zavod boshqarmasi binosi, umumkorxona yo'llari, omborlari, tibbiyot punktiga ajratilgan xona, oshxona, bufet va klublarning amortizatsiya ajratmalari va ularni joriy sozlash, yoritish, isitish va suv bilan ta'minlash xarajatlari;

—kadrlar tayyorlash, oliy va o'rta maxsus maktablaridan kelgan talabalar bilan o'tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyotlariga sarflanadigan xarajatlar.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar mahsulot miqdoriga qarab to'g'ri mutanosiblikda o'zgarib (ko'payib yoki ozayib) turadi. Shuning uchun ularni o'zgaruvchan xarajatlar deb yuritiladi.

Bilvosita xarajatlar firma (korxona)da ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdoriga qarab o'zgarmaslik xususiyatiga ega. Shuning uchun ularni doimiy yoki o'zgarmas xarajatlar deb aytildi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, bir qancha xarajatlar ishlab chiqarishda to'g'ridan to'g'ri qatnashmaydi. Shuning uchun ularni „ishlab chiqarishdan tashqaridagi“ xarajatlar deb ataladi. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

—mahsulotni o'rash bilan bog'liq xarajatlar;

—mahsulotni jo'natiladigan joylarga tashib borish, vagonlarga yuklash xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy ravishda kamaytira borish firma (korxona) rahbarlari, menejeri va muhandis-texnik xodimlaridan birinchi navbatda tejamkorlik bilan ish yuritishni talab qiladi. Shu bilan birgalikda fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xomashyo materiallaridan, yoqilg'i resurslaridan yanada to'laroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, yangi texnologik jarayonlarning yaratilishi va ularning joriy etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va firma (korxona) moliya-xo'jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi.

## 6.2. Korxona daromadlari va foydasি

Korxona (firma) mablag'lari aylanishining har bir sikli mahsulotlar yoki xizmatlarning sotilishi bilan yakunlanadi. Buning natijasida tushgan pul mablag'lariga u yana iqtisodiy resurslar (xomashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, yoqilg'i, ishchi kuchi va hokazolar) sotib oladi va ularning yordamida mahsulot ishlab chiqaradi yoki xizmat ko'rsatadi. Mana shunday tarzda sodir bo'ladigan jarayonlar takror ishlab chiqarish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish natijasida korxona (firma) xazinasiga tushgan pul mablag'larini *daromadlar* deb ataladi. Korxonaning jami daromadi asosiy faoliyatdan va asosiy bo'lмаган faoliyatdan olingan daromadlar yig'indisidan iboratdir.

Asosiy faoliyatdan olingan daromadlarga mahsulotlarni, ishlarni, xizmatlarni, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan tushumlar kiradi.

*Daromadlarning ikkinchi turi, ya'ni asosiy bo'lмаган faoliyatdan olingan daromadlarga quyidagilar kiradi:*

—qimmatli qog'ozlarni qayta baholash natijasida hosil bo'lgan daromadlar;

—foizlar, dividendlar va ijara haqi ko'rinishidagi daromadlar.

Korxona daromadining bir qismi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplaydi, qolgan qismi korxonaning sof daromadi yoki foydasini tashkil etadi.

Mahsulotni sotishdan kelgan tushumdan ishlab chiqarish xarajatlarini chegirib tashlaganda paydo bo'ladijan farq mahsulot sotishdan olingan *yalpi foyda* deb yuritiladi. Mazkur ko'rsatkich, ya'ni yalpi foydadan sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlarni va boshqa operatsion xarajatlarni ayirib tashlash yo'li bilan asosiy faoliyatdan olingan *foyda* aniqlanadi.

Korxona tomonidan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan olingan dividendlar, berilgan qarzlar uchun foizlar, mol-mulkni ijaraga

berishdan olingan daromadlar va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan boshqa daromadlar yig'indisi moliyaviy faoliyatdan olingan foydani tashkil etadi.

Yuqorida ko'satilgan ikki xil foyda, ya'ni asosiy faoliyatdan olingan foyda bilan moliyaviy faoliyat foydasining yig'indisi umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydani tashkil etadi.

Bundan tashqari korxonada favqulodda foyda yoki zarar sodir bo'lishi ham mumkin. Favqulodagi foyda yoki zarar korxona moliva-xo'jalik faoliyatining natijasida emas, balki korxonadagi biznes tavakkalchiligi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanmagan holda vujudga keladi. Favqulodda foyda yoki zararni keltirib chiqaruvchi hodisalarni, odatda, oldindan bashorat qilish va rejalashtirish mumkin emas. Shu nuqtayi nazaridan dehqonchilikda har 3—5 yilda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qurg'oqchilikni favqulodda hodisa deb bo'lmaydi. Korxona bu hodisaga oldindan tegishli rezervlar tashkil etib, tayyorgarlik ko'rib borishi lozim. Yoki tovar bahosining mavsumiy ko'tarilishi yoki pasayishini ma'lum darajada oldindan bashorat qilish mumkin bo'lgani uchun favqulodda hodisa deb qarash ham to'g'ri emas.

Favqulodda foyda yoki zararni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan aksariyat hollar xalqaro bozordagi o'zgarishlar, masalan, narxnavoning keskin ko'tarilib yoki pasayib ketishi hamda turli tabiiy ofatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda bilan favqulodda foyda (zarar) yig'indisi soliq to'langunga qadar foydani tashkil etadi. Soliqlar va foydadan boshqa majburiy to'lovlar bajarib bo'lingandan so'ng qolgan foyda korxonaning *soffoydasini* tashkil etadi.

Soliqqa tortiladigan foyda bilan korxonaning balans foydasi bir-biridan farqlanishini ta'kidlab o'tish zarur. Moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish qoidalariga muvofiq holda aniqlangan umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda bilan favqulodda foyda yig'indisi soliq qonunchiligi nuqtayi nazaridan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan foyda miqdoridan farq qiladi. Ayrim xarajatlar soliq qonunchiligi nuqtayi nazaridan xarajat sifatida tan olinmaydi, ya'ni soliq summasini aniqlashda ularni korxona daromadidan chegirib tashlash mumkin emas. Masalan, norma doirasidagi safar xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilishiga ruxsat beriladi, normadan yuqori sarf qilingan qismi esa kiritilmaydi. Davlat manfaatlari bo'yicha yondashilsa, bu asosli, chunki korxona o'z xodimiga qo'shimcha imtiyozlar berganda, bundan davlatning soliq tushumlari kamaymasligi lozim. Agar shunday qilinmasa, korxona qancha mablag'ni ko'p „sovursa“, davlatga soliqlarni shuncha kam to'lashi mumkin bo'lib qoladi.

Soliqqa tortiladigan foyda miqdorini aniqlash ancha murakkab ish. Chunki davlat soliq siyosatining maqsad: faqat soliqlarni hisoblab

chiqish va undirishdangina iborat emas. Soliq siyosati korxonada oqilona xo'jalik yuritilishini rag'batlantirish, resurslarning samarasiz ishlatilishini jazolash va muayyan ijtimoiy maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Korxona ixtiyorida qolayotgan sof foyda jamg'arish va iste'mol maqsadlariga yo'naltirilishi mumkin. Foydaning iste'mol maqsadlariga yo'naltirilayotgan qismi korxona egalariga daromad sifatida berilishi, korxona xodimlarini rag'batlantirish uchun sarflanishi yoki boshqa iste'mol maqsadlariga ishlatilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobat muhiti korxona foydasining asosiy qismini muntazam ravishda investitsion maqsadlarga ajratishga majbur etadi. Bundan korxonada ishlovchi xodimlar manfaatdordirlar deyish mumkin, chunki ularning ish o'rinnari saqlab qolinadi, kengaytiriladi va takomillashadi. Korxona egalarining manfaatlari esa birinchi navbatda korxona kapitali ortishida, uning bozordagi mavqeyi mustahkamlanishida ifodalanadi. Davlat nuqtayi nazaridan esa foydaning qayta investitsiyalanishi korxona faoliyatni hajmlarini, ya'ni soliqqa tortish bazasini kengaytiradi hamda mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga ko'maklashadi.

Korxona foydasini taqsimlash jarayonida uning muayyan maqsadlarga mo'ljallangan zaxiralari va fondlar (jamg'armalar) tashkil etilishi mumkin. Bozor iqtisodiyotida bu *foydan assignatsiyalash* deb ata'adi. Mamlakatimizdagi ko'plab korxonalarda zaxira fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi, xodimlarni moddiy rag'batlantirish fondi va ijtimoiy rivojlantirish fondi kabi jamg'armalar tashkil etilgan. Korxona balansida bu fondlar „*Taqsimlanmagan foyda*“ moddasida aks ettiriladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda bilan favqulodda foyda yig'indisi xo'jalik amaliyotida korxonaning balans foydasi yoki brutto-foyda deb ataladi. Soliqlar to'lab bo'lingandan so'ng qolayotgan foyda esa sof foyda yoki netto-foyda deb yuritiladi.

Shunday qilib, korxona daromadlari quyidagicha taqsimlanadi:

*Birinchi navbatda*, moddiy va nomoddiy resurslarga ketgan sarflar qoplanadi.

*Ikkinci navbatda*, mehnat haqi fondi shakllantiriladi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar va mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar to'lovlarini amalga oshiriladi.

*Uchinchi navbatda*, korxonaning balans foydasi shakllanadi va uning hisobidan foydadan soliqlar to'lanadi.

*To'rtinchi navbatda*, netto-foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar qoplanadi.

Shundan so'ng qolgan foyda jamg'arish va iste'mol maqsadlariga ishlatiladi.

### **6.3. Daromadlarning o'sishida mehnat unumdorligining roli**

Mikroqtisodiy darajada har qanday korxona, firma yoki kompaniyaning asosiy „bosh og'rig'i“ (muammosi) olinayotgan daromadlarning muttasil ko'payib, o'sib borishini ta'minlashdir. Daromadlarning ko'payishiga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p. Ularga, asosan, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, reklamani yo'lga qo'yish, mahsulotning yangi bozorlarini ochish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va hokazolar kiradi. Daromadlarni ko'paytirishning aytib o'tilgan omillari yoki yo'nalişlарining har biri ham muhim. Biroq har qanday sharoitda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan asosiy omil mehnat unumdorligidir.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi korxona (firma) ishini, uning xo'jalik faoliyati samaradorligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichni o'lchash (yoki aniqlash) juda ham oson. Buning uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini, ya'ni daromadlar summasini ishlab chiqarishda yoki xizmat ko'rsatishda band bo'lgan ishchilar va xodimlar soniga taqsimlash kifoya.

Fikrimizni yanada oydinlashtirish uchun quyidagi shartli misolni keltiramiz. Firmada ishlovechi ishchi va xodimlar soni 50 kishini tashkil etadi va unda bir oyda 50 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va sotildi, deylik. Oddiy arifmetika yo'li bilan mazkur firmada ishlovchi har bir kishining oylik mehnat unumdorligi 1,0 mln. so'mni tashkil etganini aniqlash qiyin emas. Muayyan tadbirlarni amalga oshirish, masalan, yangi texnologiyani joriy qilish natijasida kelgusi oyda o'sha 50 kishi mehnat qilayotgan firmada 55 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, deylik. Demak, firmada mehnat unumdorligi 1,1 mln. so'mni tashkil etdi yoki o'tgan oyga qaraganda 10 foizga o'sdi.

*Xo'sh, mehnat unumdorligi korxona (firma) daromadlarini ko'paytirishning hal qiluvchi omili bo'lsa, uning o'zi nimaga bog'liq?*

Hozirgi davrda mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mehnat resurslarining sifati;
- mashina va texnologik uskunalarining sifati;
- resurslardan foydalananish samaradorligi;
- mehnatni tashkil etish va boshqarish darajasi.

Endi ushbu omillarning har biri xususida alohida to'xtalib o'tamiz.

*Mehnat resurslarining sifati*—mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan band bo'lgan ishchilarning ma'lumoti va malakasi qancha yuqori bo'lsa, ular ma'lum vaqt (smena, oy, kvartal yoki yil)da shuncha ko'p mahsulot (xizmat) yaratadi va aksincha. Shu

sababli mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida yangi ta'lim andozalari va dasturlari yaratilayotgani, ta'lim tizimini chuqur isloq qilish asosida zamon talablariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi hal etilayotganini uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan ish deb baholash mumkin.

*Mashina va texnologik uskunalarining sifati.* Ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnika vositalarining sifat darajasi (unumdarligi, ishonchliligi va hokazo) qancha yuqori bo'lsa, korxona (firma)da ma'lum vaqt ichida shuncha ko'p va sifatli mahsulot ishlab chiqariladi, binobarin, uning daromadlari ham shuncha ko'p bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish arafasida mamlakatimizda foydalanib kelingan ishlab chiqarish texnikasi aksariyat hollarda eskirgan, ya'ni 20—30 yillar davomida ishlatib kelinayotgan edi. Shu sababli O'zbekistonda mehnat unumdarligi dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri edi, desak xato bo'lmas. Shu munosabat bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarishni tubdan zamonaviylashtirish, xorijiy mamlakatlardan kelayotgan sarmoyalalar (investitsiyalar)ni, avvalambor, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgandir.

*Resurslardan foydalanish samaradorligi.* Har bir korxona yoki firma mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish uchun muayyan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanadi. Mahsulot birligiga sarflanayotgan resurslar xarajati qancha kamaysa, daromadlar shuncha ko'pay boradi.

Demak, har qanday iqtisodchi yoki menejerning, korxona (firma) rahbari yoki tadbirkorning muhim vazifasi ishlab chiqarishiga sarflanayotgan resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ya'ni mahsulot (xizmat) birligiga sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishdir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan va hozirgi kunda rivojlangan deb tan olingan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, resurslardan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan menejer—boshqaruvchi faoliyatiga bog'liq. Ishchilarни yollash va ularni o'qitish, mehnat unumdarligi yuqori bo'lgan ishchini tegishli tarzda moddiy rag'batlantirishni ta'minlash, „imillagan“ ishchi yoki xodimni ishdan chetlatish kabi o'nlab muhim vazifalarga aynan menejer javob beradi.

*Mehnatni tashkil etish va boshqarish darajasi.* Mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning barcha bo'g'lnlari va bosqichlari ishchi kuchi sarfi bilan bog'liq. Shuning uchun har bir ish o'rniiga kasbiy bilim va mahorati yetarli bo'lgan ishchilarning tanlanishi va ularning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilishi juda muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy bilimi va mahorati yuqori bo'lgan ishchi malakasiz va tajribasiz ishchiga nisbatan yuqiroq unumdarlik bilan mehnat qiladi

va binobarin, ma'lum vaqt mobaynida korxonaga ko'proq daromad (foyda) keltiradi.

Ishchi qanchalik malakali bo'lmasisin, uning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, u yo pastroq unumdorlik bilan ishlaydi, yoki umuman bekor turib qoladi. Masalan, qurilish obyektiiga binolarni bo'yash uchun zarur bo'lgan bo'yoqlar o'z vaqtida va kerakli miqdorda yetkazib berilmadi, deylik. U holda nima bo'lishini o'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mehnat unumdorligini oshirish har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt daromadlarini ko'paytirishning bosh omili bo'lib xizmat qiladi.

---

Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

- ◆ *Ishlab chiqarish omillari deganda nimani tushunamiz?*
- ◆ *Tabiiy omilga nimalar kiradi?*
- ◆ *Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat omilining roli nimadan iborat?*
- ◆ *Ishlab chiqarishni rivojlantirishda fan-texnika taraqqiyoti qanday rol o‘ynaydi?*
- ◆ *Menejment nima?*

## 7.1. Ishlab chiqarish omillarining mohiyati

Ishlab chiqarishning moddiy mazmunini mehnat jarayoni tashkil etadi. Mehnat jarayonida inson o‘zining maqsadiga muvofiq ongli faoliyati orqali (bu mehnat deb ataladi) tabiat moddalari yoki ashyolarni jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur mahsulotlarga (yoki xizmatlarga) aylantiradi. Mehnatni amalga oshirish uchun inson muayyan jismoni yoki aqliy qobiliyatlarga, bilim, malaka va ko‘nik-malarga ega bo‘lishi lozim. Insonning mehnat qila olish qobiliyati ishchi kuchi deb ataladi. Mehnat insonning ajralmas xususiyati bo‘lganligi uchun nazariyada va amaliyotda mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilar yig‘indisini mehnat resurslari deb yuritiladi. Mehnat resurslari ishlab chiqarishning shaxsiy omili yoki inson omilini tashkil etadi.

Mehnat jarayonida foydalaniladigan vositalar (birlamchi tabiat moddalari va qayta ishlangan tabiat moddalari) hamda mehnat jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy shart-sharoitlar ishlab chiqarishning buyumlashgan yoki moddiy omilini tashkil etadi. Birlamchi tabiat moddalari ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda eng birinchi moddiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ishlab chiqarish rivojlana borishi bilan kishilar tabiat moddalariga bir marta ishlov berish bilan kifoyalanmasdan, ularga qayta va qayta ishlov beradilar. Ishlab chiqarishning tabiat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlariga qo‘sishimcha ravishda kishilar mehnati bilan ham ishlab chiqarishning yanada mukammalroq moddiy shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Ishlab chiqarish moddiy omilini ta’riflash uchun hozirgi zamon nazarriyachilari ishlab chiqarish vositalari tushunchasidan foydalanadilar (ko‘p hollarda „kapital“ atamasi ham qo‘llaniladi).

Ishlab chiqarish vositalari mehnat buyumlaridan va mehnat vositalaridan iborat. Mehnat buyumlariga ishlab chiqarish jarayonida ishlov beriladi. Ular ilgari inson mehnati ta'sirida bo'lgan tabiiy resurslardan yoki inson mehnati natijasi bo'lgan moddiy ashyolardan iborat bo'lishi mumkin. Mehnat vositalari esa mehnat qurollariga (ishlab chiqarish qurollariga) va mehnatning moddiy sharoitlari bo'lib xizmat qiluvchi vositalarga bo'linadi. Mehnat qurollari, albatta, inson mehnati bilan yaratiladi.

Hozirgi zamon iqtisod fani ishlab chiqarish omili deb ishlab chiqarish natijalarini belgilab beruvchi obyektlar, elementlar yoki shart-sharoitlarni tushunadi. Ishlab chiqarish omillari to'rt asosiy guruhga bo'lingan holda tahlil qilinadi: yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyati.

*Yer* tabiiy omil sifatida qaraladi. U inson faoliyatining mahsuli emas, balki tabiatning in'omidi. Omillarning yer deb nomlanadigan guruhiga barcha tabiiy boyliklar, foydali qazilmalar konlari, ishlov berilayotgan yerlar, o'rmonlar kiradi.

*Kapital* ishlab chiqarishning omili sifatida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniладigan ne'matlarning yig'indisidan iboratdir. Ularga asbob-uskunalar, mashinalar, binolar, omborlar, transport kommunikatsiyalari, aloqa vositalari va boshqalar kiradi. Keng ma'noda olib qaralganda, moddiy kapital tushunchasi o'z tarkibiga xomashyo va materiallarni ham olsa-da, tadqiqotchilar kapital tushunchasini ishlab chiqarishda ko'p marta ishga solinadigan moddiy elementlar bilan cheklaydilar. Fanda tadbirkorlik faoliyatida ishga solinayotgan pul mablag'lari ham *kapital* deb ataladi. Nazariy ma'noda esa pul to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarishda uning omili sifatida ishtirok eta olmaydi. Shuning uchun nazariy ma'noda qo'llanayotgan kapital tushunchasini pul mablag'larini ham o'z ichiga oladigan amaliy xo'jalik faoliyatidagi kapital tushunchasidan farqlash uchun moddiy kapital atamasidan foydalanadilar. Moddiy kapitalning texnik holati va darajasi ishlab chiqarish samaradorligiga juda kuchli ta'sir etadi va uning samaradorligini belgilab beradi.

Tovar va xizmatlarni yaratishda ishga solinadigan insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini *mehnat* omilini tashkil etadi. Qobiliyatlar yig'indisi xodimning ma'lumot darajasi, kasbiy ta'lim egallaganligi, ko'nikmalar, jismoniy salohiyati va boshqa xususiyatlari bilan belgilanadi. Bularning hammasi zamonaviy fanda inson kapitali tushunchasi bilan ifodalanadi. Xodimning yuqori malakasiga, yuksak mehnat qobiliyatiga erishish uchun uni o'qitish va tarbiyalash lozim. Demak, mehnat omilini yaratish uchun ham moddiy kapital talab etiladi. Xodimni tayyorlash uchun yo'naltirilgan xarajatlarning natijasi

sifatida mujassamlashgan shaxslar inson kapitali bo'lib maydonga chiqadilar. Inson kapitaliga sarflanadigan sarmoyalar hozirgi paytda eng samarali va o'zini eng tez oqlaydigan mablag'lar hisoblanadi.

Tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarishning o'ziga xos omili bo'lib, insonning ishlab chiqarishning boshqa omillarini muayyan kombinatsiyalarda va usullarda birlashtira olish qobiliyatini bildiradi. Bu qobiliyat tadbirkorda mujassamlashadi hamda inson kapitalining alohida turidir. Tadbirkorlik qobiliyati insonda o'z-o'zidan paydo bo'la olmaydi, u insonga tadbirkorlik uchun zarur bilimlar va ko'nikmalarini singdirish yo'lli bilan hosil qilinadi. Tadbirkorlik faoliyati insonning shaxsiy fazilatlariga ham bog'liq, chunki ishlab chiqarishni tashkil etishda tadbirkorlik, topqirlik va oqilona tavakkalchilik talab etiladi. O'z mazmuniga ko'ra tadbirkorlik faoliyati inson mehnatining o'ta yuqori malaka talab etuvchi turidir. Tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish omili sifatidagi ahamiyati, ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida ortadi. Chunki bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchli raqobat mavjud bo'lган vaziyatda olib boriladi, tijorat tavakkalchiligi asosida mahsulot yangi turlarini ishlab chiqarishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga, resurslarni raqobat orqali qo'lga kiritishga to'g'ri keladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, hozirgi vaqtida yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy omillar bilan bir qatorda axborot olish va ekologik omillar ham ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish va uning yuqori samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida tobora yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonining barcha omillari ishga solinib, amalga oshiriladi. Muayyan buyumni yoki xizmatni ishlab chiqarish uchun yer, mehnat va kapitalning biron-bir kombinatsiyasi zarur bo'ladi. Bu omillar bir-biri bilan bog'liq holda ishga tushadi va bir-birini to'ldirib turadi. Masalan, gazlama to'qish uchun huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan firma tashkil etish, yer maydonini ijaraga olish, bu maydonda binolar va texnikani (kapitalni) joylashtirish, xodimlar va menejerlarni yollash zarur bo'ladi. Agar biror omil ishlab chiqarishga jalb etilmay qolsa, ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'lmaydi. Ishlab chiqarish omillarining bu xususiyati ularning bir-birini to'ldirishi deb ataladi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish omillari ma'lum chegaralarda bir-birining o'rnini bosishi ham mumkin. Muayyan hajmdagi tovarni ishlab chiqarishga yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarning turli-tuman nisbatlarda bir-biriga qo'shilishi natijasida erishilishi mumkin. Omillarning bu xildagi o'zaro o'rnbosarligi iqtisodiyotning ko'plab sohalari uchun xos. Tadbirkor ishlab chiqarish texnologiyasini tanlashda muayyan resurslarning kamyobligini e'tiborga oladi va shu resurslar o'rniga boshqalaridan foydalanishga intiladi.

## 7.2. Tabiiy omil

Ishlab chiqarish jarayoni har doim u yoki bu darajada tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan. Keng ma'noda jamiyat va inson tabiatning ajralmas qismidir va tabiatdan tashqarida o'z faoliyatini olib bora olmaydi. Tabiiy resurslar ishlab chiqarishining muqarrar sharti sifatida uning o'sishi uchun tabiiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Ular, shuningdek, jamiyat milliy boyligini yaratishning muhim manbayidir. Ingliz iqtisodchisi U.Petti: „*Mehnat—boylikning otasi, yer esa uning onasi*“,- degan edi.

Yer har qanday jamiyat, har qanday mamlakatning beqiyos boylidir. U bitmas-tuganmas xazina bo'lib, kelgusi avlodlarga ham qoladigan asosiy merosdir. Shuningdek, yer qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hamdir. Yerga ikki jihatdan, birinchidan, hudud, ikkinchidan, tirikchilik manbayi, o'simlik va hayvonot dunyosi hayoti uchun zarur bo'lgan tuproq, inson uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo yetishtirib beradigan ekin maydonlari sifatida qarash lozim.

O'zbekistonning yer resurslari xilma-xil. Qizilqum va boshqa cho'llarda cho'l-qum tuproqlari katta maydonni egallaydi. Bunday tuproqlar, asosan, qumdan iborat bo'lib, zinch qatlam hosil qilmaydi, chirindi (gumus) qismi 1 foizga ham yetmaydi. O'zbekistonning tekislik qismidagi cho'l zonasida sur-ko'ng'ir, cho'l-qum, taqir tuproqli yerlar uchraydi.

Respublikamiz umumiy yer maydonining 5 million hektardan ortiqrog'i dehqonchilikda foydalaniladi. Bu, asosan, sug'oriladigan va lalmi yerlardir. Qolgan qismi yaylov va ozroq qismi tog' va o'rmonlardan iborat.

Sug'oriladigan yerkarning katta qismi Farg'ona va Zarafshon vodiylari va Amudaryoning quyi oqimini egallagan. Lalmi yerkarning katta maydonlari Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Jizzax viloyatlarida joylashgan.

O'zbekistonning suv resurslari daryolar, sel oqimi, kanallar, ko'l va suv omborlaridagi suvlardan tarkib topadi. Uning asosiy manbayi daryolar bo'lib, O'zbekistonning bosh suv o'zanlari Amudaryo va Sirdaryo hisoblanadi. Ikkala daryoning suvi ham respublika hududidan tashqarida hosil bo'ladi. Ulardan tashqari yirik daryolar jumlasiga kiruvchi Norin, Qoradaryo, So'x, Chirchiq, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va Sheroboddaryolar ham mavjuddir. Bu daryolarning ko'pchiligi o'zlarining o'rta va quyi oqimlari bo'yicha O'zbekiston hududidan o'tadi. O'zbekistonda hammasi bo'lib 50 ga yaqin daryo bo'lib, ulardan 10 tasining uzunligi 150 km dan oshadi. O'zbekistonning tog' va tog'oldi rayonlarida sel oqimi (toshqini) ko'plab

uchraydi. O'zbekistonda suv xavfi kuchliroq rayon Farg'ona vodiysi hisoblanadi. Bu yerda har yili, ba'zan yiliga bir necha marta sel bo'ladi. Ko'pchilik sel toshqinlari aprel va may oylariga to'g'ri keladi. Chunki bu oylarda tog'da juda ko'p yog'in-sochin bo'ladi. Sel oqimi har yili minglab gektar ekin maydonlarini vayron etadi. Shuning uchun ham tashqi xavf kuchli tog'oldi rayonlarida sel oqimini ushlab qoladigan qurilmalar (suv omborlari) qurilgan. Hosil bo'lgan suv zaxiralaridan keyinchalik ekinlarni va ayrim yaylov maydonlarini sug'orishda foydalaniladi.

Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yerdan, yer osti boyliklaridan, o'rmonlardan, suvdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish talab etiladi. Mamlakatdagi xo'jalik yuritish tizimi ulardan oqilona va ehtiyojkorlik bilan, tejab-tergab foydalanish uchun imkoniyat yaratishi va ishlab chiqarish ishtirokchilarini shunday ish olib borishga undashi lozim. Tabiiy resurslarni saqlash va ko'paytirishdan butun jamiyat manfaatdordir.

Tabiiy resurslarning bir qismini, avvalo, foydali qazilma konlarini qayta hosil qilib, tiklab bo'lmaydi. Ular yer ostidan qazib chiqarilgan sari tugab boradi. Boshqa tabiiy boyliklarni: tuproq, suv, o'rmonlar, hayyonot dunyosini tiklash uchun ko'plab mablag' sarflash talab qilinadi. Masalan, tuproqqa o'g'it solinadi, yer tekislanadi, chiqindilardan va zararli moddalardan tozalanadi, suv resurslarini tiklash uchun ishlatilgan suv tozalanadi, o'rmonlarni tiklash uchun ko'chat o'tqaziladi va h.k. Demokratiya tamoyillariga asoslangan jamiyatda tabiatni muhofaza qilish barchaning ijtimoiy burchiga aylanadi. Tabiiy resurslardan, jumladan, yerdan noshudlik bilan, tabiatga zarar yetkazgan holda foydalanish o'z mazmuniga ko'ra jamiyat boyligini nobud qilishdir, chunki bu ijtimoiy ishlab chiqarish o'shining moddiy negiziga putur yetkazadi.

Iqtisodchilar tabiiy resurslarni ikki toifaga ajratadilar. Bular haq to'lab o'zlashtirib olinadigan va tekinga o'zlashtirilib olinadigan resurslardir. Tabiiy resurslar haq to'lab o'zlashtirib olinganda, firma yoki resurs iste'molchisi uning samarasini to'la ravishda o'zi o'zlashtiradi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida haq to'lab o'zlashtiriladigan tabiiy resurslar qatoriga birinchi navbatda yer kiradi. Yerni haq to'lab qo'lg'a kiritgan fermer unda yetishtirilgan g'alla yoki paxtani to'la ravishda erkin tasarruf qiladi. Foydali qazilmalar (neft va gaz konlari)ning egalari qazib olingan mahsulotni yoki konning o'zini sotishlari mumkin. Tabiiy resurslar haq to'lab o'zlashtirilganda, raqobatli bozor sharoitlarida ulardan samarali, tejab-tergab foydalanishga erishiladi.

Tabiiy resurslarning ikkinchi toifasini, hatto bozor munosabatlari to'la qaror topgan iqtisodiyotda ham, yuqorida aytib o'tilganidek, tekinga o'zlashtirib olinadigan resurslar tashkil etadi. Bu resurslardan

foydalinish jarayonida jamiyat uchun muayyan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Gap shundaki, mazkur resurslar alohida firma yoki shaxslar uchun tekin resurslar bo'lib maydonga chiqadi, lekin ular butun jamiyat uchun bepul emas. Haq to'lab o'zlashtiriladigan resurslar qo'lga kiritilishida resurs egasining mazkur resursga oid xarajatlari qoplab boriladi. Tekin o'zlashtiriladigan resurslar bo'yicha esa bunday bo'lmaydi va natijada tashqi oqibat (samara) yoki qo'shimcha oqibat deb ataladigan hodisa yuz beradi. Masalan, havoga zaharli gazlar chiqarilishi aholi salomatligiga zarar yetkazadi. Bunga yo'l qo'yan firma tabiiy resurs—havodan tekinga foydalaniadi va ayni paytda iqtisodiyotning boshqa subyektlari bundan ko'rayotgan zararini qoplab bermaydi. Yoki oqar suvlarga zaharli chiqindilar tashlanganda daryo yoki soy ifloslanadi, baliqlar nobud bo'ladi, boshqa kishilarning suvdan foydalinish imkoniyatlari qisqaradi. Ko'rinish turibdiki, tabiiy resurslardan bepul foydalinish natijasida kelib chiqayotgan tashqi oqibat, asosan, salbiy xarakterda bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida salbiy tashqi oqibatli tovarlar ko'proq, ijobjiy tashqi oqibatli tovarlar esa kamroq ishlab chiqariladi.

Pol Samuelson va Villyam Nordxaus ta'kidlashlaricha, AQSHda tabiiy resurslardan foydalinishga asoslangan ishlab chiqarishning iqtisodiyotdagi ulushi 1987-yilda 4 foizni tashkil etgan. Bozor orqali qo'lga kiritiladigan tabiiy resurslarning to'rtadan uch qismidan fermer xo'jaliklari va neft-gaz sanoatida foydalanganlar.

O'zbekiston iqtisodiyotining xomashyo va agrar xarakteri tufayli tabiiy resurslardan foydalinishga asoslangan tarmoqlar ulushi juda yuqori. Xususan, hozircha qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning yetakchi tarmog'i ekanligicha qolmoqda. Aholi farovonligi va mamlakatning eksport imkoniyatlari ko'p jihatdan mana shu tarmoqdagi ahvolga bog'liq.

Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan samarali foydalinish mamlakat uchun alohida ahamiyatga ega. Odatda, bu resurslar iqtisodiy o'sishni va aholi farovonligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Biroq, ayovsiz foydalinish natijasida ular bir kun tugashi va ularning o'rmini bosa oladigan resurslarni topish juda ham qiyinlashib qolishi mumkin.

Ba'zi iqtisodchilar qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarga texnika taraqqiyoti natijasida maqbul o'rinosbosarlar topilishi muqarrar, deb hisoblaydilar. Masalan, neftdan olinadigan suyuq yoqilg'i o'rniiga ko'mirdan olinishi mumkin bo'lgan suyuq yoqilg'i kelishi mumkin. Uglevodorod qazilma boyliklar ishlatib bo'lingach, quyosh energiyasiga yoki atom energiyasiga, hatto, termoyadro energiyasiga o'tilishi mumkin. Energiyaning oxirgi uch manbalari tunganmas xarakterdadir.

Shu bilan birga, hozirgi paytda iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda atrof-muhitni muhofaza qilish tarafdarlarining qarashlari tobora ustun

mavqega ega bo'lib bormoqda. Ularning fikricha, iqtisodiy o'sishning zarur darajasini saqlab turish uchun energiya va boshqa tabiiy resurslarni, shu jumladan, aholi joylashmagan hududlar va asriy o'monlarni ijtimoiy kapitalning alohida ko'rinishi sifatida asrash lozim. Hozirgi avlod kelajak avlodlarga imkonli boricha kapital aktivlarning ko'proq zaxirasini qoldirishi zarur. Bu aktivlar faqat yuksak texnologiyali korxonalar, laboratoriylar, kutubxonalar va inson kapitalidangina iborat bo'lmay, balki tabiiy resurslarni ham o'z ichiga olishi darkor.

### 7.3. Mehnat omili

Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari bilan bir qatorda insonning mehnat qilish qobiliyati, ya'ni ishchi kuchi iste'mol qilinadi. Ishlab chiqarishning boshqa omillaridan farqli ravishda inson ish'ab chiqarish jarayonida ongli ravishda, faollik va tashabbuskorlik bilan ishtirok etadi. Insonning zamonaviy iqtisodiyotdagi yaratuvchilik roli mehnat omili tushunchasi orqali ifoda etiladi.

Inson iqtisodiyotning birlamchi subyektidir. Iqtisodiyotning alohida olingan insondan farqlanuvchi boshqa subyektlari ham pirovard natijada kishilarning turli-tuman guruhlari manfaatlarni ifodalovchi uyushmalar bo'lib maydonga chiqadi. Inson iqtisodiyotning tashabbuskor subyekti, u tanlash erkinligiga ega va o'zining nuqtayi nazaridan iqtisodiy oqilona va samarali qarorlar qabul qiladi, bunda o'zining manfaatlari va maqsadlariga muvofiq holda mavjud shart-sharoitlarni e'tiborga oladi, kerakli axborotlardan foydalanadi. Iqtisodiy adapbiyotda o'zining iqtisodiy manfaatlarni anglab yetgan va bu manfaatlarga muvofiq holda harakat qiluvchi insonni iqtisodiy inson deb ataydilar.

Inson ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchi sifatida yoki tadbirkor sifatida ishtirok etadi. Ba'zan esa inson ishlab chiqarishda ham ishchi kuchi, ham tadbirkor bo'lib ishtirok etishi mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, ishchi kuchi insonning mehnat jarayonida ishga solinadigan jismoniyligi va aqliy qobiliyatlarini yig'indisidir. Bu qobiliyatlarning bir qismi insonda tabiatan, avvaldan mavjud bo'lsa, ikkinchi qismi insonni o'qitish va tarbiyalash natijasida shakllantiriladi, uchinchi qismi esa mehnat jarayonida ishtirok etish mobaynida vujudga keladi.

Ishlab chiqarish jarayonida inson yakka ravishda emas, balki jamiyatning boshqa a'zolari bilan birgalikda ishtirok etadi. Shuning uchun individual ishchi kuchi jamiyat miqyosidagi jami ishchi kuchining bir bo'lagi sifatida ishga solinadi. Jami ishchi kuchining tarkibi uning qanday kasblardan tashkil topganligi, uni tashkil etuvchilarning bilimlari va malaka darjasini, ijtimoiy ishlab chiqarishni texnika bilan qurollanganligi, mavjud texnologiyalar, ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi, konsentratsiyasi, ixtisoslashishi va kooperatsiyalashuvi kabi omillarning talablariga mos ravishda shakllanadi.

Mamlakat aholisining mehnatga yaroqli yoshdagi, ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirot etish uchun zarur jismoniy va aqliy qobiliyatlarga, muayyan ma'lumot darajasiga ega bo'lgan qismi *mehnat resurslari* deb ataladi. Mehnat resurslari miqdori mamlakatning mehnat salohiyatini ifodalaydi. Bu salohiyat zarur moddiy sharoitlar mavjud bo'lsa, darhol ishga solinishi mumkin. Mehnat resurslarining bozorda ishlab chiqarish resursi sifatida taklif etilayotgan qismi *inson resurslari* deb yuritiladi. Inson resurslari boshqa ishlab chiqarish resurslari (tabiiy, moddiy, moliyaviy) bilan bir qatorda ishlab chiqarish omili bo'lib maydonga chiqadi, muayyan chegaralarda bu resurs boshqa resurslar bilan almashtirilishi mumkin (masalan, qo'l mehnati o'rniga mashinalardan foydalanish).

Moddiy va tabiiy resurslarni boshqarish bilan bir qatorda insonlarni boshqarish har qanday korxona va tashkilotni boshqarishning tarkibiy qismidir. Biroq o'zining xususiyatiga ko'ra, odamlar korxona (firma)lar foydalanadigan har qanday resurslardan jiddiy farq qiladi, binobarin, boshqarishning alohida usullarini talab qiladi.

*Birinchidan*, odamlar intellektga (aql-idrokka)ega bo'lib, ularning tashqi muhitga (boshqarishga) reaksiyasi mexanik tarzda emas, balki hissiy-o'ylangan, anglab yetilgan reaksiyadir, demak, korxona (firma) bilan xodim o'rtasidagi o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayoni ikki tomonlamadir.

*Ikkinchidan*, odamlar doimiy ravishda takomillashib va rivojlanib borishga qodirdirlar. Inson o'z hayotining ilk davrida yurish, gaplashish, o'qish va yozishni o'rganadi. U ishga kelar ekan, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladi, ular uning mansab vazifalarini bajarishi jarayonida takomillashib boradi. Hozirgi fan-teknika taraqqiyoti davrida texnologiya, shu bilan birga kasbiy ko'nikmalar nisbatan qisqa davr mobaynida eskirib qoladi. Shuning uchun ham xodimlarning doimiy ravishda takomillashib va rivojlanib borishga qodirligi har qanday korxona va tashkilotning faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

*Uchinchidan*, insonning mehnat faoliyati hozirgi jamiyatda 30—50 yil davom etadi, shunga ko'ra inson bilan korxona va tashkilotlarning o'zaro munosabatlari ham uzoq davom etish xususiyatiga egadir.

*To'rtinchidan*, moddiy va tabiiy resurslardan farqli o'laroq, odamlar ko'p hollarda korxona va tashkilotga ongli ravishda, muayyan maqsadlarni ko'zlab keladilar va tashkilotdan ana shu maqsadlarni amalga oshirishda yordam berishini kutadilar. Xodimning korxona va tashkilot bilan o'zaro hamkorlikda ishlashdan qanoat hosil qilishi hamkorlikni davom ettirishning muhim sharti hisoblanadi. Ayni paytda korxona va tashkilot ham bu hamkorlikdan manfaatdordir.

Xodimning korxona va tashkilotdan qanoat hosil qilishi inson resurslarining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, har bir alohida olingen kishining o'ziga xosligi bilan bog'liqidir.

Mehnat omili ishlab chiqarishga mehnat bozori orqali jalb etiladi. Bu bozorda mehnat resurslari tovar sifatida maydonga chiqadi. Mehnatning bahosi mazkur bozordagi talab va taklifga bog'liq. Bozorning ishtirokchilari (agentlari)—tadbirkorlar bilan mehnatga yaroqli aholi bozorda o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Mehnat bozoridagi talab va taklif mexanizmi orqali iqtisodiyotdagi bandlik hajmi va mehnat haqi darajasi tashkil topadi. Mehnat aholi uchun daromadlar va farovonlikning eng asosiy manbayidir. Milliy daromadning katta qismi mehnat haqiga to'g'ri keladi. Boshqa tomondan esa mehnat ishlab chiqarishning eng muhim omilidir. Shuning uchun mehnat bozori ijtimoiy va iqtisodiy vazifani bajaradi. Ijtimoiy jihat shundaki, mehnat omilining bozorda sotilishi orqali mehnat qiluvchilarning daromadlari va farovonligining jamiyat uchun maqbul darajasi, ishchi kuchining normal takror ishlab chiqarilishi shart-sharoitlari ta'min etiladi. Iqtisodiy jihat esa mehnatning sohalar, tarmoqlar, korxonalar, kasblar o'rtaida oqilona taqsimlanishida, mehnat resurslarining zarur darajada ishlab chiqarishga jalb etilishida, mehnatdan oqilona va tejab foydalanishda namoyon bo'ladi. Mehnat bozori ishtirokchilari o'tasidagi raqobat yuqori samarali mehnatdan manfaatdorlikni, yuqori malakaga ega bo'lishni, kasbni ijtimoiy ehtiyojlarga monand ravishda yangilashni rag'batlantiradi.

Mehnat resurslarining mehnat bozoriga kirib keladigan besh guruhini ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchi guruhga nisbatan oz sonli, lekin miqdoran barqaror yuqori malakali rahbar xodimlar (menejerlar) kiradi. Ikkinci guruh yuqori malakali ishchilar va xizmatchilardan iborat. Bu guruhlar mehnatiga doimo yuqori talab mavjud va ularning mehnatiga yuqori haq to'lanadi. Aynan shu xodimlar korxona faoliyatining natijalarini, korxonalar raqobatbardoshligini belgilaydilar. Uchinchi guruh tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan yoki ishlab chiqarish qisqarayotgan tarmoqlar va korxonalarning ishchilarini o'z ichiga oladi. To'rtinchi guruhga mehnat unumdarligi past, mehnattalab tarmoqlarning, xizmat sohalarining xodimlari kiradi. Bu tarmoqlarda mehnat haqi darajasi ancha past va ularda ko'proq ayollar hamda past malakali ishchilar band bo'ladi. Besinchchi guruhni esa mehnatkashlarning eng ojiz tabaqalari: birinchi marta ish axtarayotgan yoshlar, keksalar, jismoniy nuqsonli kishilar, ko'p marta ishdan mahrum bo'lganlar tashkil etadi.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining ilmtalab tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Natijada yuqori malakali ish kuchiga talab tez sur'atlarda ortib bormoqda. Shuning uchun mamlakatdagi ta'lim tizimini va kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni yanada rivojlantirish mehnat bozoridagi ahvolni tubdan yaxshilashga, iqtisodiyotda mehnat omilidan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

## **7.4. Ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy darajasi**

Inson nimalar yordamida mehnat ashyosi (predmeti)ga o‘z ta’sirini o’tkazsa, shu narsalar mehnat vositalari hisoblanadi. Unga birinchi navbatda mehnat qurollari kiradi. Ular quyidagilardan iborat: har xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, qurilmalar va hokazo.

Mehnat qurollarining takomillashib borishi, tabiatga inson hokimlik darajasining o‘sishi ishlab chiqarish taraqqiyotining ko’rsatkichi hisoblanadi. Keng ma’noda mehnat jarayonida to‘g’ridan to‘g’ri ishtirok etmasa-da, lekin ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish inshootlari, turli axborot vositalari, aloqa kanallari ham mehnat vositalari hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni amalga oshishi uchun ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari qo’shilishi, iste’mol qilinishi zarur.

Ishchi kuchi ishlab chiqarishning shaxsiy omili hisoblanib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va uning birdan bir yaratuvchi elementidir. Ishlab chiqarish vositalari esa ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning har ikkala omili ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’siri natijasida takomillashib boradi. Ishlab chiqarish vositalari va inson mehnati bir-biri bilan uzviy bog’liq va bir-birini taqozo etadi.

Ishchi kuchi ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradi, buning natijasida mehnat jarayoni ro‘y beradi. Faqat insongina ishlab chiqarish vositalarini yaratadi va ulardan foydalanish usullarini aniqlaydi. Xuddi shu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlar tizimida shaxsiy va moddiy omillarning o‘zaro bog’liqlikda umumiy yo’nalishini tashkil etadi.

Yangi texnika va texnologiya hech qachon o‘z-o‘zidan dunyoga kelmaydi, ularni odamlar ijod qiladi. Biroq, ilg‘or mehnat vositalari va texnologiyalar ishlab chiqarishda keng tarqalgandan so‘ng, ishchi kuchining umumiyligi holatini yangi talablar darajasiga ko’tarish kerak bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ishlab chiqarish jarayoni uning omillarining oddiy yig‘indisi emas, chunki ular o‘zaro ta’sir qiluvchi murakkab tizimni hosil qiladi. Har qanday bir butun tizim esa uning elementlarining oddiy yig‘indisidan sifat jihatidan farq qiladi. Ishlab chiqarishni samarali bo‘lishiga texnologiya va boshqarish ta’sir etadi.

Texnologiya ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ifoda etgan holda fan yutuqlariga asoslanib, mehnat ashyolariga o‘z ta’sirini o’tkazadi. Insonlar ashyolarning ilgari ma’lum bo‘lmagan xususiyatlarini o‘rganib, progressivroq bo‘lgan texnologiyani joriy qilish natijasida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish sirlarini bilib oladilar, bu esa ishchi kuchiga, ishchining malakasini oshirishga yangidan yangi talablar qo‘yadi. Ushbu jarayon esa ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni doimo takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Hozirgi ishlab chiqarish jarayonida energiya va axborotning ahamiyati oshib boradi. Shubhasizki, qudratli energiya manbalarini o'zlash-tirmasdan turib, ishchi kuchi, mehnat buyumlari va vositalarining o'zaro ta'sirini samarali bo'lishiga erishish mumkin emas.

Korxonalarda fan-texnika yutuqlarini joriy etish uchun ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishning texnikaviy, tashkiliy va iqtisodiy tadbirdilar majmuasi mavjud bo'lib, ularni joriy etish natijasi o'laroq, eng ilg'or texnologik jarayonlar yuqori rentabellik, sifatli mahsulotlar tayyorlash imkonini yaratib beradi. Ishlab chiqarish korxonalarida texnologik va tashkiliy tadbirdilar fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilib, mahsulot ishlab chiqarishda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiyligi ta'sir qiladi, mehnat, xomashyo va materiallarni kam sarf qilgan holda, yuqori sifatli mahsulotlar yetkazib berishga imkon beradi.

*Ishlab chiqarishda texnikaviy tayyorgarlikni tashkil etish quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratiladi:*

—eng ilg'or, progressiv texnologik jarayonlarni joriy qilish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashdirish;

—yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning texnologik tizimlarini yaratish, eskilarini esa yangilash;

—yuqori unumli texnologik asbob-uskunalarni tanlash va joriy etish;

—asosiy va yordamchi materiallar sarfi me'yorlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash;

—texnologik jarayonlar tarkibini loyihalash;

—mehnat va ishlab chiqarishni ilmiy darajada tashkil etishning ilg'or shakilarini joriy etish;

—yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlashdan ko'zlangan maqsad ilmiy ishlab chiqarish siklini yaratish, ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini ko'tarish asosida mehnat unumdorligini oshirish, korxonalarining bir tekisda, uzluksiz va bir me'yorda ishlashini ta'minlashdir.

Sanoat korxonalarida asosiy ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash rejasи muhim bosqich bo'lib, u fan va texnikaning zamонави yutuqlari, takomillashgan texnologiya, yangi turdagи mahsulotlarni o'zlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va uning hajmini ko'paytirishga qaratilgandir. *Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash rejasini loyihalash jarayonida uning quyidagi talablarga javob berishi nazarda tutiladi:*

—yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish;

—texnologik jarayonning uzluksiz ishlashini ta'minlash;

—tayyor mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarfini kamaytirish;

—mahsulot birligiga xomashyolar sarfini kamaytirish;

—xomashyodan tayyor mahsulot olishni ko'paytirish va nobud-garchilikni kamaytirish;

—ishlab chiqarish maydonlaridan oqilona foydalaniб, sanitariya talabi va me'yorlariga qat'iy rioya qilish;  
—mahsulot tannarxini pasaytirish.

Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash korxona faoliyatini tashkil etish, uning istiqbolini belgilash va rivojlantirish rejalari asosida amalga oshiriladi. Bu rejalarни amalga oshirishga tegishli mablag'lar ajratiladi. Bunga qo'shimcha qilib korxonalarda amortizatsiya ajratmalari, ishlab chiqarish, texnika va fanni rivojlantirish jamg'armalari tashkil etiladi.

## 7.5. Ishlab chiqarishni boshqarish. Menejment

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hayotimizga shiddat bilan kirib kelgan tushunchalardan biri bu — menejmentdir. Keng ma'noda menejment ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turidir. Samarali menejmentni tashkil etish korxona yoki firmada ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Ma'lumki, inson yakka tartibda, ya'ni biron-bir jamoaga birlashmagan holda mehnat qilar ekan, u o'z mehnatini o'zi boshqaradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, yakka tartibda amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati boshqaruvga muhtoj emas. Ammo odamlarning mehnat faoliyatları bir joyga jamlanib, bir-biri bilan o'zaro bog'liq holatga kelgach, boshqaruvga ehtiyoj paydo bo'ladi va boshqaruv apparatini bunyod etish zaruriyati tug'iladi. Bu apparat ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarini bir butun qilib bog'lashi va tegishli bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirishi zarur bo'ladi.

Mehnat jamoasi yiriklashgan sari boshqaruvning vazifalari ham murakkablasha boradi va boshqaruv apparatidan texnik, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishning eng maqbul yechimlarini topish talab etiladi.

Boshqaruv jarayoni muayyan maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik natijalarga erishishga qaratilgandir. Shuning uchun boshqaruv apparati ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lувчи turli xil ijtimoiy, ruhiy, huquqiy, texnologik va boshqa toifadagi masalalarni hal etadi. Ammo jamoani boshqarish bilan bog'liq munosabatlar ichida tashkiliy munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deyish mumkin.

*Xo'jalik boshqaruvining vazifalarini, boshqarilayotgan obyektning ko'lamidan qat'iy nazar, quyidagi guruuhlarga bo'lish mumkin:*

- tadqiqotchilik va loyihalash;
- me'ylorlashtirish va rejalash;
- tashkilotchilik va muvofiqlashtirish;
- ta'minotchilik;
- hisobot nazorati.

Iadqiqotchilik va loyihalash vazifalariga ilmiy izlanishlarni o'tkazish, keljak rejalarini tuzish va unga oid iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganib chiqish ishlari kiradi.

Me'yorlashtirish va rejalarash boshqaruvni tashkil qilish asoslarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri yo'lga solishda mehnat va xarajatlarni me'yorlashtirish, istiqbolli, joriy, tezkor rejalarini tuzish muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqaruv ilmining asosiy vazifalaridan biridir.

Tashkilotchilik va muvofiqlashtirish vazifalari ishlab chiqarish boshqaruvi negizini tashkil qilib, u boshqaruv apparati tarkibini loyihalash, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ishlab chiqarishga muhandislik rahbarligi kabi masalalarni qamrab oladi.

Ishlab chiqarish boshqaruvida ta'minotchilik vazifasi ham katta ahamiyatga ega, chunki korxona (firma) ni kerakli xomashyo, materiallar va jihozlar bilan ta'minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishni amalga oshirish kabi ishlar boshqaruv apparatining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Korxonaning hisobot nazorati statistik, buxgalteriya va tezkor hisobkitob ishlarini amalga oshiradi. Analitik tahlil, moliya-kredit munosabatlarining mukammalligi boshqaruv samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardir.

Boshqaruv tizimining samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv uslublariga bog'liq bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat:

a) siyosiy uslublar; b) iqtisodiy uslublar; d) ma'muriy-huquq uslublari; e) tashkiliy uslublar; f) boshqaruv qarorlari va jarayonlarini maqbullashtirish (kibernetik) uslubi; g) ijtimoiy-ruhiy, pedagogik uslublar; h) grafik uslublar.

Biroq shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ishlab chiqarishni ko'rsatib o'tilgan uslublarning faqat birontasi yordamida tashkil qilish va boshqarish mumkin emas. Bu uslublarning mantiqiy va ilmiy asoslangan o'zaro bog'liqligina ishlab chiqarishni boshqarishda kutilgan natijalarni bera oladi.

Boshqaruv apparatining tarkibini bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'limlar va bo'g'inlar bilan to'ldirish natijasida uning tashkiliy tuzilmasi shakllanadi. Har bir bo'linma o'z vazifalariga ega bo'lib, uning faoliyat chegaralari, vakolatlari va javobgarligini korxona ma'muriyati belgilaydi.

Boshqaruvning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko'rilgan qoidalariga tayanib, korxonalarini samarali rivojlantirish bozor munosabatlarini o'zlashtirayotgan mamlakatimiz uchun juda muhim vazifadir.

Hozirgi sharoitda rahbar faqat o'z sohasini yaxshi bilibgina qolmay, balki yaxshi tashkilotchi bo'lmog'i, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika fanlaridan ham xabardor bo'lmog'i lozim. Bu hayotimizdagi

jiddiy o'zgarishlar, inson omilining faollashuvi, jamoalarda o'zini o'zi boshqarish tamoyillarining joriy etilishini taqozo qiladi. Rahbar o'z jamoasi ichida mehnat jarayonida vujudga keladigan har xil nizolarni jamoat tashkilotlari bilan birgalikda, yuqori tashkilotlarga chiqarmasdan o'zida hal qilishga qodir bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarishni boshqarishda rahbarning qaysi toifada ekani juda muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlarning quyidagi toifalarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. *Avtokrat yoki avtoritar toifadagi rahbar*. Bunday rahbar qo'l ostidagilarning faoliyati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga to'liq oladi, barcha mavjud axborotlarni o'zi orqali o'tkazishga harakat qiladi, jamoa a'zolari bilan bevosita muloqotlarni chegaralab qo'yadi, o'zining noo'rin harakatlarini tanqid qilinishiga yo'l qo'ymaydi. O'ziga bo'ysunuvchilar bilan muomalada bo'lganda, uning rahbarlik g'ururi balandligi, o'zini katta tutishi sezilib turadi. Odatda, avtokrat rahbarlar o'ziga bo'ysunuvchilar oldida qovog'i solingen kayfiyatda bo'ladi. Biroq avtokrat rahbarlik turini har jihatdan yomon, deb bo'lmaydi. Ba'zi bir hollarda bo'ysunuvchilarning madaniy darajasi, axloqi pastligi sababli mazkur boshqaruvi uslubini tanlab olish ish berib qolishi mumkin. Ammo jamoada har tomonlama demokratik munosabatlar pishib yetilgan paytda rahbar o'z uslubini o'zgartirishga majbur bo'ladi.

2. *Anarxik toifadagi rahbar*. Bunday rahbar shaxsan o'zi faollik ko'rsatmaydi. Ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq masalalarini qo'l ostidagi xodimlarga rasman taqsimlab beradi. Shuning uchun ishlab chiqarish masalalarini muhokama qilish ham rasmiy xarakterga ega bo'ladi. U ko'proq tashqi ta'sirga moyilligi bilan ajralib turadi. Jamoaning taqdiri, ishlab chiqarishning istiqboli kabi masalalar uni kam qiziqtiradi. U yoki bu masalalarning bajarilishi ayrim bo'ysunuvchilarning xohish-irodasiga bog'liq bo'ladi.

Bunday rahbar boshqarayotgan jamoada tanqid, o'z-o'zini tanqid kabi muhim omillar o'z o'rniiga ega emas, jamoa a'zolarining tashabbuskorligi rag'batlantirilmaydi.

Tabiiyki, bunday rahbar tezda almashtirilmasa, u boshqarayotgan korxona tez orada bankrotga uchraydi.

3. *Demokratik rahbar*. Bunday toifadagi rahbar o'z faoliyatini jamoa a'zolariga tayangan holda olib boradi. Faoliyat uchun javobgarlik bo'ysunuvchilar orasida taqsimlanadi. Jamoa a'zolarining bir-biri bilan ijodiy, tashabbuskorona munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda rahbar o'ziga bo'ysunuvchilar bildirgan fikrlarga qulq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobjiy fikr-mulohazalarni inobatga oladi, ilg'orlarni mukofotlaydi. Bunday rahbarlik turi bo'ysunuvchilarning shaxsiy tashabbusini, ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va mehnat jamoasida o'rtoqlik va ishchan muhitni, sog'lom ma'naviy-ruhiy iqlimni yaratadi.

Hozirgi kunda boshqarishni takomillashtirishning muhim masalalaridan biri menejment (boshqarish)ga oid vazifalarning zamон талаблари дарajasida bajarilishini ta'minlay oladigan, o'z ishining ustasi bo'lgan menejerlar tayyorlashdir.

*Menejerlar (boshqaruvchilar) oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iboratdir.*

1. Mavjud imkoniyatlardan foydalaniб, bir butun, yaxlit ishlab chiqarish birligini yaratish, korxonani yuqori malakali muhandis-texnik xodimlar va ishchilar bilan butlash.

2. Korxonaning zaif tomonlarini aniqlab, ularni bartaraf etish va ishlab chiqarishni yuqori darajada rivojlanishini ta'minlovchi xo'jalik mexanizmini yaratish.

3. Jamoa a'zolarini yuksak ishlab chiqarish va mehnat natijalariga rag'batlantira oluvchi moddiy manfaatdorlik tizimini yaratish.

4. Korxona faoliyatini muntazam tahlil qilish va uning me'yorlariga o'z vaqtida o'zgartishlar kiritish.

5. O'z faoliyatiga oid davr talablarini hisobga olish, mazkur sohada sodir bo'layotgan o'zgarish va yangiliklarni ilg'ay olish va tegishli qarorlar qabul qilish.

Menejer o'z qo'l ostidagi xodimlarning mehnat faoliyatini aniq tashkil qiluvchi va shu bilan birga ma'lum hajmdagi boshqaruв vazifasini bajaruvchi shaxsdir. Menejment deganda, ma'lum korxona yoki firma boshqaruvi yoki ularga rahbarlik qilish tushuniladi.

Menejerlikning asosiy maqsadi korxona (firma) faoliyatini ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la va samarali foydalana olishni ta'minlaydigan darajada tashkil qilishdan iboratdir. Menejer har doim odamlar bilan muloqotda bo'lib, ularning ishini tashkil qiladi. Uning bilim doirasi qanchalik keng va madaniyati yuqori bo'lsa, xodimlar bilan bo'ladigan munosabati shunchalik samarali bo'ladi.

Ko'pgina hollarda boshqaruв bilimlarining yetishmasligi korxonani tkam samara bilan ishlashi yoki o'z faoliyatini to'xtatishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun har bir menejer (boshqaruvchi)dan menejmentga oid bilimlarni mukammal o'zlashtirish, bu bilimlarni muntazam boyita borish va doimo yangilikka intilish tuyg'usiga ega bo'lishi talab qilinadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, endilikda menejmentga oid bilimlar doirasi tobora kengayib, o'z navbatida undan bir qator maxsus yo'nalishlar ajralib chiqmoqda. Binobarin, menejerlar ham muayyan sohalar bo'yicha ixtisoslashmoqda.

Umumiy menejment bo'yicha mutaxassislar, ya'ni menejerlar korxona yoki firma da olinayotgan foydaning eng ko'p miqdoriga erishishning umumstrategik masalalari bilan shug'ullanadi.

Moliyaviy menejment mutaxassislar korxona yoki firmanın moliyaviy resurslaridan yuqori samaradorlik bilan foydalanish, ya'ni ishlab chiqarishga sarflanayotgan har bir so'm yoki dollardan

maksimum (eng ko‘p) foyda olishga erishish masalalari bilan shug‘ullanadilar.

Ishlab chiqarish menejmenti mutaxassislari tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish operatsiyalarining samaradorligini oshirish masalalari bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Menejment fanining muhim tarmoqlaridan biri — personal (xodimlar) ni boshqarish bo‘lib, bu soha mutaxassislari ishchi va xizmatchilarni tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish, mehnatni oqilona tashkil qilish, mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash kabi masalalar bilan shug‘ullanadilar.

---

Mazkur bobni o'qiganda, quyidagi savollarga javob topish zarurligini yodda tuting:

- ◆ *Aholi daromadlarining asosiy manbalari nimalardan iborat?*
- ◆ *Ish haqi nima va uning qanday shakllari mavjud?*
- ◆ *Ish haqi tizimlarining mehnat unumдорligiga qanday ta'siri bor?*
- ◆ *Bozor iqtisodiyoti sharoitida oila daromadlarining 2 xil turi haqida nimalar bilasiz?*
- ◆ *O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat mohiyati nimadan iborat?*

## 8.1. Aholi daromadlarining tarkibi va ularni tartibga solish

Bozor iqtisodiyotining eng muhim o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u jamiyat a'zolarining aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to'la namoyon bo'lishi va shu tufayli ularning turmush farovonligini tobora oshira borishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tizimning insonparvarlik jihatni, ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda to'laroq namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti, birinchidan, mamlakatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligini muttasil yuksaltira borish imkoniyatini yaratса, ikkinchidan, aholining ko'pchilik qismini mulk egasiga aylantiradi. Natijada aholi daromadlarini uzuksiz ortib borishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma daromadlar pul shaklida ifodalanadi va ishlab chiqarish omillari bahosi bilan uzviy aloqada bo'ladi. Ushbu baholarga talab va taklifning nisbati, raqobat va monopoliya, albatta, ta'sir ko'rsatadi.

Daromadlar ma'lum vaqt mobaynida olingen va shaxsiy iste'mol uchun tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'lari summasidir. Aholining yashash darajasi uning daromadlari miqdoriga bevosita bog'liqidir. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol ne'matlari va xizmatlarining asosiy qismi tovar sifatida sotiladi.

Insonning daromadlari qancha yuqori bo'lsa, u o'z ehtiyojlarini shunchalik to'laroq qondira olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi pul daromadlarining quyidagi to'rtta asosiy manbalari mavjud bo'lib, ular ish haqi, foyda, mulkdan olinadigan daromad va ijtimoiy to'lovlardan iboratdir.

O'zbekistonda oila daromadlarining tarkibi haqida dalolat beruvchi raqamlar 8.1-jadvalda keltirilgan.

#### 8.1-jadval

#### Oila daromadlarining tarkibi (foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2003	2004
Pul daromadlari, jami:	100	100
Shundan: ish haqi	24,7	25,9
Pensiya, nafaqa, sti pendiya	13,1	13,6
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan tushgan daromad	31,9	30,6
Tadbirkorlik va boshqa faoliyatlardan tushgan daromad	29,9	29,6

Ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda aholi daromadlarining 1/3 qismi ish haqiga to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarda u aholi daromadlarining 70—80 foizini tashkil qiladi.

Ish haqi uch qismidan: asosiy ish haqi, mukofot tarzidagi ish haqi va belgilangan ish vaqtidan ortiqcha ishlaganlik uchun beriladigan pul to'lovidan tashkil topgan bo'ladi (bu to'g'rida keyingi paragrafda batafsilroq to'xtalib o'tamiz).

Hozirgi o'tish davri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar tabaqlanishining chuqurlashuvi bilan tavsiflanadi. O'zbekistondagi turli ijtimoiy guruhlar daromadi tarkibini ko'rib chiqaylik (8.2-jadval).

**2000- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra aholi ijtimoiy guruhlari bo‘yicha  
o‘rtacha oila daromadining tarkibi (soiz hisobida)**

	Yalpi daromadlar	Shu jumladan, pul daromadlari	Shu jumladan								
			Ishlochilarga mehnat haqi to‘lash	Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar	Individual mehnat faoliyatidan olinadigan daromad	Joriy transferlar	Mulkdan olinadigan daromadlar	Shaxsiy tomorqa xo‘jaligidan olinadigan daromad	Boshqa tushumlar	Shaxsiy tomorqa xo‘jaligi va fermor xo‘jaligidan shaxsiy natural iste mol	
O‘zbekiston Respublikasi	100,0	84,3	29,9	20,7	5,0	10,0	0,4	17,2	1,2	15,7	
Shu jumladan: ishchilar	100,0	87,1	54,5	5,6	7,0	10,1	0,0	8,5	1,5	12,9	
xizmatchilar	100,0	86,3	55,8	6,5	2,4	10,7	0,0	10,1	1,0	13,7	
dehqonlar	100,0	73,3	15,1	5,3	6,7	11,5	0,0	34,3	0,5	26,7	
tadbirkorlar	100,0	86,4	14,0	50,2	2,7	3,8	0,7	14,3	0,8	13,6	
pensionerlar	100,0	88,5	16,5	3,7	3,5	56,2	0,6	4,3	3,7	11,5	

Yuqoridaagi jadval ma’lumotlaridan aholi ijtimoiy guruhlarining daromadlari ularning shakllanish manbalariga ko‘ra qat’iy farqlanishi ko‘rinib turibdi. Ish haqining ulushi jamoa xo‘jaliklari a’zolari, tadbirkorlar va pensionerlar daromadlarining juda oz qismini tashkil etadi. Pensionerlardagi bu kamchilik transferlar hisobidan, jamoa xo‘jaliklari a’zolarida esa shaxsiy tomorqa xo‘jaligidan olinadigan daromadlar hisobidan qoplanadi.

Foyda tadbirkorlikning pul sarflab, tavakkaliga ish qilib xavf-xatarni zimmasiga olgani uchun ularga keladigan pul daromadi hisoblanadi. Tadbirkorning foydaga ega bo‘lishi yoki uni boy berishi boshlagan ishining natijasiga bog‘liq. Ish yurishib ketsa, yaxshi foyda ko‘riladi, agar ish o‘ngidan kelmasa, foyda o‘rniga zarar ko‘rish mumkin. Tabiatan foyda kafolatlanmagan daromad bo‘lib, tez-tez o‘zgarib turadi.

Dividend aksiya egasining korxona foydasi hisobidan oladigan daromadidir. Dividend miqdori korxonaning ishlab chiqarish — xo‘jalik

faoliyati samaradorligiga bog'liq bo'lib, u qancha yuqori bo'lsa, aksiyador shuncha ko'proq daromad oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining tobora ko'proq qismi aksiyadorlarga aylanib boradi. Shuning uchun aholi daromadlarida dividendning salmog'i ortib boradi.

*Foiz*—vaqtincha bo'sh bo'lgan pul mablag'larini o'zgalarga, qoida tariqasida banklarga qarzga berish hisobidan olinadigan daromaddir. Foizning darajasi unga bo'lgan talab qancha ko'p bo'lsa, shuncha yuqori bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda vaqtincha bo'sh, ya'ni joriy sarf-xarajatlardan ortiqcha bo'lgan pulni banklarga qarzga berish keng rivojlangan bo'lib, buning natijasida aholining foiz sifatida oladigan daromadlari sezilarli miqdorni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida *renta* degan tushuncha ham aholi daromadlarining bir turi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U ko'chmas mulk (yer, imorat, kvartira va boshqalar)ni muqobil ishlatish uchun ijara berishdan olinadigan daromaddir. Masalan, xonodon sohibi uni har oyda 5000 so'mlik ijara haqi to'lash sharti bilan ijara topshirgan edi, deylik. Endi shu xonodonni 10000 so'mga ijara berishga oluvchi talabgorlar paydo bo'ldi. Demak, xonodon egasi uni yangi narx bilan ijara topshirib, 5000 so'mga teng bo'lgan qo'shimcha foyda olishi mumkin. Ana shu 5000 so'm rentani tashkil etadi.

Daromadlarning maxsus turi hisoblanuvchi pensiyalar 2 xil bo'ladi: qarilik pensiyalari va nogironlik pensiyalari.

Qarilik pensiyalari xodimning mehnat faoliyati davrida ishlab topgan daromadlarining bir qismini pensiya jamg'armasiga o'tkazish natijasida to'plangan mablag'lar hisobidan u qarigan chog'ida to'lanadigan to'lovlardir. Pensiyaning miqdori ishlab topilgan daromadlarning ko'pozligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu hol har bir kishidan mehnatga layoqatli davrida yaxshiroq mehnat qilib, ko'proq daromad topishga undovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Nogironlik pensiyasi ishga yaroqsiz kishilarni davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishning shakli bo'lib, uning miqdori ishlab topilgan daromadga mutlaqo bog'liq emas.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqlar aholi daromadlarining maxsus turi bo'lib, ular kam ta'minlangan va ijtimoiy yordamga muhtoj kishilarga davlat, firmalar va xayriya tashkilotlari tomonidan pul va natura (oziq-ovqat, kiyim-kechak va h.k.) ko'rinishida beriladi.

Stipendiya davlat va firmalar tomonidan oliy o'quv yurtlari talabalarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularga beriladigan yordam puli hisoblanadi.

*Tomorqa daromadi*. Tomorqa sobiq Ittifoq davrida ham qishloqda oila uchun muhim daromad resursi hisoblangan. Tomorqa tabiatan bozor iqtisodiyoti talablariiga ham mos tushadi, shu bois, u bozor

munosabatlarini o'ziga singdira oladi. Shuni aytib o'tish kerakki, mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish jarayonida aholiga 500 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlar ajratib berildi.

Mamlakatimizda 2004- yil 1- iyul holat bo'yicha jami 4480,8 ming dehqon xo'jaliklari mayjud bo'lib, ulardan 23,8 mingtasi yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganlar. Dehqon xo'jaliklari ixtiyoroda 432,8 ming hektar ekin maydoni mayjud bo'lib, ular hissasiga respublikada yetishtirilgan bug'doyning 17 foizi to'g'ri keldi.

Dehqon xo'jaliklarida 2004- yilda kartoshkaning 97 foizi, mevasabzavotning 91 foizi yetishtirildi.

Tomorqa haqida gap ketganda, u keltirgan pul daromadi bilan chekhanish xato bo'ladi, chunki bu xo'jalik aholining kattagina qismini bozordan mahsulot sotib olishdan xalos etadi, ya'ni tomorqada yaratiladigan mahsulotdan oilaning o'zida ham iste'mol etiladi. Buni natural is'temol deb ataladi. Natural iste'mol tufayli oila bozordan mahsulot xarid etish tashvishidan qutuladi, bu ishning xarajatlaridan ham ozod bo'ladi.

Inflatsiya sharoitida oila o'zini o'zi mahsulot bilan ta'minlashga ko'proq moyildir, chunki jamg'arilgan pul o'z qadrini yo'qotsa-da, jamg'arilgan mahsulotning qadri ortib boradi.

Shuni aytib o'tish joizki, pul daromadlari aniqlanganda, odatda, pul tushumlari, natural iste'mol va turli imtiyozlar hisobga olinadi.

Amaliyotda har bir mamlakatda aholining pul daromadlari va sarflarining balansi hisoblanadi. O'zbekistonda 1999- yilda aholi pul daromadlari 1027,5 mlrd. so'mni, sarflari va jamg'armalari 997,4 mlrd. so'mni tashkil etgan. Oradagi 30,1 mlrd. so'mlik farq aholining qo'lida qolgan mablag'ni tashkil etadi.

Aholi pul daromadlarining sarflanishi, birinchidan, mamlakatlararo keskin farq qilsa, ikkinchidan, bir mamlakatning o'zida yilma-yil o'zgarib turadi.

Mamlakatimizda aholi daromadlari sarflanishining tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi 3—4 yil ichida aholi sarf-xarajatlarining o'rta hisobda 44—46 foizi oziq-ovqat mahsulotlari va 24—28 foizi nooziq-ovqat mahsulotlari sotib olish uchun sarflangan bo'lsa, 5—6 foizini xizmatlar uchun to'lovlar, 12—13 foizini soliqlar, 0,6 foizgacha qismini jamg'armalar (bank depozitlari va aksiyalar) va 8—12 foizini boshqa xarajatlar tashkil etdi.

Daromadlarning nominal va real shakli farqlanadi. Nominal daromad aholining pul shaklida olgan jami daromadlari miqdorini ko'rsatadi. Uning miqdori va darajasiga tovarlar va xizmatlarning bahosi hamda soliqlar ta'sir etmaydi. Real daromadlar esa aholi tomonidan amalda iste'mol qilingan ne'matlar va jamg'arilgan mablag'lar miqdorini

ko'rsatadi. Tabiiyki, aholi o'zining pul daromadlaridan turli to'lovlarini amalga oshiradi va soliqlar to'laydi. Shuning uchun real daromadlar nominal daromadlardan hamisha kam bo'ladi. Undan tashqari real daromadlarga mamlakatdagi tovar va xizmatlarga mavjud baholar darajasining o'zgarishi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agarda tovar va xizmatlarga baholar ish haqiga nisbatan tez o'ssa, real daromadlar pasayadi va aksincha.

## 8.2. Ish haqi. Uning shakllari va tizimlari

Har qanday jamiyatda, u qanday iqtisodiy tizimga asoslanganidan qat'iy nazar, mehnatga haq to'lash juda muhim ahamiyat kasb etuvchi masaladir. U umuman olganda, mehnat bozorining asosiy unsurlaridan biri bo'lib, amalda ishchi kuchi bahosini belgilab beradi.

Mehnatga haq to'lashning asosiy shakli ish haqi bo'lib, u ishchi yoki xodimga uning mehnati uchun davlat yoki firma tomonidan belgilangan tartibda beriladigan to'lovlardan iboratdir. Ish haqining miqdori ishchi yoki xodim tomonidan sarflangan mehnatning miqdori va sifati bilan belgilanadi. U aholi daromadlarining muhim manbayi bo'lib, to'la-to'kis shaxsiy iste'mol uchun sarflanadi.

Amaliyotda nominal va real ish haqi tushunchalari mavjud. Nominal ish haqi ishchi yoki xodimning ma'lum vaqt ichida sarflagan mehnatinining miqdori va sifatiga qarab to'lanadigan ish haqidir. Nominal ish haqining tovarlar va xizmatlarning bahosiga aloqasi yo'q.

Agar nominal ish haqi bir necha yillar davomida o'zgarmay qolsa-yu, tovarlar va xizmat bahosi ko'tarilib borsa, ishchi yoki xodimning moddiy ahvoli yomonlashadi, chunki u o'sha ish haqi uchun kamroq tovarlar (xizmatlar) sotib oladi.

Ish haqining amaldagi darajasini aniqlash uchun real ish haqi qo'llaniladi. U nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini bildiradi. *Real ish haqining miqdori quyidagilarga bog'liq:*

- nominal ish haqining miqdori;
- tovarlar va xizmatlar bahosining darjasи;
- to'lanadigan soliqlar miqdori.

Amaliyotda, shuningdek, o'rtacha ish haqi va minimal (eng kam) ish haqi degan tushunchalar ham uchraydi.

O'rtacha ish haqi deganda, korxona, tarmoq yoki butun iqtisodiyot bo'yicha hisoblaganda ishchi va xizmatchilarga o'rtacha to'g'ri keladigan ish haqi tushuniladi. Masalan, korxonadagi o'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun shu korxonaning bir oylik ish haqi fondini korxona ro'yxatidagi ishchi va xizmatchilar soniga bo'lish kerak.

Minimal (eng kam) ish haqi deganda, malaka talab qilmaydigan mehnatda band bo'lgan ishchi yoki xodimga to'lanadigan ish haqi darajasi tushuniladi. Bu daraja mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi yoki boshqacha aytganda, mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlariiga bog'liq bo'lib, vaqt-vaqt bilan o'zgarib (odatda, ortib) turadi.

Ishchi va xizmatchilarning ish haqi ulaming malakasi, kasb mahorati va bajarilayotgan ish turiga qarab tabaqlashtirilgan holda to'lanadi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan ishchi va xizmatchilar mehnatiga haq to'lash tizimida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Respublikaning barcha korxona va tashkilotlariida 22 toifali (to'lov guruhlari) yagona tarif setkasi joriy etildi (8.3-jadvalga qarang).

### 8.3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida qo'llanilayotgan yagona tarif setkasi

Mehnatga haq to'lash razryadlari	Tarif koef-fitsiyenti	Mehnatga haq to'lash razryadlari	Tarif koef-fitsiyenti
0	1,000	12	3,581
1	1,450	13	3,808
2	1,595	14	4,038
3	1,755	15	4,271
4	1,930	16	4,508
5	2,115	17	4,748
6	2,308	18	4,991
7	2,510	19	5,238
8	2,716	20	5,488
9	2,926	21	5,741
10	3,140	22	5,998
11	3,358		

Keltirilgan raqamlardan ko'rinish turibdiki, ishchi yoki xizmatchining bir malaka razryadidan ikkinchisiga o'tishi uchun sezilarli manfaatdorlik mavjud. Masalan, ishchiga 4-tarif razryadi bilan haq to'lanmoqda, deylik. U holda uning ish haqi 12448,5 so'mni tashkil qiladi. Bu raqam quyidagicha aniqlanadi. Eng kam ish haqiga teng bo'lgan 0-razryadning tarif stavkasi, ya'ni maoshi 4-razryaddagi

ishchining 1,930 ga teng bo'lgan tarif koeffitsiyentiga ko'paytiriladi, ya'ni  $6450 \times 1,930 = 12448,5$  so'm. Endi malakasi yoki kasb mahorati oshgan ishchi 5-razryadga o'tkazildi, deylik. U holda uning oylik ish haqi ( $6450 \times 2,115$ ) = 13641,75 so'mni tashkil qiladi.

Mazkur tarif setkasidagi 1—8-razryadlar ishchilar mehnatini tarifikatsiyalash (baholash) uchun mo'ljallangan bo'lsa, 9—16-razryadlar bilan mutaxassis va xizmatchilarga ish haqi to'lanadi.

Ish haqining ikki shakli mayjud bo'lib, ulardan birinchisi vaqtbay ish haqi bo'lsa, ikkinchisi ishbay ish haqidir.

Vaqtbay ish haqining mazmuni shundan iboratki, unda ishchi kuchining bahosi, ya'ni ish haqi muayyan mahsulotni tayyorlash yoki operatsiyani bajarish uchun sarflangan vaqt bilan o'lchanadi. Odatda, ish haqining mazkur shakli xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassis va ishchilari uchun hamda yuqori darajada avtomatlashgan ishlab chiqarish sohalarida ko'proq qo'llanadi.

Mehnatga haq to'lashning ishbay shaklida ish haqi muayyan vaqt ichida tayyorlangan mahsulot (bajarilgan ish)ning miqdori va sifatiga qarab belgilanadi. Ish haqining bunday shakli, odatda, ishchining mehnat faoliyati ko'rsatkichlarini me'yorashtirish imkoniyatlari mayjud bo'lgan hollarda qo'llanadi.

Ish haqining biror-bir shaklini tanlash konkret ishlab chiqarish sharoiti va ishchilarning mehnat mazmunini batafsil tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Shuni aytib o'tish joizki, bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishning texnik darajasining o'sishi vaqtbay mehnat haqi to'lanadigan ishchilar sonining ko'payishiga olib keladi.

Ish haqining har ikki shakli ham o'z navbatida muayyan tizim-larga egadir.

Ish haqining ishbay shakli quyidagi tizimlardan tashkil topgan:

*Bevosita ishbay tizimi.* Bunda ishchining maoshi uning ishlab chiqargan mahsuloti yoki ko'rsatgan xizmatining miqdori va sifatiga bevosita, ya'ni to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

*Bilvosita ishbay tizimida* ishchining ish haqi uning shaxsiy ish unumiga emas, balki ko'proq boshqa ishchilarning mehnat natijalariga bog'liq.

*To'g'ri ishbay tizimida* ishchining ishlab chiqargan mahsuloti yoki ko'rsatgan xizmati uchun doimiy ishbay baholash bo'yicha ish haqi to'lanadi.

*Ish haqining egri ishbay tizimida* ishchining maoshi bevosita u xizmat qilayotgan ishchilarning ishlab chiqargan mahsulotiga yoki ko'rsatgan xizmatiga bog'liq bo'ladi.

Mazkur tizim asosiy ishchilarning ish unumdorligini oshirish va mumkin qadar ishni tezlatish uchun yordam tariqasida ular bilan

bir qatorda band bo'lgan yordamchi ishchilarga mehnat haqi to'lash uchun ishlatiladi.

*Ish haqining ishbay-progressiv tizimida* bajarilgan ish uchun belgilangan boshlang'ich me'yorga asosan, qo'shimcha chiqarilgan mahsulot uchun esa belgilangan me'yor (norma)dan yuqoriroq bo'lgan baho bilan haq to'lanadi.

*Mehnatga haq to'lashningakkord-ishbay tizimida* ish haqining miqdori (akkord bahosi) ishning umumiy hajmi uchun belgilanadi.

*Mehnat haqining ishbay-mukofot tizimida* alohida shaxs yoki guruhga bajarilgan ish uchun beriladigan maoshga qo'shimcha haq (ya'ni mukofot) ko'zda tutiladi. Mukofot erishilgan yutuqlarning miqdori va sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Endi vaqtbay ish haqi tizimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

*Mehnatga haq to'lashning oddiy vaqtbay tizimi* ishchiga berilgan daraja va ishlagan vaqt miqdoriga yarasha tarif stavkasi bilan belgilanadi.

*Mehnatga haq to'lashning vaqtbay-mukofotli tizimi* vaqtbay ishlovchi ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashdan moddiy manfaatdorligini oshirishga qaratilgan tizimdir. Mukofotlash ko'rsatkichlari muayyan ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, uskunalarining bekor turishini qisqartirish, xomashyo, materiallarni tejash va hokazolar)ga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

*Me'yorlashgan topshiriq bilan vaqtbay-mukofotli mehnatga haq to'lash tizimi* ham hozirgi kunda keng tarqalib borayotgan tizim bo'lib, uni qisqa qilib mehnatga haq to'lashning vaqtbay-ishbay aralash shakli, deb yuritish mumkin.

Mehnatga haq to'lashning yuqorida keltirilgan shakllari va tizimlarining iqtisodiyot tarmoqlarida qo'llanish ko'lamlari turlicha. Biroq shuni aytib o'tish kerakki, bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan mehnatga haq to'lash shakllari o'rtasidagi nisbat vaqtbay ish haqi foydasiga o'zgarib boradi. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi raqobat axborot va kompyuter texnologiyalarini joriy qilish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va xizmat sohalarini keskin rivojlantirishga olib keladi. Natijada vaqtbay ish haqining qo'llanish sohalari kengayib boraveradi.

### 8.3. Oila daromadining o'sish omillari

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida jamiyat a'zolarining turmush darajasi va ular daromadlarining tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zining mulkiy maqomini o'zgartirgan va mulk 'sohiblariga aylangan

fuqarolarning soni yildan yilga ortib bormoqda. Oilalar ijtimoiy maqomining o'zgarishi natijasida tadbirkorlar, fermerlar va ijara-childan iborat yangi ijtimoiy qatlamlar paydo bo'lmoqda.

Fikrimizning dalili sifatida keltirilgan quyidagi raqamlarga e'tibor bersangiz, ana shu yangi ijtimoiy qatlamlarning bugungi iqtisodiyotimizda tutgan o'rni haqida o'z mulohazalaringiz paydo bo'lishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. 2000- yilning boshida aholining 12 foizini ishchilar, 12 foizini xizmatchilar, 48 foizini tadbirkorlar va fermerlar, 20 foizini ijarrachilar va 8,0 foizini pensioner oilalar tashkil etdi.

Ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti sharoitida oila daromadlarining 2 xil turi mavjud bo'lib, ularning tarkibi va istiqbollari xususida to'xtalib o'tamiz.

Birinchisi, bozor qonunlari asosida ishlab topilgan daromadlardir. Ularga tadbirkorlik faoliyatidan topilgan daromadlar, mulkni ijaraga berishdan topilgan daromadlar, qimmatbaho qog'ozlardan tushgan dividendlar, tomorqa va dehqon xo'jaligidan olingan foyda, korxona va tashkilotlardagi yollanma mehnat evaziga olingan ish haqi va boshqa shunga o'xshash daromadlar kiradi.

Ikkinchisi, bozor qonunlariga aloqasi bo'lмаган va muhtojlik sababli yuzaga keluvchi daromadlardir. Bu daromadlarga aholiga beriladigan turli xil pensiya va nafaqalar, stipendiyalar, xayriya jamg'armalari, korxonalar, firmalar va turli tashkilotlar tomonidan pul yoki natura ko'rinishida beriladigan moddiy yordamlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari tezlashib, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi ham o'sib boraveradi. Buning natijasida ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lgan kishilarga muayyan ishni bajargani uchun beriladigan ish haqi miqdorlarini muttasil oshira borish imkoniyatlari kengaya boradi. Shu bilan birgalikda, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan foydaning mutlaq miqdorlari ham ko'paya boradi. Undan tashqari tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar soni ilgari bunday faoliyat bilan shug'ullanmagan ishchi va xizmatchilar hisobiga ko'paya boradi.

Bular hammasi aholi daromadlari tarkibida bozoriy (shunday desak ma'qulroq bo'ladi) daromadlarning salmog'ini ortib borishiga olib keladi.

Yaqin va uzoq kelajakda nobozor daromadlar aholi daromadlarining tarkibida o'z salmog'ini kamaytirsa ham, biroq o'z o'rnini mutlaqo yo'qotmaydi. Gap shundaki, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qismi har qanday jamiyatda ham mavjud bo'ladi. Bular, asosan, nogironlar, pensionerlar, vaqtincha ishga yaroqsizlar, ishsizlar va boshqalar. Aholining bu toifadagi ijtimoiy qatlamlari, hatto,

rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud bo'lib, davlat, firma va kompaniyalar ularga munosib turmush sharoitlari yaratish choralarini ko'radi.

Aholi daromadlari, odatda, pul va natura ko'rinishida bo'ladi.

Pul ko'rinishidagi daromadlarga yollanma mehnat uchun olinadigan ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda, pensiya, nafaqa, stipendiya va shunga o'xhashlar kiradi.

Daromadlarning natura ko'rinishidagi xiliga ishchi, xizmatchi va dehqonlarning mehnat faoliyatiga to'lanadigan haq evaziga oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa ko'rinishda beriladigan ne'matlar va buyumlar hamda tomorqa xo'jaligidan shaxsiy iste'mol uchun qoldirilgan mahsulotlar kiradi. Daromadlarning bunday turi ko'proq qishloq xo'jaligida uchrab turadi.

Natura ko'rinishidagi daromadlar tabiatan bozor iqtisodiyotiga to'la-to'kis mos tushmaydi. Qishloq xo'jaligini istisno qilganda, mehnat haqini natura ko'rinishida to'lashni, umuman, mazkur tizim tamoyillariga zid desa bo'ladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti aholining barcha ijtimoiy qatlamlari turmush darajasini yaxshilash, barcha fuqarolar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgandir. Buning uchun, avvalambor, aholi daromadlarini muttasil oshira borish uchun davlat tomonidan huquqiy va iqtisodiy zamin yaratilishi darkor.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda bir qator qonunlar qabul qilindiki, ular aholini nafaqat iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi, balki uning mehnat qilish huquqini to'la-to'kis namoyon bo'lishi uchun huquqiy asos ham hisoblanadi. Bular jumlasiga „Xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida“gi, „Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) to'g'risida“gi, „Fermer xo'jaliklari to'g'risida“gi, „Dehqon xo'jaliklari to'g'risida“gi, „Tadbirkorlik faoliyatları erkinligining kafolatlari to'g'risida“gi va boshqa Qonunlar kiradi.

Oila daromadlari o'sishining tashqi va ichki omillari mavjud. Tashqi omillarga mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va uning o'sish sur'atlari hamda davlatning iqtisodiy siyosatida aholining turmush farovonligini o'stirish masalasiga berilayotgan e'tibor kiradi.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va uning o'sish sur'atlari qancha yuqori bo'lsa, muayyan bajarilgan ish uchun shuncha ko'proq ish haqi to'lanadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Angliya, Yaponiya va h.k.)da ishchi va xizmatchilarning ish haqi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan bir necha barobar yuqoridir.

O'zbekistonda aholining 2/3 qismi qishloq joylarida yashaydi. Demak, mamlakat aholisi aksariyat qismining turmush darajasi qishloq xo'jaligi, uning rivojlanish darajasi va sur'atlari bilan bog'liq. Shu

sababli qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qishloqlarda sanoat korxonalari tashkil qilib, ularga ish bilan band bo'limganlarni jalg qilish aholi daromadlarini o'stirishning muhim omili hisoblanadi.

Mamlakatning muayyan iqtisodiy taraqqiyot darajasida ish haqi uchun ajratilayotgan mablag'lar va binobarin, oila daromadlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti qurayotgan mamlakatlar (xususan, O'zbekiston)da davlatning iqtisodiy siyosatida aholi turmush darajasini oshirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bunday sharoitda davlat imkonli boricha ish haqini oshira borish choralarini ko'radi.

Oila daromadlari o'sishining ichki omillariga oilaning iqtisodiy faoliyatni va bu faoliyatning samaradorlik darajasi kiradi.

Hozir oila daromadi haqida gap ketganda, ko'pchilik uni ish haqi bilan chegaralab qo'yadi. Vaholanki, aslida ish haqi oila daromadlarining 36—38 foizini tashkil qilyapti, xolos. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatimizda oila daromadlarining manbalari yetarli darajada ko'p. Muayyan bir oilani olsak, uning daromadini ish haqi, foyda, ijara haqi, dividend, stipendiya, nafaqa kabi tushunchalar tashkil etadi.

Respublikamizda tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilgani tufayli undan tushgan daromad oila daromadlarida salmoqli o'rinnegallay boshladgi va hozirgi kunda u 25 foizdan ortib ketdi.

Tadbirkorlik daromadi kichik biznes sohiblari, fermerlar va yakka tartibda ishlovchilarining topgan foydasi va aksiyalardan tushadigan dividendlardan iboratdir.

Mazkur daromadlar ichida dividendlarning salmog'i hozircha yetarli emas, deyish mumkin. Buning birinchi sababi oilalar iqtisodiy salohiyatining hozirgi kunda yetarli darajada yuqori emasligi bo'lsa, ikkinchi sababi qimmatbaho qog'ozlar bozorining hali to'la-to'kis shakllanib bo'limgani va aksiyalarga aholi ishonchining yetarli emaslidir.

Tomorqa oila daromadlarining resursi sifatida yaqin orada o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan manba hisoblanadi, chunki o'z mohiyatiga ko'ra bozor xo'jaligidir.

Oila tomorqasi tabiatan tarqoq va tartibsiz xo'jalik bo'lganligi sababli ba'zan mahsulot ko'p yetishtirilib, uning bozori kasod bo'lishi va arzon-garov, hatto, xarajatlarni ham qoplamatmaydigan narxda sotilishi ham mumkin. Sotishni iloji bo'limganidan ba'zi bir mahsulotlar nesnobud bo'lib, oila kutilgan daromadga erisha olmay qoladi. Oilalar tomorqanining ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniq hisobga olishlari,

bozorning moliyatiga qarab innani, qanchena yetishtirish, manzustrotni qayerda va qanchadan sotilishini hal etishlari tomorqadan tushadigan daromadlarni ko'paytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Yollanib ishslash bor yerda mehnat daromadi mavjud. Ish haqi tabiatan mehnat daromadi hisoblanadi. Uning miqdori mehnat unumidorligiga bog'liq, chunki bozor iqtisodiyotida har qanday daromad resurslarning (kapital, ishchi kuchi, yer) qanchalik unumli ishlataligining natijasi bo'ladi.

Shu bois, ish haqi miqdori mehnat unumdorligining darajasidan kelib chiqadi. Bu qoida moddiy ishlab chiqarish sohalari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va hokazo)ga tegishlidir. Nomoddiy sohalari (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash va hokazo)dagi ish haqi ishlab chiqarishda yaratilgan daromadlarning budget orqali taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli budgetdan moliyalashtriladigan tashkilot va muassasalardagi ish haqi budget imkoniyatlardan kelib chiqadi.

Davlat bozor sharoitida o'zini o'zi moliyalashtiruvchi, ya'ni topgan puliga qarab kun ko'ruchchi korxona va tashkilotlar beradigan ish haqini belgilamaydi. U faqat ish haqining eng kam miqdorini qonun yo'li bilan chegaralaydi, uning umumiy miqdori, eng yuqori darajasi korxonaning o'ziga bog'liq. Bas, shunday ekan, ish haqi har bir mehnat jamoasining bozor talabiga naqadar moslasha bilishiga, samarali ishlay olishiga bog'liq. Nobudjet korxona va tashkilotlarda ish haqining oz yoki ko'p bo'lishi tabiiy, chunki bozor qoidasiga ko'ra har bir kishining daromadi uning mehnatining hosilasi bo'ladi. Bozorbop, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqargan va mehnat unumdorligini oshira bilgan korxonalarda ish haqi yuqori bo'lsa, buning uddasidan chiqmaganlar esa ish haqi bera olmaydilar.

Bozor iqtisodiyotining tabiati va mohiyatiga ko'ra hamma farovon yashashi kerak. Biroq oilalarning farovonlik darajasi har xil bo'ladi. Bozor iqtisodiyotidagi tengsizlik adolatli, chunki hamma topgan-tutganiga qarab daromadga ega bo'ladi. Ammo topish-tutish bir xil bo'limgani tufayli daromad ham har xil bo'ladi. Ma'lumki, tadbirkorlar boshqalardan ko'p pul topishadi, lekin tadbirkorlik hammaning qo'llidan kelavermaydi. Daromaddagi tengsizlik adolat deb baholanganda, albatta, oilaning qonuniy yo'l bilan topgan daromadining farqlanishi nazarda tutiladi. Fuqarolarning korxona yoki davlatning haqiga xiyonat qilib topilgan daromadlarini adolatli deb bo'lmaydi. Aksincha, u yashirin iqtisodiy faoliyat mevasi bo'ladi va jamiyat buni qattiq qoralaydi. Yashirin, pinhoniy iqtisodiy faoliyatning oldini olish va unga barham berish chora-tadbirlarini amalga oshirish davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

## **8.4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari**

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida aholi turmush darajasini yaxshilash muhim o'rinni tutadi. Shuning uchun ham mammakatimizda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilidan biri sifatida belgilangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moddiy jihatdan kam ta'minlangan aholi manfaatlarni ko'zlab, ularni davlat, korxona va tashkilotlar o'z himoyasiga oladi. Bu bozor munosabatlari tizimiga o'tish jarayonidagi eng muhim muammolardan biridir. Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki oqibatlari narx-navoning ko'tarilishi va ishsizlikning oshishidan iborat bo'ldi. Bundan birinchi navbatda aholining kambag'al va iqtisodiy jihatdan zaifroq tabaqalari ko'proq zarar ko'rди. 90-yilga kelib O'zbekistonda jon boshiga eng past daromad to'g'ri keladigan kishilar soni umumiy aholining 45 foizini, ya'ni 9 milliondan ortiq kishini tashkil etgan edi.

O'zbekiston mustaqillikni e'lon qilgan dastlabki davrdayoq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishini jahonga ma'lum qildi va aholini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash tamoyili Prezidentimiz I.A.Karimov strategiyasining asosiy qoidalardan biriga aylandi.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqozosi edi, desak xato bo'lmaydi. Chunki respublikamiz sobiq Ittifoq respublikalari ichida oxirgi o'rindan birida edi.


Aholining katta qismi, ayniqsa, qishloq aholisi jamiyatda rasman e'tirof etilgan qashshoqlik darajasida yashardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1989- yilda jon boshiga hisoblanganda respublikadagi oilalarning 44 foizining pul daromadi rasman belgilangan eng kam ish haqidani ham oz edi.

Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib, o'tkazilgan islohot barbod bo'lishi muqarrar edi. Bozor iqtisodiyotiga ziddiyatlarsiz, silliqqina o'tib bo'lmasligini oldindan ko'ra bilgan respublika Prezidenti I.A.Karimov: „*Jamiyatning sifat jihatdan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli yomonlashadigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas*“<sup>1</sup>, —deb ta'kidlagan edi.

Quyida keltirilgan chizmada aholini ijtimoiy himoya qilishning O'zbekistonda mustaqillik yillarda olib borilgan va yaqin kelajakda ham saqlanib qolajak yo'nalishlari keltirilgan.

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., „O'zbekiston“, 1993, 73- bet.

## Aholini ijtimoiy himoya qilish yo‘nalishlari



### 8.1- chizma. Ijtimoiy himoya yo‘nalishlarining tarkibiy qismlari.

Daromad siyosati haqida gap ketar ekan, avvalambor, totalitar tizim paytida shakllanib qolgan boqimandalikning har qanday ko‘rinishlariga barham berish zarurligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ma’lumki, totalitar iqtisodiy tizimda daromadlar bir tekisda taqsimlanib, kishilarni iqtisodiy jihatdan baravarlashtirishga intilish yetakchi o‘rinda turardi, boy bo‘lish taqiqlanardi, daromadlar ma’lum miqdor bilan cheklanardi. Bunday sharoitda xalqimiz „davlat va hukumat, korxona va xo‘jalik bor ekan, ular hammasini o‘laydi va bizni kulfatda qoldirmaydi“, deb o‘z imkoniyatlarini to‘la-to‘kis ishga solmasdan boqimandalik kayfiyatida yashab keldilar.

Bozor munosabatlari sharoitida olingen daromadlarni taqsimlash tenglikni emas, balki tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida tovar va xizmatlarni yaratishning o‘sishi uchun kuchli rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning yuqori darajasi cheklanmagan bo‘lib, ularni har bir insonning mehnat natijalari va sifatiga qarab taqsimlash tizimi hukmonlik qiladi.

Daromadning qobiliyat, bilim, malaka, mahorat va umuman, salohiyatga qarab taqsimlanishidan kelib chiqqan tengsizlik tabiatan adolatli hisoblanadi. Yaxshi ishlagan ishchi yoki xizmatchining ko‘p daromad topishi tabiiy, chunki u hayotiy ne’matlarni ko‘p va sifatli yaratgani uchun ularni ko‘proq o‘zlashtirishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlat turli iste’mol mollari, ayniqlsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga dotatsiyalar o‘rnatadi, ya’ni ularni haqiqiy bahosidan kamroq narxlarda sotishni nazarda tutadi. Bunday dotatsiyalar aholining muayyan qatlamlarini emas, balki barcha fuqarolarni ijtimoiy himoyalash maqsadida joriy etilib, davlat budgetiga anchagina og‘ir yuk hisoblanadi.

Aholi daromadlari darajasida keskin tabaqalashuvga yo'l qo'ymaslik choralari davlatning diqqat markazida turuvchi masalalardan hisoblanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, gap adolatsiz daromadlar to'g'risida boryapti. Katta daromad faqat halol va unumli ish natijasi evaziga bo'lishi kerak. Nopok yo'l bilan daromad topuvchilar davlat nazoratida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida birmuncha rivojlanib ketgan nopok daromad topish yo'llari bu tizim madaniyashib borgan sari tobora barham topib boradi va adolatli daromadlar salmog'i ortib boradi.

Daromad siyosati sohasida indeksatsiya muhim rol o'yaydi. Aholi daromadini indeksatsiya qilish deganda, aholi buyumlari va xizmatlarning qimmatlashgan bir qismini yoki to'la qismini qoplash uchun fuqarolarning daromadini oshirish tushuniladi.

Indeksatsiya bir yo'la beriladigan ish haqi, nafaqa, stipendiya va boshqa turdag'i daromadlarning darajalarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Jahon amaliyotida indeksatsiyaning avtomatik va yarim avtomatik usullari mavjud.

Indeksatsiyaning avtomatik usulida ish haqi baho indeksining o'sish sur'atiga mutanosib ravishda oshiriladi va aholi daromadining zarar ko'rgan qismi to'la qoplanadi. Ammo bu usul ish haqining samarali tashkil qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bunda ish haqining oshishi mehnat unumdarligi bilan bog'lanmagan holda amalga oshiriladi.

Yarim avtomatik usulda bahoning oshishini hisobga olgan holda ish haqini qanchaga oshirish uch tomon (davlat, kasaba uyushmasi va ishlovchilar) ishtirokida shartnomaga tuzish yo'li bilan yechiladi.

Indeksatsiyani amalga oshirishda „iste'mol savatchasi“ tarkibini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Insonga zarur bo'lgan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilik uchun kifoya qiladigan hajmi „iste'mol savatchasi“ deb ataladi.

Aholining shunday qatlamlari borki, ular qanchalik faollik qilmasinlar, o'z daromadlarini oshira olmaydilar. Ular qatoriga nafaqaxo'rilar, bolalikdan nogironlar, urush nogironlari, ishsizlar, ko'p bolali oilalar, mehnatda va turli baxtsiz hoidisalar sababli mayib bo'lgan fuqarolar kiradi.

Respublika mustaqilligi qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan boshlab hukumatimiz bu toifadagi aholiga alohida e'libor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: „*Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega*“, deb ta'kidlanadi.

Nafaqaxo'rлarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ularga beriladigan nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari bilan birga imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bilvosita to'lovlari

ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, nafaqaxo'rlardan soliq olinmaydi va ularning ijtimoiy ahvoli e'tiborga olinib, ular oladigan nafaqaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan ortiq bo'lishiga muttasil harakat qilinmoqda.

Respublikamizda nogironlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Nogironlar yer yuzidagi jami aholining 7,5 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizda esa bu ko'rsatkich 2,5 foiz atrofida. Ularning har biriga nafaqa va boshqa imtiyozlar bilan bir qatorda o'rtacha 2—3 minimal ish haqi miqdorida yordam berib kelinmoqda.

Respublika Oliy Majlisni tomonidan qabul qilingan „Nafaqa to'g'risida“gi, „Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida“gi Qonunlar ularning haq-huquqlarini qonun yo'li bilan himoya qilishga qaratilgandir. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ularga davlat tomonidan madad berish tizimi muttasil takomillashtirib borilmoqda. 1994- yilning oktabr oyidan boshlab kam ta'minlangan oilalarga davlat nafaqasi joriy etildi. Bu nafaqa eng kam ish haqi miqdorining 1,5—3 baravariga tengdir.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan yordamni taqsimlash fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari—mahallalar zimmasiga yuklatilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda istiqomat qiluvchi oilalarning 10—12 foizi nafaqa olmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashning noyob tizimi shakllandi va amalga oshirilmoqda.

*Bugungi kunda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ijtimoiy himoyaning quyidagi yo'naliishlari ustuvor hisoblanadi:*

—islohotlarning birinchi bosqichida sog'lijni saqlash, maorif va madaniyat sohasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish;

—davlat tomonidan sog'lijni saqlash muassasalarini dori-darmonlar, vaksinalar va boshqa zarur tibbiy ashyolar bilan ta'minlash, kasallanish, o'lim va bolalar o'limi ko'payishining oldini olish;

—ijtimoiy sohani davlat tomonidan pul bilan ta'minlashning kamayishiga yo'l qo'ymaslik, uni budgetdan tashqari mablag'lar bilan ta'minlashning bozor mexanizmini yaratish;

—maorif va sog'lijni saqlash tizimida bozor o'zgarishlarini jadallashtirish va xodimlarning o'z mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini yuksaltirish choralarini amalga oshirish.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy soha—sog'lijni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan, ayniqsa, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shu sababli mamlakatimizda aynan shu sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish, ularda ishlovchilarining mehnatiga munosib baho berish va ularni kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati amalga oshirilmoqda.

Eng qiziqarli mavzulardan birini yorituvchi ushbu bobni o‘qiganda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

- ◆ *Bozor munosabatlari sharoitida moliya qanday funksiyalarni bajaradi?*
- ◆ *Davlat budgeti nima va u qanday manbalar hisobiga shakllanadi?*
- ◆ *Respublikamizda davlat budgeti qaysi maqsadlar uchun taqsimlanadi?*
- ◆ *Soliqlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli nimadan iborat?*
- ◆ *Sug‘urta nima uchun bozor tizimiga xos unsur hisoblanadi?*
- ◆ „*Qimmatli qog‘ozlar*“ tushunchasi nimani bildiradi va ularning qanday turlari bor?

### **9.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari**

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri pul bo‘lib, u odamlarni harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Pul aslida o‘zi ham tovar bo‘lib, odamlarni mehnat qilishga, bilim olishga, o‘z malakasini muttasil oshira borishga, tadbirkorlik va biznes bilan shug‘ullanishga va hokazolarga undaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul o‘ta muhim iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U tufayli ishlab chiqarishning takrorlanishi amalga oshadi, iqtisodiy o‘sishga erishiladi. Pul shaklidagi mablag‘lar bozorda boshqa resurslarga aylanadi, tovarlar sotilib, yana pulga aylantiriladi.

Pul mablag‘larini hosil qilish, ularni jamlash, taqsimlash va ishlatish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlarni moliyaviy yoki moliyaviy munosabatlardan deb yuritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha iqtisodiy jarayonlarning amalga oshirilishi pul mablag‘larining harakatlanishi bilan bog‘lanib ketgan. Shuning uchun moliyaviy munosabatlarni jamiyat iqtisodiy hayotida markaziy o‘rinni egallaydi.

Har qanday ijtimoiy faoliyat pul mablag‘larini talab qiladi. Ishlab chiqarish qayerda bo‘lmasin, baribir, moliani yuzaga keltiradi. Mahsulotlar va xizmatlar faqat taqsimlangandan so‘ng iste’mol etilishi mumkin. Ular qiymat shaklida taqsimlanganda, dastlab turli maqsadlarga mo‘ljallangan pul resurslari hosil bo‘ladi, ular tovarlarga ayirboshlanib, shundan keyin iste’mol qondiriladi. Masalan, qiymat shaklidagi mahsulot taqsimlanganda, uni yaratish uchun sarflangan

mehnat qurollari qiymatini ifodalovchi qismi amortizatsiya fondi shakliga kiradi. Bu o‘z navbatida moliyaviy resursga aylanadi, yig‘ilib boradi, unga yangi mashina va mexanizmlar sotib olinib, eskirganlari o‘rniga tiklanadi.

Ma’lumki, umumjamiyat ehtiyojlari davlat yo‘li bilan qondiriladi. Bular jumlasiga atrof-muhitni himoya qilish, mudofaa, milliy xavfsizlik, ijtimoiy tartibni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va boshqalar kiradi. Mazkur ehtiyojlarning qondirilishi davlatning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq. Ammo bundan moliyaning zarurligi davlatning mavjudligidan kelib chiqadi, moliyaviy munosabatlarni faqat davlat yaratadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Davlat moliyani yaratuvchi emas, balki moliya munosabatlarning ishtirokchisidir.

Moliyaviy resurslarni tashkil etishda va ishlatishda ishtirok etuvchilar moliyaviy munosabatlarning subyektlari hisoblanadi. Bular jumlasiga davlat idoralari, korxonalar, firmalar, tashkilotlar, turli muassasalar, oilalar va ayrim shaxslar kiradi. Ular moliyaviy munosabatlarda umum davlat ehtiyojlari (aholini ijtimoiy himoya qilish, uning sog‘lig‘ini saqlash, unga ta’lim berish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash, ekologik muammolarni hal etish va h.k.) hamda korxona va firmalarni rivojlantirish ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishtirok etadilar.

Moliyaviy munosabatlarning obyekti esa pul mablag‘laridan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyotida moliyaviy munosabatlarning o‘rni beqiyosdir, zero, ularni inson organizmini doimiy ravishda qon bilan ta’minlab turuvchi qon-tomir tizimiga o‘xshatish mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy munosabatlarning roli ular tomonidan bajariladigan quyidagi funksiyalar (vazifalar) orqali namoyon bo‘ladi.

*Taqsimlash funksiyasi.* Bu funksiya o‘z navbatida birlamchi va ikkilamchi taqsimlash funksiyalaridan iborat.

Bevosita ishlab chiqarishda yuzaga keladigan taqsimlash birlamchi deb yuritiladi. Bunday taqsimlash natijasida ish haqi fondi, sotsial sug‘urta uchun ajratmalar, amortizatsiya jamg‘armalari, foyda va rag‘batlantirish pullari shakllanadi.

Ikkilamchi taqsimlash davlat bilan korxonalar (firmalar), tashkilotlar o‘rtasida ro‘y beradi. Bunday taqsimlash jarayonida turli xil soliqlar va ajratmalar vositasida davlat korxona va tashkilotlar pul mablag‘larining bir qismini o‘z budgetida mujassamlashtiradi va yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan umum davlat ehtiyojlari uchun sarflaydi.

Masalan, korxonada bir yilda 100 mln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqariladi. Birlamchi taqsimlash natijasida uning 60 mln. so‘mi amortizatsiya fondiga, 20 mln. so‘mi ish haqi fondiga, 15 mln. so‘mi

foydaga va 5 mln. so'mi ijtimoiy sug'urtaga ajratiladi, deylik. 20 mln. so'mlik ish haqi fondining 5 mln. so'mi daromad solig'i sifatida, olingan 15 mln. so'mlik foydaning taxminan 8 mln. so'mi to'lovlar shaklida davlat budgetiga tushadi. Davlat o'z ixtiyoriga o'tgan 13 mln. so'mni umummilliy vazifalardan kelib chiqib, turli maqsadlarga taqsimlaydi, ya'ni moliyaviy resurslarni ikkilamchi taqsimlash sodir bo'ladi.

*Rag'batlantirish funksiyasi.* Moliya vositalari orqali davlat xo'jalik subyektlarini iqtisodiy faoliyakka undaydi. Soliqqa tortishda imtiyozlar berish yoki ularning miqdorini (foizini) kamaytirish korxona (firma)lar ixtiyorida qoladigan pul mablag'larini ko'paytirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishni rivojlantirish va jamoa a'zolarining moddiy manfaatdorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq hollarda davlat tomonidan korxona va tashkilotlarga moliyaviy ko'mak (subsidiyalar) ham ajratiladi va bu bilan ularning faoliyati rag'batlantiriladi.

*Ijtimoiy himoya funksiyasi.* Davlat jamiyat a'zolari ma'lum qatlamlarining minimal tirikchilik yuritishini moliyaviy jihatdan ta'minlab turadi.

Jamiyatda shunday nochor ijtimoiy qatlamlar borki, ular obyektiv sabablarga ko'ra, o'z-o'zini to'la ta'minlay olmaydi. Masalan, nogironlar, ko'p bolali oilalar, ishsiz qolganlar. Ularning tirikchiligi maxsus tashkil etilgan pul mablag'lari hisobidan, masalan, ishsizlik nafaqalari, bolalar uchun nafaqalar, nogironlik pensiyalari orqali ta'minlanadi. Bu mablag'larni nafaqat davlat, balki korxona, tashkilotlar, jamoat birlashmalari o'z mablag'lari hisobidan ham uyuştiradi.

Moliyaning ijtimoiy himoya funksiyasi, ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yorqin namoyon bo'ladi.

*Iqtisodiy axborot berish funksiyasi*—xo'jalik subyektlari va jamiyat iqtisodiy faoliyatining moliyaviy yakunlari xususida ma'lumot va xabarlar berib turishdan iborat bo'lib, iqtisodiyotni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy holat moliyada o'z ifodasini topadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarishning qanday borayotganini kuzatish mumkin. Moliyaviy fondlar harakatiga qarab, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol bir-biriga naqadar monandligini, ular orasidagi mutanosiblikni bilish mumkin. Korxona va tashkilotlarning moliyaviy holatiga qarab, ularning xo'jalik faoliyatini yaxshi yoki yomon ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Moliyaviy axborotlarga qarab tadbirkorlar o'z ishining borishi, o'z sheriklarining ahvoli, raqobat-chilar imkonidan ogoh bo'ladilar.

Moliya o'z funksiyalarini aniq moliyaviy vositalar orqali bajaradi. Xarajatlar, amortizatsiya, foyda, aksiya kursi, dividend, soliqlar, to'lovlar, boj haqi, sug'urta haqi, subsidiya, dotatsiya, kompensatsiya kabilalar shular jumlasiga kiradi. Ular ayni vaqtida moliya resurslarini

tashkil qiladi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik — moliya faoliyatiga ta'sir etish omillari bo'lib xizmat qiladi. Masalan, dividend miqdorining oshib borishi o'z aksiyasini chiqargan korxona moliyaviy ahvolining yaxshiligidan darak beradi, natijada aksiya kursi oshadi, korxonaga tashqaridan pul oqib kela boshlaydi.

Moliya resurslari pul manbayi bo'lib xizmat qiladi. Amortizatsiya fondi va foydadan ajratilgan pul mablag'lari investitsiya uchun xizmat qiladi, ularni ko'paytirish ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish demakdir.

Moliyaviy resurslar orasida foyda muhim o'rinn tutadi, chunki u sof daromad sifatida iqtisodiy o'sish manbayi bo'lib xizmat qiladi. Uning hisobidan nafaqat investitsiya fondi, balki har xil rezerv va sug'urta fondlari, shuningdek, ijtimoiy fondlar tashkil etiladi.

Moliya resurslari iqtisodiyotni kutilmagan hodisalardan, masalan, tabiiy ofatlar, falokatlardan yoki jahon bozori narxining pasayib ketishidan himoya qiladi. Moliyaviy resurslar pul shaklida bo'lib, bu pullar iqtisodiyotga amaliy ta'sir etishi uchun, albatta, moddiy jihatdan ta'minlanishi kerak, ya'ni to'plangan pul ortida kerakli moddiy mahsulotlar bo'lishi shart. Aks holda ular pulligicha (qog'ozligicha) qolib, ishlab chiqarishga naf keltirmaydi.

Moliyaviy resurslar ikki turda bo'ladi: birinchisi—mikroresurslar yoki markazlashimagan resurslardir. Ular korxona, firma, kompaniya, konsern, tashkilot, jamoat uyushmalari va boshqa xo'jalik subyektlarining o'ziga tegishli yoki ular qarzga olgan pul mablag'laridan iborat. Ikkinchisi — makroresurslar bo'lib, ular umum davlat miqyosida tashkil topadi. Ular budget hisobidan yoki budgetdan tashqari fondlar hisobidan paydo bo'ladi va davlat ixtiyorida turadi. Mikroresurslar korxona, tashkilot faoliyatiga xizmat qilsa, makroresurslar umumi iqtisodiy, umum davlat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Bozor iqtisodiyotida mikroresurslar birlamchi (ustuvorlik) mavqega ega bo'ladi, chunki iqtisodiy faoliyat erkinligi sharoitida xo'jalikning dastlabki bo'g'ini bo'lgan korxona, firma, kompaniya va xo'jaliklar moliyasi iqtisodiy o'sish tayanchi hisoblanadi. Ammo makroresurslar iqtisodiyotni tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi va davlatning iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy resurslarning turli darajada tashkil topishi va ishlatilishi tufayli iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish usullari ham turlichadir. *Birinchidan*, iqtisodiy subyektlar o'zini o'zi moliyalashtiradi. Ular o'z sarf-xarajatlarini o'zlarining pullari bilan qoplaydilar. *Ikkinchidan*, iqtisodiy subyektlar o'z mablag'lari yetishmasa, qilingan sarf-xarajatlarni bank krediti hisobidan qoplaydilar. *Uchinchidan*, subyektlar faoliyati uchun pul mablag'lari zarur bo'lgan hollarda davlat hisobidan ham bunday mablag'lar ajratiladi. Davlat budgetidagi yoki budgetdan tashqari tashkil etilgan pul fondlarini qaytarib olmaslik sharti bilan

korxona, tashkilotlar va muassasalarga ajratib berib, ularni moliyalash-tiriladi. Ammo bu bozor iqtisodiyotida ikkilamchi usul hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun moliya mablag'larining erkin harakati talab etiladi. Bunga moliya bozori orqali erishiladi. Moliya bozori milliy va xalqaro xo'jalik doirasida pul mablag'lari erkin harakatining maxsus shaklidir. U tarkiban qimmatbaho qog'ozlar bozori va qarzga beriladigan pul bozoridan iborat bo'ladi. Qarz puli tabiatan bir xil emas. U birinchidan, pulni ishlatib, daromad topishni ko'zlaydi, bunda pul kapital shaklini oladi. Ikkinchidan esa pul shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatiladi va oddiy to'lov yoki xarid vositasi vazifasini bajaradi.

Davlat o'z qo'lidagi moliya resurslaridan foydalanib, budjetdan moliyalashtirish, dotatsiya berish, soliqlardan ozod qilish, soliqlarni yengillashtirish orqali iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, moliya munosabatlarni takomillashtira borish va uni boshqarish iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirib, bank tizimini qayta qurishni birinchi galdeg'i chora-tadbirlar sifatida kun tartibiga qo'ydi. Shu munosabat bilan moliyaviy bozorni shakllantirish va rivojlantirib borish obyektiv jarayonga aylandi. Bu jarayonning muvaffaqiyati bank sohasidagi marketing rivojiga, turli banklar va ularning mijozlari o'rtaida qaror topadigan o'zar munosabatlarga, shuningdek, bank xizmatlari bozorining shaklla-nishiga, banklarning foizlar siyosati va boshqa xildagi faoliyatiga ko'p darajada bog'liqdir.

## **9.2. Davlat budjeti. Uning shakllanishi va taqsimlanishi**

Davlat budjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Budjet tizimi murakkab mexanizm bo'lib, u muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, shuningdek davlat qurilishini aks ettiradi.

Mamlakat budgetining tarkibi, avvalo, davlat qurilishiga bog'liqdir.

Davlat budjeti mamlakat pul resurslarining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori belgilab beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti iqtisodiyotni tartibga solish, xo'jalik konyunkturasiga ta'sir ko'rsatish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

## O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibi<sup>1</sup> (jamiga nisbatan % da)

Ko'rsatkichlar	1999	2000	2001	2002	2003
Daromadlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Bevosita soliqlar	29,3	26,4	28,5	27,2	26,3
Bilvosita soliqlar	53,9	56,0	51,8	54,6	57,8
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	10,9	9,9	9,3	7,5	9,6
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	1,0	1,1	1,3	2,1	1,7
Boshqa daromadlar	4,9	6,6	9,1	8,6	4,7

Mamlakat budjetining tarkibi, avvalo, davlat qurilishiga bog'liq bo'lib, u daromadlar va xarajatlardan iboratdir.

Budjetning daromad qismini shakllantirishda, mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar ishtirok etadi. Ularning ishtiroki, asosan, soliqlar to'lash shaklida yuz beradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining shakllanish manbalari yuqoridaq 9.1-jadvalda keltirilgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, bevosita soliqlarning budjet tushumlaridagi salmog'i kamayish tendensiyasiga ega, u oxirgi 5 yil ichida 29,3 foizdan 26,3 foizga kamaygan. Bu hol korxonalar foydasidan olinadigan soliqni kamaytirish natijasida sodir bo'ldi. Ayni shu yillar ichida bilvosita soliqlarning ulushi 5,8 foizga ko'paydi.

| Davlat budjeti respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining (mahalliy) budjetlarini o'z ichiga oladi. U O'zbekiston Respublikasining ..Budget tizimi to'g'risida“gi Qonuniga binoan Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi.

Har qanday mamlakat davlat budjetining taqsimlanishi ko'p jihatdan shu mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga, undagi o'ziga xosliklar va ustuvorliklarga bog'liqdir.

9.2-jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 1998—2004 yillardagi xarajatlari tarkibi (YIMga nisbatan foizda) keltirilgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh, 2004- yil 1-yarim yillik. 2004- yil, №6.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 1998—2003- yillardagi xarajatlari tarkibi<sup>1</sup> (YIMga nisbatan foizda)**

Ko'rsatkichlar	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Xarajatlar	34,5	32,2	29,5	27,0	25,8	24,6
Ijtimoiy soha	12,3	11,9	10,4	10,2	9,8	9,3
Ijtimoiy himoya	3,3	3,0	2,3	2,1	2,0	2,1
Iqtisodiyotga xarajatlar	4,0	3,7	3,0	2,3	2,3	3,0
Markazlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish xarajatlari	7,0	6,8	6,0	5,0	4,7	3,3
Davlat boshqaruvi xarajatlari	0,8	0,8	0,6	0,6	0,5	0,5
Boshqa xarajatlar	7,1	6,0	7,2	6,8	6,5	6,4

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda davlat budgetining deyarli 1/3 qismi xalq ta'limi, aholi sog'lig'ini saqlash, ilm-fan, madaniyat sohalarining ehtiyojlarini qondirish va fuqarolarni ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun sarflanadi. Davlat budgetida bu sohalarni moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar kelajakda ham salmoqli ulushga ega bo'lib qoladi. Zero, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurayotgan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson omili bilan bog'liq.

Agar budget daromadlari xarajatlarni qoplay olmay, kamomad hosil bo'lsa, budget taqchilligi yuzaga keladi. Ammo har qanday taqchillikni xatarli deb bo'lmaydi. Agar taqchillik hajmi yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatining 2—5 foiziga teng bo'lib, undan oshib ketmasa, bu iqtisodiyot uchun normal hol hisoblanadi. O'zbekistonda budget taqchilligi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan) 1998-yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2003- yilda 0,8 foizga teng bo'ldi.

Budget kamomadi, odatda, daromadlar va xarajatlarni muvo-fiqlashtirish orqali bartaraf etiladi, ya'ni daromadlar ko'paytiriladi yoki xarajatlar kamaytiriladi. Ammo asosiy yo'l iqtisodiyotni o'stirish orqali budget daromadlarini ko'paytirigan holda kamomadni normal holga keltirishdan iboratdir.

Budgetdagagi taqchillikkka, avvalambor, iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar orqali barham

<sup>1</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh, 2004 yil 1-yarim yillik. 2004 yil, №6.

berdi, shu jumladan, yelchirilgan xonimlar va mamlakatning tayyorchilik yerning o'zida qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirishni yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida „*Davlat budgeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy budgetlarni mustahkamlash zarur*“<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Mahalliy budgetlarga keng iqtisodiy erkinlik berish tumanlar, shaharlar, viloyatlar mustaqilligini ta'minlaydi. Budgetlarning shakllanishi va undan foydalanishdan manfaatdorlik oshadi. Shu bilan birga davlat budgeti intizomiga rioya qilish iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Budget taqchilligi bilan davlat qarzi bir-biriga bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Hozirgi kunda deyarli hamma mamlakatlarda davlat qarzlarining ortishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan budgetni tartibga solish masalasi har qanday hukumatning oldida turuvchi markaziy muammolardan biridir.

Davlat budgetini shakllantirish borasida to'plangan tajriba uni tartibga solishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston hukumati o'zining davlat budgeti siyosatini amalga oshirishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish budget kamomadini bartaraf etishning hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Chunki iqtisodiy o'sish davrida budgetga soliqlar tushumi avtomatik ravishda ko'payadi, makroiqtisodiy barqarorlik esa buni rag'batlantiradi. Demak, budget kamomadi avtomatik ravishda o'z-o'zidan yo'q bo'ladi.

Hukumat o'z mamlakatining sharoitlaridan kelib chiqqan holda budget siyosatini ishlab chiqadi. Bunday siyosat mamlakatning pul salohiyati doirasida moliyaviy ishlarning aniq dasturiga ega bo'lishni, budget kamomadi ustidan nazorat o'rnatilishining va uni qoplash manbalarini qidirishni, katta samara beradigan iqtisodiy dasturlarga budgetdan mablag' ajratishni talab qiladi.

### 9.3. Soliqlar va soliq tizimi

Soliqlar umum davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mulkidan undirib olinadigan majburiy to'lovlardir. Ular davlat moliya resurslarining asosiy manbayi bo'lib, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida va aholini ijtimoiy muhofaza qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Soliq tizimi deganda, soliqlar, yig'imlar, boj va boshqa to'lovlar hamda ularni undirishning umumiy tamoyillari majmuyi tushuniladi.

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., „O'zbekiston“, 1995, 208- bet.

Soniqlari va soniq tizimini bozor munosabatlarining samarali amal qilishi uchun muhim va qudratli omil hisoblanadi. Soliqlar pul resurslarining davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi. Bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umum davlat va mintaqaviy vazifalarini hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini oshirishni rag'batlantirish va daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniadi.

O'zbekiston Respublikasining „Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida“gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat budgetlariga va mahalliy budgetlarga soliq ko'rinishida tushadigan daromad manbalarini belgilab beradi.

Soliqlarni joriy etishdan maqsad davlat ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy bazasini yaratish, yuridik shaxslarning tadbirdorlik faoliyatini tartibga solish, xalqaro to'lovlarни markazlashtirilgan yo'l bilan amalga oshirish, shuningdek, chet el valutasining mamlakat hududida muomalada bo'lishini barqarorlashtirish uchun mustahkam moliyaviy manbalarni ta'minlashdir. Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi subyekt bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan asosiy shakli, daromadlarni xo'jalik subyektlari bilan davlat o'rtasida taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Soliqlar, eng avvalo, umum davlat ehtiyojlarini qondirishni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash zarurligidan kelib chiqadi. Davlat oldida turgan muhim vazifalarini bajarish, xususan, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoya qilish, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mudofaa, ijtimoiy va milliy xavfsizlikni ta'minlash juda ko'p moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslarni faqat soliqlar va soliq xarakteriga ega bo'lgan to'lovlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun soliq to'lash har bir xo'jalik subyekti, mehnat jamoasi, yuridik va jismoniy shaxs uchun majburiy bo'lib qolmay, muqaddas burch hamdir. Soliqlarni to'lamaslikka, to'lov muddatlarini kechiktirishga, ularning obyektini yashirish yoki summasini kamaytirib ko'rsatishga hech kimning haqqi yo'q.

— Bozor iqtisodiyoti qonunlaridan kelib chiqsak, davlatning bajargan xilma-xil xizmatlari uchun mamlakat ichidagi yuridik va jismoniy shaxslar haq to'lashlari kerak, ya'ni davlatning xizmat ko'rsatuvchi muassasalari (mudofaa, xavfsizlik xizmati va h.k.) o'z xizmatlarini sotishlari zarur. Demak, mazkur xizmatlar tovar darajasiga ko'tarilishi va bozorga chiqishi kerak. Biroq, bu xizmatlar „ijtimoiy tovarlar“ bo'lganligi uchun alohida korxonalar bularni ko'rsatishdan bosh tortadi, chunki bu murakkab va qimmatga tushadi. Boshqa korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar esa mazkur ijtimoiy tovarlarni sotib olishdan bosh tortadi. Demak, bozor bunday tovarlarni qabul qilmaydi.

—Eskin masalarning hikmeleri tomonini qisat, nech kim, ja ni yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham „ijtimoiy tovarlar“ ni iste’mol qilishdan bosh tortmaydi, ularning zarurligini biladi. Biroq alohida korxonalar bu tovarlar uchun haq to’lashga qodir emas. Shuning uchun ham hukumatning jamiyatga ko’rsatadigan xizmatlari haqini qoplash uchun majburiy to’lovlar sifatida soliqlar maqsadga muvofiqdir.

O’zbekiston Respublikasi „Soliq kodeksi“ning 5—8- moddalariga binoan soliq tizimi 9.3- jadvalda ko’rsatilgan.

—Soliqlar va yig’imlar bir-biri bilan bog’liq bo’lib, oqibat natijada ular huquqiy yoki jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi.

Soliq nimaga solinadi, ya’ni soliq obyekti bo’lib nimalar hisoblanadi? Mamlakatimizda soliq obyektlarini uch guruhga bo’lish mumkin. Bular tovar aylanmasi, olingan foyda yoki daromad va mulkdir.

Soliqqa tortiladigan obyekt soliq nomini ifoda etadi va ko’p hollarda soliq manbayiga mos keladi. Masalan, korxona foydasiga soliq solishda soliq obyekti ham, manbayi ham foydadir. Daromad solig’ining obyekti ham, manbayi ham fuqaro olgan yalpi daromaddir. Soliq munosabatlarda qatnashuvchi tomonlar soliq subyektlari hisoblanadi. Amaliyotda, ko’pincha soliq subyekti deganda, soliq to’lovchilarning o’zi tushuniladi. Ammo hech qanday soliq munosabatsiz bo’lmaydi. Munosabat bo’lishi uchun esa kamida ikki tomon bo’lishi kerak. Demak, soliq subyektlari bu soliq to’lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) va soliq undiruvchilar (soliq idoralari)dir.

### *9.3-jadval*

#### **O’zbekistonda soliq tizimi tuzilmasi**

Umum davlat soliqlar	Mahalliy soliqlar va yig’imlar
1. Huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiiga) soliq	1. Mol-mulk solig’i
2. Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq	2. Yer solig’i
3. Qo’shilgan qiymat solig’i	3. Kichik biznes uchun yagona soliq
4. Aksiz solig’i	4. Sotsial infratuzilmani rivojlantirish solig’i
5. Yer ostidan foydalanish solig’i	5. Savdo huquqi yig’imi, shu jumladan, alohida tovarlar turlarini sotish litsenziya yig’imi
6. Ekologiya solig’i	6. Ishbilarmonlik bilan shug’ullanuvchi huquqiy hamda jismoniy shaxslarni ro’yxatdan o’tkazish yig’imi
7. Suv resurslaridan foydalanish solig’i	7. Avtotransportning vaqtinchalik turar joyi yig’imi va solig’i
8. Savdo tashkilotlarining yalpi daromad solig’i	
9. Bojxona solig’i	
10. Davlat solig’i	
11. Qimmatli qog’ozlarni ro’yxatdan o’tkazish yig’imi	
12. Boshqa daromadlar	

Soliq himma hisobidan to'la tasa, o shu harsa soliq manediy bo'linadi. Masalan, yerga soliq solinganda, yer maydoni soliq obyekti hisoblanadi va yerdan keladigan daromad uning manbayi bo'lib xizmat qiladi. Lekin amaliyotda yer solig'ini undirishda korxonalarining boshqa daromadlari (foydasi) yoki fuqarolarning ish haqi hisobidan ham soliq undirish tartibi mavjud.

Soliq manbalarini to'g'ri, to'liq aniqlash, ularning tegishli qismini soliq solish usuli bilan davlat budgetiga o'tkazish, shu bilan birga korxona, birlashma, tashkilot va aholiga solinadigan soliq me'yori mutanosibligini ta'minlash davlat uchun eng murakkab va mas'uliyatli ishdir.

Byudjetga to'lanadigan soliq summasining soliq obyektiga nisbatan hajmi *soliq normasi* deb ataladi. Soliq normasi daromad (foyda) summasi, mol-mulk qiymati yoki tovar sotish oboroti miqdoriga qarab belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 6- dekabrdagi sessiyasi qaroriga binoan 2005- yil 1- yanvardan fuqarolarning daromad solig'ida soliq normasi ularning olgan daromadlariga qarab, 12, 20 va 29 foiz qilib belgilandi. Bu *soliq stavkasi* deb ataladi.

Soliq normasi oldindan qat'iy (so'mda yoki foizda), ya'ni o'zgarmas miqdorda yoki progressiv, ya'ni soliq obyekti miqdoriga qarab ortib boruvchi, o'zgaruvchan shakllarda belgilanadi.

Soliq og'irligi hamma soliqli va soliqsiz to'lovlar yig'indisini, soliq normasi esa faqat bir soliq yoki to'lovning budgetga o'tkaziladigan qismini ifoda etadi.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab oborotdan olinadigan soliqlar, daromaddan olinadigan soliqlar va mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlarga bo'linadi.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona va yer osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham, oborotdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadi (foydasi)ga va jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan va reklamadan olinadigan soliqlar kiradi. Bu guruh soliqlarga ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, yer ostidan foydalanish solig'i, ekologiya, avtomobilarni qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. Shuni aytib o'tish joizki, iqtisodiy adabiyotlarning bir qismida bu soliqlar bevosita va bilvosita soliqlar deb ataladi. Ayrim hollarda,

masalan, yuqoridagi paragrafda, mulk soliqlari va resurs to'lovlari  
„bevosita soliqlar“dan ajratgan holda ko'rsatish ham uchrab turadi.

To'g'ri, soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi  
to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta.  
To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bo'lmaydi. Bu soliqlarga  
hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

To'g'ri, soliqlardan to'g'ridan to'g'ri daromaddan to'lanadigan  
soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'proq  
qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini  
yaratadi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari  
kamaya borib, iqtisodiy rivojlanish susayadi. Demak, bu guruh  
soliqlarining stavkalari to'g'ridan to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan  
chambarchas bog'langandir.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchilari mahsulotni ortuvchilar,  
ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilardir. Lekin  
soliq og'irligini haqiqatan ham budgetga to'lovchilari tovar (ish,  
xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu  
yerda yashiringan. Bu soliq tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama  
ravishda qo'yiladi.

Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i,  
bojxona boji, yer ostidan foydalanish soliqlari kiradi. To'g'ri va egri  
soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro  
bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining  
stavkasini kamaytirish ikkinchisining stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliq solish amaliyotida soliq birligi degan tushuncha ham mavjud  
bo'lib, u butun obyektdan soliq hisoblash uchun zarur bo'lган  
me'yор vazifasini bajaradi. Masalan, aholi ixtiyoridagi yerdan soliq  
undirilayotganda har „bir kv.metr“, korxonalar yeridan har „bir  
gektar“ soliq birligi hisoblanadi.

Masalan, Namangan shahrining 1 zonasiga uchun 1 kv. m. soliq  
birligiga 5,4 so'm soliq stavkasi bo'lsa, 100 kv. m. yer uchun 540 so'm  
to'lanadi. Demak, soliq birligini asos qilib olib, soliq stavkasiga  
ko'paytirilsa, yillik jami soliq summasi hisoblanadi.

Soliq obyektining har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab  
qo'yilgan me'yор *soliq stavkasi* deb yuritiladi. Bu stavka qat'iy  
summalarda yoki foizlarda obyektga nisbatan qo'llaniladi. O'zbekiston  
Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 26- dekabrdagi 500-  
sonli qaroriga asosan, aholidan undiriladigan yer solig'i Farg'ona  
vodiysining shaharlari uchun, masalan, 3,2 so'mdan 5,4 so'mgacha  
bo'lган miqdorda soliq stavkasi belgilangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul inflatsiyasi, ya'ni qadrsizlanishi  
sodir bo'lib turgani sababli, qat'iy summalardagi soliq stavkalarini  
qo'llash ancha murakkab vazifadir. Shuning uchun ham soliq

stavkalarining aksariyati foizlarda belgilanadi. Masalan, 1998- yildan boshlab qo'shilgan qiymat soliq stavkasi 20%, foydaga soliq stavkasi 2005- yil 1- yanvardan 15%, yuridik shaxslarning mol-mulkiga 4%li stavka bo'yicha soliq solinadi.

Soliq stavkalari mutanosib, progressiv va regressiv ko'rinishlarda bo'ladi.

Mutanosib soliq stavkasi usulida foyda yoki oborotga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bir xil mutanosiblikda (ulushda) soliq to'laydilar. Masalan, korxona asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarining qoldiq qiymati 200 ming so'm bo'lib, undan undiriladigan soliq stavkasi 4% belgilanganda, yillik soliq summasi 8 ming so'mni tashkil etadi.

Daromad yoki foyda ortib borishi bilan soliq stavkasi ortib borishi ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday stavkalarni progressiv soliq stavkalari deyiladi. Buni biz O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limganlardan olinadigan daromad solig'i stavkasida ko'rishimiz mumkin (9.4-jadval).

#### 9.4 -jadval

#### Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining besh karrasi miqdorigacha	Daromad summasining 12 foizi
Eng kam ish haqining besh karrasi (+1 so'm)dan o'n karra miqdorigacha	To'rt karrasidan soliq + eng kam ish haqi besh karra miqdoridan oshadigan summadan 20 foiz
Eng kam ish haqining o'n karrasi (+1 so'm)dan va undan yuqori	O'n karrasidan soliq + eng kam ish haqining o'n karra miqdoridan oshadigan summadan 20 foiz

Ko'rrib turibdiki, progressiv soliq stavkalari qo'llanganda, ishchining daromadi qanchalik oshib borsa, u budgetga shunchalik ko'proq daromad keltiradi.

Regressiv soliq stavkasi usulida daromadning o'sishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki eksportga mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi va korxona budgetga kamroq soliq to'lay boshlaydi. Regressiv stavkalar biror faoliyat yoki sohada mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yoki eksport hajmlarini oshirishni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'layotgan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish kabilarni soliq qonunchiligidagi *soliq imtiyozlari* yoki *siyolvlari* deb yuritiladi.

Soliq imtiyozlari aksariyat hollarda biror ishlab chiqarish sohasini, faoliyat turlarini rag'batlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Soliqlar davlatning moliya resurslari miqdorini bevosita belgilab beradi. Agar davlatning moliyaviy resurslarini oshirishga zaruriyat bo'lsa, soliq imtiyozlari kamaytiriladi. Va aksincha, korxona, tashkilotlarning faolligini oshirish kerak bo'lsa, soliq imtiyozlari kengaytiriladi. Lekin makroiqtisodiyot darajasida soliq imtiyozlariga ko'p berilib ketish, bizning fikrimizcha, soliq to'lovchilarda boqimandachilik kayfiyatini keltirib chiqarishi mumkin. Qo'shnisi soliqdan ozod bo'lgan korxona yoki fuqaro shunday imtiyozni olish uchun hamma ochiq va taqiqlangan usullarni ishga solishi mumkin.

Korxona, birlashma va tashkilotlarga soliqlardan beriladigan imtiyozlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Soliqdan batamom ozod etish.
2. Soliqdan qisman va vaqtinchalik ozod etish.
3. Soliqqa tortiladigan (daromad) bazasini kamaytirish.

Masalan, korxonada ishlovchi xodimlar tarkibining 50% dan ortig'ini nogironlar, 1941—1945- yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minosotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslardan tashqari) daromad (foyda) solig'idan tamomila ozod etiladilar.

Agar korxonaning eksportga sotgan tovarlari ular ishlab chiqargan mahsulotlari hajmining 15% dan 30% igacha bo'lsa, soliq stavkasi 30% gacha kamaytiriladi, 30% va undan ko'p bo'lsa, bunday korxonalar foyda (daromad) ga soliq stavkasini 2 marta kamaytirilgan holda soliq to'laydilar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar (birja, tayyorlov-ulgurji, vositachi, savdo-tijorat korxonalaridan tashqari) birinchi tuzilgan yili soliqni belgilangan soliq stavkasidan 25 foizini va ikkinchi yili 50 foizini to'laydilar.

Pul muomalasini mustahkamlashda, ayniqsa, pul inflatsiyasini jilovlashda soliqlar katta rol o'ynaydi. Xususan, soliqlar naqd pulsiz hisob- kitoblar orqali undirilganda, muomalaga chiqishi lozim bo'lgan pullarni kamaytiradi. Egri soliqlar (aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalar) yordamida tovarlar bahosi oshirilib, muomaladagi pul massasining xarid qilish qobiliyati qisqartiriladi, ya'ni muomaladagi bir qism pullar tovar bahosi orqali olinadi.

Naqd pulda undiriladigan soliqlar (aholidan yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar) muomalaga chiqib ketadigan pullar massasini

kamaytiradi, tovar bilan ta'minlanmagan pullarning bir qismini muomaladan olib, markazlashgan davlat pul fondiga (budgetga) qaytaradi.

Paydo bo'lish manbayiga qarab soliqlar huquqiy va jismoniy shaxslardan, ya'ni korxona va aholidan olinadigan soliqlarga bo'linadi.

Davlat budgetiga tushishi lozim bo'lган daromadlarning 80% ga yaqini korxonalardan olinadigan soliqlar, 14% ni fuqarolardan olinadigan soliqlar va qolgan qismini soliqsiz to'lovlar tashkil qiladi.

Budgetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar davlat va mahalliy soliqlariga bo'linadi. Davlat soliqlari to'g'ridan to'g'ri respublika budgetiga tushadigan soliqlardir. Bunday soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, foyda (daromad) solig'i, fuqarolarning daromad solig'i, bojxona solig'i, bojxona boji va boshqalar kiradi.

Mahalliy soliqlar esa to'g'ridan to'g'ri mahalliy budgetlarga to'laligicha to'lanadi. Ularga yer solig'i, mol-mulk solig'i, reklama solig'i, avtomobil vositalarini olib sotganlik uchun soliq va jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kabilar kiradi.

#### **9.4. Bozor iqtisodiyotida sug'urtaning roli**

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lган unsurlardan biri sug'urta bo'lib, u ishlab chiqarishning uzlusizligini ta'minlash va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Sug'urtaning asl maqsadi tabiiy ofatlar hamda tasodifiy hodisalar natijasida xo'jalik subyektlari va aholining ko'radigan zararini to'la yoki qisman qoplashdir. Inson yashashi uchun moddiy ne'matlar yaratishi lozim. Jamiyat iste'mol qilishni to'xtata olmaganidek, ishlab chiqarishni ham inkor qilolmaydi. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda jamiyat hayotining moddiy asosi ishlab chiqarish bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Lekin ishlab chiqarishning uzlusizligiga tabiiy ofatlar, favqulodda hodisalar salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning hajmini kamaytirib, mahsulotning son va sifat darajasini pasaytirib yuboradi. Ishlab chiqarishning uzlusizligini ta'minlash uchun esa yetkazilgan talafot o'rmini to'ldirish, fuqarolarga esa zarar oqibatlarini tugatishda yordam berish zarur. Buning uchun tashqaridan, birinchi navbatda, pulli yordam tashkil qilish kerak bo'ladi. Mana shunday pulli yordamning moliyaviy manbayi sifatida sug'urta jamg'armalari tashkil etiladi. Ular, asosan, sug'urtalanuvchilarining badallari asosida shakllanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi va moliya bozorida ham davlat monopoliyasining tugatilishi oqibatida mamlakatimizda turli mulkchilik shakllariga asoslangan sug'urta kompaniyalari vujudga keldi. Mamlakat Oliy Majlisи tomonidan sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus

qonun qabul qilindi. Bozor munosabatlarini to'laqonli amal qilishiga ko'maklashuvchi sug'urta infratuzilmasini shakllantirish va takomiilashtirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Davlat sug'urta boshqarmasi bilan bir qatorda, „Madad“ sug'urta agentligi va 60 ga yaqin tijorat asosida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari amaliy faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Sug'urtaga O'zbekiston Respublikasining „Sug'urta to'g'risida“<sup>1</sup> gi Qonunida quyidagicha ta'rif beriladi: „Sug'urta – inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar hamda talafotlarni jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan sug'urta badallari (sug'urta puli)dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to'liq va qisman qoplash yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug'urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar demakdir“.!

Bu ta'rifdan ko'rinish turibdiki, tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalardan keltirilgan zararlarni qoplash uchun pul jamg'armalarini tashkil qilish sug'urta tizimining amal qilishi uchun muhim ahamiyatga egadir. Jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan shakllanadigan bu jamg'armalarini hosil qilishda sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasida munosabat yuzaga keladi. O'zbekiston sharoitida bu munosabat yuzlab sug'urta tashkilotlari bilan minglab korxona va tashkilotlar, fuqarolar o'rtasida shakllanadi. Ko'rsatilgan shaxslar to'lagan badallaridan yuzaga keladigan pul jamg'armalari ulkan miqdorlarni tashkil qiladi. Jamg'arma hosil bo'lganidan keyin uning hisobidan ko'rilgan zararlar qoplanadi. Sug'urta tashkiloti zarar miqdoriga qarab mablag' ajratadi. Sug'urtalanuvchi bu mablag'lar hisobidan zararlarni va ularning oqibatlarini tugatishga harakat qiladi, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi bu munosabatlar, asosan, kredit muassasalari orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta munosabatlarini shakllantirish va ularni takomillashtira borish har qanday davlatning ham muhim vazifalari qatoriga kiradi. Chunki, odamlarning ishlab chiqarish faoliyati rivojiana borgani sari turli tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, qurg'oqchilik va boshqalar) bilan bir qatorda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatarlar (yong'in, portlash, Orol dengizining qurib qolishi kabi holatlar) ko'paysa ko'payadiki, ammo kamaymaydi. Bulardan zarar ko'rvuchi korxonalar, firmalar va aholini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun, albatta, sug'urta agentliklari va tashkilotlarining yordami zarur bo'ladi.

<sup>1</sup> O'zbekistonning yangi qonunlari. 8- jild, T., „Adolat“, 1994, 38–39- betlar.

Sug'urtaning muhim xususiyati uning muayyan hudud doirasi bilan bog'liqligidir. Masalan, 1966- yil 26- aprelda Toshkentda bo'lgan kuchli zilziladan Toshkent shahridagi ishlab chiqarish korxonalarini va uning aholisi zarar ko'rgan bo'lsa, 2001- yil 11- sentabrda AQSHning Nyu-York va Vashington shaharlari sodir etilgan terroristik aktlar natijasida ko'plab imoratlar vayron bo'ldi, shu shaharlар aholisining muayyan qismi katta zarar ko'rdi.

Shuni aytib o'tish kerakki, mana shunday katta talafotlardan ko'rildigan moddiy zararning miqdorlari ham katta bo'ladi. Bunday hollarda sug'urta agentliklari va tashkilotlarining ko'rilgan zararni qoplash imkoniyatlari yetarli bo'lmay qolishi mumkin. Masalan, Toshkent zilzilasi yuz berganda, respublikaning barcha mavjud zaxiralari ham yetishmagan, shunda qo'shni respublikalardan, hatto, xorijiy mamlakatlar hisobidan moddiy yordam ko'rsatilgan.

Sug'urtaning yana bir xususiyati uning vaqt tushunchasi bilan bog'liqligidir. Majburiy sug'urta bir necha o'n yilga mo'ljallab, shuningdek, ma'lum yoshga yetgunga qadar tuziladi. Shu bilan birga, bir yillik, hatto, choraklik sug'urta xillari ham mavjud. Sug'urta muddati qancha ko'p bo'lsa, shunga qarab sug'urta to'lovlarini ham ko'payib boradi.

Sug'urta badallari zararni qoplashga sarflanadi va bu orqali sug'urtaluvchi ixtiyoriga qaytariladi. Ayrim sug'urta xillarida badalning bir qismi sug'urta hodisasi sodir bo'limganda ham belgilangan miqdorda qaytariladi.

Respublikamiz viloyatlari jug'rosiy jihatdan har xil tabiiy sharoitga ega bo'lganligi sababli turli joylarda o'ziga xos sug'urta hodisalari uchrab turadi, ular o'z ko'lami jihatidan xo'jalikka favqulodda va keskin zarar yetkazishi tufayli bir-biridan farq qiladi. Sug'urta jamg'armasi faqat zarar oqibatini tugatish emas, balki ularning oldini olish, aniqrog'i, ogohlantirish tadbirlariga ham sarflanadi. Buning uchun sug'urta badallari tushumlaridan ma'lum foizi ogohlantirish fondini tashkil qilishga ajratiladi va bu fond hisobidan har yili qator tadbirlar amalga oshiriladi.

Sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni uning bajaradigan funksiyalarida o'z ifodasini topadi. Sug'urta tushunchasi moliya va kredit tushunchalari bilan o'zaro bog'lanib ketganligi sababli, ularni taqsimlash va nazorat funksiyalarini amalga oshirishda sug'urta ham ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda sug'urtaning faqat o'ziga xos bo'lgan funksiyalari ham mavjuddir, bular xavf-xatar, ogohlantirish, investitsiya, omonat va axborot funksiyalaridir.

Ma'lumki, insoniyat qadim zamonlardan buyon juda ko'p tabiiy ofatlarni boshidan kechirgan. Shu sababli u mahsulot, urug'lik, yoqilg'i va boshqa moddiy-moliyaviy zaxiralalar hosil qilib, ular hisobidan ko'rilgan zararlarni qoplagan. Sug'urtaning xavf-xatar

funksiyasi aynan mana shunda namoyon bo lib kelgan. Kelajakda ham uning bu funksiyasi saqlanib qolaveradi.

Sug'urtaning ogohlantirish funksiyasi uning xavf-xatar funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, mazkur funksiya sug'urta to'lovlarning umumiy tushumidan ma'lum qismini xavf-xatarning oldini olish uchun quyidagi maqsadlarda foydalanishda namoyon bo'ladi:

1.Yong'indan ogohlantirish va yong'inga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirish.

2.Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining kamayishiga qarshi tadbirlar.

3.Chorva mollarida uchraydigan kasalliklarning oldini olish tadbirlarini bajarish.

Sug'urtaning investitsiya funksiyasi bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanib, sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradi. Sug'urta badallarining yig'ilishi va ular hisobidan zararning qoplanishi bir vaqtida emas, balki turli muddatlarda sodir bo'ladi. Ishlatilmay bo'sh turgan mablag'lar hisobidan zaxira fondlari tashkil qilinadi va ularning bo'sh turgan qismidan tijorat maqsadlari uchun foydalaniladi.

Sug'urtaning omonat funksiyasi shundan iboratki, shaxsiy va mulk sug'urtasida sug'urta badallari ma'lum muddatda sug'urta tashkiloti ixtiyorida bo'ladi. Agar sug'urta davrida biror sug'urta hodisasi ro'y bersa, sug'urta tashkiloti yetkazilgan zararni o'z hisobidan to'laydi, omonat kassalarida esa bunday xususiyat mavjud emas. Omonat kassalarida omonatlarga ma'lum muddatlarga saqlangan davrga nisbatan foiz olish huquqi beriladi, xolos.

Sug'urtaning axborot funksiyasi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan funksiyadir. Ilgari, ya'ni O'zbekistonda sug'urta monopoliyasi mavjud bo'lgan sharoitda, sug'urta bunday funksiyani bajarmagan. Endilikda respublika hududida o'nlab yangi sug'urta kompaniyalari va tashkilotlari paydo bo'lib, ularning har biri o'ziga xos sug'urta obyektlari va shartlari mavjudligi munosabati bilan sug'urta axborot funksiyasini ham bajara boshladi. Sug'urta tashkilotlarining ko'pchiligi mol-mulkni sug'urta qilish bilan shug'ullanadi, tibbiyot, transport va boshqa sug'urta kompaniyalari mavjud bo'lib, ular xorijiy mamlakatlar bilan ham hamkorlikda ish olib boradi. Shunday ekan, bular haqidagi xolis axborotlarni sug'urtalanuvchilarga yetkazish, albatta, birinchi navbatda sug'urta tashkilotlari zimmasiga tushadi.

## 9.5. Qimmatli qog'ozlar bozori

Qimmatli qog'ozlar bu—qonunda belgilangan tartibda chiqarilgan va nominal qiymatga ega bo'lgan pulli hujjatlardir. Ular mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi va qandaydir mulk yoki pul miqdoriga egalik

qilish huquqini tasdiqlaydi. Qimmatli qog'ozlar dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda mazkur hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Boshqacha qilib aytganda, egalik qilish huquqini tasdiqlovchi, dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad olishni ko'zlovchi, emissiya qiluvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi o'zaro mulkiy munosabatni bildiruvchi, boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi barcha pulli hujjatlar *qimmatli qog'ozlar* deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining „Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida“gi Qonunida ko'rsatilishicha, mamlakatimiz hududida qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari amal qildi: aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksellar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar.

*Aksiyalar* aksiyadorlik jamiyatining ustav jamg'armasiga muayyan hissa qo'shganlikdan guvohlik beruvchi, uning egasiga jamiyat foydasining bir qismini olish va uni boshqarishda qatnashish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Aksiyalar bo'yicha ularning egasi oladigan daromad *dividend* deb ataladi. Dividendlarning miqdori aksiyadorlik jamiyatining yil davomida olgan foydasiga bevosita bog'liqidir. Katta foyda olgan jamiyatning o'z aksiyadorlariga ko'proq dividend to'lash imkoniyati mavjud bo'lsa, kamroq foyda olgan jamiyatlarning to'laydigan dividendlari ham kamroq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida chiqarilayotgan aksiyalarning ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi ochiq va yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalaridir. Ochiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari ochiqchasiga muomalaga chiqarilib, keyinchalik jamiyatlarning roziligidiz qo'ldan qo'lga o'tib, o'z egasini almashtirib turishi mumkin. Yopiq turdag'i jamiyatlar aksiyalari sarmoyadorlar o'rtasidagina taqsimlanib, faqat kompaniya umumiy yig'ilishining roziligi bilan qo'ldan qo'lga o'tishi mumkin.

Aksiyalarning ikkinchi turi bu—egasining nomi yozilgan va faqat uning mulki hisoblanadigan aksiyalardir. Aksiya egasi jismoniy shaxs bo'lsa, uning familiyasi, agar yuridik shaxs bo'lsa, tashkilotning nomi ko'rsatiladi.

Aksiyalar, shuningdek, oddiy va imtiyozli bo'ladi. Oddiy aksiya egasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lib, u oladigan dividendining miqdori jamiyatning yil davomidagi ish natijalariga bog'liq. Imtiyozli aksiyalar egasi aksiyadorlar yig'ilishida qatnashish, demak, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega emas. Aksiya egasiga beriladigan imtiyoz shundan iboratki, unga to'lanadigan dividend miqdori kafolatlangan bo'lib, jamiyatning ish natijalariga bog'liq emas.

*Obligatsiyalar* deyilganda, uning egasi ma'lum miqdordagi pul mablag'larini qarzga berganligini va uning evaziga ma'lum muddat o'tgandan keyin qarz belgilangan foiz bilan qaytarilishini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz tushuniladi.

Obligatsiyalar, ularni chiqaruvchi, ya'ni emitentning xususiyatiga ko'ra 3 xil bo'ladi: davlat obligatsiyalari, munitsipal (mahalliy) obligatsiyalar va korxonalarining obligatsiyalari.

*Xazina majburiyatları* bu—ularning egalari tomonidan budgetga ma'lum miqdordagi pul mablag'larini berilganini va ular ma'lum muddat davomida belgilangan daromadni olish huquqiga ega ekanligini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlardir.

*Tabiatan xazina majburiyatları davlat obligatsiyalari bilan nihoyatda yaqin bo'lib, odatda, uch ko'rinishga ega:*

- 1.Uzoq muddatli—5 va undan ortiq yillik muddat.
- 2.O'rta muddatli—1 yildan 5 yilgacha.
- 3.Qisqa muddatli—3, 6 va 9 oylik.

Jahon amaliyotida ularning birinchisi „Bond“, ikkinchisi „Note“ va uchinchisi „Bill“ deb yuritiladi.

*Depozit sertifikatlari* bu—pulni omonatga qo'yilganligi to'g'risidagi va omonat muddati tugagandan keyin omonatchiga depozit summasi va tegishli foizlarni qaytarib olish huquqini beruvchi guvohnomadir.

*Depozit sertifikatlari bank muassasalari tomonidan quyidagi ikki xil ko'rinishda chiqariladi:*

- 1.Yuridik shaxslar uchun 1 yilgacha bo'lgan muddat bilan.
- 2.Jismoniy shaxslar uchun 3 yilgacha muddatga.

Sertifikat yuridik shaxslarga sotilganda, ular bilan bank o'rtasida shartnoma imzolanib, oldi-sotdi naqd pulsiz amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning depozit (jamg'arma) sertifikatlari ularning arizalari asosida rasmiylashtiriladi.

*Veksel* deganda, uning egasiga belgilangan muddat kelganda ma'lum miqdordagi summani to'lash haqidagi so'zsiz majburiyatni tasdiqlovchi hujjat tushuniladi. Ularni mamlakatimizda belgilangan tartibga ko'ra, korxona va tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqarishlari mumkin.

*Hosila qimmatli qog'ozlar*, odatda, shartnoma ko'rinishida bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan holda sotib oladi yoki sotadi. O'zbekiston Respublikasida bu turdag'i qimmatli qog'ozlarning *opcion, fyuchers* va *varrant* deb ataluvchi xillari chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Bozor iqtisodiyoti tizimining to'laqonli amal qilishi va samadarligini tovar-pul munosabatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, uning muhim unsuri bo'lgan moliya bozorini ham qimmatli qog'ozlar bozorisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. „*Qimmatli qog'ozlar bozori* bu—

jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi bilan bog'liq munosabatlari tizimdir“.<sup>1</sup>

Har qanday bozorda bo'lganidek, qimmatli qog'ozlar bozorida ham 2 xil toifadagi tomonlar (subyektlar) qatnashadi. Birinchi toifaga bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan va ularni ko'paytirish istagidagi sarmoyadorlar kirsa, ikkinchisiga tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi va ayni vaqtda ularni rivojlantirish uchun qo'shimcha pul mablag'lariga muhtoj bo'lgan subyektlar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozorining ajralmas qismi sifatida, pul mablag'larini bir joyga toplashga va ularni keyinchalik xalq xo'jaligiga investitsiya qilishga, bank tizimidagi kredit resurslarini to'ldirishga xizmat qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori ham bozorlarga o'xshab talab va taklifga binoan amal qiladi. Bu yerda talab, asosan, ikki yo'nalishda bo'ladi: birinchisi, investitsiyani moliyalashtirish maqsadida korxona, korporatsiya va davlat tomonidan kredit olish, ikkinchisi, uy-joy, qo'zg'almas mulk egasi bo'lish maqsadida aholi va shaxsiy sektor tomonidan qimmatli qog'ozlarni (qarz beruvchi sifatida) sotib olish.

Qimmatli qog'ozlar bozori tashkiliy jarayon nuqtayi nazaridan birlamchi va ikkilamchi, shaklan esa birjaviy va nobirjaviy bozorlarga bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori deganda, qimmatli qog'ozlarni dastlabki egalari (sarmoyadorlar)ga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga sotish maqsadida ularni ilk bor va takror emissiya qilish va muomalaga chiqarish tushuniladi. Bu bozor qimmatli qog'ozlarning joylashtirilishini tashkil qiluvchi va ta'minlovchi bozordir.

Boshqacha qilib aytganda, birlamchi bozor bu—birlamchi va takror emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni dastlabki egalari (sarmoyadorlar)ga joylashtiruvchi bozordir. Bu bozorda davlat va munitsipal obligatsiyalar, shuningdek, turli aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va obligatsiyalari emissiya qilinadi.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida quyidagi muassasalar sarmoyadorlar bo'lib hisoblanadi: investitsiya banklari, tijorat banklari, investitsiya fondlari, investitsiya kompaniyalari va boshqa investitsiya institutlari, sug'urta kompaniyalari, fondlar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari.

---

<sup>1</sup> I. Butikov. Qimmatli qog'ozlar bozori. T., „Konsauditinform“, 2001, 61- bet.

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori deganda, egasi bor qimmatli qog'ozlarni talab va taklifdan kelib chiqqan holda qayta oldi-sotdisini tashkil qilib va ta'minlab beruvchi bozor tushuniladi. Uning funksiyasi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisini tezkorlik bilan ta'minlashdir. Bunda sotuvchi va xaridorni uchratish, bo'sh kapitalni iqtisodiyotning eng unumli sohasiga zudlik bilan safarbar qilish, tomonlarning o'zaro manfaatlarini ta'minlash ikkilamchi bozorning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ikkilamchi bozor yuqori likvidlikka ega, ya'ni qisqa muddat ichida katta miqdordagi qimmatli qog'ozlarni ular kursining sezilarsiz o'zgarishi sharoitida kam xarajat bilan oldi-sotdiga jalb qila oladi. Ikkilamchi bozor birjaviy va nobirjaviy bozor ko'rinishida bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarning birjaviy bozori bu—fond birjasni bo'lib, u belgilangan tartibda, qimmatli qog'ozlar erkin savdosini brokerlar (ositachilar), maklerlar (dallollar), dilerlar (savdogarlar) tomonidan amalga oshirilishini ta'minlab beruvchi bozordir.

Qimmatli qog'ozlarning nobirjaviy bozori ularning muomalada bo'llishini ta'minlovchi muhit bo'lib, unda fond birjalariga sotuvgaga qo'yilmagan qimmatli qog'ozlarning erkin savdosi dilerlar tomonidan maxsus telekommunikatsiya tarmoqlari (telefon, telefaks, kompyuter vositalari) yordamida amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarni to'la qamrab oluvchi nobirjaviy bozorni stixiyali bozor va dilerlar bozoriga bo'llish mumkin.

Stixiyali bozorda oldi-sotdi xaridor bilan sotuvchilarning shaxsiy kontakti asosida pala-partish tarzda yuzaga keladi. Uning ishtirokchilariga nisbatan hech qanday talab qo'yilmaydi. Savdo-sotiq ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Dilerlar bozorida sotuvchilar sotuvgaga tushadigan qimmatli qog'ozlarning narxini ochiqdan ochiq e'lon qiladilar. Shu sababli xaridor bilan sotuvchi o'rtaida to'g'ridan to'g'ri ochiq muloqot yuz bermaydi.

Hozirgi kunda nobirjaviy bozor respublikamizda brokerlik idoralari, investitsiya kompaniyalari va xususiy lashtirish milliy investitsiya fondlari qoshidagi fond do'konlari shaklida faoliyat ko'rsatmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorining o'ta murakkabligi, uning tez o'zgaruvchanligi, ishtirokchilar sonining ko'pligi, xilma-xilligi, katta hajmlarda shartnomalar va amallarning bajarilishi, har xil turdag'i axborotlarning mayjudligi va boshqa omillar tufayli mazkur bozorda turli g'ayriqonuniy ishlar sodir bo'llishi mumkin. Bunday holatlar investorlarning manfaatlarini va huquqlarini poymol qilishga, ularning fond bozoriga nisbatan ishonchlarining kamayishiga, pirovard natijada esa bozor nufuzining pasayishiga olib keladi.

Shuning uchun ham qimmatli qog'ozlar bozori davlatning vakolatli organlari tomonidan nazorat qilinadi va boshqariladi.

Davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish, asosan, bozor faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozoriga bevosita ta'sir ko'rsatish yo'lini qo'llashda davlatning vakolatlari quyidagilarni amalga oshiradi:

—qimmatli qog'ozlar va emissiya prospektlarini chiqarishni ro'yxatga olish, emitentlarning ularda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarga roya qilishlari ustidan nazoratni amalga oshirish;

—emitentlar va qatnashchilarni qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash;

—mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish, investitsiya institutlari faoliyatini litsenziyalash va nazorat qilish;

—investorlar hamda qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilari bergan takliflarni ko'rib chiqish va bozor ishtirokchilari bajarishi majburiy bo'lgan xulosalar chiqarish.

*Qimmatli qog'ozlar bozoriga bilvosita ta'sir ko'rsatishda quyidagilar go'llaniladi:*

—pul-kredit siyosatini yuritish va shu orqali foiz stavkalariga ta'sir qilish;

—soliq siyosatini o'tkazish;

—xususiy sektorning depozitlari va kreditlari bo'yicha kafolatlarni muvofiqlashtirish;

—tashqi iqtisodiy faoliyatdagi holatni inobatga olish.

Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish Moliya vazirligi, davlat banki va boshqa davlat organlari vakolatiga kiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyat davlatning vakolatlari organi tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) asosida amalga oshiriladi. Litsenziya bergan organ investitsiya institutlarining faoliyatini nazorat qilib turadi va qonun hujjatlari buzilgan taqdirda berilgan litsenziyanı chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qiladi.

---

Ushbu bob mavzusi ham o‘ta qiziqarli bo‘lib, uni o‘rganish jarayonida quyidagi savollarga javob topish zarur:

- ◆ *Pul nima va uni boshqa tovarlardan qaysi xususiyatlar ajratib turadi?*
- ◆ *Inflatsiya va uning sabablarini izohlab bering.*
- ◆ *Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning roli nimadan iborat?*
- ◆ *Kreditning qanday turlari mavjud?*
- ◆ *Iqtisodiyotni rivojlantirishda kredit qanday rol o‘ynaydi?*
- ◆ *Kredit uchun to‘lanadigan foizlar miqdori (darajasi) nimaga bog‘liq?*

#### **10.1. Iqtisodiyotning amal qilishida pulning tutgan o‘rnri**

Insoniyat taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlarida pul odamlarga iqtisodiy hayotni tashkil qilish vositasi bo‘lib xizmat qilib kelgan va kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi. Har qanday jamiyatda ham ular pul topish uchun mehnat qiladilar va unga o‘zлari uchun zarur bo‘lgan mcddiy va nomoddiy ne’matlar (tovarlar va xizmatlar) sotib oladilar. Xo‘jalik aloqalari va bozor munosabatlarning rivojiana borgani sari pulning jamiyat hayotidagi roli ortib boradi. Tovar-pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining poydevorini tashkil qiladi. Shuning uchun ham pul muomalasini oqilona tashkil qilish va uning qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshира borish davlat iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin tutadi.

Pul ham aslida tovar bo‘lib, u barcha tovarlarga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, uni boshqa tovarlardan ajratib turuvchi jihatlari ham mavjud.

*Birinchidan*, har qanday tovar, odatda, kishilarning biron-bir ehtiyojini qondiradi, pul esa maxsus tovar hisoblanadi, shu bois, u boshqa tovarlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ayrboshlanish xususiyatiga ega. Har qanday tovarga ayrboshlanish, ya’ni insonlarning tovarlarga bo‘lgan barcha ehtiyojlarini qondira olish qobiliyati pulni jozibador tovarga aylantiradi.

*Ikkinchidan*, oddiy tovar aniq mehnat (etikdo‘z, novvoy, dehqon, olim mehnati) mahsuli hisoblanadi. Pul ham aniq mehnat mahsuli, lekin ana shu mehnat natijasi (mahsulot yoki xizmat)ning sotishdan olingan ekvivalentidir. Uning iste’mol qiymati kishilarning

muayyan jismoniy yoki ma'naviy ehtiyojlarini qondira olishda emas, balki tovarlar ayrboshlashda ishonchli vosita bo'la olish qobiliyatidadir.

Inson hayotidagi muammolar ichida eng asosiysi pul topishdir. Aynan shu muammoni yechish insonning barcha boshqa muammolarining aksariyatini hal etish kaliti hisoblanadi. Shuning uchun ham, ya'ni bosh muammoni hal qilish maqsadida odamlar tovar ishlab chiqaradilar, turli xizmat ko'rsatish bilan band bo'ladilar, ular bilan bozorga chiqadilar va boshqalar bilan iqtisodiy (pul) munosabatlarga kirishadilar. Bozorda ishlab chiqarish vositalari pulga sotib olinib, ular yordamida yaratilgan tovarlar pulga ayrboshlanib, iste'molga o'tadi. Tovarlar shaxsiy iste'molga yoki ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarf etiladi-mi, baribir ularni harakatga keltiruvchi kuch puldir.

Bozor munosabatlari sharoitida pul o'ta muhim iqtisodiy vositadir. U tufayli ishlab chiqarishning takrorlanishi amalga oshadi, iqtisodiy o'sishga erishiladi. Pul shaklidagi mablag'lar bozorda rerurslarga aylanadi, tovarlar sotilib, yana pulga aylantiriladi.

Pulning insoniyat hayotidagi ahamiyati u bajarayotgan quyidagi vazifalarda o'z aksini topadi:

Avvalambor, pul qiymat o'lchovi vazifasini bajaradi. Har qanday tovar ishlab chiqarilganda yoki xizmat ko'rsatilganda muayyan mehnat sarflanadi. Ana shu sarflangan mehnat bozor narxi orqali o'lchanib, pulda ifodalanadi.

Tovarning bozordagi narxi orqali uni ishlab chiqarishga ketgan mehnat va barcha sarf-xarajatlarning nafaqat miqdori, balki sifati ham o'z o'lchovini topadi. Yaxshiroq xomashyodan tayyorlangan tovarning sifati ham, odatda, yaxshiroq bo'ladi va binobarin, uning qiymati ham yuqoriq bo'lgani uchun yuqori narxda sotiladi. Bunday tovarlar o'z egasiga ko'proq daromad (ya'ni pul) keltiradi.

Tovarning bozordagi qadri, uning xaridorgirligi va raqobatbardoshliligi ham pul orqali o'z ifodasini topadi. Bozorga chiqqan tovar qancha yuqori narxda va tez o'z iste'molchisini topsa, bu narsa shu tovarning sifati yaxshiligidan va uning xaridorgirligidan dalolat beradi.

Hech qanday tovar pul kabi bozordagi mahsulotlar va xizmatlarning qadr-qiymati va bahosini o'lchab bera olmaydi.

Pulning ikkinchi vazifasi (yoki funksiyasi) uning muomala vositasi ekanlidir. Chunki pul yordamida tovarmi sotish, uni pulga almashtirish va bu pulga yana boshqa tovar sotib olish mumkin. Pul yordamida tovarmi tovarga ayrboshlash (barter) bartaraf etiladi, oldi-sotdi ishlari, madaniylashgan holda va yuqori samara bilan amalga oshadi.

Va nihoyat, pul jamg'arish vositasi vazifasini bajaradi, chunki pul boylik shakliga kirib, o'z egasiga kerak bo'lganda, xarid etish vositasiga

aylanadi. Pul qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani xarid etish hamda saqlash mumkin bo'lgani uchun boylik hisoblanadi.

Pul iqtisodiyotning samarali amal qilishini ta'minlovchi vosita sifatida, avvalambor, o'zi sog'lom bo'lishi, ya'ni uning qadr-qiymati barqaror bo'lishi kerak. Sog'lom bozor iqtisodiyoti pulga bo'lgan talab va taklifni muvozanatda bo'lishini taqozo etadi. Animo ushbu muvozanat buzilsa, ya'ni pul keragidan ortib ketsa, u qadrsizlanadi, iqtisodiyot kasallikka uchraydi.

Ishlab chiqarish hajmi, pul miqdori va pulning aylanish tezligi va narx o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ishlab chiqarish o'smagan holda pul miqdori ko'paysa, bunga javoban narx oshadi. Agar ishlab chiqarish o'sib, pul ko'paysa, narx pasayadi. Kerakli pul miqdori faqat narxga qarab emas, balki iqtisodiyot ahvoliga va pulning aylanish tezligiga qarab belgilanadi. Iqtisodiy yuksalish yuz berganda, pul ko'p bo'lsa, uning tovar bilan ta'minlanishi ortadi, pul qadri tushmaydi. Ammo pul tez aylanib borsa, uning bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi.

Narxning pul miqdoriga ta'siri qisqa davrda sezilmaydi, uzoq muddatda namoyon bo'ladi. Agar pul miqdori iqtisodiy o'sishga monand ravishda ko'paysa, u qadrsizlanmaydi. Ishlab chiqarish hajmi, pul miqdori va pul aylanmasi o'rtasidagi muvozanat buzilsa, inflatsiya yuz beradi.

Keragidan ortiqcha pul ishlab chiqarish natijasida narxlarning to'xtovsiz o'sishi va pul birligining qadrsizlanishi *inflatsiya* deb ataladi.

Inflatsiya asosida, odatda, pul talabi bilan tovar massasining bir-biriga nomuvofisligi yotadi. Tovarlarga va xizmatlarga bo'lgan talab tovar aylanish hajmidan oshib ketadiki, bu narsa tovar ishlab chiqaruvchilar va uni yetkazib beruvchilarning sarf-xarajatlari qanchaligidan qat'iy nazar, narx-navoning ko'tarilishi uchun sharoit yaratib beradi. Davlat budgetining taqchilligi (davlat sarf-xarajatlarining ortib ketishi), haddan tashqari investitsiyalash (investitsiyalar hajmining imkoniyat darajalaridan ortib ketishi) sharoitida ishlab chiqarishning o'sishi va mehnat unumdoorligining ko'tarilishiga qaraganda ish haqi ko'proq o'sadi. Natijada talab bilan taklif o'rtasidagi muvozanat buziladi, pulning qadrsizlanish jarayoni sodir bo'ladi.

Pul inflatsiyasining sabablari, asosan, quyidagilardir:

*Brinchidan*, ko'p hollarda mutasaddi bank tashkiloti tomonidan noto'g'ri pul siyosatining o'tkazilishi va natijada tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning muomalada paydo bo'lishi. Masalan, iqtisodiy o'sishning pasayishini oldini olish yoki fond birjasida aksiyalar kursining tushib ketishini to'xtatish maqsadida Markaziy bank pul taklifini ko'paytiradi, ya'ni pul emissiyasi amalga oshadi.

*Ikkinchidan*, budjet taqchilligi ham muqarrar ravishda pulning qadrsizlanishini keltirib chiqaradi. To'g'ri, pul siyosati bo'limgan hollarda bunday taqchillikni qoplash uchun yangi pullar chiqarilib, xo'jalik oborotiga kiritiladi.

*Uchinchidan*, bozorlarning monopolashuvi, ya'ni raqobatning yo'qligi inflatsiyaning avj olishiga sabab bo'ladi. Monopoliyalar bozordagi narx-navoni yuqori belgilab, tovarlarni ishlab chiqish va taklif etishni ham kamaytirishga harakat qiladilar. Bu narsa umumiy talab bilan taklif nisbatiga salbiv ta'sir o'tkazadi va ular o'rtaсидаги nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Ulardan tashqari inflatsiyaga tashqi omillar ham ta'sir qiladi. Masalan, xomashyo va energoresurslar bahosining ko'tarilishi, xorijiy sarmoyalar (kreditlar) foiz stavkasining ortishi, xalqaro ahvolning tanglashuvi va hokazo.

Shuni aytib o'tish kerakki, pulning qadrsizlanishi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar tufayli, albatta, sodir bo'lib turadigan hodisadir. Bunday sharoitda uni jilovlab turish va iqtisodiyot taraqqiyoti hamda xalqning turmush darajasiga ta'sirini kamaytirib turish har qanday davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

U yoki bu mamlakat iqtisodiyotida chuqur inqiroz sodir bo'lsa, u holda inflatsiya ham chuqurlashadi yoki boshqacha qilib aytganda, uning jilovi davlat qo'lidan chiqib ketadi. O'z paytida tegishli choralar ko'rilmasa, giperinflatsiya sodir bo'ladi, ya'ni pulning qadrsizlanishi oviga 50 foizdan ortib ketadi.

Shu narsani ham ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishning eng dastlabki va og'ir yillarda ham giperinflatsiyaga yo'l qo'yilmadi. Buning asosiy omili bo'lib O'zbekistonidagi kuchli antiinflatsion (inflatsiyaga qarshi) siyosat xizmat qiladi.

*Birinchidan*, ishlab chiqarishni jonlantirish, ya'ni uning o'sishini rag'batlantirish choralarini ko'riadi. Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tadbirdorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

*Ikkinchidan*, pul massasining ortishini cheklash yoki to'xtatib qolish choralarini ko'riadi. Shu maqsadda pul daromadlari: ish haqi, nafaqa, pensiya va boshqa to'lovlarining o'sishi ustidan nazorat kuchaytirildi, ortiqcha pulni tovar bozoridan qaytarish uchun bankka qo'yiladigan depozit pullarga bank to'laydigan foizlar oshirildi.

Pul deganda, biz, odatda, ko'z bilan ko'rish va qo'l bilan ush-lash mumkin bo'lgan qog'oz yoki tanga pullarni tushunamiz. Biroq bu pulning bir turi, ya'ni *naqd pullardir*. Shu bilan bir vaqtida naqd bo'limgan pullar ham mavjud bo'lib, ular aholining bank depozit-

larida, kredit kartochkalarida, korxona, firma va tashkilotlarning bank hisob raqamlarida turuvchi pullaridir. Bu pullarni *naqd bo'Imagan pullar* deb yuritiladi.

Pulning bu turi, ya'ni naqd bo'Imagan pullarning naqd pulga nisbatan bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ulardan eng muhim bu pullarni asrashning qulay va xavfsizligidir, aytaylik, safarga chiqqanda ularni ko'tarib yurishga ehtiyojning yo'qligidir. Undan tashqari aholining bankka qo'yan pullari doimo ko'payib boradi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda bozor munosabatlarining joriy etilishi va rivojlanishi bilan „kredit kartochkalari“ degan tushuncha hayotimizga kirib kela boshladi. Bunday kartochkalarga qo'yilgan pulni mamlakatimizning istagan shahrida naqd pulga aylantirish mumkin. Modomiki, unga qo'yan pulingiz erkin almashtiriladigan valuta bo'lsa, istagan xorijiy mamlakatda kartochkadagi pulingiz hisobidan o'zingizga kerakli miqdorda naqd pul olishingiz mumkin.

Naqd bo'Imagan pullar, ayniqsa, korxona, tashkilot va firmalar uchun hisob-kitobning eng qulay shaklidir. Masalan, aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi yoki avtomobillar ishlab chiqaruvchi korporatsiyaning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining miqdori bir necha yuz million, hattoki milliard so'mni tashkil qilishi mumkin. Bu pullarni faqat bank hisob raqamlarida saqlash mumkinligi va maqsadga muvosifligi o'z-o'zidan ravshan.

Shunday qilib, mamlakat miqyosida harakatda bo'lgan pul massasi naqd pullar va naqd bo'Imagan pullar yig'indisidan iboratdir.

Muomala doirasiga qarab, pullarni ikki turga—milliy va baynalmilal (xalqaro) pullarga ajratish mumkin.

Milliy pullar (valutalar)—ayrim mamlakatlarning pullari hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston so'mi, Rossiya rubli, AQSH dollari, Angliya funt sterlingi, Qozog'iston tengesi va hokazolar.

O'z navbatida milliy pullar ham ikki xil bo'ladi—erkin almashtiriladigan (masalan, AQSH dollari, Angliya funt sterlingi va boshqalar) va faqat o'z mamlakati doirasida amal qiladigan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlarning pullari hozircha ikkinchi turdag'i, ya'ni faqat o'z mamlakati doirasida amal qiladigan pullar jumlasiga kiradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan o'zbek valutasi (so'm)ning kuchi va qadrini oshirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar belgilangan. Ularni amalga oshirish natijasida yaqin yillarda bizning milliy valutamiz ham erkin almashtiriladigan pullar qatoridan o'rinn olishi muqarrardir.

Baynalmilal pullar deb, xalqaro (ya'ni mamlakatlararo) munosabatlarda ishlatiladigan pullarni tushunish kerak. Bunday pullar vazifasini bajaruvchi pullar ham ikki xil ko'rinishga ega. Birinchisi — ayrim milliy valutalar (masalan, AQSH dollari) bo'lsa, ikkinchisi bir necha

davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida joriy etilgan va ularning barchasida birdek foydalilaniladigan valutalar. Bunday pullarning ilk namunasi Yevro valutasi bo'lib, u 2002- yil 1- yanvardan boshlab, Yevropa qit'a-sining 12 davlati (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Niderlandiya, Gretsya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Luksemburg, Portugaliya, Finlandiya va Fransiya)da joriy etildi.

## 10.2 Kredit va uning turlari

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar iqtisodiyotida kredit muhim rol o'ynaydi. Kredit deb pul yoki tovar ko'rinishida tegishli foizlar bilan qaytariladigan qarzni tushuniladi. Qarzga beruvchi (kreditor) bilan qarz oluvchi o'rtasida paydo bo'lувчи munosabatlarni kredit munosabatlari deb aytildi.

Kredit munosabatlarining mohiyati shundan iboratki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvoli hamma vaqt ham birday bo'lavermaydi. Ayrim subyektlarning vaqtincha bo'sh bo'lgan pul mablag'lari va tovar resurslari mavjud bo'lgan bir paytda, boshqalarning ularga ehtiyoji bor. Masalan, firma (korxona) o'z mahsulotini sotishdan olgan pul mablag'larini birdaniga sarflaydi. Bu pullar xomashyo va materiallar sotib olguncha, ish haqi va mukofotlar to'languniga qadar ma'lum vaqt davomida bo'sh turadi. Ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirishga mo'ljallangan mablag'lar ham jamg'arilib boradi. Aholining vaqtincha bo'sh bo'lGANI uchun bankka qo'ygan jamg'armalari ham mamlakat miqyosida kattagina mablag'larni tashkil etadi.

Kredit mexanizmi vositasida mamlakatdagi vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'lar unga muhtoj bo'lgan xo'jalik subyektlariga ma'lum muddatga qarzga beriladi. Erkin tadbirdorlikka keng yo'l ochib beruvchi bozor iqtisodiyoti sharoitida pul yoki boshqa moddiy resurslarni qarzga olishga bo'lgan ehtiyoj nihoyatda katta. Bunday ehtiyoj nafaqat yangidan ish boshlayotgan tadbirdorlarda, balki muayyan davrdan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan firma (korxona)larda ham mavjuddir.

Kreditning muhim vazifasi investitsiya jarayonlarini faollashtirishdir. Kredit mexanizmi vositasida korxonalarining jamg'arayotgan foydasi va aholining jamg'armalari tezroq muddatlarda kapitalga aylanadi. Kredit tufayli ishlab chiqarishning yangilanish jarayonlarini tezlashtirishga imkoniyat yaratiladi.

Ko'rrib turibdiki, kredit ishlab chiqarishning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Kredit ilmiy-texnika taraqqiyotiga, kapitalning aylanish tezligiga, ishlab chiqarish xarakatlarning qisqarishi va samaradorlikning ortishiga yordam beruvchi omildir.

Iqtisodiyotning rivojlanishida o'z-o'zini moliyalashtirish manbalarining, amortizatsiya ajratmalari va jamg'arilgan foydaning roli juda

katta. Shu bilan birga, bu manbalarni kredit bilan qo'shib olib borish ishlab chiqarish korxonalari uchun eng yaxshi natijalar beradi. Bunda korxona (firma) ehtiyojlarining asoslanganligi, mablag'lardan foydalanish mas'uliyatining kuchliligi, kreditni qaytarish va foizlarni to'lash uchun real javobgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit mamlakat tashqi aloqalarining rivojlanishiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat kreditlash jarayonlariga faol aralashadi. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish maqsadlarida davlat qarz oluvchilarning muayyan guruhlari uchun kredit olishning qulay sharoitlarini yaratib beradi. Bu kredit uchun foiz darajalarini tabaqlashtirish, hukumat kafolatlari yoki imtiyozlarini berish, ayrim tarmoqlar va korxonalar uchun davlat mablag'lardidan kredit resurslari ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kredit aloqalari pul (tovar) egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Birinchi holda ular to'g'ridan to'g'ri muomalaga kirishadi. Ikkinci holda esa ularning aloqasi vositachilar orqali yuz beradi. Shunga ko'ra, kreditning quyidagi asosiy shakkllari kelib chiqadi: tijorat krediti, bank krediti, iste'molchi krediti, davlat krediti, xalqaro kredit va boshqalar.

*Tijorat krediti* bu—sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bunda tovarlar ma'lum muddatda pulini to'lash sharti bilan nasiyaga beriladi. Tijorat kreditini nasiyaga oluvchi uning egasiga veksel (qarzning majburiyatnomasi)ni beradi. Kreditning bu turi, odatda, mahsulotni sotuvchisi bilan uning xaridori o'rtasida bevosita sodir bo'luvchi kredit munosabatlarga taalluqlidir.

Bevosita kreditning ommaviy ko'rinishlaridan biri qimmatbaho tovarlarni (avtomashina, uy, televizor, kompyuter va hokazo) aholiga nasiyaga sotishdir. U tovarlar yetarli, binobarin, taqchillik yo'q bozorda qo'llaniladi.

*Bank krediti*—xo'jalik yurituvchi subyektlarga qarz berishning asosiy va eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, u bilvosita kredit hisoblanadi. Buning sababi shundan iboratki, bunda pul egalari bilan uni qarz oluvchilar o'rtasida bank tashkilotlari vositachilik qiladi. Ular pulni uning egalariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'llarida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foizlar oladilar. Bunda uch subyekt (pul egasi, kredit tashkiloti va qarz oluvchi)ning kredit aloqasi paydo bo'ladi.

Banklar qarzni ishonchli, pulni samarali ishlatalishga qodir bo'lган xo'jalik subyektlariga beradilar. Ular o'z navbatida pulni investitsiya uchun sarflab iqtisodiyotni o'stirishga ko'maklashadilar.

Banklar firmalarga tadbirkorlik uchun qarz bersa, iste'molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradi. Buning natijasida *iste'molchi krediti* paydo bo'ladi. Masalan, AQSH da banklarning iste'molchilarga beradigan krediti hisobiga narxi 2500 AQSH dollarigacha bo'lган

tovarlar xarid qilish mumkin. Xarid qilingan tovar pulini banklar magazinlarning bergan schotiga qarab to'laydilar. Bunday kredit g'oyat imtiyozli bo'ladi. Uning foizi boshqa kreditlar foizidan kam, hatto foizsiz bo'lishi mumkin.

Iste'molchi krediti aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, u tovar yoki pul ko'rinishida bo'lishi mumkin.

*Davlat krediti* deyilganda, bir narsaga e'tibor berish kerakki, davlat unda qarz beruvchi (kreditor) sifatida emas, balki qarz oluvchi sifatida qatnashadi. Qarz beruvchi vazifasini aholi, firma (korxona) va tashkilotlar o'taydi. Davlat qarzni turli shaklda, eng avval davlat zayomlari (zayom (ruscha)—qarz demakdir) shaklida oladi. Zayom davlatning qarzdorlik guvohnomasi bo'lib, u qarzni vaqt kelganda qaytarib berish va foiz to'lashni kafolatlaydi. Zayomlarni markaziy va mahalliy hokimiyatlar chiqaradi. Zayomlar qarz haqi to'lash jihatidan foiz to'lanadigan va ba'zan foizsiz ham bo'ladi.

Kredit munosabatlarida davlat faqat qarzdor vazifasini o'tamay, qarz beruvchi rolini ham bajaradi. Davlat o'z mablag'lari hisobiga bankda qarz fondini tashkil qiladi, xazinadan ham qarz beradi. Xazina qarzi davlat budgetidan korxona, firma va tashkilotlarga ularni moliyaviy sanatsiya qilish (sog'lomlashtirish) uchun sarflanadi. Mazkur qarz ham ma'lum muddatga, qaytarib berish va foiz to'lash sharti bilan beriladi. Ammo foiz g'oyat imtiyozli bo'ladi va daromad olishni ko'zlamaydi.

*Xalqaro kredit* — ssuda (qarz) kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo'lib, bu harakat tovar va valuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va haq to'lashlik asosida berish bilan bog'liq.

Xalqaro kredit munosabatlarida qatnashuvchi subyektlar bo'lib tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, hukumatlar, yirik korporatsiyalar hamda xalqaro va mintaqaviy moliya-kredit tashkilotlari hisoblanadilar. Xalqaro kredit munosabatlarining ishtiroychilari sifatida, ikkinchi tomonidan, odatda, xorijiy mamlakatlar firma va kompaniyalari, xususiy banklar hamda xalqaro tashkilotlar (Xalqaro Valuta Fondi, Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banki va boshqalar) qatnashadilar.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, respublikamiz oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001- yil 26-iyuldagagi 318-sonli qarori bilan ta'lim kreditlari berish boshlandi.

*Ta'lim kreditlari* tijorat banklari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga beriladi.

Kredit tashkilotlari pul va kapital bozorining faol ishtirokchisi sifatida bozor iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Jahon amaliyotida kredit tashkilotlari sifatida, asosan, turli xil banklar faoliyat ko'rsatadilar va ular bozor infratuzilmasining muhim unsuri hisoblanadi.

### 10.3. Banklar va ularning iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi roli

Iqtisodiyot taraqqiy eta borgan sari jamiyatdagi pul munosabatlari ham rivojlanib boradi, ya'ni jamiyat qancha boy bo'lsa, uning pul mablag'lari ham shuncha ko'p bo'ladi. Har qanday boy davlatda, binobarin, vaqtincha bo'sh pullarga ega bo'lgan firma (korxona), kompaniya va tashkilotlar, shuningdek aholining soni ham ko'p bo'ladi. Ana shu pullarni bir yerga jamlash va ularni iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qayta taqsimlash, ya'ni pul mablag'lari ehtiyoji bor bo'lgan xo'jalik subyektlariga qarzga berish nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatdir. Aynan shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar *bank* deb yuritiladi. Demak, banklar pul munosabatlарини rivojlanishi bilan yuzaga kelgan muassasalardir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida barcha iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirish, xususan, iqtisodiyotni moliyalashtirish, ya'ni pul mablag'lari bilan ta'minlash banklar faoliyati bilan chambarchas bog'lanib ketgan. O'zbekiston Respublikasining „Bank va bank faoliyati to'g'risida“gi Qonunida ularga quyidagicha ta'rif berilgan: ..*Bank—tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuyini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.*“

Bank faoliyati iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni va tovarlarning sotilishini tezlashtiradi, muomala xarajatlarini kamaytirishga ko'maklashadi. Pul muomalasi tezlashuvi va to'lovlarning naqd pulsiz bajarilishi pirovard natijada xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun katta qulayliklar yaratadi. Kredit muassasalari orqali mablag'larni ishlab chiqarishga safarbar etish natijasida uni kengaytirish, zamona-viylashtirish, fan-texnika yutuqlarini joriy etish imkoniyatlari kengayadi.

Kredit operatsiyalari orqali kapital eng ko'p foyda keltiradigan sohalarga oqib o'tadi va oqibatda, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning takomillashuvi sodir bo'ladi.

Hozirgi kunda bank, odatda, aksiyadorlar jamiyatidan iborat bo'lib, moliyaviy operatsiyalar zaminida yotadigan o'z kapitaliga ega bo'lgan tashkilotdir.

Banklarning asosiy vazifalari vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash va turli firma (korxona), tashkilot va muassasalarga qarz berish ekanini biz yuqorida aytib o'tilganlardan bilib oldik. Shu

bilan birgalikda, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish, milliy iqtisodiyotda pul to'lovlari va hisob-kitoblarni amalga oshirish, kredit pullari va boshqa muomala vositalarini chiqarish (banknotlar, cheklar va h.k.), moliyaviy maslahat va iqtisodiy axborot berish kabilar ham ularning muhim vazifalari hisoblanadi.

Bank operatsiyalari aktiv va passiv operatsiyalarga bo'linadi. Passiv operatsiyalar natijasida bankning resurslari shakllanadi. Ularga bankning o'z mablag'lari, jalb etilgan mablag'lar (omonatlar, depozitlar va boshqalardan olingen kreditlar) hamda emissiya tufayli hosil bo'luvchi mablag'lar (muomalaga pul, aksiyalar va obligatsiyalar hamda boshqa qarz majburiyatnomalarini chiqarish) kiradi. Passivlarda jalb etilgan mablag'lar asosiy o'rinni egallaydi.

Bankning aktiv operatsiyalari natijasida uning ixtiyoridagi mablag'lar turli yo'nalishlarda joylashtiriladi: bularga kreditlar berish, veksellarni hisobga olish va qimmatli qog'ozlarni sotib olish kabi operatsiyalar kiradi.

Banklar vositachiligidagi milliy iqtisodiyotda naqd pulli va naqd pulsiz o'zaro hisob-kitoblar olib boriladi. Ko'pgina mamlakatlarda hisob-kitoblarning eng muhim quroli bo'lib chek (bankdagi mablag'idan boshqalar hisobiga o'tkazish haqida yozma farmoyish) xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslarning harakatlanishi sohasida ham raqobat va tadbirdorlikni rivojlantirish talab etiladi. Bunga erishishning asosiy yo'llaridan biri banklarga tijorat muassasasi maqomini berishdir. Tijorat maqomi bankka kreditlash maqsadlari, shartlari va muddatlarini tanlashda, o'z faoliyatining turli shakllarini rivojlantirishda, o'z shtatlari hamda xodimlarining ish haqi darajasini belgilashda va boshqa hollarda mustaqillik uchun imkoniyat yaratadi.

Foya olib ishslash bank faoliyatining tijorat maqsadiga aylanishi mijozlarni o'ziga jalb etish uchun kurashishga, aktiv, passiv va vositachilik operatsiyalarini bajarishda tadbirdorlik bilan harakat qilishga majbur qiladi. Natijada ishbilarmonlik raqobati rivojlanadi, bank xizmatlarining turlari ko'payib boradi va sifati ham yaxshilanadi.

Tijorat banklari tizimining yaratilishi va amal qilishi natijasida quyidagi muhim iqtisodiy vazifalar hal etiladi:

*Birinchidan*, tijorat banklari tizimining faoliyati orqali ijtimoiy ishlab chiqarishdagi makroiqtisodiy muvozanatlarga iqtisodiy usullar bilan ta'sir ko'rsatiladi, ya'ni iqtisodiyot pul-kredit dastaklari vositasida tartibga solinadi.

*Ikkinchidan*, moliyaviy resurslarining ular eng yuqori samara beradigan sohalar va korxonalarga erkin o'ta olishi uchun sharoit vujudga keladi.

Kapitalning manbayi bo'yicha davlat banklari va xususiy banklar, operatsiyalarining xarakteri bo'yicha esa universal va ixtisoslashgan (ipoteka, omonat, investitsion va h.k.) banklar mavjud.

Hozirgi kunda banklar tomonidan bajariladigan trast, lizing va faktoring operatsiyalari keng tus olmoqda. *Trast* (ishonch) operatsiyalarida mijozlar banklarga bankdagi o'z mablag'lariga qimmatli qog'ozlar sotib olish huquqini yoki bankka topshirib qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish huquqini ishonib topshiradilar. Bu operatsiyalardan kelgan daromadlar mijoz bilan bank o'rtasida taqsimlanadi. *Lizing* operatsiyalarida bank o'z ixtiyoridagi meccidiy mulkni kredit shartlari asosida ijara ga topshiradi. *Faktoring* da kompaniya o'z debitorlik qarzlarini boshqarish bo'yicha operatsiyalarni bank ixtiyoriga berib qo'yadi.

Hozirgi kunda banklar faqat xususiy biznes bilangina emas, balki davlat bilan ham chambarchas bog'lanib ketgan. Banklar hukumat xarakatlarini mablag' bilan ta'minlashda, davlat budgetining kamomadini qoplashda qatnashadilar, hukumatning qimmatli qog'ozlarini bozorda sotadilar yoki o'zlarini sotib oladilar. Ko'pchilik mamlakatlarda pul emissiyasi bilan shug'ullanuvchi va kredit tizimini nazorat qiluvchi Markaziy bank bilan bir qatorda ko'pgina yirik tijorat banklari ham davlat ixtiyoridadir. Bundan tashqari iqtisodiyotning ayrim sohalarini (qishloq xo'jaligi, tashqi savdo, uy-joy qurilishi va h.k.) kreditlovchi maxsus davlat muassasalari ham mavjud.

Faoliyat xarakteriga ko'ra banklar emissiya, tijorat va ixtisoslashgan banklardan iborat. Mamlakat kredit tizimining markaziy bo'g'ini emission bank bo'lib, davlat unga monopol ravishda muomalaga pul chiqarish huquqini bergen. Emissiya banki boshqa banklarni kreditlash bilan shug'ullanadi va shu ma'noda u banklarning bankidir. O'zbekiston Respublikasida bu vazifalarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bajaradi.

Markaziy bank emissiya vazifalari bilan bir qatorda boshqa kredit muassasalari pul rezervlarini, mamlakat oltin va valuta rezervlarini saqlash bilan shug'ullanadi, davlatning qimmatli qog'ozlarini sotib oladi, banklararo kliring (bir-biri bilan qarzlarni e'tiborga olib hisob-kitob qilish) hisob-kitoblarini amalga oshiradi.

„O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida“gi Qonunga binoan Markaziy bank davlatning bosh banki hisoblanadi. O'z sarf-xarakatlarini o'z daromadlari hisobidan qoplaydi va iqtisodiy jihatdan mustaqil hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalananish hamda to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlaridir.

Tijorat banklari bank tizimining quyi bo'g'ini bo'lib, ular tijorat qoidalari asosida mijozlarga kredit va hisob-kitob xizmati ko'rsatadi. Ko'pchilik hollarda tijorat banklari universal xarakterda, ya'ni bank faoliyatiga oid barcha yoki ko'pchilik operatsiyalarni ijro etadilar.

Moliya-kredit operatsiyalarini muayyan turlarini bajarishga ixtisoslashgan tijorat banklari *ixtisoslashgan banklar* deb ataladi. Masalan, investitsion banklar kapital qo'yilmalarni moliyalash va kreditlash bilan, eksport-import banklari tashqi iqtisodiy aloqalarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadilar.

Bankning asosiy vazifasi pul mablag'larini ularning egalaridan qarz oluvchilarga, ya'ni sotuvchilardan xaridchlarga yetkazilishida vositachilik qilishdir. Bu vazifani banklar bilan bir qatorda boshqa moliyaviy muassasalar (investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, brokerlik, dilerlik firmalari va boshqalar) ham bajarishlari mumkin. Biroq, banklarga xos moliyaviy tavakkalchilikning ikki muhim belgisi mavjud:

*Birinchidan*, banklar o'z qarz majburiyatnomalarini (depozitlar, omonat guvohnomalari, omonat sertifikatlari va boshqalar) joylashtirish orqali o'zlariga mablag'larni jalg etadilar. Jalg etilgan mablag'lar o'zgalarning qarz majburiyatnomalariga joylashtiriladi. Investitsiya fondlarining aksiyalari qarz majburiyatnomalari emas, balki umumiy mulkdagi ulushni ifodalaydi. Moliyaviy brokerlar esa o'z qarz majburiyatnomalarini chiqarmaydilar.

*Ikkinchidan*, bankning omonatchilar va mijozlar oldidagi majburiyatları summasi oldindan belgilab qo'yilgan va bu majburiyatlar bank erishadigan moliyaviy natijadan qat'iy nazar bajarilishi lozim.

O'zbekistonda tijorat banklari, odatda, ochiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatni ko'rinishida tashkil etilgan bo'lib, ularni boshqarishning oliy organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishidir.

Tijorat banklarining faoliyati tijoratchilik qonun-qoidalariga asoslanadi, ular o'z ixtiyoridagi mablag'lar doirasida va foyda olish maqsadida ish olib boradilar. Tijorat banki qonunda belgilab qo'yilgan chegaralarda iqtisodiy mustaqillikka ega va o'z faoliyati natijalari uchun mas'uldir. Tijorat banklarining mijozlar bilan o'zaro munosabatlari bozor munosabatlariga, ya'ni ixtiyoriylik va o'zaro manfaatdorlikka asoslanadi.

## 10.4 Bank kreditlari va foizlari

Jamiyatdagi pul rusurslari harakatining notekisligi tufayli paydo bo'ladigan pul jamg'almalarini tarmoqlar va korxonalar o'rtasida qayta taqsimlashda bank kreditlari muhim rol o'ynaydi. Vaqtincha bo'sh bo'lgan pul mablag'larini jamg'arish, ularni qarz (ssuda) kapitaliga aylantirish, belgilangan muddatlarda qaytarish va ulardan foydalanganlik uchun foizlar undirish bozor qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank kreditlari quyidagi 4 xil vazifani bajaradi:

*Birinchi*—pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalari (veksel, chek, sertifikat va h.k.)ni yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik oborotiga jalb qiladi.

*Ikkinci*—bo‘s sh pul mablag‘larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, „pulni pul topadi“ degan qoidani amalga oshiradi.

*Uchinchi*—qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlab ishlab chiqarish rusurslarining ko‘chib turishini ta’minlaydi.

*To‘rtinchi*—qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Kredit mexanizmi orqali mablag‘lar yuqori foyda beradigan tarmoqlar (korxonalar)ga yoki umum davlat dasturlarida belgilab berilgan maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Bank krediti mamlakatda pul massasi hajmi va tarkibiga, to‘lov oborotiga, pul muomalasining tezligiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Banklar veksellar, obligatsiyalar, sertifikatlar va boshqa muddatli majburiyatli qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali kredit pullarini vujudga keltiradi va kredit mablag‘lari bozorini shakllantiradi.

Bank krediti bozori davlat tomonidan tartibga solinadi. Kreditlash tartib-qoidalarini o‘z vakolati doirasida Markaziy bank belgilaydi. Muayyan tarmoq va sohalarning rivojlanishini rag‘batlantirish maqsadlarida qarz oluvchilarning turli guruuhlariga davlat kafolatlari va imtiyozlari joriy etiladi. Kreditlash mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, uy-joy qurilishi, kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirish, hududlarni jadal rivojlanirish maqsadlarida foydalaniladi.

Tijorat banklarining kreditlari davlat hokimiyat organlariga, xo‘jalik yuritish subyektlariga va aholiga berilishi mumkin.

Muddatlilik va berilishini tabaqa lashganligi bank kreditining muhim tamoyillari hisoblanadi.

Muddatlilik qarzga berilgan mablag‘ning qat‘iy belgilangan muddatda qaytarilishini bildiradi. Muddatida qaytarilmagan kredit pul muomalasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki u muomalada tovar ta’mintoniga ega bo‘limgan pul mavjudligini bildiradi. Kreditga berilgan pul mablag‘i bankka qaytib kelmasligi tufayli shu kredit resurslaridan boshqa xo‘jalik yuritish subyektlari mahrum etiladilar. Tijorat bankining likvidligi yomonlashadi. Bular dan tashqari qarzdorning o‘zi ham bankdan yangi kreditlar olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi va kechiktirilgan kredit uchun oshirilgan foizlar to‘lashga majbur bo‘ladi.

Kreditlashni tabaqa lashda tijorat banki kredit berishda mijozlarning moliyaviy ahvoli, balansi, likvidligi, o‘z mablag‘lariga ega ekanligi, hozirda va kelajakda rentabellik darajasi va kreditdan samarali foydalanish hamda uni qaytarish imkoniyatlarini xarakterlovchi boshqa sifatlarini

e'tiborga olishi lozim. Bank kredit berishda har bir mijozga alohida yondashadi.

Kredit berilish muddatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha);
- o'rta muddatli kreditlar (muddati bir yildan uch yilgacha);
- uzoq muddatli kreditlar (muddati uch yil va undan ortiq).

Xalqaro kreditlar berilish muddatiga ko'ra birmuncha farq qiladi. Bunda bir yildan besh yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, besh yil va undan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar uchun eng asosiy muam-molardan biri berilgan ssudalarni o'z vaqtida qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik xavfini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan ssuda uchun garov sifatida qabul qilishdir. Masalan, yer, qimmatli qog'ozlar, debitor qarzdorlik yig'indilari, tegishli hujjatlar bilan birga taqdim etilgan tovarlar va boshqalar shunday garov sifatida qo'yilishi mumkin. Ayniqsa, yer garov uchun muhim obyekt hisoblanadi, chunki u hech qachon o'z qiyimatini yo'qotmaydi.

Qimmatli qog'ozlar banklar uchun ma'qulroq ta'minlash vositasi hisoblanadi. Chunki qimmatli qog'ozlarni bozorda osongina sotish, mulk egasini tezda o'zgartirish mumkin. Ulami bankda saqlash ortiqcha xarajatlar talab qilmaydi. Shular bilan bir qatorda ularni sotish va sotib olishda ortiqcha rasmiyatçilikning yo'qligi qimmatli qog'ozlarni garov obyekti sifatida ahamiyatini oshiradi.

Debitor qarzdorlik yig'indisi deganda, ochiq schotlar bo'yicha hisob-kitoblardagi qarzdorlik yig'indisi tushuniladi. Bu pul bankning mijoji jo'natgan tovarlari uchun xaridorlardan olishi lozim bo'lgan puldir. Bu turdag'i ta'minlash obyekti jahon amaliyotida keng qo'llaniladi.

Xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar ko'pchilik davlat-larda, xususan, respublikamizda kreditning keng qo'llaniladigan ta'minlanish obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta qilinuvchi sug'urta kompaniyasiga badal to'lab boradi. Sug'urta muddati tugashi bilan to'langan badallar yig'indisi uni to'lagan shaxsga qaytariladi. Bank sug'urta polisini ham yig'ilgan badallar yig'indisi miqdorida garov sifatida qabul qiladi.

*Kreditni berishda quyidagi tartiblarga rioya qilinadi:*

- kredit olish uchun berilgan arizani ko'rib chiqish va bo'lg'usi mijoz bilan yaqindan tanishish;
- mijozning kreditni to'lashga layoqatliliginini aniqlash va ssuda bo'yicha xavf-xatarni baholash;
- kredit shartnomasini tayyorlash va imzolash;

—shartnomada belgilangan shartlarning bajarilishi va kreditning qoplanishi ustidan nazorat olib borish.

Mijoz bankdan kredit (qarz) olish uchun dastlab ariza yozadi. Uning arizasida qarz olishdan ko‘zlangan maqsad, uning miqdori va qaytarish muddatlari o‘z aksini topadi. Ariza bankning kredit siyosatiga mos tushsa, u holda bank mijozning kreditni to‘lashga layoqatlilagini aniqlashga kirishadi.

*Bank mijozning kreditni to‘lashga layoqatlilagini aniqlash uchun quyidagi ma’lumotlardan foydalanadi:*

- mijozning bevosita o‘zidan olingen ma’lumotlar;
- bankning arxivida ushbu mijoz to‘g‘risida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar;

—mijoz bilan shartnomaviy aloqada bo‘lgan huquqiy va jismoniy shaxslardan olingen ma’lumotlar;

—turli xususiy va davlat muassasalarining hisobotlari va boshqa ma’lumotlar.

Bankning kredit bo‘limi xodimlari bankdagi arxiv materiallari bilan tanishadilar. Agar ariza beruvchi oldin ham bank kreditidan foydalangan bo‘lsa, unda, albatta, arxivda bu haqda ma’lumotlar bo‘ladi.

Mijoz to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni boshqa moliyaviy muassasalardan ham olish mumkin. Masalan, investitsiya kompaniyalarini mijoz depozitlarining miqdori to‘g‘risida, to‘lanmagan majburiyatlari to‘g‘risida va boshqa ma’lumotlarni berishi mumkin.

Mijoz kreditni to‘lashga layoqatli deb topilganda, bank u bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Kreditning asosiy sharti bu—qarz uchun haq to‘lash. Bu haq qarz summasiga nisbatan foiz hisobida olingenidan uni *qarz foizi* yoki *kreditning foiz stavkasi* deb yuritiladi. Bu stavka kredit (qarz) oluvchining ma’lum ehtiyojini qondirgani uchun to‘lashi shart bo‘lgan haqidir. Qarz puli kapital sifatida, odatdagি to‘lov yoki xarid vositasi sifatida ishlatiladi.

Mana shuning uchun ham qarzdor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to‘laydi.

Kreditning foiz stavkasi mamlakatning ssuda kapitallari bozorida aniqlanadi. Xalqaro kreditning foiz stavkasi esa jahon ssuda kapitallari bozorida aniqlanadi. Bu bozorlarning asosiy qismi London, Tokio, Nyu-York, Frankfurt, Parij, Brussel shaharlarida joylashgan.

Foiz darajasi (yoki stavkasi) unga ta’sir etuvchi omillar tufayli o‘zgarib turadi. *Ularning asosiyllari quyidagilardan iborat:*

1.Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati, ya’ni bozorda qancha miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qancha miqdorda qarzga beriladigan pul mavjud. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa, u kamayadi.

2.Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf, aniqrog'i, shu pulning iste'mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko'p foyda keltirsa yoki iste'molchi ehtiyojini to'laroq qondirsa, foiz yuqoriroq bo'ladi, aks holda u kamayib ketadi. Bunda pulni hozir ishlatish va keljakda ishlatishdan ko'zlangan naf taqqoslanadi. Agar hozir pulni 10% hisobidan qarz olib, keljakda undan 25% hisobidan foyda ko'rilsa, qarz oluvchiga shu foiz ma'qul bo'ladi.

3.Qarzni to'lash muddati va sharti. Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta kichik-kichik qismlarga bo'lib, bemalol qaytarish mumkin bo'lsa, qarzdor yuqori foizga rozi bo'ladi. Agar qarz qisqa vaqtga berilsa va uni bir yo'la to'lash sharti bo'lsa, qarz oluvchi pastroq foizni ma'qul ko'radi. Gap shundaki, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, uni ishlatib, shunchalik ko'proq daromad ko'rish mumkin va shu hisobdan foiz to'lash yengil bo'ladi.

4.Qarzni qanday pul bilan berilishi. Agar qarz erkin almashtiriladigan valutada berilsa, foiz yuqori, agar u oddiy valutada berilsa, foiz nisbatan past belgilanadi. Erkin almashtiriladigan valuta obro'-e'tiborli bo'lganidan uni ishlatish oson, undan tez daromad ko'rish va qarzni qaytarish mumkin.

5.Inflatsiya darajasi. Inflatsiya yuz bersa, qarzga berilgan pul egasi yutqazadi. Shu sababli, foiz inflatsiyani hisobga olib belgilanadi. Foiz inflatsiya shiddatiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi.

6.Pulni qarz berishdan ko'ra boshqa yo'sinda ishlatishdan tushadigan daromad. Bunda pul egasining afzal ko'rish tamoyili amal qiladi. Agar aksiya dividendi ko'tarilsa, foiz pasayadi va aksincha. Agar aksiyaga 15 foiz dividend berilsa, foiz undan yuqori bo'lishi shart. Aks holda pul egasi uni qarzga bermay, aksiya sotib olishni afzal ko'radi.

7.Qarz berishning xatar darajasi. Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, foiz yuqori bo'ladi. Odatda, moliviyiv baquvvat va nufuzli firmalar uchun past foiz tayinlanadi. Yuqori va past foizlar o'rtasidagi farq pul egalari uchun ma'lum darajada qarz xatarini kamaytiradi, chunki bir yerda foizning kamligi boshqa yerda uning ortiq bo'lishi bilan qoplanadi.

Kredit tashkilotlari pul va kapital bozorining faol ishtirokchilari bo'lib, bozor iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Ular o'z mijozlariga xizmat ko'rsatganliklari uchun foyda oladilar. Bank foydasi bank to'lagan foiz bilan u olgan foiz o'rtasidagi farqdan uning xarajatlarini chegirib tashlagandan so'ng qolgan summaga teng bo'ladi. Bank daromadining asosiy manbayi foiz hisoblanadi. Bank beradigan va oladigan foizlari o'rtasidagi farq *marja* deb yuritiladi. Banklar foiz siyosatini ishlab chiqadilar, foizni o'zgartirish orqali pul oqimiga ta'sir etadilar. Kredit siyosatini ishlab chiqishda Markaziy bank yetakchilik qiladi.

Ushbu bob mavzusini o‘rganishdan maqsad quyidagi savollarga javob topish ekanini yodingizda tuting:

- ◆ *Qanday faoliyatni mehnat faoliyati deb yuritiladi?*
- ◆ *Mehnatning predmeti nima va qanday vositalar mehnat vositalariga kiritiladi?*
- ◆ *Mehnat bozori nima va u bozorning boshqa turlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?*
- ◆ *Mehnat munosabatlari O‘zbekistonda qanday hujjatlar asosida tartibga solinadi?*
- ◆ *Aholi bandligi nima va uni oshirishning qanday yo‘llari bor?*
- ◆ *Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlikning asosiy sabablari nima?*

## 11.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat faoliyati

Kishilar o‘zlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojini qondirish uchun mehnat qiladilar. Mehnat kishilarning ma’lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo‘lib, uning natijasida moddiy ne’matlar va boyliklar yaratiladi. Shu bilan birga, har qanday jamiyatda ham mehnat ijtimoiy ishlab chiqarishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Kishilarning mehnati yo‘naltirilgan tabiatdagi barcha narsalar *mehnat predmeti* deb aytildi. Yer osti tabiiy qazilma boyliklari, tabiiy va sun’iy xomashyo va materiallar, yarimtayyor, butlovchi mahsulotlar va boshqa shunga o‘xshashlar mehnat predmetlarini tashkil etadi.


Insonning mehnat predmetlariga o‘z ta’sirini o‘tkazishda qatnashuvchi asbob-uskunalar, mashinalar, jihozlar, binolar, inshotlar, yer va shu kabilar *mehnat vositalari* deb yuritiladi. Ishchi ular yordamida mehnat predmetlarini o‘zgartiradi, ya’ni iste’mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqaradi.

Mehnat predmeti bilan mehnat vositalari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi. Ular har qancha zamonaviy, rivojlangan va mukammal bo‘lmasin, o‘z-o‘zidan harakatga kelmaydi. Faqat ishchi kuchi bilan ular birlashgandan keyingina ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘ladi va tovarlar (xizmatlar) yaratiladi.

Demak, moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida kishilarning mehnati muhim rol o‘ynaydi. Mehnat jarayonida ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun ishchi kuchi, mehnat predmetlari va mehnat vositalari hamda atrof-muhit o‘zaro muloqotga kirishadi va birlashib ketadi.

Atrof-muhit va uning holati mehnat xavfsizligini ta'minlash, mehnatning sanitariya-gigiyena va estetika talablariga riox qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu talablar va ularga amal qilish mezonlari majmuyi mehnatning o'ziga xos mikroekologiyasini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, insonning mehnat jarayonidagi biz yuqorida ko'rib o'tgan elementlari bilan o'zaro aloqadorligini quyidagi chizmadan bilib olish mumkin:



### **11.1- chizma. Insonning mehnat jarayoni elementlari bilan o'zaro aloqadorligi.**

Ijtimoiy-iqtisodiy turmushda „mehnat“, „mehnat faoliyati“ tushunchalari bilan bir qatorda „ish“ tushunchasi ham uchrab turadi va keng foydalilanadi. Mehnat va ishning miqdori sarflangan vaqt bilan o'lchansa-da, ularni bir-birlari bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Mehnat insonning aqliy va fiziologik faoliyati bo'lib, bu faoliyat natijasida muayyan ish bajariladi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, ish odamlar mehnat faoliyatining natijasi yoki mahsulidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxs mehnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat shartlari asosida ishlash va qonunda belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir. Fuqarolarning mehnat huquqlari O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va tegishli qonunlar bilan himoyalanib qolmay, balki bu himoya kafolatlanadi ham. Davlat mehnat bozorining shakllanishi va samarali amal qilishiga, xavfsiz mehnat shart-sharoitini yaratishga, mehnat sifati va unumdoorligini oshirishga va pirovard natijada mamlakat aholisining turmush darajasini o'stirishga har tomonlama ko'maklashadi.

Har bir xodim o'z mehnati uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo'lмаган miqdorda haq olish, belgilangan ish vaqt, dam olish va yillik ta'tillardan foydalananish, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish, malakasini oshirish, qarilik pensiyasini olish va boshqa zarur huquqlarga egadir.

Shuni alohida ko'rsatib o'tish lozimki, odamlarning mehnat faoliyati bir-biridan tubdan farq qiluvchi shart-sharoitlarda muayyan ishni bajarishga qaratilgan bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan mehnat faoliyatining turlari nihoyatda ko'p. *Ularni bir-biridan farqlovchi belgilarga qarab to 'rt guruhga ajratish mumkin:*

1. Mehnatning tabiatи va mazmuni bo'yicha.
2. Mehnatning predmetи va maqsadi bo'yicha.
3. Mehnat vositasi va usuli bo'yicha.
4. Mehnat sharoitlari bo'yicha.

Endi ana shu guruhlarga mehnatning aynan qaysi turlari kirishini ko'rib chiqamiz.

*Mehnatning tabiatи va mazmuni bo'yicha:*

- yollanma va xususiy mehnat;
- yakka tartibdagи yoki jamoadagi mehnat;
- jismoniy va aqliy mehnat;
- takroriy va ijodiy mehnat;
- murakkab tarkibli mehnat.

*Mehnatning predmetи va maqsadi bo'yicha:*

- ilmiy-muhandislik mehnati;
- boshqaruylig mehnati;
- tadbirkorlik faoliyati;
- innovatsion (fan-texnika yutuqlarini joriy etish bilan bog'liq) mehnat faoliyati;
- sanoat, qishloq xo'jalik, qurilish tarmoqlarida ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnat faoliyati;
- transport va aloqa tizimidagi mehnat.

*Mehnat vositasi va usuli bo'yicha:*

- qo'l mehnati (texnika vositalari bilan qurollanmagan);
- mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan mehnat;
- kompyuterlashgan mehnat;
- inson ishtirokida turli darajadagi mehnat;
- quyi darajada, o'rtacha va yuqori darajada texnologiyalash tirilgan mehnat.

*Mehnat sharoitlari bo'yicha:*

- turg'un va ko'chma mehnat;
- yer osti va yer ustidagi mehnat;
- yengil, o'rta va og'ir mehnat;
- yoqimli va yoqimsiz mehnat;
- erkin va turli darajada chegaralangan (reglamentlashtirilgan) mehnat.

Shuni aytib o'tish kerakki, mehnat barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda ham jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili bo'lib kelgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, u ijtimoiy takror ishlab chiqarishning asosiy zaruriy sharti hisoblanadi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida

mehnat munosabatlari, uni tashkil qilish va boshqarish hamda undan foydalanish usullarida muayyan jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bular, avvalambor, mehnat faoliyatining erkinligi, ya'ni kimning qayerda, qanday mehnat faoliyati bilan va qancha muddat davomida shug'ullanishining ixtiyoriligi. Yerkin mehnat bozorining mavjudligi, mehnat munosabatlaringa ishchi kuchiga talab va uning taklifi asosida shakllanishi va boshqalar shu o'zgarishlar jumlasiga kiradi.

## 11.2 Mehnat bozori va mehnat munosabatlari

Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining muhim unsuri hisoblanadi. Unda ishchi kuchini oldi-sotdi jarayoni sodir bo'lib, ishga yollanuvchilar bilan ishga yollovchilar uchrashib, o'zaro mehnat munosabatlari kirishadilar.

Mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab bilan uning taklifi shakllanadi va tartibga solinadi. Ishga yollanuvchilar bu bozorda o'z mehnatlarini sotuvga taklif etadilar, ishga oluvchilar esa o'ziga ma'qul bo'lgan mehnat turlarini sotib oladilar. Shunday qilib, ishchi kuchining, aniqrog'i mehnatning oldi-sotdi jarayoni sodir bo'ladi.

Mehnat bozorining samarali amal qilishi uchun, birinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lib, ular yordamida ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki uni kengaytirish ishtiyoqidagi mulk egalarining mavjudligi zarur bo'lsa, ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'limgan va ish bilan band bo'limgan kishilarning mavjudligi zarur. Ana shu ikki xil toifadagi odamlar mehnat bozorida asosiy subyektlar, bozor qatnashchilari hisoblanadi.

Ishlab chiqarish vositalarining egasi bozorda ishchining mehnatga layoqatidan foydalanish huquqini sotib oladi. U ishchiga ma'lum miqdorda pul to'lab, undan ishlab chiqarishda foydalanishi, butun ish kuni davomida ishlatishi mumkin. Demak, mehnat bozorida ishchi kuchi sotilganda, mulk subyekti o'zgarmaydi, ya'ni ishchi kuchi o'z egasining mulkiligicha qoladi.

Ikkinchi toifadagi kishilar yashash uchun o'zlarining ishchi kuchlarini ishlab chiqarish vositalarining egasiga sotadilar. Ishlab chiqarish vositalarining egasi ko'mir, temir va boshqa xomashyolarni qanday sotib olsa, ishchi kuchini ham shunday sotib oladi. Mehnat bozori ishlab chiqarish vositalarining egasi ishchi kuchini istalgan joydan topishi va sotib olishi mumkin bo'lgandagina vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan mehnat bozorini shakllantirish uchun muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lishi talab etiladi. *Xususan:*

—talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi huquqiy asoslarning mavjudligi;

—mehnat bozori infratuzilmasining mavjudligi;

—ish haqi miqdorining chegaralanmasligi;  
—uy-joy bozorining mavjudligi.

Respublikamizda o'tgan yillar davomida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni tartibga solishning tashkiliy va huquqiy asoslar shakllantirildi, har bir fuqaro uchun o'z qobiliyatiga va xohishiga qarab faoliyat sohasi va turini tanlash imkoniyatlari yaratildi. Qabul qilingan qonunlar va hukumat qarorlari tufayli hamda islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi natijasida mehnat bozoridagi vaziyatning keskinlashib ketishi va ommaviy ishsizlik vujudga kelishining oldi olindi. Mehnat bozori iqtisodiy islohotlarning aniq yo'nalishlari va ularni chuqurlashtirish bilan bog'liq ravishda shakllandi.

Bozor mexanizmi bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan: iste'mol bozori, ishlab chiqarish vositalarining ulgurji bozori, investitsiya va moliya bozorlari hamda mehnat bozoridan tashkil topishi kerak. Iqtisodiyotning samarali amal qilishi uchun barcha yuqorida keltirilgan bozorlarda, shu jumladan, mehnat bozorida talab va taklif muvozanati zarur.

Mehnat bozorining resurslar bozorining boshqa turlaridan farq qiluvchi jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

*Birinchidan*, mehnat bozoridagi taklif bilan talabning muvozanati mamlakatdagi demografik vaziyatga ko'p jihatdan bog'liq. Mazkur vaziyat aholining har 1000 kishi hisobiga tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Masalan, qaysi mamlakatda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish qancha ko'p bo'lsa-yu, o'lim esa kam bo'lsa, aholining tabiiy o'sishi shuncha yuqori bo'ladi va binobarin, mehnat bozorida ishchi kuchining taklifi ham ortib boraveradi.

*Ikkinchidan*, mehnat bozoridagi talab va taklifga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil bu—mehnatga layoqatli aholining bir joydan ikkinchi joyga, aniqrog'i joyma-joy ko'chib yurishini bildiruvchi migratsiyadir.

Muayyan hudud yoki mamlakatga ko'chib kelayotgan aholi bilan undan ko'chib ketayotgan aholining soni, albatta, mehnat bozoridagi talab bilan taklif o'rtaсидagi muvozanatda o'z aksini topmay qolmaydi.

Mazkur muvozanatga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va o'sish sur'atlaridir. Yangi tarmoqlar va korxonalarining paydo bo'lishi yangi ish joylarini barpo etishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida ishchi kuchiga bo'lgan talabni orttiradi.

Ishlab chiqarishda sodir bo'layotgan ilmiy-texnika taraqqiyoti ham mehnat bozoridagi talab va taklifning nisbatiga muayyan ta'sir o'tkazadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish bir tomondan kompyuter texnikasi, elektron jihozlar va boshqalarni ishlatuvchi malakali kadrlarga bo'lgan talabni orttirsa, ikkinchi tomondan, eskirib qolgan kasblarda ishlovchilarga bo'lgan talabning qisqarib, ayrim hollarda yo'qolib ketishiga olib keladi.

Mehnat bozori o'zining makoniy xususiyatiga ko'ra jahon mehnat bozori, xalqaro mehnat bozori va hududiy mehnat bozoriga bo'linadi.

*Jahon mehnat bozori* deyilganda, umumjahon xo'jaligi miqyosida ishchi kuchini oldi-sotdisi bilan bog'liq holda sodir bo'luvchi jarayonlar va munosabatlar majmuasi tushuniladi.

*Xalqaro mehnat bozori* deyilganda esa ayrim qit'alar, jahonning ayrim hududlari va davlatlari orasidagi migration ishchi kuchini yollash va yollanishga taalluqli munosabatlar majmuasini tushunmoq kerak.

Muayyan mamlakat hududida sodir bo'luvchi oldi-sotdi munosabatlari *hududiy mehnat bozorini* tashkil qiladi.

Mehnat bozorida ishga yollanuvchilar bilan ishga oluvchilar o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari *mehnat munosabatlari* deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining „Mehnat kodeksi“ga binoan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek, jamoa shartnomalari va boshqa lokal (mahalliy) me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda mehnat bozorining samarali amal qilishiga, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'ini himoya qilishga, mehnat unumdorligining o'sishi va ish sifatining yaxshilanishiga va pirovard natijada aholining moddiy va madaniy turmush darajasining yuksalishiga ko'maklashadi.

Shuni aytib o'tish lozimki, qonunlarda xodimlarning mehnat huquqlari va kafolatlarining eng past darajasi belgilab qo'yilgan. Jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari va boshqa lokal hujjatlarda hamda xodim bilan ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida ishga yollanuvchilar uchun qo'shimcha mehnat huquqlari va kafolatlari belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar mehnat huquqlari va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadirlar. Hech kimning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi yoki ijtimoiy kelib chiqishi mehnat huquqlaridan foydalanishda to'siq bo'la olmaydi.

Mehnat munosabatlarining subyektlari, bir tomonidan, ish-lovchilar (xodimlar) bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ish beruvchilar hisoblanadi. Ular orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlar xususida to'xtalib o'tamiz.

*Mehnat shartnomasi*—ishga yollanuvchi bilan ishga oluvchi o'rtasida yakka tartibda tuziladi va unda ishning mazmuni, ish haqi miqdori va uni to'lash tartibi, mehnat sharoitlari, har ikki tomonning majburiyatlarini belgilab qo'yiladi.

*Jamoa shartnomasi*—firma (korxona) bilan ishchi-xizmatchilar o'rtasida tuziladigan shartnoma bo'lib, unda har ikki tomonning

majburiyatlari, chunonchi, ishning sifati va unumi, ish vaqt, mehnat sharoitlari va xavfsizligi, malakani oshirish, pul inflatsiyasiga qarab ish haqini indeksatsiyalash (ya'ni oshirish) kabi masalalar qayd etib qo'yiladi.

Bosh bitim O'zbekiston Kasaba uyushmalari kengashi bilan ish beruvchilar birlashmalari o'ttasida tuzilib, unga ko'ra mehnat munosabatlарining asosiy jihatlari umumdaylat doirasida belgilab qo'yiladi.

Mehnat munosabatlari jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy va muhim qismi bo'lib, ularni to'g'ri va oqilona tashkil qilish iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omilidir.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan mehnat munosabatlarini tubdan qayta qurish amalga oshirildi. Shu bilan birgalikda, o'tgan yillar tajribasi ko'rsatmoqdaki, mehnat munosabatlarini bozor mexanizmi talablariga moslashtirish birato'la amalga oshiriladigan tadbir bo'lmay, davlat iqtisodiy siyosatining doimo diqqat markazida turuvchi masaladir.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari o'tish iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoji (talabi) tarkibida ham muayyan o'zgarishlarga sababchi bo'lmoqda. Xususan, yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda. Shu munosabat bilan ishchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim vazifaga aylanib qoldi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish xo'jalik yuritishning yangi tamoyillari asosida harakat qiluvchi infratizimni ko'zda tutadi. Ularga tovar-fond birjali, bank xizmati, brokerlik idoralari, marketing xizmati, auditorlik va maslahatchi firmalar, mustaqil ilmiy markazlar va boshqalar kiradi. Bunday tuzilmalarning samarali amal qilishiga mos keluvchi kadrlar tayyorlash ham muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida mamlakat makroiqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bandlik va ishsizlik tushunchalaridan kengroq mazmunni qamrab oladi. Mehnat bozori ishsiz yurganlarni mehnatda band qilishning shunchaki bir vositasi bo'lib qolmasdan, balki bandlar hamda mehnatda band bo'limganlar keng ommasini o'z ichiga oluvchi jarayon hisoblanadi. Mehnatda bandlik va ishsizlik ana shu jarayonda bozor qonunlarining amal qilishi natijasida kelib chiqadi.

### **11.3. Bandlik**

Aholining ish bilan bandligini ta'minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas,

chunki ish bilan bandlik aholi turmush darajasini yuksaltirishning asosiy omili bo'lib qolmay, balki uning sog'lom turmush tarzini tashkil qilishning sharti hamdir.

Aholining ish bilan bandligi deyilganda, mamlakatning barcha fuqarolari emas, balki aholining mehnatga layoqatli qismi nazarda tutilishini alohida aytib o'tish kerak. Mehnatga layoqatli aholi deyilganda esa mamlakat aholisining ma'lum yoshga yetgan va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlarda aholining bu guruhiга 14 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan kishilar, bir qator mamlakatlarda, xususan, Rossiya va O'zbekistonda 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan avollar kiradi. Biroq birinchi va ikkinchi guruh nogironlari va imtiyozli nafaqa oluvchilar mehnatga layoqatli aholi soniga kiritilmaydi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, mehnatga layoqatli aholining hammasi ham ish bilan band bo'lavermaydi. Uning bir qismi ta'lim olish bilan band bo'lsa, bir qismi uy xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Shu bilan birgalikda, mehnat qilish qibiliyatiga va istagiga ega bo'la turib, hozirgi kunda ish bilan band bo'limgagan kishilar ham borki, ular har bir mamlakatning „*ishsizlar armiyasi*“ ni tashkil qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va ilmiy doiralarda tez-tez uchrab turadigan yana bir atama—„*iqtisodiy faol aholi*“ tushunchasi bo'lib, unga ham oydinlik kiritib olish zarur. Mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida band bo'lgan hamda hozirgi kunda ishlamayotgan, biroq o'ziga ma'qul ish topsa, darhol ish faoliyatini boshlay oladigan shaxslar iqtisodiy faol aholi deb yuritiladi.

Demak, aholi bandligini oshirish deganda, ishslash istagida yurgan aholining tobora ko'proq qismini ishlab chiqarishga jalb qilish, muayyan mehnat turlari bilan band etish tushuniladi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan aholining bandlik darajasini birmuncha oshirish imkoniyatlari yaratildi. Rivojlangan mamlakatlardan tajribasi shu narsadan dalolat bermoqdaki, mehnat munosabatlarida aholining o'zi istagan sohada bandligi yuqori qadrlanadi. Chunki aynan shunday bo'lgandagina inson yuqori samaradorlik va sifat bilan mehnat qiladi. Bozor iqtisodiyoti aholi bandligi muammosini to'la-to'kis hal eta olmaydi, ishsizlik muammosi hamisha saqlanib qoladi. Bu bozor iqtisodiyotining qonunidir.

Aholining ish bilan to'liq bandligi degan tushuncha ham mavjud. Biroq bu aholining mehnatga layoqatli qismining barchasini ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sohalariga to'liq jalb qilishni bildirmaydi. To'liq bandlik tushunchasi barcha fuqarolarning bilim olish, mehnat qilish huquqlarini va o'zi tanlagan kasb sohalarida ishga joylashish bo'yicha davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini ifoda etadi.

Mehnatga layoqatli aholini asosan, 2 xil toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifaga mehnat bozori orqali yollanib ishlovchilar kirsa,

ikkinci toifaga o‘zini o‘zi ish bilan band qila oladigan odamlar—uy xo‘jaligida ish bilan band bo‘lganlar, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ishbilarmonlar, fermerlar, biznesmenlar, qimmatli qog‘ozlar, omonatlardan foyda oluvchilar va boshqalarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda ishsizlik muammosi mavjud bo‘lsa-da, ishsizlar soni tobora kamaymoqda. Bu esa jamiyatimiz har bir a‘zosini ijtimoiy himoya qilish borasida davlat tomonidan izchil siyosat yuritilayotganini, har bir oila haqida g‘amxo‘rlik qilinayotganligini ko‘rsatadi. Shuni aytib o‘tish kifoyaki, 2004-yilning birinchi choragida iqtisodiyotda band bo‘lganlarning soni oldingi yilning shu davriga nisbatan 322,6 ming kishiga yoki 3,5% oshdi.

Mehnat layoqati yoshigacha va mehnatga layoqat yoshidan katta bo‘lganlar aholining iqtisodiy nofaol qismini tashkil etadi. Lekin bu nisbiydir, chunki har ikkala guruhda ham mehnatga layoqatlilar, ya’ni ishchi kuchiga ega bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Jamiyat rivojlanib borgan sari mehnatga layoqat yoshining yuqori chegarasi pasayib boraveradi. Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham bu yosh chegaralari turli mamlakatlarda turlicha belgilangan. Mehnatga layoqat yoshida bo‘limgan, lekin ish kuchiga ega bo‘lgan bunday aholi guruhlarini biz iqtisodiy faol deb hisoblashimiz mumkin. Ular mehnat resurslari bilan birlgilikda jamiyatning mehnat salohiyatini tashkil etadi. Istalgan paytda ularni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilish mumkin.

O‘z navbatida mehnat resurslari ham iqtisodiy faol va nisbatan faol bo‘limgan guruhlarga bo‘linadi. Iqtisodiy faol qismida ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar va band bo‘limgan aholining faol ish izlayotgan qismi nazarda tutiladi. Bular ochiq mehnat bozori ishtirokchilaridir. Iqtisodiy faol aholi guruhlariga yana shunday kishilarni, ya’ni rasmiy ravishda hech qayerda ishlamaydigan, biroq ish haqi ko‘rinishida bo‘lmasa-da, ma’lum miqdorda daromad olayotganlarni ham kiritish mumkin. Bularni mehnatda band bo‘limganlar toifasiga kirita olmaymiz, chunki ular o‘z turmushini ta’minlaydigan daromad manbayiga ega bo‘lgan iqtisodiy faol aholidir. Ularga shaxsiy tomorqasida band bo‘lganlar, bozorda hech qanday hujjatsiz „tadbirkorlik“ bilan shug‘ullanib yurganlar, mardikor bozoriga ishlash uchun chiqayotganlar va boshqalar kiradi. Ularni „norasmiy bandlar“ degan guruhga birlashtirish mumkin. Ular yashirin mehnat bozori ishtirokchilaridir.

Mehnatga layoqatlilarning nisbatan nofaol bo‘lgan qismida hech qayerda ishlamaydigan, ishlashni xohlasmaydigan va ish izlamayotgan, shu bilan bir qatorda, ma’lum sharoitlarda oila uchun hech qanday naf keltirmayotgan, g‘irt bekorchi guruhlar nazarda tutiladi. Ular,

asosan, oilaning boshqa a'zolari hisobidan yoki noplak yo'llar bilan kun ko'radilar. Lekin bu umrbod shunday bo'lib qoladi, degani emas. Chunki odamlarning ruhiy kechinmalari va ishga munosabatida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lib turadi. Shu sababdan vaqt o'tishi bilan ular bir guruhdan qaysidir bir guruhgaga kirib qolishlari mumkin. Masalan, mehnatda band bo'limganlar ma'lum vaqt o'tgandan keyin yo bandlarga (ishga joylashsa), yo ishsizlarga (ish izlovchi sifatida mehnat birjasidan ro'yxatdan o'tsa), yoki norasmiy bandlar (oila daromadiga norasmiy yo'llar bilan hissa qo'shsa) guruhiga kirishi mumkin.

Bandlik an'anaviy bandlik va an'anaviy bo'limgan, ya'ni egiluvchan bandlikka bo'linadi. An'anaviy bandlar 8 soatli ish kuni davomida to'liq ishlovchilar va qishloq xo'jaligida mavsumiy ishlarda band bo'lganlardir. Ular har kuni, har soatda band bo'lishi shart emas. Masalan, ekish mavsumi kelganda, ekinni parvarish qilishda, hosilni yig'ishtirib olishda va hokazolarda qishloq xo'jaligi ishchilari ish bilan band bo'ladi, qolgan paytlarda esa bo'sh bo'ladi.

Iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan mehnat resurslaridan foydalanishda yangi hodisalar ro'y bermoqda. Bu esa bandlik to'g'risidagi tushunchalarni yanada kengaytirib yuboradi. Hozirgi paytda to'liqsiz yoki qisman bandlik, qo'shimcha yoki ikkilamchi bandlik tushunchalari paydo bo'ldi. To'liqsiz bandlik deganda, ishlab chiqarishda ishlovchilardan to'liqsiz, ya'ni davomiyligi mehnat qonunchiligidagi belgilangan vaqtidan kam bo'lgan holda foydalanish tushuniladi. Ikkilamchi bandlik esa mehnatga layoqatli aholining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida o'rindoshlik asosidagi faoliyatidir. Ularga ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lGAN holda o'rindoshlik asosida va boshqa sharoitlarda ishlovchilar, qo'shimcha ish bilan shug'ullanuvchi o'quvchi yoshlar, qarilik pensiyasiga chiqib ishlayotganlar va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi bandligining tarkibini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy yo'lidir. 11.1-jadvalda mamlakatimiz aholisining tarmoqlar bo'yicha bandligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ish bilan band bo'lgnarning 30 foizidan ziyodroq qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Mehnat unumdorligining pastligi sababli bu sohada ishlovchilarning soni ko'p.

Xuddi shunday ahvolni, ya'ni ishlovchilar sonining nisbatan ko'pligini sanoat, qurilish kabi moddiy ishlab chiqarish sohalarida ham kuzatish mumkin. Respublikamizda moddiy ishlab chiqarish sohalarida mehnat unumdorligining past bo'lisinga asosiy sabab bu sohalarda mehnatning texnikaviy qurollanish darajasi va ishlovchilar kasb mahoratining pastligidir.

**Tarmoqlar bo'yicha ish bilan band bo'lganlar tarkibi  
(jami ish bilan band bo'lganlarga nisbatan foiz hisobida)<sup>1</sup>**

Sohalar	Jami ish bilan band bo'lganlar (%)				
	1996	1997	1998	1999	2000
Jami	100	100	100	100	100
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	40,9	40,5	39,4	38,5	34,3
Sanoat	12,9	12,8	12,7	12,9	12,7
Transport va aloqa	4,2	4,1	4,1	4,2	4,3
Qurilish	6,3	6,3	6,5	6,6	7,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	8,3	8,2	8,1	8,3	8,4
Uy-joy kommunal xo'jaligi	2,6	2,6	2,7	2,7	2,7
Sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya	5,8	5,8	5,7	5,7	6,3
Maorif, madaniyat, san'at, ilm-fan	12,5	12,3	12,2	12,4	12,5
Bank, sug'urta	0,5	0,6	0,6	0,6	0,6
Boshqalar	4,7	5,6	6,9	7,1	8,7

Keyingi yillarda respublikamiz dehqonchiligidagi urug'chilik va agrotexnika ishlarini tubdan yaxshilash, dehqonlarning yerga bo'lgan egalik hissini kuchaytirish masalalariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bularning hammasi mehnat unumdorligining o'sishi natijasida moddiy ishlab chiqarish sohalari dagi bandlikni qisqartirib, xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlikni o'stiradi.

#### 11.4. Ishsizlik haqida

Hayotda va iqtisodiy adabiyotlarda tez-tez uchrab turadigan tushunchalardan biri „ishsizlik“ bo'lib, u mehnatga layoqatli aholining bir

<sup>1</sup> O'zbekistonning iqtisodiy yo'nalishlari. Choraklik nashr, 2001-yil, 38- bet.

qismini ish bilan band emasligini bildiradi. Ishsizlik ko'pchilik olimlar va siyosatchilar tomonidan jahon taraqqiyotining bosh muammosi sifatida qaraladi. Shuningdek, ishsizlik darajasining yuqoriligi, ya'ni ishsizlar sonining ko'pligi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga xavf soluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro Mehnat Taqsimoti (XMT)ning ta'rifiga ko'ra, ish joyiga ega bo'limgan holda ish qidirib yurgan va ma'lum vaqt ichida ish boshlashga tayyor bo'lgan shaxslar ishsizlar toifasiga kiritiladi.

Ishsizlik muammosini o'rganishdan ko'zlangan maqsad aholining ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish orqali mamlakatda ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo'shimcha ishchi o'rinnarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabbiy o'sishidan orqada qolmasligi kerak. Aks holda ishsizlik kuchayaveradi. Respublikamizdagi demografik vaziyatga nazar soladigan bo'lsak, davlatimiz nafaqat O'rta Osiyoda, qolaversa, dunyoning boshqa davlatlari o'ttasida ham aholisining jadal o'sib borayotgani bilan ajralib turadi. O'zbekiston aholisi soni har yili o'rtacha 400—450 ming kishiga ko'paymoqda. Pastda keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, respublikamiz aholisi keyingi 10 yil ichida 20,3 mln. dan 24,8 mln. kishiga, boshqacha qilib aytganda, 22,2% ga ortdi. Tug'ilishning kamayish tendensiyasi (1990-yilda har bir ming kishiga 33,7, 2000- yilda 21,5 tug'ilish to'g'ri keldi) o'z navbatida mehnatga qobiliyatli yoshdan kichik bo'lgan aholi salmog'ining pasayishiga sabab bo'ldi.

## *11.2-jadval*

### **O'zbekiston Respublikasida ayrim demografik ko'rsatkichlar dinamikasi'**

Demografik ko'rsatkich	1990	1995	2000
Aholining soni (mln. kishi)	20,3	22,9	24,8
Shu jumladan, ayollar (mln. kishi)	10,3	11,53	12,2
Shahar aholisi (mln. kishi)	8,3	8,86	9,29
Tug'ilish (har 1000 kishiga)	33,7	29,8	21,5
O'lim (har 1000 kishiga)	6,1	6,4	5,5
Tabiiy o'sish (har 1000 kishiga)	27,6	23,4	16,0

'O'zbekistonning iqtisodiy yo'nalishlari. Choraklik nashr, 2001- yil, 94- bet.

Keltirilgan ma'lumotlar aholining mehnatida bandligini oshirish uchun ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga hozirdan zamin tayyorlab borishni taqozo etadi. Aks holda aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar keskinlashib qolishi mumkin.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan ishsizlik deganda, ishchi kuchining ish joyi bilan ta'minlanmaganligi va natijada uning biron-bir qonuni daromad manbayiga ega emasligi tushuniladi. O'zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992- yili O'zbekiston Respublikasining „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi Qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi.

Ish bilan band bo'Imagan barcha kishilar ham ishsizlik maqomini ololmaydilar. *Xalqaro andozalardan kelib chiqib, butun mamlakat aholisini quyidagi guruuhlarga ajratish mumkin:*

a)16 yoshgacha bo'lgan bolalar va maxsus muassasalarda (qamoq-xona, ruhiy kasalliklar shifoxonalarida) saqlanayotgan shaxslar;

b) ishchi kuchi tarkibidan chiqqan kishilar. Bu guruuhga pensionerlar, o'quvchilar, uyga ish olib ishlovchilar kiradi;

d)ishlayotganlar hamda ishlashni xohlovchi va ishlashi mumkin bo'lgan kishilar guruhi.

Butun aholi sonidan yuqoridagi ikki guruuh ayirib tashlansa, mamlakatdagi ishchi kuchi guruhi hosil bo'ladi.

*Ishchi kuchi guruhi o'z navbatida ikkiga bo'linadi:*

1. Ishlaydiganlar yoki ish bilan band aholi.
2. Ishsizlar guruhi.

Demak, ishsiz deb rasmiy ravishda ish bilan band bo'Imagan, lekin ishlashni xohlaydigan va faol ish izlayotgan, mehnatga layoqatli kishilarga aytildi. Mehnat birjalarida ro'yxatga olingan kishilargina ishlashni xohlaydigan va faol ish izlaydigan ishsizlar deb rasman tan olinadi.

Mehnat birjalarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab, o'n kun ichida taklif etilgan o'ziga maqbul ishni ikki marta rad etgan shaxslar rad etgan vaqtlaridan boshlab, 30 kalendar kundan keyingina ishsiz sifatida takroran ro'yxatdan o'tishi mumkin.

Ishsizlar safiga, odatda, nafaqat turli sabablarga ko'ra ishdan bo'shatilganlar, balki o'z ixtiyoriga ko'ra ishdan ketganlar va yangi ish topishga harakat qilayotgan shaxslar ham kiritilishini qayd etish lozim. Ishsizlik tarkibi o'zining kelib chiqish sabablariga ko'ra ishchi kuchining 4 ta asosiy toifasini o'z ichiga oladi: ishdan bo'shatilishi natijasida o'z ish joyini yo'qotganlar, ishdan ixtiyoriy ravishda bo'shaganlar, tanaffusdan so'ng mehnat bozoriga kelganlar va mehnat bozoriga birinchi bor kelganlar.

Ishsizlikning sabablaridan biri ishchi kuchining tarkibi bilan bo'sh ish joylari o'rtaida hamma vaqt ham muvofiqlik bo'lavermaslidir.

Mehnat bozorining muvozanati ishchi kuchining malakasi va bo'sh ish joylari o'rtasida aniq muvofiqlikni nazarda tutadi, ya'ni ishchi kuchi ish joyiga mos tushishi, ya'ni to'g'ri kelishi kerak. Biroq real hayotda ishchilar turlicha layoqat va qobiliyatga ega bo'lismi shadi, har bir ish joyiga aniq kasbiy talablar qo'yiladi. Undan tashqari ish joyiga da'vogarlar va bo'sh ish o'rinnari haqidagi axborotlarni tarqatish yaxshi yo'lga qo'yilmagani ham ishsizlik darajasiga muayyan ta'sir qiluvchi omildir.

Ba'zida ishsizlik ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning kamligi bilan ham bog'liq bo'lismi mumkin. Agar ish izlovchilar soni bo'sh ish joylari sonidan ortib ketsa, mehnat bozoridagi mutanosiblik buziladi va ishchi kuchiga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning kamligi ishsizlik darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Ishsizlikning bundan boshqa ham sabablari ko'p. Ularning ayrimlari va asosiyлari haqida to'xtalib o'tamiz.

1. *Ish haqi darajasining kamligi*. Har qanday odam ham o'z mehnati uchun ko'proq ish haqi olishni istaydi. Biroq davlatning ham, yollanma mehnatdan foydalanuvchi boshqa iqtisodiy subyekt (tadbirkor, fermer va hokazo)ning ham belgilangan miqdordan yuqoriroq darajada ish haqi to'lash imkoniyati cheklangan. Shuning uchun taklif etilgan ish haqi miqdoriga rozi bo'limgan shaxslar ishsizlar toifasida qolaveradi va ko'proq haq to'lanadigan ish qidiradi.

2. *Soliq tizimining takomillashmagani*. Aholi daromad soliqlarining yuqori stavkasi (miqdori) ishchi va xizmatchilar ixtiyorida qoladigan daromad hajmini kamaytirib, ularning ishga bo'lgan qiziqishini susaytirib yuborishi mumkin. Bu o'z navbatida ishsizlik darajasining o'sishiga ta'sir etuvchi omil bo'lib qoladi.

3. *Ish joyiga qo'yilgan kasbiy talablar va mehnat sharoitlaridan qoniqmaslik*. Ish beruvchi tomonidan mehnat sifatiga qo'yiladigan talablar yoki mehnat jarayonida sodir bo'ladi sharoitlar hamma vaqt ham xodim (ishchi)ga ma'qul bo'lavermaydi. Shu munosabat bilan u ishdan bo'shab ketib, ishsizlar sonini ko'paytiradi yoki unga taklif etilgan ishni rad etadi. Bu toifa shaxslarga bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan ko'pchilik uy bekalarini ham kiritish mumkin.

4. *Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish*. Ishlab chiqarishni zamонавиylashtirish, mehnat unumdarligini oshirish va mahorat sifatini yaxshilash yangi texnika va texnologivani joriy etishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida ish joylarining qisqarishiga olib keladi. Demak, korxonada oldindan ishlab kelgan bir guruh ishchilarni ishdan bo'shatish lozim bo'lib qoladi.

Ishsizlik darajasi rasmiy ravishda ishsiz deb tan olingan, ya'ni mehnat birjalarida ro'yxatdan o'tganlar bilan iqtisodiy faol aholi soni o'rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$I_d = \frac{A_b}{A_f} \times 100\% .$$

Bu yerda:  $I_d$ —ishsizlik darajasi;

$A_b$ —mehnat birjasida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni;

$A_f$ —iqtisodiy faol aholi soni.

O'z-o'zidan ravshanki, ishsizlik darajasi mamlakatlararo bir-biridan keskin farq qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ancha past. Masalan, Yaponiyada ishsizlik darajasi 3,0—3,5 foizni, AQSHda 6—7 foizni, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda ham bundan yuqori bo'limgan foizlarni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatimizda hozircha birmuncha yuqori. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, qishloq joylarida sanoat korxonalarini ko'proq joylashtirish va xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ko'p o'tmay o'z samarasini beradi va mamlakatimizda ishsizlik darajasini pasaytirish omili bo'lib xizmat qildi. Xususan, hisob-kitoblarga qaraganda, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan hukumat chora-tadbirlarini amalga oshirish natijasida 2005- yilgacha bo'lgan davrda 1 mln. 200 mingdan ziyodroq kishi mehnat faoliyatiga jalb etiladi.

---

Mazkur bob mavzusini o'rganish jarayonida quyidagi savollarga javob topish zarurligini unutmang:

- ◆ *Nima sababdan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotga davlatning aralashuvi zarur?*
- ◆ *Davlat iqtisodiyotni qanday vositalar yordamida tartibga soladi?*
- ◆ *Iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilish va rejalashtirishning mohiyati nimadan iborat?*
- ◆ *Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati qanday vakolatli organlar tomonidan boshqariladi?*
- ◆ *Bozor munosabatlari nima sababdan rivojlanib va takomillashib boruvchi tizim hisoblanadi?*

## 12.1 Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli

Bozor munosabatlariiga asoslangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solish borasida davlat muhim vazifalarni bajaradi. Davlat iqtisodiyotga faol aralashib, bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi, raqobatchilik muhitini yaratib, aholini salbiy oqibatlardan himoyalash chora-tadbirlarini ko'radi. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad bozor munosabatlарини muayyan va ma'lum yo'naliшlar asosida rivojlanтиrib, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirish va aholi turmush darajasini oshirish choralarini ko'rishdan iboratdir.


Rejali iqtisodiyot tizimidan xalos bo'lgan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish davlatning bosh vazifasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonini davlat bosh islohotchi sifatida boshqarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: „*Murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'naliшlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak*“, — deb ta'kidlagan edi.

---

**I. A. Karimov.** O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., „O'zbekiston“, 1995, 10—11- betlar.

Davlatimizning bozor iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda hozirgacha to'plangan boy tajribalarni o'rganishi va ularni respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tatbiq etishining maqsadga muvofiqligi bugungi kunda hech kimda shubha tug'dirmaydi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'naliishlari quyidagi chizmada keltirilgan.



## 12.1- chizma. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'naliishlari.

Bozor munosabatlari sharoitida baho (narx)lar iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda baho bozor posongisi, regulatori bo'lib, ikki asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, u resurslar, tovarlar va xizmatlar iste'molini cheklaydi va ikkinchidan, tovar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) uchun rag'bat vazifasini o'taydi.

Ishlab chiqarish jarayonida iste'mol tovarlari, ko'rsatiladigan xizmatlar qanchalik kamyob bo'lsa, ularning bahosi shunchalik yuqori bo'lib, shunga muvofiq ravishda ularni xarid qilish cheklangan bo'ladi. Boshqacha aytganda, tovarlar va xizmatlar ularning narxlariiga binoan iste'mol qilinadi, taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Narxlarning o'zgarib turishi, ya'ni ko'tarilib yoki pasayib turishi ishlab chiqaruvchilarning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, biron-bir tovar (xizmat) narxining o'sishi uni ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga, ushbu tarmoqqa muayyan tovar bozoriga yangi ishlab chiqaruvchilarning kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida faqat foyda olishni ta'minlaydigan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqariladi. Ishlab chiqaruvchi uchun foyda keltirmaydigan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarilmaydi. Muayyan tovar narxining pasayishi, uni ishlab chiqarish foydani ta'minlay olmay qolganligidan dalolat beradi. Bunday tovarlarni ishlab chiqarish kamayib boradi, ushbu tarmoq va bozorni ishlab chiqaruvchilar tark eta boshlaydilar. Demak, narxning bozor posongisi, regulatori vazifasini o'tashi tufayli ishlab chiqaruvchilar foydasiz yoki kam foyda keltiradigan tarmoqdan yuqori foyda keltiradigan tarmoqqa, sohaga o'tib turadi. Yuqori foyda keltirayotgan tarmoq yoki bozorlardagi iqtisodiy subyektlar o'zgalarining kirib kelishiga to'sqinlik qiladilar. Iqtisodiy subyektlar aniq tovarlar bozorida o'z mavqelarini saqlash, mustahkamlash, yaxshilash maqsadlarida o'zaro raqobatga kirishadilar.

Ko'p sonli o'zaro raqobatlashuvchi iqtisodiy subyektlarning faoliyati natijasida bozor munosabati buzilib, undagi talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Bu nomutanosiblik ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi ziddiyatda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish ijtimoiy iste'molga nisbatan o'sib ketishi natijasida davriy tanglik paydo bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bozor mexanizmi bozordagi muvozanatni muttasil saqlab turishga qodir bo'lmay qoladi. Ana shu holat iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmidan tashqari davlat mexanizmiga zarurat tug'diradi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi to'liq bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tushkunlik va tanglikning oldini olish, ijtimoiy ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish choralarini amalga oshirishdir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun davlat raqobatni rag'batlantirish orqali bozor tizimini saqlashni o'z zimmasiga oladi. Chunki erkin tadbirkorlik va uni boshqaruvchi talab va taklif qonunlarining amal qilishi ko'p jihatdan raqobatga bog'liq bo'ladi. *Raqobatchilik muhitini rag'batlantirish va himoya qilishning davlat mexanizmi quyidagilarni nazarda tutadi:*

—iqtisodiy subyektlarning faoliyat qoidalarini belgilash;

—aholini bozor sharoitlari, iqtisodiyotning holati to‘g‘risidagi axborotlardan xabardor qilish;

—iqtisodiyot subyektlari o‘rtasidagi bahs va ziddiyatlarni hal qilishga ko‘maklashish chora-tadbirlarini amalgalashish.

Bozor mexanizmi xususiy tadbirkorlar uchun foyda kelishini ta‘minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Ammo jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan, aholining ko‘pchiligi foydalanadigan ijtimoiy tovarlar va xizmatlar xususiy tadbirkorlik doirasida ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bunday ijtimoiy tovarlar va xizmatlarga maktablar, yo‘llar, yong‘indan himoya qilish, mudosaa, milliy xavfsizlik va boshqalar kiradi. Binobarin, ularni ishlab chiqarishni va ulardan foydalanishni davlatning o‘zi tashkil qilishi, tartibga solishi zarur bo‘ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmini taqozo etuvchi sabablardan biri aholini inson salomatligiga va tabiatga ziyon yetkazuvchi omillardan himoya qilish zaruratiadir. Masalaning mohiyati shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi tadbirkor, avvalo, o‘zini o‘yaydi, o‘z manfaati yo‘lida faoliyat ko‘rsatadi. Bu faoliyat ayrim hollarda tabiatga yoki inson salomatligiga ziyon yetkazishi, davlat manfaatlariga zid kelishi mumkin. Bunday holatlar ham iqtisodiyotga davlatning aralashuvini, ko‘p sonli tadbirkorlarning manfaatlarini barcha jamiyat a‘zolari manfaatlariga mushtarakligini ta‘minlash choralarini ko‘rishni taqozo etadi.

Xo‘sh, davlat iqtisodiyotni qanday vositalar yordamida tartibga soladi? Buning uchun davlat ixtiyorida turli xil huquqiy va iqtisodiy vositalar mavjud bo‘lib, ulardan konkret vaziyat va vazifalardan kelib chiqib foydalaniladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim va asosiy vositasini amalidagi qonunchilik hisoblanadi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligi, ya’ni uning barcha uchun bab-baravar kuchga ega ekanligi va unga barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning so‘zsiz amal qilishi shart ekanini yana bir bor ta‘kidlab o‘tish zarur. Hozirga qadar iqtisodiy hayotga taalluqli bo‘lgan yuzlab qonunlarning qabul qilingani iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Shu bilan birgalikda davlat ixtiyorida bir qator moliyaviy, ya’ni iqtisodiy vositalar ham mavjudki, ular yordamida davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsata oladi. Soliqlar, sanatsiya va subsidiyalar ana shunday vositalarga kiradi.

Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng kuchli va ta’sirchan vositasi hisoblanadi. Ular har qanday ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Shuning uchun soliq stavkasi ko‘tarilsa, korxona (firma) foydasi kamayadi va aksincha, bu stavkalar kamaysa, olinayotgan foyda ko‘payadi. Demak, tovar ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligi ko‘p jihatdan undi-

rilayotgan soliqlar stavkasiga bevosita bog'liq. Soliqlar stavkasini oshirish yoki kamaytirish orqali muayyan ishlab chiqarish tarmoqlari rivojini sekinlashtirish (hatto to'xtatish), boshqa tarmoqlar rivojini esa rag'batlantirish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy vositalardan biri *sanatsiya* hisoblanadi. U, asosan, umumdavlat manfaatlardan kelib chiqib, davlat korxonalariga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamdir. Korxona qarzini kechib yuborish yoki uni o'zga subyektlar hisobidan qoplash, qarzni to'lash muddatlarini kechiktirish, qarz uchun to'lanadigan foizlarni kamaytirish, korxonaga buyurtma berib, uning haqini oldindan to'lab qo'yish va hokazolar sanatsiya shakllari hisoblanadi.

Davlat tomonidan aniq maqsadlar uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan moliya mablag'lari *subsidiyalar* deb yuritiladi. Iqtisodiyotni tarkiban o'zgartirish (diversifikatsiyalash), eksport va import muvozanatini ta'minlash, ayrim hududlarga yordam berish kabi maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar (subsidiyalar) ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

*Bojxona to'lovlar* davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, aniqrog'i, eksport va importni cheklash yoki rag'batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ularning stavkalari ko'paysa, chegaradan o'tayotgan tovarlar miqdori kamayadi va aksincha, stavkalarning kamayishi tovarlar oqimining ko'payishiga olib keladi.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, davlat o'zining kredit siyosati orqali iqtisodiyot taraqqiyotiga ham o'zining ta'sirini o'tkazib turadi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmida jamiyatda siyosi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida aholining iqtisodiy jihatdan nochor yashayotgan guruhlarini ijtimoiy himoyalash muhim o'rinn tutadi. Aholining yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoyalash uchun jamiyat milliy iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadidagi daromadlar davlat tomonidan qayta taqsimlanadi. Daromadlarning qayta taqsimlash tizimida davlat muhim o'rinn tutadi. Davlat tomonidan daromadlarning qayta taqsimlanishi iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari ham muhim o'rinn tutadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik faolligi o'zgarib turadi, iqtisodiy o'sish uning pasayishi bilan almashinib turadi. Uning oqibatida firmalarning sinishi va ishsizlarning ko'payishi ortadi, aholi turmush darajasi pasayadi, ular ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmi yordamida iqtisodiy o'sish siklidan tanglikka (pasayishga)

o'tishdagi salbiy oqibatlarni cheklash, shuningdek, tanglikdan iqtisodiy o'sish sari o'tish imkoniyatlari vujudga keladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi va ko'maklashuvchi chora-tadbirlar tizimidan iborat, degan xulosa qilish mumkin.

## 12.2. Iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilish va rejalashtirish

Markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimi sharoitida xo'jalik yuritish to'la-to'kis davlatning direktiv, ya'ni yuqorida tushiriladigan ko'rsatmalari va reja topshiriqlari asosida amalga oshirilar edi. Rejalar qonun kuchiga ega bo'lib, ularni bajarish shart va majburiy hisoblanar edi. Hamma narsani yuqorida turib rejalashtirish amaliyoti korxonaning xo'jalik mustaqilligi, erkinligi va tashabbuskorligini cheklab qo'yari, bu o'z navbatida iqtisodiyot taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tilgach, tabiiyki, xo'jalik yuritishni yuqorida turib rejalashtirish tizimi barham topdi. Ayni vaqtida iqtisodiy taraqqiyot masalalarini bozor munosabatlari o'zi hal qiladi, ularga hech kim, hatto davlat ham aralashmasligi kerak, degan noto'g'ri tushuncha ham paydo bo'ldi.

Biroq o'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, iqtisodiy taraqqiyotni, umuman, korxona (firma)lar iqtisodiy faoliyatining, xususan, o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan rejalarining yo'qligi bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xo'jalik yuritishdagi qator qiyinchiliklar, korxona (firma)ning bankrotga uchrashi, ayrim tovarlar narxining „osmon“da ekani, ishsizlar sonining ko'payishi va boshqalar rejalashtirish tizimining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligining oqibati, deb baholash mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham iqtisodiyotni boshqarish va qo'yilgan maqsadga yo'naltirishni davlat tomonidan tartibga solib turilishi muhim ekanligi ayon bo'lib qoldi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim shakllaridan biri iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilish va rivojlantirishdir. Mamlakat miqyosida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, hududiy va tarmoqlararo mehnat taqsimoti, davlat mulkinining mavjudligi, iqtisodiyotga jalb etilayotgan sarmoyalar harakatini muvofiqlashtirish zarurati va boshqalar iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilish va rejalashtirishni taqozo etadi.

Bashorat qilish istiqbolni oldindan ko'ra olishning quroli sifatida boshqaruvning samarali dastagi hisoblanadi. Undan foydalanmaslik ishlab chiqarishning kamayishiga olib keluvchi sabablardan biridir.

Shuning uchun mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar (firmalar) rivojlanishini o'rta va uzoq muddatga bashoratlash va davlat tomonidan tartibga solish tizimini joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy taraqqiyot istiqbolini aniqlash bashorat qilish deb yuritiladi va u, odatda, uzoq muddatga (10 yilgacha) va o'rta muddatga (5 yilgacha) mo'ljallanadi. Bunda o'tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish holati va yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlilidan kelib chiqib va bozor konyunkturasining o'zgarish tendensiyalariga asoslanib, kelajakda iqtisodiy rivojlanishning qanday bo'lishi va u qanday natijalarga olib kelishi bashorat qilinadi.

Iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilishda bozor munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish juda muhim. Gap shundaki, iqtisodiy bashorat markazlashgan rejali iqtisodivot tizimi hukmron bo'lgan davrda ham mavjud edi. Biroq u davrda bashorat qilish va rejalashtirishning bosh masalasi ishlab chiqarishning rivojlanishi edi. Endilikda, ya'ni bozor munosabatlari sharoitida, bosh masala iste'mol bozori talabini qondirishdir. Bozor munosabatlari sharoitida istiqbolni belgilashning oldingi davrdagi bashoratlashdan asosiy farqi ham shundan iborat.

Iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilish va rejalashtirishni iste'mol bozori talabiga qaratilishi korxona (firma)larni yaxshi samara bermayotgan ishlab chiqarishdan voz kechib, yuqori samaradorlikni ta'minlovchi ishlab chiqarish bilan shug'ullanishga majbur etadi.

Bozor iqtisodiyotining bu xususiyatini e'tiborga olish bilan bir qatorda bashoratlash va rejalashtirishning ilmiy asosda amalga oshirilishi, marketing tadqiqotlari va ishonchli ma'lumotlarga asoslanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bashoratlar asosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Ularda iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va ijtimoiy maqsadlari belgilanadi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sarmoyalalar rejalar tuziladi, ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi, ishlab chiqarish bilan import, ishlab chiqarish bilan eksport, eksport bilan import o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Iqtisodiy rivojlanishning umum davlat dasturlari asosida rejalar qabul qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida dastur va rejalar davlat korxonalarini uchun direktiv, xususiy sektor uchun taklif xarakteriga egadir. Tadbirkorlarning rejalgarda amal qilishlarini rag'batlantirish maqsadida ularga soliq to'lashda, kredit va subsidiyalar olish, xomashyo, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar xarid qilishda, tovarlarni eksport qilishda imtiyozlar beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida istiqbolni belgilash tizimi mahsulot ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy manfaatdorligiga asoslanadi. Katta tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishda mahsulot ishlab

chiqaruvchilarning o'zлari tashabbuskorlik qiladilar. Istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda davlatning aralashuvi kredit xizmati ko'rsatish, xomashyo, yoqilg'i resurslarini ajratish, oqilona soliq siyosatini o'tkazish va davlat ehtiyoji uchun mahsulotlar sotib olishdan iborat bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish istiqbolini belgilashda davlat resurslari va mablag'larining nodavlat sektorida xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'ları bilan birgalikda ishtirok etishini ta'minlash hamkorlikdagi dasturlar va loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutish katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy taraqqiyotni belgilash tizimi quyidagi vazifa va masalalarni bajarishga qaratiladi:

—milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari hamda mintaqalarning yaqin va uzoq muddatdagi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini belgilash;

—ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish istiqbollarini belgilash.

Iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilishdan ko'zlangan maqsad ishlab chiqarishni boshqarish va tartibga solishni ta'minlash, mayjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratish va pirovard natijada iste'mol bozori talablarini to'laroq qondirishdan iborat bo'lib, bu vazifalarni bajarish ko'p jihatdan bashoratlash usullariga bog'liq.

*Jahon amaliyotida bashoratlashning bir necha usullari mayjud bo'lib, ular, asosan, quyidagilardan iboratdir.*

—dasturiy-maqsadli usul;

—indikativ (tavsiyaviy) usul;

—ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur sarmoyalarning o'sish istiqbollarini belgilash usuli.

Dasturiy-maqsadli usul ko'proq mamlakat miqyosidagi yirik ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun qo'llansa, indikativ (tavsiyaviy) usul ishlab chiqarish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining istiqbollarini belgilashda asqotadi. Sarmoyalarning o'sish istiqbollarini belgilash usuli mamlakat, uning hududlari va viloyatlari miqyosida ham, iqtisodiyot tarmoqlari va ishlab chiqarish korxonalaridagi darajasida ham qo'llanishi mumkin.

Iqtisodiy taraqqiyotni belgilashning eng nozik tomonlari bu—bashoratlash ko'rsatkichlariga erishish uchun ishlab chiqarishni kafolatlangan moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganidir. Bu muammo to'liq hal etilmaganligi ishlab chiqilgan dastur va loyihalarning ko'p hollarda qisman bajarilib yoki umuman bajarilmay qolishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iqtisodiyot tarmoqlarini oqilona boshqarish, mamlakat va uning hududlari iqtisodiy taraqqiyotidagi nozik jihat-

larni oldindan belgilab olish, taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari va loyihalarini amalga oshirishdan iboratdir.

### **12.3. Iqtisodiyotni boshqarish organlari**

Milliy iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish zarurati muayyan vazifalarni bajaruvchi va muayyan vakolatlarga ega bo'lgan boshqarish organlari faoliyatini taqozo etadi. Mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish respublika hukumati, ya'ni Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. U o'z vakolatlari doirasida nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki ijtimoiy jarayonlarni ham boshqaradi.

Iqtisodiyotni boshqarish va uni umumdavlat manfaatlariga asoslangan holda tartibga solish, tabiiyki, oddiy vazifalar sirasiga kirmaydi. Buning uchun hukumat tomonidan bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ro'yobga chiqarish asosida mulkchilik shakllarining tengligini ta'minlash, erkin tadbirdorlik uchun zarur sharoitlar varatish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish siyosatini o'tkazish, kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ko'maklashish talab qilinadi. Shu maqsadda hukumat pul va kredit tizimini mustahkamlash siyosatini ishlab chiqadi, yagona narx siyosatini o'tkazadi, mehnat miqdori va ijtimoiy ta'minot darajasi borasida belgilangan kafolatlarni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi. Vazirlar Mahkamasi o'ziga bo'ysunuvchi vazirliklar va idoralar ishini muvofiqlashtirib, ularning ijtimoiy siyosatni ro'yobga chiqarish borasidagi mas'uliyati darajasini va buning uchun zarur bo'lgan funksiya va vakolatlarni belgilaydi, respublika budgeti, shuningdek, respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim dasturlarini ishlab chiqadi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq mamlakat hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Ma'lumki, iqtisodiy islohotlarning pirovard natijalari uni amalga oshirish obyektidan (respublika, tarmoq, korxona) qat'iy nazar, mujassamlashgan holda hududiy birlik (viloyat, tuman, shahar)lar darajasida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat barpo etish oliy maqsad qilib belgilandi. Buning uchun ikkita muhim vazifani hal etish talab qilinadi. *Bularning birinchisi*, bozor munosabatlariga asoslangan va ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni barpo etish bo'lsa, *ikkinchisi*, davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlarining yangi tizimini yaratishdir.

O'tgan davr ichida respublikamizda bozor islohotlari chuqurlashib, huquqiy-demokratik institutlar rivoj topdi va ayni vaqtda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining faoliyati ham takomillashib bordi.

Mahalliy davlat hokimiyati bir-biriga bo'ysunmagan davlat va vakillik organlaridan iborat bo'lib, ular o'z faoliyatlarini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etadilar.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdon shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir hudud o'z iqtisodiy rivojlanishida ko'proq erkinlikka ega bo'lishi, ishlab chiqarish natijalaridan, avvalo, ushbu hudud aholisi manfaatdor bo'lishi lozim. Ma'lumki, respublikamizda bozor munosabatlariiga o'tish jarayoni yangi-yangi ijtimoiy munosabatlarning, ayniqsa, mulk munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. O'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash tamoyili joriy etilib, xo'jalik yuritishning mutlaqo yangi usullari vujudga keldiki, bularga eskicha usul bilan, eski organlar bilan rahbarlik qilib bo'lmay qoldi. Shu munosabat bilan yangicha ishslash qobiliyatiga ega bo'lган, ya'ni mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, masalalarни tezkorlik bilan hal qila oladigan davlat organlari zarur bo'lib qoldi. Bu zarurat mahalliy boshqaruв amaliyotida mavjud bo'lган organlarni vakillikka asoslangan va yakka boshchilik tamoyili asosida ish yurituvchi organlar bilan almashtirishni taqozo etdi.

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga quyidagilar kiradi:*

—qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

—hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

—mahalliy budgetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budgetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

—mahalliy communal xo'jalikka rahbarlik qilish;

—atrof-muhitni muhofaza qilish;

—fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

—normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Yuqoridagilar mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining birgalikda amalga oshiradigan vazifalari bo'lib, ularning vakolati shu vazifalardan kelib chiqadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik mustaqilligini kengayib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida ularning gorizontal xo'jalik aloqalarining

rivojlanishiga olib keladi. Natijada markaziy boshqaruv organlarining vakolatlari torayib boradi.

*Hozirga qadar saqlanib qolgan tarmoq boshqaruv organlari mamlakatimizning strategik iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etish bilan shug'ullanadi:*

- tarmoq rivojlanishining umumiy yo'nalishlarini aniqlash;
- ilmiy-texnikaviy siyosatni o'tkazish;
- chet el investitsiyalarini jalb etish;
- ekologik muammolarni hal qilish.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, mamlakat miqyosida makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga oid vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari ham O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'zlarining alohida o'rniغا ega bo'lib, bozor munosabatlarining rivojlanishi ularning maqsad va vazifalari mohiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Respublikamiz milliy iqtisodiyotida o'nlab tarmoqlar, minglab korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Ularni bir-biri bilan muvofiqlashtirish, mamlakatimiz hududida joylashtirish va mahsulot (xizmat)ga bo'lgan talabni aniqlash har bir tarmoq oldida turgan keng qamrovli masalalar hisoblanadi. Bulami samarali va oqilona hal qilish boshqarishning tarmoq organlari hisoblanuvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari, konsernlar, konsorsiumlar, assotsiatsiyalar va xolding kompaniyalari zimmasiga yuklatilgan.

*Vazirlik*—o'ziga tegishli tarmoqning xo'jalik tizimida boshqarishning eng oliy bo'g'ini hisoblanadi. U tarmoqning ahvoli, rivojlantirish istiqbollari, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish (xizmat)ning texnologik darajasi, mahsulotning sifati va uning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan talabni qondirish uchun mas'uldir. Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan vazir rahbarlik qiladi.

*Davlat qo'mitalari*—vazirlik va idoralarning faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish yo'li bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga rahbarlik qilishga mo'ljallangan markaziy tarmoq boshqaruv organlaridir.

*Konsern*—ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi (o'zgarishi, xilma-xilligining ko'payishi) asosida tarkib topadigan ko'p tarmoqli korporatsiyadir. Uning tarkibiga turli tarmoqlar (sanoat, transport, savdo, bank sohasi)ga tegishli korxona va muassasalar ixtiyoriylik asosida kiradi.

*Korporatsiya*—bu rivojlangan yirik aksiyadorlik jamiyatları va trestlar birlashmasidir. Korporatsiyalarning negizi bo'lib aksiyadorlik jamiyatları hisoblanadi. Ular muayyan mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchilarini birlashtiradi. Korporatsiyalar sarmoyaclar kapitalining markazlashuviga yordam beradi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga turtki

bo'ladi, mahsulotning raqobatbardoshligi va hayotiy siklini uzoq davom etishini ta'minlaydi.

*Konsorsium*—aniq vazifalarni, ya'ni fan-texnika, qurilish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha va boshqa yirik dasturlarni amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan birlashmadir. U mustaqil firmalarning vaqtinchalik ittifoqi yoki moliyaviy muammolarni hamkorlikda hal qilish maqsadida tuzilgan banklararo va sanoat korxonalararo bitim ko'rinishida bo'lishi mumkin. Konsorsium ko'pincha aviatsiya, kosmos, kompyuter, aloqa kabi yuksak texnologik va katta sarmoyalı sohalar bo'yicha tashkil qilinadi. Dastur bajarilgandan so'ng konsorsium o'z faoliyatini to'xtatadi yoki boshqa turdag'i birlashmaga aylantiriladi.

*Assotsiatsiya*—korxonalarning psychilik asosidagi ixtiyoriy birlashmasidir. U bir yoki bir necha ishlab chiqarish-xo'jalik vazifalarini birlashtirikda amalga oshirish maqsadida korxonalarning shartnomasi asosida birlashishi natijasida tashkil topadi. Assotsiatsiyalar tarkibiga, odatda, muayyan hududda joylashgan va turdosh kasbga ixtisoslashgan korxonalar kirdi.

*Xolding kompaniyasi*—bu, eng avvalo, moliyaviy jamg'arma bo'lib, korxonalarni emas, balki sarmoyalarni birlashtiradi. Xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining nazorat paketi kompaniyaning ixtiyorida bo'ladi. Bundan maqsad aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatlarini ustidan nazorat o'rnatish va dividendlar ko'rinishida foyda olishdir.

Har qanday iqtisodiy tizimda iqtisodiyotning birlamchi va asosiy bo'g'ini korxona va firmalar hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiyotni boshqarish deganda, eng avval, shu korxona va firmalar faoliyatini boshqarish tushuniladi. Bozor munosabatlari sharoitida boshqarish tushunchasi xo'jalik subyektlari faoliyatini faqat yuqori tashkilot va organlar tomonidan tartibga solishni qamrab olmaydi. Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi bozordagi talab va taklif asosida ularning o'zini o'zi boshqarishidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, korxona va firmalar boshqaruv tizimida shunchaki ijrochigina emas, balki shu tizimning faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqadi.

*Korxona*—yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik subyekti bo'lib, o'ziga tegishli mulk asosida mahsulot ishlab chiqaradi, sotadi yoki almashadi, ishlar bajaradi, xizmat ko'rsatadi.

*Firma*—korxonadan farqli o'laroq, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi turli-tuman tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Bunday nomni sanoat korxonasi yoki davlat muassasasi uchun ham, savdo-vositachilik faoliyati uchun ham, sayyohlik va boshqa tashkilotlarga nisbatan ham qo'llash mumkin.

## **12.4 Bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish zarurati**

Respublikamizda vujudga kelgan vaziyatga nazar solar ekanmiz, O'zbekiston qisqa davr ichida o'zining davlatchilik, siyosiy va iqtisodiy qurilishida mutlaqo yangi bosqichga o'tganligini, milliy iqtisodiyot taraqqiyotida real ijobiyligi o'zgarishlarga erishganligini ko'ramiz. Xususan, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishildi, iqtisodiyotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi. Yalpi ichki mahsulotning 70 foizdan, sanoat mahsulotining 65 foizdan ziyodroq qismi va qishloq xo'jalik mahsulotlarining 99 foizi nodavlat sektori ulushiga to'g'ri kelayotgani fikrimizning dalilidir.

Eng muhimmi, o'tgan davr ichida mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish va ularning samarali amal qilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy baza yaratildi. Qabul qilingan qonunlar iqtisodiy islohotlarni o'tkazishda muhim rol o'ynadi.

Bular sobiq Ittifoqning barcha mamlakatlarini qamrab olgan iqtisodiy bo'hronlar davrida vaziyatni yengillashtirishga xizmat qildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk davrida (1991—1995- yillar) mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz bergan tanazzul MDHning boshqa davlatlaridagi singari og'ir kechmadi. Makroiqtisodiy barqarorlik 1995-yilda boshlandi va 1996- yildan boshlab iqtisodiy vaziyatning jonlanishi sodir bo'ldi. 1997- yildan boshlab O'zbekistonda iqtisodiy o'sish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Bu haqda quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari dalolat beradi.

### **12.1-jadval**

**YIMning o'sishi va ishlab chiqarish tarkibi**

Davr	YIMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi, % (solishtirma narxlarda)	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Sof soliqlar
1995	99,1	17,1	28,1	7,1	34,6	13,1
1996	101,7	17,8	22,4	8,2	37,2	14,4
1997	105,2	15,6	28,3	7,3	36,4	12,4
1998	104,3	14,9	26,8	7,5	36,4	14,4
1999	104,3	14,3	29,0	6,7	36,6	13,4
2000	103,8	14,2	30,1	6,0	37,2	12,5
2001	104,2	14,2	30,2	5,9	37,3	12,4
2002	104,2	14,5	30,1	4,9	38,4	12,1
2003	104,4	15,0	28,8	4,5	38,3	13,4

Ko‘rinib turibdiki, 1997- yil O‘zbekistonda barqaror rivojlanishning boshlanish yili hisoblanadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining tadqiqotlari shu narsadan guvohlik beradiki, aynan shu yili sobiq Ittifoq respublikalari ichida O‘zbekiston 1989- yilga nisbatan YIMning eng yuqori darajasiga erishgan (86—88%). Mazkur ko‘rsatkich Belorusda 72—74 foiz, Rossiyada 61—64 foiz, Qozog‘istonda 63—66 foiz, Turkmanistonda 55—57 foiz, Qirg‘izistonda 68—70 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ayrim MDH mamlakatlarida, hatto 50 foizdan ham kam bo‘lgan.

Markazning xomashyo bazasi va tayyor mahsulotlar bozori rolini bajarib kelgan O‘zbekistonda mustaqillikning qisqa davri ichida bunday muvaffaqiyatga erishilishi, avvalambor, davlatning oqilonaga iqtisodiy siyosati natijasidir. Bu siyosat o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra bozor munosabatlariiga inqilobiy yo‘l bilan (birdaniga) emas, balki evolutsion yo‘l bilan, bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutadi. O‘tgan davrga shu nuqtayi nazardan baho beradigan bo‘lsak, iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirilayotgani va o‘tish davrining asosiy qiyinchiliklari ortda qolganini ko‘ramiz.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda bozor munosabatlarining qaror topishi nihoyasiga yetdi va ular to‘laqonli tarzda amal qilmoqda, deb bo‘lmaydi. Mamlakatimiz oldida turgan bir qator dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etish ko‘p jihatdan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga bog‘liq.

Xo‘sh; bu muammolar nimalardan iborat?

*Birinchi navbatda*, iqtisodiyotdagagi tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va uning eksportga mo‘ljallangan tarkibini shakllantirish zarur. 1991—2001- yillar davomida yetishtirilayotgan paxta tolasini mamlakat ichida qayta ishlash 12 foizdan 24 foizga ko‘paygan bo‘lsa-da, uning asosiy qismi hanuzgacha qayta ishlovsiz qolmoqda. Bu iqtisodiyotni hamon xomashyo yetkazib beruvchi yo‘nalishda qolayotganidan dalolat beradi.

Yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishda energiya va materiallar sarflash miqdori hozirga qadar yuqori darajada, bu rivojlangan davlatlardagiga nisbatan 2,5—3,0 marta ortiqdir. Asosiy fondlarning o‘rtacha eskirish darajasi 40—50 foizga teng. Ko‘pgina korxonalarda yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga e’tibor yetarli emas.

Iqtisodiyotga jalb etilayotgan yirik investitsiyalarning, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning samaradorligi ayrim hollarda past. Chet el investitsiyalarini jalb etishni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish talab qilinadi. Shu maqsadda huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish, iqtisodiyotning shu sohaga mas’ul davlat tizimlari javobgarligini oshirish, xo‘jalik subyektlarini moliyaviy-kredit ta’mi-noti, jumladan, mikrokreditlar bilan ta’minalashni kuchaytirish zarur.

Eksport qilishga mo'ljallangan va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, qayta ishlovchi sanoat ulushini ko'paytirish, iste'mol mollari ishlab chiqarishni kengavtirish kabi muhim vazifalarni hal etish ko'p jihatdan bozor munosabatlari tizimining mukammallik darajasiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlardan kutilgan natijalarga hali to'la-to'kis erishilgani yo'q. Zarar ko'rib ishlayotgan va kam samarali qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish o'zining ijobjiy natijalarini ko'rsatdi. Biroq, fermerlik faoliyatini rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, bu boradagi mavjud to'siqlarga barham berish o'ta dolzarb vazifaga avlanib qoldi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishda aniq dastur tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning tashkiliy, huquqiy mexanizmlarini yaratish lozim.

Bu tadbirlar qatoriga paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha davlat buyurtmasini aniq shartnomalar asosida belgilash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini kamaytirish, tabiiy monopoliyalar faoliyatini davlat tomonidan boshqarish, marketing va baholar konyunkturasini o'rganishni tashkil qilish, kredit va moliya tizimlarini takomillashtirish masalalarini hal qilishni kiritish mumkin.

Davlat qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishda, tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va yordam berishda muhim rol o'ynashi kerak. Ayniqsa, investitsiya siyosatini amalga oshirishda, soliq va kredit imtiyozlarini qo'llashda, suv inshootlarini samarali ishlatishda, sanatsiya jarayonlarini amalga oshirishda o'zining aniq rejalarini amalga oshirishi lozim.

Bozor munosabatlarining samarali amal qilishida raqobat muhitining ahamiyati, ayniqsa, katta. Raqobat yo'q joyda iqtisodiy o'sish ham bo'lmaydi. Shu munosabat bilan monopoliyalarga qarshi kurashning aniq va ta'sirchan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish talab qilinadi.

Ishlab chiqarishga va tadbirdorlikka xizmat qiladigan keng tarmoqli bozor infratuzilmasini barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni niyoyasiga yetkazish bozor munosabatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, moliya va bank tuzilmalari, ulgurji bozorlar, investitsiya fondlari, lizing va konsalting kompaniyalari, sug'urta tashkilotlari ishining ham samaradorligini oshirish talab qilinmoqda.

Moliya va bank tizimini yanada erkinlashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramay, mazkur tizimning samaradorligi hanuzgacha talab darajasida emas. Bu sohadagi asosiy muammolardan bin bank tizimi samaradorligini oshirish uchun xususiy

banklar tarmog'ini kengaytirish va banklararo raqobatni yanada kuchaytirishdan iboratdir. Xorijiy tadbirkorlar bilan hamkorlikda qo'shma banklar tashkil qilish ham bu yo'nalishdagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish, uning tizimini qayta ko'rib chiqish, ma'muriy cheklash usullaridan iqtisodiy boshqarish usullariga o'tishni tezlashtirish zarur. Faqat shu yo'l bilan respublika Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi, uning imkoniyatlari va afzalliklaridan bahramand bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlarni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi bu—iqtisodiyotni erkinlashtirishdir. Shu munosabat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy erkinlik va mustaqillikni yanada kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ularning faoliyati uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish, bu faoliyatni tartibga solishda faqat bozor mexanizmidan foydalanish bozor iqtisodiyoti tizimining tamoyili hisoblanadi. Korxona va firmalar xo'jalik faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash, xususiy mulkning ishonchli himoyasini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Davlatning joylardagi hokimiyat va nazorat organlari xususiy biznesni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga behuda aralashmasliklari darkor.

Iqtisodiyotni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini bozor munosabatlari talablariga to'la-to'kis javob berishini ta'minlash, ishlab chiqarishni boshqarishning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

---

Yakunlovchi mavzuni o‘rganuvchi ushbu bobni o‘qiganda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

- ◆ *Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati nimadan iborat?*
- ◆ *O‘zbekistonning eksport salohiyati va istiqbollari qanday?*
- ◆ *Tashqi iqtisodiy faoliyat nima va uning qanday yo‘nalishlari mayjud?*
- ◆ *Bojxona xizmati qanday vazifalarni bajaradi?*
- ◆ *O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?*

## 13.1 Xalqaro mehnat taqsimotida O‘zbekistonning o‘rni

Xalqaro mehnat taqsimoti degan tushunchaning ma’nosini shundan iboratki, u mamlakatlarni ma’lum tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va ular bilan jahon bozorida qatnashuvini bildiradi. Xalqaro mehnat taqsimotida muayyan tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuv har qanday davlatning jahon bozorida o‘z mavqeyi va o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, samolyotsozlikda AQSH, audio va videoapparatura ishlab chiqarishda Yaponiya, chinni idishlar ishlab chiqarishda Xitoyning jahon bozorida salmoqli nufuzga ega ekanligi yuqorida fikrimizning dalili bo‘la oladi. Bu deganimiz, ushbu davlatlar faqat shu mahsulotlari bilangina mashhurdir, degan ma’noni bildirmaydi. Ular, xususan, o‘zlarining yuqori sifatli avtomobilari, elektron-hisoblash mashinalari, to‘qimachilik va yengil sanoat mollari bilan ham jahon bozorida faol qatnashib keladilar.

Muayyan tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuv orqali jahon bozorida qatnashish, asosan, mamlakatning eksport salohiyatiga bog’liq, ya’ni buning uchun mustahkam xomashyo bazasi, zamona-viy ishlab chiqarish vositalari va malakali ishchi kuchi mayjud bo‘lishi kerak. Har qanday davlat ham xalqaro mehnat taqsimotida o‘zining ixtisoslashuvini belgilari ekan, ko‘rsatib o‘tilgan resurslarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti har bir mamlakat iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvi (qo‘silishi) va uning tarkibiy qismiga aylanishini ta’minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, turli mamlakatlar iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti natijasida yakkalangan holatdan chiqib, davlatlararo xo‘jalik tizimiga kirib boradi. Bu jarayon milliy doiradagi xo‘jaliklar va alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilarni umumjahon bozoriga tortadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining takomillashib borishi mamlakatlardan o'rtasida fan-texnika, ishlab chiqarish, savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'ta boshlagan O'zbekiston uchun xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnnini topib olish va jahon bozorining faol ishtirokchisiga aylanish naqadar muhim vazifa ekani endi o'quvchiga ma'lum bo'lgani shubhasizdir.

O'zbekiston Respublikasi maydoni bo'yicha jahon davlatlari orasida 55-o'rinni egallaydi. Uning maydoni Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi yetakchi mamlakatlardan kattaroq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, sayyoramizning umumiy yer maydoni 135,6 million kv.km.ni tashkil etadi. O'zbekiston ulushiga uning 0,3 foizi to'g'ri keladi. Mamlakatimiz Osiyo qit'asining 1 foiz maydonini egallaydi.

O'zbekistonda tabiiy resurslar salohiyati ko'p tarmoqli xo'jalikni rivojlantirish uchun yetarli bo'lib, uning tarkibida energetika va boshqa tayanch tarmoqlarni yuksak sur'atlar bilan rivojlanishiga imkon beruvchi boyliklar salmoqli o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda jahon oltin zaxirasining 5 foizi, tabiiy gazning 2 foizi mavjud. Qator rangli metallar va uran zaxiralari bo'yicha ham O'zbekiston jahonda yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Umuman olganda, mineral xomashyo resurslarining aniqlangan zaxiralari 3 trillion dollardan ko'proq deb baholanmoqda.

O'zbekiston bir qator sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha jahon miqyosida ajralib turadi. Mamlakatimiz qorako'lning umumjahon miqdorining deyarli choragini, paxta tolasining 7 foizini, qazib olinayotgan oltin va tabiiy gazning 3 foizini, ipak xomashyo va quruq mevalarning 2 foizini, uzum, kanop, junning taxminan 1 foizini ishlab chiqaradi. Aviatsiya texnikasi, oltingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar, rangli metallar, kalava ip, gazlamalar, o'simlik yog'i, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishda ham O'zbekiston muayyan ulushga ega. O'zbekiston sanoatinining ayrim tarmoqlari texnikaviy murakkab mahsulotlar ishlab chiqara oladi.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari ichida 3-o'rinda va jahon miqyosida gaz qazib chiqaruvchi yirik davlatlar o'nligida, oltin zaxiralari bo'yicha 4- va uni qazib chiqarish bo'yicha 7-o'rinda, uran zaxiralari bo'yicha 7, kumush ishlab chiqarish bo'yicha 11-o'rinda turadi.

Ko'rrib turibdiki, O'zbekiston bir qator tovarlar ishlab chiqarish va ular bilan jahon bozorida qatnashish uchun katta eksport salohiyatiga ega. Binobarin, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va tarkibiy qayta qurishda tashqi bozorga ko'proq mahsulotlar chiqarish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuni e'tiborga olib, O'zbekistonda davlat mustaqilligining ilk davridan boshlab mamlakatimiz Prezidenti

I.A.Karimov hukumatning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishlarini faollashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Hukumatning bu sohada olib borayotgan siyosati savdo balansida ijobiy saldoga erishish, eksport va importning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda, tayyor mahsulotlar eksportini keskin oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlatlar, hududlar va alohida shaxslar u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashib, uni keyinchalik boshqa buyumga almashitishdan faqat yutadilar. Chunki mamlakatlar, birinchidan, tabiiy va mehnat resurslari hamda sarmoyalar bilan ta'minlanganliklariga ko'ra bir-birlaridan ancha farq qiladilar, ikkinchidan, turli tovarlarni birdek samarali ishlab chiqarish uchun yetarli texnologik imkoniyatlarga ega emaslar.

Masalan, Yaponiya tabiiy resurslarga ega bo'limgan holda yuqori malakali ishchi kuchiga ega, shu sababli u yuqori malaka talab qildigan ko'plab tovarlarni kam mehnat sarf etib tayyorlashi mumkin. Aksincha, Avstraliya katta resurslarga ega bo'lgan holda yetarli mehnat resurslari va kapitalga ega emas. Shuning uchun u yerda bug'doy, guruch, go'sht yetishtirish samaraliroqdир. Braziliyada arzon kofe yetishtirish uchun hamma sharoit yetarli bo'lsa, Kanada arzon bug'doy yetishtirish imkoniyatiga ega.

Vaqt o'tishi bilan mamlakatning turli tovarlar ishlab chiqarishdagi imkoniyatlari va samaradorligi o'zgarishi mumkin. Masalan, biror davlat asosan xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, keyinchalik ishchi kuchi sifatining o'sishi, asosiy kapitalning ko'payishi natijasida sanoat mahsulotlari, tayyor tovarlar ishlab chiqarishi mumkin. Masalan, Ittifoq davrida O'zbekistonda yetishtirilgan paxtadan olingen tolaning 4—4,5 foizigina mamlakatda qayta ishlangan bo'lib, uning asosiy qismi arzon baholarda ko'proq Rossiya ip-gazlama korxonalariga yetkazib berilgan va boshqa xorijiy davlatlarga sotilgan edi. Endilikda mamlakatga ko'p miqdorda xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi tufayli paxta tolasidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni jahon bozoriga olib chiqish yildan yilga ko'payib bormoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti va tovar ayriboshlashda mamlakatlar, yuqorida ta'kidlanganidek, bir xil imkoniyat va sharoitlarga ega emaslar. Bu hol ularning jug'rofisi joylashuvi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxiralari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiyotning tuzilishi, ichki bozorning hajmi kabi omillar bilan belgilanadi.

Ana shu omillar ta'sirida turli mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlichcha bo'ladi. Shuning uchun har bir mamlakat jahon bozorida o'zida ishlab chiqarish uchun xarajat ko'proq bo'ladigan, tabiiy yoki boshqa sharoitlarga ko'ra,

umuman, o'zida ishlab chiqarib bo'lmaydigan tovarlarni sotib olishga intiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida paxta xomashyosini ishlab chiqarish katta o'rinn egallaganligi sababli, mamlakatning tashqi savdo hajmi va balansi ham ko'p jihatdan ushbu mahsulotni ishlab chiqarish hajmiga bog'liq. 2002- yilda mamlakatimizdan tashqi bozorga chiqarilgan tovarlar hajmi 3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, shundan 22,4 foizi paxta tołasi hissasiga to'g'ri keldi. Undan 5 yil muqaddam, ya'ni 1998- yilda paxta tołasini eksport qilishdan tushgan valuta mablag'lari jami eksportning 38,6 foizini tashkil etgan edi. Paxta tołasini mamlakat ichida qayta ishslash hajmlari ko'paygani uni eksport qilish birmuncha kamaydi.

Paxta tołasining eksportdagि ulushining kamayishi kelajakda ham saqlanib qolishi mumkin. Chunki u tayyor mahsulot emas, balki xomashyo hisoblanadi. Chetga, ya'ni jahon bozoriga xomashyo chiqarishga qaraganda, tayyor mahsulot chiqarish ko'proq foyda keltiradi. Bu haqda respublika Prezidenti I. A. Karimov ham ko'p marta uqtirib o'tgan. Shuning uchun tayyorlanayotgan paxta tołasining tobora ko'proq qismini mamlakatimizda qayta ishlab, undan tayyor gazlamalar va kiyim-kechaklar tayyorlash, mamlakat ehtiyojlaridan ortig'ini eksport qilish strategik vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston eksportida elektr energiya va yonilg'i, kimyo mahsulotlari, rangli metallar, mashina va uskunalar, yengil avtomobillar, oziq-ovqat mahsulotlari ham salmoqli o'rinn egallaydi. Eksport salohiyati mavjud bo'lgan tarmoqlarga yirik sarmoyalarning kiritilishi tufayli eksportbop mashinalar, nest mahsulotlari va paxtadan tayyorlanayotgan mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamlari yildan yilga ko'payib bormoqda.

O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari MDH mamlakatlari bilan bir qatorda AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Malayziya, Shveysariya, Belgiya va boshqa o'nlab mamlakatlар bilan ham yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida Rossiya muhim o'rinn egallab kelmoqda. Ikki davlat o'rtasida imzolangan „1998—2007- yillarda iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish haqida“gi shartnoma ikki tomonlama rivojlanishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlар bilan savdo aylanmasi kengayib bormoqda. O'zbekistonning Sharq va G'arbni bog'lovchi mintaqada joylashganligi tashqi savdo aloqalarining izchil ravishda olib borilishiga sharoit yaratadi. 1996- yil 21- iyunda Florensiyada Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. 1999- yilga kelib mazkur shartnoma Yevropa Ittifoqiga kirgan

barcha mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingach, kuchga kirdi hamda O'zbekiston tovarlari uchun Yevropa bozorlariga yo'l ochildi.

O'zbekiston xalqaro transport kommunikatsiyalarini qurish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Bu loyihalarni amalga oshirish natijasida O'zbekistonning Yevropaga, Fors qo'llitig'iga, Hindiston, Yaponiya va Tinch okean mintaqalariga chiqishiga va jahon hamjamiyati bilan tashqi aloqlarni mustahkamlashiga katta imkoniyatlar tug'iladi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy hamkorlik sohasida obro'-e'tibori yildan yilga ortib borayotganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Hozircha mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotida kuzatuvchi maqomiga ega. Bu tashkilot jahon savdo tizimini tartibga solishda markaziy o'rinni egallaydi. Jahon savdosining 95 foizidan ortig'i unga a'zo mamlakatlarga to'g'ri keladi. Hozirgi paytda O'zbekistonning mazkur tashkilotga qabul qilinishi masalasi o'r ganilmoqda. Unga a'zo bo'lish O'zbekistonga dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlari bilan mustahkam savdo aloqlari o'rnatishiga va o'zining tovarlari bilan jahon bozorlariga hech qanday to'siqlarsiz chiqishiga imkon yaratadi.

### **13.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning turlari**

Bozor munosabatlara asoslangan mamlakatlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyat hayotiy zaruratdir. Umumjahon xo'jaligi tobora rivojlanib, takomillashib borgani sari mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning doirasi va ko'lami ham kengaya boradi. Mamlakat iqtisodiyotining umumjahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi (qo'shilishi)ning asosiy sharti ham tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishidir.

*Tashqi iqtisodiy faoliyat* deganda, mamlakatdagi yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari hamda xalqaro tashkilotlar bilan olib boradigan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalari (faoliyati) tushuniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanganlik darjasи, asosan, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, davlatning tashqi siyosati va strategiyasiga bevosita bog'liqdir. Har qanday davlat o'zining tashqi iqtisodiy faoliyat strategiyasini ishlab chiqar ekan, o'z xalqining turmush darajasini oshirish, mamlakatning mudofaa xafvsizligini ta'minlash kabi hayotiy manfaatlarni ko'zlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning subyektlari va obyektlari mavjuddir. Bunday faoliyatni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning obyektlariga esa oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti hisoblangan tovarlar (ishlar, xizmatlar),

har qanday mol-mulk, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar, valutalar va valuta qimmatliklari, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari va intellektual mulk obyektlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining „*Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida*“gi Qonuniga ko'ra, bunday faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- chet el investitsiyalarini jalb qilish;
- tashqi savdo faoliyati;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsion faoliyat.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan ishlab chiqarish, moliya, bank va sug'urta, ta'lif va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog'liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya va gumanitar sohalarda xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati *xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik* deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsion faoliyat yo'nalishi hozircha mamlakatimizda o'z rivojini topa olgani yo'q. Xorijiy mamlakatlarda yuridik shaxslar yoki ularning filiallarini tashkil etish, xorijiy kompaniyalarining mol-mulki va aksiyalarini, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqini qo'lga kiritish, tabiiyki, katta miqdordagi erkin almashtiriladigan xorijiy valuta egalariga nasib etadi. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, o'ylaymizki, yaqin yillar ichida o'z nati-jalarini beradi va o'zbekistonlik sarmoyadorlar xorijiy mamlakatlarda keng ko'lami faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

Mamlakatlararo tovarlar ayirboshlash sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini *tashqi savdo faoliyati* deb yuritiladi. Shuni aytib o'tish joizki, tashqi iqtisodiy faoliyatning bu yo'nalishi eng qadimi, an'anaviy va keng rivojlangan yo'nalish hisoblanadi.

Tashqi savdo jahon xalqlarini turli tovarlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi va shu bilan birgalikda har bir mamlakatning ixtisoslashuvini rivojlantirish, o'z resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro savdoda millatning didi, qiziqishi va mamlakat aholisining xarid qilish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'zbeklar yaxshi kiyinishni yoqtiradigan va o'ziga zeb beradigan millatlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham mamlakatga chetdan keltirilayotgan tovarlarda xushbichim kiyim-kechag-u zamonaviy matolarning ulushi kattagina. Qadimdan xalqimiz mentalitetida ilm olish ishtiyoqi kuchli bo'lgan, shu sababdan istiqlol yillarda ta'lif davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bunday sharoitda Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi

rivojlangan davatlardan zamonaviy kompyuterlarni sotib olishga katta mablag'lar sarflanmoqda.

Shuni aytib o'tish kerakki, xalqaro savdo, ya'ni tovarlarni chetga chiqarish (eksport) va chetdan tovar keltirish (import) bizning mamlakatimizda juda qadim zamonlardan buyon mavjud.

„Buyuk ipak yo'li“ ning anchagini qismi mamlakat hududidan o'tgani tufayli tadbirdor ajodolarimiz xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini yaxshigina rivojlantirganlar va uni xalqaro savdoda jozibador mamlakatlardan biriga aylantirganlar.

Tashqi (xalqaro) savdoning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rnnini yalpi milliy mahsulotda eksport va importning hissasiga qarab aniqlash mumkin. Umuman olganda, mamlakat iqtisodiy ahvoliga baho berishda import va eksport o'rtasidagi nisbatni aniqlash zarurati yuzaga keladi. Ushbu nisbat mamlakatning to'lov balansini tuzayotganda aniqlanadi. Savdo balansi to'lov balansining tarkibiy qismi hisoblanadi. To'lov balansini umumilashtiruvchi ko'rsatkich uning saldosi hisoblanadi. U import va eksport orasidagi farqqa teng. Balansda importning eksportdan oshib ketishi to'lov balansini manfiy saldog'a ega ekanligidan dalolat beradi. U tashqi savdo defitsitiga olib keladi. Uni to'lash uchun davlat qarz oladi. Qarzni to'lash uchun esa ichki iste'mol kamaytiriladi.

Tashqi savdoning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omil eksport va import mahsulotlarining tarkibi, ya'ni mamlakat nimani chetga chiqaryapti-yu, nimani chetdan olib kelayotganidir. Chetdan sotib olinayotgan tovarlar ichida qayta ishlashga mo'ljallangan xomashyoning ulushi qancha katta bo'lsa, shu mamlakatda importdan ko'rildigan naf shuncha yuqori bo'ladi. Chetga chiqarilayotgan tovarlar ichida xomashyoning ulushi qancha ko'p bo'lsa, shu mamlakat eksporti shuncha samarasiz bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining eksportida paxta toiasi ulushining yildan yilga kamayib borayotgani shu nuqtayi nazardan ijobjiy tendensiya hisoblanadi. Jahon bozoriga tayyor gazlama, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari, neft mahsulotlari chiqarishni ko'paytirish ham tashqi savdo sohasida ijobjiy baholanayotgan yo'naliishlar hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar mavjud.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonning import tarkibi ham jiddiy o'zgardi. Bunga, albatta, mamlakatda import o'mini bosuvchi tovar ishlab chiqarishga qaratilgan siyosat katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, energiya manbalari importining ulushi 1995—2002- yillarda 1,9 foizdan 1,3 foizgacha, oziq-ovqat mahsulotlari 18,2 foizdan 12,5 foizgacha qisqardi. Neft, benzin importi butunlay to'xtadi, don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari importi sezilarli darajada qisqardi.

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'naliishlaridan biri—iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarga erishishdan iborat. Bu esa zamonaviy va ilg'or texnika

hamda texnologiyalarni talab qiladi. Shu sababli mamlakatimiz importida mashina va uskunalar salmog'i yildan yilga ortib bormoqda.

Eksport hajmining import hajmidan ko'pligiga erishish, ya'ni xorijiy davlatlarga ko'proq tovarlar sotib, ulardan kamroq sotib olish har qanday davlat tashqi savdo strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Izchillik bilan amalga oshirilayotgan tashqi savdo siyosati tufayli O'zbekistonda keyingi yillarda musbat saldoga erishildi. Masalan, eksport hajmi import hajmiga nisbatan 1999- yilda 125,1 mln. va 2002- yilda 276,4 mln. AQSH dollari miqdorida ko'proq bo'ldi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining hududiy-jug'rosiy tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda MDH davlatlari ulushining pasa-yayotgani va rivojlanayotgan davlatlar salmog'ining o'sayotganini kuzatamiz. 1995–2002- yillarda MDH davlatlarining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi hissasi 43,5 foizdan 36,9 foizgacha qisqargan bo'lib, bunga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan.

*Birinchidan*, respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z mahsulotlarini nafaqat MDH davlatlariga, balki jahonning boshqa mamlakatlarga erkin almashinadigan valutada sotish imkoniyatiga ega bo'ldi.

*Ikkinchidan*, o'tish davri va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirayotgan respublikamiz uchun ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni, aynan rivojlangan mamlakatlardan sotib olish mumkin. Iqtisodiyotining tarkibi bir-biriga yaqin bo'lgan MDH davlatlarida bunday texnika va texnologiyalar mavjud emas.

Mustaqillik yillarda rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning muhim yo'nalishlaridan biri bevosita xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'ldi. Bu tabiiy hol, albatta. Negaki o'tish davrini boshidan kechirayotgan va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda investitsiyalarning yetishmasligi kuzatiladi. Bunday yetishmovchilikni faqat bevosita xorijiy investitsiyalar vositasida to'ldirish mumkin edi. Bu esa har ikkala tomon uchun manfaatli. Rivojlangan mamlakatlar uchun bevosita investitsiyalar kapital chiqarish shakli hisoblansa, ularni qabul qilayotgan mamlakat uchun yangi ish joylarini tashkil etish, yangi sanoat tarmoqlarini shakllantirish va rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni jalb etish hisoblanadi.

Tashqi savdoning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini kuchaytirish manfaatlaridan kelib chiqib, mamlakatimizda eksportni har tomonlama rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2000- yilning 1- iyulidan boshlab mulkchilikning barcha shakllaridagi eksport qiluvchi korxonalarining o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilingan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)dan olingan daromadlari daromad

(foyda) solig'ini to'lashdan ozod qilingan. Ular uchun, shuningdek, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksporti ulushiga qarab mulk solig'i to'lashning quyidagi tartibi joriy etilgan:

—eksport ulushi 25 foizdan 50 foizgacha bo'lganida, belgilangan mulk solig'i stavkasi 50 foizgacha kamaytiriladi;

—50 va undan ko'proq foiz bo'lganida, mulk solig'i umuman undirilmaydi.

Biroq shuni aytib o'tish kerakki, mazkur imtiyozlar paxta tolasi, ip gazlama kalavasi, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbaho, rangli va qora metallarni eksport qiluvchi korxonalarga tatbiq etilmagan.

Yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va uning ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish zaruratini anglash qiyin emas. Chunki mamlakatga chetdan nimalar keltirilayotgani va mamlakatdan xorijga nimalar olib chiqib sotilayotganiga befarq qarash mumkin emas.

Ana shu mulohazadan kelib chiqib, tashqi savdoni amalga oshirishda miqdoriy cheklolar belgilangani va tovarlarning ayrim turlarini eksport va import qilish ustidan davlat nazorati o'rnatilganini aytib o'tish lozim.

Qurol-yarog'lar, harbiy texnika, ikki xil maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan tovarlar va texnologiyalarga nisbatan nima uchun eksport nazorati o'rnatilganini ham tushunish qiyin emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati uning iqtisodiy va mudofaa xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy suverenitetini himoyalash, milliy iqtisodiyotning rivojini rag'batlantirish va xalqning turmush darajasini oshirishga qaratilgandir.

### **13.3. Tashqi savdoni tartibga solishda bojxona xizmatining o'rni**

Savdo-sotiq ishlarining bir mamlakat doirasidan chiqib, dunyo mamlakatlari o'rtasida rivojlanib borishi bu ishlarni tartibga solish va nazorat qilib borishni amalga oshiruvchi bojxona xizmatini hayotiy zaratutga aylantiradi.

Jahon amaliyotida bojxona xizmatining tarixi tashqi savdoning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, dastlabki davrlarda u mamlakatlarning faqatgina xazinasini to'ldirishga xizmat qilgan edi. Biroq keyinchalik xalqaro savdoning rivojlanishi, sayyoohlар sonining ko'paya borishi bilan uning vazifalari ham kengayib ketdi. Davlatchilik takomillashib, iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan tovar ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan himoyalash, mamlakat ichki bozorini sifatsiz mollardan asrash, uning xavfsizligiga tahdid

solvchi qo'lyozma va ashyolarning hamda turli qo'poruvchilik qurollari, narkotik va psixotron moddalar kirib kelishining oldini olish bojxona xizmati zimmasiga tushadi.

O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmati mustaqil davlatchilik asoslari bilan birga va uning tarkibiy qismi sifatida shakllanib va takomillashib bormoqda. O'tgan yillar ichida bojxona xizmati faoliyatiga daxldor bo'lgan huquqiy negizlar yaratildiki, ular isloh qilinayotgan iqtisodiyot, hayotga joriy etilayotgan demokratik tamoyillar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynameqdida. Xususan, O'zbekiston Respublikasining „Bojxona kodeksi“ va „Boj tarifi to'g'risida“ gi Qonuni qabul qilindi. Ularda bojxona xizmatining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan tartibga solib turilishini ta'minlovchi asosiy tamoyillar belgilab berildi.

Hozir mamlakatimizda 230 dan ziyod, shu jumladan, respublika chegaralarida 150 tadan ko'proq bojxona maskanlari davlatimizning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlayapti. Ayni paytda temiryo'l stansiyalari, aeroportlar, xalqaro o'tish joylari, daryo portlarida nozirlar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

O'zbekistonda bojxona ishi jahonda e'tirof etilgan xalqaro me'yorlar va amaliyotga asosan rivojlanmoqda. Bu hol O'zbekistonning bojxona huquqi subyekti sifatida tan olinishiga sabab bo'lib, davlatimizning Jahon Iqtisodiy Hamdo'stligiga kirishiga yordamlashmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1992- yilda 142 mamlakatni birlashtiruvchi Jahon Bojxona Tashkiloti (GBT) a'zoligiga qabul qilingan va uning siyosiy komissiyasiga saylangan.

*Bojxona* chegara orqali o'tadigan jami yuklar va pochta jo'natmalari nazorat qiladigan, tekshiradigan va ulardan bojxona yig'imlarini undirish bilan shug'ullanuvchi davlat idorasidir.

Bojxona muassasalari tashqi savdoda mamlakat manfaatlarining ta'minlanishini nazorat qiladi hamda mamlakat chegaralaridan taqiqlangan yuklar va buyumlarni g'ayriqonuniy tarzda olib o'tishga qarshi kurash olib boradi.

Iqtisodiy islohotlar chuhurlashib borgan sari tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning iqtisodiy usullari tobora ko'proq ahamiyat kasb etadi. Ular orasida boj tarifi asosiy o'rinn egallaydi. *Boj tarifi*—bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning muhim vositalaridan biri bo'lib, u mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan belgilangan stavkalarda undiriladigan pul yig'imlari (to'lovlari)dir.

O'zbekiston Respublikasida bojxona bojining import va eksport, mavsumiy, maxsus, dempingga qarshi, kompensatsiya va alohida turlari qo'llaniladi.

Import va eksport bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda joriy etiladi.

*Mavsumiy bojlar* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkorlik bilan tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan stavkalar qo'llaniilmaydi.

*Mavsumiy bojlar* belgilangan kundan e'tiboran olti oydan ortiq bo'limgan muddatda qo'llaniladi.

*Maxsus bojlar* mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari manfaatlariiga ziyon yetkazuvchi tovarlar importidan ularni himoya qilish chorasi sifatida hamda boshqa davlatlarning O'zbekiston Respublikasi manfaatlariiga zid bo'lган harakatlariga javob chorasi sifatida qo'llaniladi.

Muayyan tovarlarni olib kirish xuddi shu tovarlarni mamlakatda ishlab chiqarishni tashkil qilish va kengaytirishga yoki ular o'rtasida sog'lom raqobat o'rnatishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lган hollarda *dempingga qarshi bojlar* deb ataluvchi to'lovlar qo'llaniladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida va alohida tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlardan kelib chiqib, ayrim hollarda *kompensatsiya bojlari* deb ataladigan to'lovlar ham amaliyotga joriy etilgan.

*Alohida bojlar* qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan tekshiruv natijalariga binoan qo'llaniladi. Ularning stavkalari har bir holat bo'yicha alohida belgilanadi.

Bojxona qiymati O'zbekiston Respublikasining „Boj tarifi to'g'risida“gi Qonuniga muvofiq belgilanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblab chiqish maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.

Bojxona qiymati bojxona organiga deklarant tomonidan belgilangan tartibda ma'lum qilinadi (deklaratsiyaga kiritiladi). Uni aniqlash hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanishi lozim.

Mamlakatga olib kirilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini shu to'lovlar bo'yicha tuzilgan shartnomaga muvofiq aniqlash bu—tovarning bojxona bahosini chiqarishning asosiy usulidir.

Agar asosiy usuldan foydalanib bo'lmasa, bojxona bahosini chiqarishning quyidagi usullari qo'llaniladi:

—ayni bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash;

—o'xhash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash va hokazo.

Davlat o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatini *tarif va notarif usullar* bilan boshqarib boradi. *Notarif usul* deganda, litsenziya berish, kvotalash, deklaratsiyalash va embargolarni qo'llash tushuniladi.

*Litsenziya*—vakolatli davlat idoralariga tashqi savdo harakatlarini olib borish uchun beriladigan ruxsatnoma bo'lib, u eksport va importni, valuta sarflarini nazorat qilish usullaridan biridir.

Ayrim yoki bir guruh tovarlar bo'yicha kvota (muayyan miqdor, hajm) o'rnatilib, unga muvofiq mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhining belgilangan miqdordagi tovarlarni ishlab chiqarish va uni chetga sotish *kvotalashgan usul* deb yuritiladi. Kvota shartini buzgan mamlakat yoki korxona iqtisodiy jihatdan jazolanadi.

Bu usul hozir Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga qarashli mamlakatlar tashqi savdo amaliyotida keng qo'llaniladi.

*Deklaratsiyalash* bu—milliy qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtiriladigan hujjat bo'lib, unda chegara orqali o'tayotgan yuk (eksport, import tovarlari, kishilarga tegishli yuklar, qo'lidagi anjomlar, valuta, qimmatbaho buyumlar va boshqalar) haqidagi ma'lumotlar qayd etiladi.

*Embargo* davlat tomonidan ayrim tovarlar, xizmatlar, valuta yoki boshqa boyliklarni mamlakatga keltirish yoki boshqa mamlakatlarga chiqarishni taqiqlab qo'yishdir.

*Tarif usuli* deganda, asosan, boj tarifi va boj tariflari to'plamini qo'llash tushuniladi. Bu usul bilan, eng avvalo, davlat xazinasiga mablag' tushiriladi, eksport va import tovarlarining harakati muvofiq lashtiriladi.

Tarifsiz chora-tadbirlarning ayrimlari iqtisodiy aloqalarni tartibga solish bilan bevosita bog'lanmagan, ammo baribir, tashqi savdoga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Tartibga solishning tarifsiz usullari mohiyatiga ko'ra ma'muriy bo'lib, u bиринчи galda iqtisodiy faoliyat to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. Tartibga solishning tarifsiz usullari davlatning savdo balansi va fiskal maqsadlarini belgilash imkonini beradi.

Bojxona to'lovlari faqatgina xazinani to'ldirish maqsadida qo'llanilmay, balki ichki iste'mol bozorini va ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy himoyalash vazifalarini ham bajaradi. Masalan, O'zbekistonning iqlim sharoitida poliz mahsulotlari juda sifatli va vitaminlarga boy. Bunday sharoitda chetdan, aytaylik, pomidor import qilishning hech ham hojati yo'q. Lekin ayrim savdogarlar uchun sifatsiz arzon tomat soki yoki pastasini (ketchup) chetdan olib kelish foydali bo'lib tuyuladi. Buning oldini olish uchun import qilinadigan ana shunday mahsulotlar uchun import bojidan tashqari aksiz solig'i ham joriy etiladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga hamda uning xalqaro maydondagi mavqeyiga mos tushishi lozim. Ana shundagina tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish vazifalari va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash samarali hal etilishi mumkin.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra har qanday davlat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylanib qoldi. Shuning uchun xo‘jalik aloqalarini xalqaro miqyosda integratsiyalashuvini kengaytirish va chuqurlashtirishga berilayotgan e’tibor tobora kuchayib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni taraqqiy ettirish mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan respublikamiz uchun, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan vaqtida O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa qilish imkoniyatidan mahrum edi. Xo‘jalik yuritishning yopiq sharoitida mamlakatga chet el sarmoyalalarini jalb qilish to‘g‘risida faqat orzu qilish mumkin edi, xolos. Ishchi kuchining xalqaro miqyosda migratsiyasi mutlaqo rivojlanmagan edi. Shuning uchun o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar eng qisqa muddatlarda O‘zbekistonning jahon xo‘jalik tizimiga teng huquqli a’zo bo‘lib kirishi va barcha mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishini ta’minlashga qaratilgan.

Bu bir tomondan yangi texnologiyalarni, boshqarish tajribasi va bilimlarni, xorijiy sarmoyalarni mamlakatimizga olib kirilishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, O‘zbekistonning boy tabiiy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Jahoning 40 dan ortiq yirik davlatlari qatorida xomashyoning katta zaxiralariga, sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining rivojlangan tarmoqlariga, shuningdek, shakllangan ishchi kuchiga ega bo‘lgan mamlakatimizning jahon bozoridagi dastlabki qadamlari o‘zining samarasini bera boshladи.

XX asrning so‘nggi yillarida jahoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotidagi tub sifat o‘zgarishlarining kuchayib borishi xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichida quyidagi xususiyatlarni belgilab beradi:

*Birinchidan*, xalqaro ayrboshlashning tarkibiy tuzilishi sezilarli darajada o‘zgardi: mamlakatlar mahsulotlar ayrboshlashdan tashqari turli xil xizmatlar, moliya kapitali, ishchi kuchi, fan-texnika axborotlari, yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari va boshqalar bilan faol savdo-sotiq olib borishga o‘tdilar.

*Ikkinchidan*, kapitalni chetga chiqarilishining ko‘payishi va mamlakatlar o‘rtasida ayrboshlashning kengayishi zamонави y xalqaro iqtisodiy aloqalarni mamlakatlararo uyg‘unlashuviga olib keldi. Bunday xususiyat o‘z faoliyatini bir qancha davlatlar hududida amalga oshiradigan transmilliy korporatsiyalar (TMK) va transmilliy banklar (TMB) sonining ko‘payib borishida o‘z aksini topdi.

Hozirgi vaqtida jahonda 20 mingdan ortiq TMK mavjud bo'lib, ular jahon sanoat ishlab chiqarishining to'rtadan uch qismidan ko'prog'ini, tashqi saydoning esa yarmidan ko'prog'ini nazorat qilib turadi. Masalan, „Djeneral Motors“, „Royl Datch Shell“, „Epson“ kabi yirik TMKlar oboroti hajmi O'zbekistonda yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdoridan ortiqdir. O'z ixtiyorida behisob moddiy va moliyaviy qudratni jamlagan bunday korporatsiyalar va banklar ko'pchilik mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

*Uchinchidan*, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy bosqichida yana bir muhim xususiyat namoyon bo'ldi, ya'ni ayirboshlashda mamlakatlar tutgan o'rnnini qayta taqsimlash jarayoni sodir bo'immoqda.

Hozirgi kunda jahon xo'jaligi va xalqaro ayirboshlashning umumiy yo'nalishlari va o'sish sur'atlarini rivojlangan mamlakatlar belgilab turadi. Bu mamlakatlar yer yuzidagi davlatlarning 15 foizini tashkil etadi hamda ularda jahon aholisining 25 foizi istiqomat qiladi. Bu mamlakatlar dunyoda hosil qilinayotgan elektr quvvatlarining 75 fazini, yoqilg'ining 80 foizi, yog'och mahsulotlarining 85 foizi va po'latning 72 foizini iste'mol qilishadi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning o'zaro savdosi jahon savdosining 70 foizini tashkil etadi.

Ma'lumki, yaqin o'tmishta mamlakatimiz iqtisodiyoti sobiq ittifoqdosh respublikalar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langan edi. Shu bois, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati hozirgi kunda ikkita yo'nalish bo'yicha rivojlanib bormoqda. Ulaming birinchisi MDH mamlakatlari deb ataluvchi sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan bo'lsa, ikkinchisi mamlakatimizning o'zaro iqtisodiy aloqalari ilgari umuman o'rnatilmagan xorijiy davlatlar bilan olib borilmoqda. Agar birinchi yo'nalish O'zbekistonni kam xarajatlar sarflab, keng ko'lamba xomashyo, tayyor mahsulotlar, texnologiyalar, fan-texnika axborotlari bozoriga kirib borishini ta'minlasa, ikkinchi yo'nalish respublika iqtisodiyotini keng ravishda jahon hamjamiyatiga birlashuvini ta'minlab beradi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi mamlakatimiz-dagi mavjud imkoniyatlarni obyektiv baholash va ulardan milliy manfaatlar yo'lida imkonli boricha to'liq foydalananishni talab qiladi.

*O'zbekiston mustaqillikning dastlabki davridayoq o'z tashqi iqtisodiy siyosatining quyidagi maqsadlari va asosiy yo'nalishlarini belgilab oldi:*

—eksportni rivojlantirish va uning oqilona tarkibini shakllantirish. Chunki eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish milliy ishlab chiqarishni texnik-iqtisodiy jihatdan jahon darajasiga ko'taradi, uning tuzilishini takomillashtiradi, respublika valuta zaxirasini ko'paytiradi;

—import tuzilishini takomillashtirish, ya’ni uni milliy iqtisodiyotni zamonaviylashtirish va rivojlantirish omiliga aylantirish;

—ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish uchun chet el sarmoyalarini jalb etish;

—O’zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, ya’ni ma’lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o’rnatish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib respublikamizning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan quyidagi tadbirlarni o’z ichiga oladi.

*Birinchidan*, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo’g’inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o’ringa ega bo’lishini ta’minlovchi sohalarni aniqlash.

*Ikkinchidan*, iqtisodiyotning eksport bo’g’inida davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilar:

—eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha ko'p muddatli kreditlar ajratish, investitsiyalarni sug’urtalash;

—davlat tomonidan respublikamizga ilg’or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarning kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;

—eksport va importni litsenziyalash yoki chetga tovar chiqarishga va chetdan uni olib kirishga ruxsatnomalar berish;

—ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valutani mustahkamlash va uning boshqa valutalar bilan erkin almashinuvini ta’minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatning me’yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**Karimov I. A.** O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., „O'zbekiston“, 1995.

**Karimov I. A.** Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura. 1-jild. T., „O'zbekiston“, 1996.

**Karimov I. A.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., „O'zbekiston“, 1997.

**Karimov I. A.** O'zbekiston—bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., „O'zbekiston“, 1993.

Amaliy iqtisodiyot (o'quv qo'llanmasi). Tarjimonlar: **I. Fozilov** va boshqalar. T., „Sharq“, 1996.

**Butikov I.** Qimmatli qog'ozlar bozori. T., Konsauditinform, 2001.

Курс экономики (учебник). M., „Инфра-М“, 2000.

**Rasulov M.** Bozor iqtisodiyoti asoslari. T., „O'zbekiston“, 1999.

**Ergashev T., Ismatov R.** Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T., „Sharq“, 2001.

**Юрьева Т.В.** Социальная рыночная экономика (учебник). M., „Русская деловая литература“, 1999.

**O'lmasov A.** Iqtisodiyot asoslari. T., „Mehnat“, 1997.

**O'lmasov A., Sharifxo'jayev M.** Iqtisodiyot nazariyasi. T., „Mehnat“, 1995.

## MUNDARIJA

<b>So‘zboshi .....</b>	3
<b>Muqaddima .....</b>	5
<b>I bob. Bozor iqtisodiyotiga kirish</b>	
1.1. Iqtisodiyot deganda nimani tushunamiz? .....	7
1.2. Ishlab chiqarish—iqtisodiyotning asosi .....	9
1.3. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot .....	13
1.4. Iqtisodiy tizimlar va ularning turlari .....	17
<b>II bob. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va tamoyillari</b>	
2.1. Bozor iqtisodiyoti tushunchasi va uning mohiyati .....	20
2.2. Bozor iqtisodiyotining taraqqiyot bosqichlari va turlari .....	23
2.3. Bozor munosabatlari va iqtisodiy raqobat .....	26
2.4. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari .....	29
<b>III bob. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyil- lari va o‘ziga xosliklari</b>	
3.1. Bozor munosabatlariga o‘tish va taraqqiyotning „o‘zbek modeli“ .....	34
3.2. Mulkchilik shakllaridagi o‘zgarishlar .....	37
3.3. Agrar munosabatlar islohoti .....	40
3.4. Narxlarni erkinlashtirish va bozor infratuzil- masini yaratish .....	43
<b>IV bob. Bozorni o‘rganish (Marketing)</b>	
4.1. Marketing deganda nimani tushunamiz? .....	47
4.2. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda marketingning roli .....	51
4.3. Strategik va xalqaro marketing .....	55
<b>V bob. Tadbirkorlik va biznes</b>	
5.1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati .....	60
5.2. Tadbirkorlik tamoyillari va turlari .....	65
5.3. Tadbirkorlik va biznes faoliyatining huquqiy asoslari .....	68
5.4. O‘zbekistonda kichik va xususiy biznesning rivojlanishi .....	72

6.1. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati va turlari .....	76
6.2. Korxona daromadlari va foydasi .....	79
6.3. Daromadlarning o'sishida mehnat unumdarligining roli.....	82

### **VII bob. Ishlab chiqarishni rivojlantirish omillari**

7.1. Ishlab chiqarish omillarining mohiyati .....	84
7.2. Tabiiy omil.....	88
7.3. Mehnat omili .....	9
7.4. Ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy darajasi .....	94
7.5. Ishlab chiqarishni boshqarish. Menejment .....	96

### **VIII bob. Aholi daromadlari va ularning o'sish omillari**

8.1. Aholi daromadlarining tarkibi va ularni tartibga solish .....	10
8.2. Ish haqi. Uning shakllari va tizimlari.....	106
8.3. Oila daromadining o'sish omillari .....	109
8.4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari .....	114

### **IX bob. Bozor iqtisodiyotining moliya tizimi .**

9.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari .....	118
9.2. Davlat budjeti. Uning shakllanishi va taqsim- lanishi .....	122
9.3. Soliqlar va soliq tizimi .....	124
9.4. Bozor iqtisodiyotida sug'urtaning roli .....	132
9.5. Qimmatli qog'ozlar bozori .....	134

### **X bob. Pul-kredit tizimi va banklar faoliyati**

10.1. Iqtisodiyotning amal qilishida pulning tutgan o'rni .....	14
10.2. Kredit va uning turlari .....	146
10.3. Banklar va ularning iqtisodiyotni moliyalashti- rishdagi roli .....	149
10.4. Bank kreditlari va foizlari .....	152

### **XI bob. Mehnat va mehnat munosabatlari. Bandlik**

11.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat faoliyati .....	157
11.2. Mehnat bozori va mehnat munosabatlari .....	160
11.3. Bandlik.....	16
11.4. Shisizlik haqida .....	16

## *VII bob. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish*

12.1. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli .....	172
12.2. Iqtisodiy taraqqiyotni bashorat qilish va rejalahtirish .....	177
12.3. Iqtisodiyotni boshqarish organlari .....	180
12.4. Bozor munosabatlарини yanada rivojlantirish zarurati .....	184

## *XIII bob. Xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy aloqalar*

13.1. Xalqaro mehnat taqsimotida O'zbekistonning o'rni .....	188
13.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning turlari .....	192
13.3. Tashqi savdoni tartibga solishda bojxona xizmatining o'rni .....	196
13.4. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarurati va asosiy yo'nalishlari .....	200
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	203

TOSHTURG'UN ERGASHEV

**BOZOR IQTISODIYOTI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun darslik.*

*To 'ldirilgan 2-nashri*

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi,  
Toshkent – 2005*

Muharrir *S. Mirzaxo'jayev*

Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*

Texnik muharrir *T. Greshnikova*

Musahhih *D. Umarova*

IB № 8466

2005- yil 2- martda original maketedan bosishga ruxsat etildi. Bichimi  
60x90  $\frac{1}{16}$ . „Tayms“ garn. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t.13,0.  
Nashr. t.12,4. 5000 nusxada bosildi. Buyurtma №4.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi. Toshkent, 700129. Navoiy ko'chasi, 30. // Toshkent, Yunusobod  
dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uv. Sharhnomalar № 07-193-2004.

65.011.3

E74

**Ergashev T.**

Bozor iqtisodiyoti: /Kasb-hunar kollejlari uchun darslik/to'ldirilgan 2-nashri. S. S. G'ulomov tahriri ostida. -T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2005. 208 bet.

BBK 65.011.3ya722